



TOSHKENT  
UNIVERSITETI  
AMALIY FANLAR

# *O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari*

*respublika ilmiy-amaliy  
anjumani materiallari*

**2023 yil 24 may**

ТОШКЕНТ – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI  
TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI**

**“O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari”**

respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

**“Актуальные вопросы истории Узбекистана”**

Материалы республиканской научно-практической  
конференции.

**“Actual issues of the history of Uzbekistan”**

Materials of the republican scientific-practical conference

**Toshkent -2023**

O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2023 yil 24 may. –Toshkent. 2023. – 209 b.

Ushbu to‘plamda 2023 yil 24 may kuni Toshkent Amaliy Fanlar universiteti Tarix kafedrasida o‘tkazilgan “O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanidagi maqolalar jamlangan.

Maqolalarda keltirilgan ma’lumotlar va mulohazalar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

MAS’UL MUHARIRLAR:

N.A.Egamberdiyeva, O.Raxmatullayeva

Tahrir hay’ati

S.Ulashova, N.Sultonova, D.Yusupova, Z.Ismatullayeva

Taqrizchilar:

O‘.M.Mavlonov, O‘.I. Abdullaev

Mazkur to‘plam Toshkent Amaliy fanlar universiteti Tarix fakulteti Uslubiy kengashi va Tarix kafedrasining majlisi qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

© Toshkent Amaliy fanlar universiteti. 2023.

# MUNDARIJA

## ***O‘ZBEKISTON TARIXINING ENG QADIMGI VA QADIMGI DAVRLARINING O‘RGANILISH MASALALARI.***

N.A.Egamberdieva	O‘ZBEKISTON TARIXIGA OID QADIMGI YOZMA YODGORLIKLAR VA ULARNING TAHLILI. (QADIMGI XORAZM MISOLIDA)	7
Z.A.Ilhomov	O‘ZBEK DAVLATCHILIGI QADIMGI DAVR TARIXINING TADQIQOT MASALALARI (MANBAVIY-METODOLOGIK MULOHAZALAR)	12
M. U.Matnazarova	QADIMGI XORAZM HUDUDIDAGI KO‘CHMANCHI CHORVADORLAR TARIXI TADQIQOTI MASALALARI	20
M. Atajanov	QADIMGI XORAZM SHAHARLARINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISH TARIXI.	26
Sh.Sh.Shavkatov	TOSH DAVRIDAGI MIGRATSIYA JARAYONLARINING AYRIM MASALALARI.	32

## ***O‘RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO TARIXI MASALALARI.***

D.M Yunusova	XORAZMSHOHLAR DAVLATINING IJTIMOIY VA IQTISODIY AHVOLI	37
B.A.Saidusmonov, N.R. Berkinbayeva	IX VA X ASRLARDA O‘RTA OSIYODA MUSTAQIL DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHI.	42
S.U. Ulashova	ЎРТА АСРЛАРДА ФАРҒОНА ВОДИЙСИДАГИ ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРГА ДОИР АЙРИМ МАЪЛУМОТЛАР	45

## ***AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRINING JAHON TARIXIDA TUTGAN O‘RNI***

A.Rahmatullaeva	MUNIDDIN NATANZIYNING «MUNTAXAB UT-TAVORIXI MUINIY” ASARI AMIR TEMUR SALTANATI TARIXINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA	51
Ш.Р. Алиева	КУЛЬТУРА В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ	57
H. X. G'ofurov	AMIR TEMURNING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI VA MARKAZIY DAVLAT BOSHQARUVINING TAKOMILLASHUVI	60
O. G‘. G‘ulamov	АМИР ТЕМУР ҲАМДА ТЕМУРИЙЛАР	67

N. E. Sulstonova	DAVRIDA SAN'AT VA MADANIYAT AMIR TEMURNING TARIXIDA	71
N. Sh. Berdaliev	NAQSHBANDIYA TARIQATINING O'RNI AMIR TEMUR SIYOSATIDA DIN VA DAVLAT MUVOZANATI	75
N.A.Buranova, N.Sh. Berdaliev	AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI VA SAN'ATINING JAHON MADANIYATI TARIXIDA TUTGAN O'RNI	80
M.K.Rashidova J.Sh.Elumurotov	AMIR TEMUR DAVRIDA MAMLAKATDA IJTIMOIY-IQTISODIY VAZIYATNING BARQARORLASHUVI.	85
N. Tangirova	THE DEVELOPMENT OF TRADE ROUTES DURING AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS PERIOD.	89
<b><i>XONLIKLAR DAVRIDA O'RTA OSIYO XALQLARI.</i></b>		
A.T. Zamonov	MADRASADA MUDARRISLIK QILGAN BUXORO AMIRLARI	94
A.X. Xudayorov	XONLIKLAR DAVRIDA O'RTA OSIYODA SOLIQLAR.	100
<b><i>CHOR ROSSIIYASI VA SOVET HUKUMATI DAVRI TARIXI</i></b>		
H. X. G'ofurov	XORAZM VA BUXORODA DEMOKRATIK HARAKATLARNING O'SIB BORISHI	104
A.X. Raxmankulova	O'ZBEKISTONGA MAJBURIY KO'CHIRILGAN XALQLAR TARIXIDAN	109
S. A. Kurbanova	THOUGHTS OF MAKHMUDXOJA BEKHBUDI ABOUT EDUCATION	113
Z.Z.Adxamova	TOSHKENT JADID MATBUOTINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI	117
G. S. Usmanova	MILLATNING SIYOSIY ONGINI YUKSALTIRISH YOHUD TARAQQIYPARLARNING TURKISTONDAGI FAOLIYATI	123
T. X. Jumaev	KOREYS MILLATI VAKILLARINING O'RTA OSIYOGA MIGRATSIYA JARAYONI. QATAG'ON QILINISH BOSQICHLARI HAMDA UNING OQIBATLARI	127
Z.E. Xalilova	SOVET O'ZBEKISTONI ISLOM DINIY	132

B.A. Saidusmonov	TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATIDA ULAMOLARNING O'RNI XX ASRNING 70- 80 - YILLARIDA TOSHKENT VILOYATI TRANSPORT TIZIMINING TARAQQIYOTI VA UNING AHAMIYATI	137
G. K. Mardiyeva	1925-1941 YILLARDA SAMARQAND VILOYAT XOTIN-QIZLARI TA'LIMI VA ULARNING SAVODXONLIK DARAJASI	142
Sh. Salimov	SOCIO-ECONOMIC STRATIFICATION OF THE POPULATION OF UZBEKISTAN	146

***O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI***

O.Rahmatullayeva	TARIX TA'LIMINI SIFATLI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI	161
D. T. Amridinova	MILLIY-MA'NAVIY MEROSDA KOMIL INSON HAQIDAGI QARASHLARNING TARIXIY-FALSAFIY ILDIZLARI	165
F. Ismatullaev	O'ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSATI VA XALQARO MUNOSABATLARI TARIXIDAN	168
D. B. Tojiyev	TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDA ILMIY – MADANIY HAMKORLIK	176
Sh. Yu. Salimov	XALQARO MEHNAT MIGRATSIYASIDA XOTIN-QIZLAR MASALASI VA UNING IJTIMOIY XUSUSIYATLARI.	183
Sh.U. Saydalieva	O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING INSTITUTSIONAL TIZIMI	190
B.M. Raxmanov	O'RTA OSIYO HUDUDLARIDA TARIXIY TADBIRKORLIKNING SHAKLLARI VA EVOLYUSIYASI	194
Z.Sh. Ismatullayeva	O'ZBEKISTONNING GERMANIYA BILAN HAMKORLIGI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALAR	199
Н. А. Бердиева	ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПОДГОТОВКИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1205
Sh. F. Axmedov	YANGI O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARNING YARATILISHI	210

**O'ZBEKISTON TARIXINING ENG QADIMGI VA QADIMGI  
DAVRLARINING O'RGANILISH MASALALARI.****O'ZBEKISTON TARIXIGA OID QADIMGI YOZMA  
YODGORLIKLAR VA ULARNING TAHLILI.  
(QADIMGI XORAZM MISOLIDA)**

**N.A.Egamberdieva  
Toshkent Amaliy fanlar universiteti  
t.f.d. prof.v.b.**

O'zbekistonning qadimgi davr tarixini o'rganishda yozma manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma manbalar orqali o'sha davr jamiyatining ijtimoiy turmush tarzi aniqlash va topilgan arxeologik manbalarning mohiyatini ochib berishda o'rni yuqori hisoblanadi. O'zbekistonning qadimgi davri bo'yicha yozma manbalar – Aveto, qadimgi yunon, rim va xitoy manbalar tadqiqotchilar tomonidan keng tahlil qilingan. Ular orqali qadimgi tarixning ko'pgina jihatlari yoritib berilgan. Bunday yozma manbalar bilan birgalikda hududning o'zidan topilgan yozma yodgorliklarning aniqlanishi va o'rganilishi tarixni yozishda, uning noma'lum jihatlari aniqlashda o'rni beqiyosdir. Qadimgi davrda O'zbekiston hududida oromiy yozuv asosida shakllangan qadimgi baqtriya, sug'd va xorazm yozuvlari shakllangan. Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida ko'plab yozma yodgorliklar aniqlangan. Ularning aksariati xo'jalik uchun yuritilgan hujjatlar hisoblanadi. XX asrda bu yozma yodgorliklar V.A.Livitskiy tomonidan o'qilgan.

O'zbekiston hududidan topilgan eng qadimiy yozma yodgorlik oromiy yozuvi asosida yozilgan Qoraqalpog'istonning Katta Oybuyirqal'a yodgorligidan topilgan. U mil.avv. V-IV asrlarga oid bo'lib, katta xum sirtiga qizil rang bilan tirnab yozilgan. Uni arxeolog M.M.Mambetullaev

topgan va lingvinist V.A.Livshich<sup>1</sup> tahlil qilgan. Olim uni oromiy yozuviga asoslangan xorazm yozuvi ekanligini asoslagan. Yozuv lotin yozuvida quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan: mrys (mry) XI h III III III, ya’ni 11 mari 9-x. Bu xurning sig‘imini bildirgan. Hajm o‘lchovi *mari* Eron, Parfiya, Misr va old Osiyoda keng qo‘llanilgan. Lekin ularning miqdori turlicha belgilangan<sup>2</sup>. Xorazmda 1 mari 16,5 yoki 17 litr bo‘lgan. Xumga 200 litrga yaqin suyuklik siqqan deb aniqlangan<sup>3</sup>. Xum qayta ta’mirlangach, unga suyuklik solinganda, 195,5 litr siqqan. Demak, xumga yozilgan o‘chov birligi bilan o‘tkazilgan tajriba bir biriga mos kelgan. Bu bilan biz, qadimgi Xorazmda foydalanilgan o‘chov birligi haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Shu davrlarga oid yozuv namunalari Xumbuztepa yodgorligidan ham topilgan. Yodgorlik Xazorasp shahridan 17 km sharqda, Amudaryoning chap sohilida joylashgan. Yozuv ostrak (sopol bo‘lagi)ga yozilgan. Ostrak oq angobga bo‘yalgan bo‘lib, yozuv uning ichki va tashqi qismiga yozilgan. Ostrakning uzunligi -6,3 sm., kengligi- 5,5 sm., qalinligi -1,2 sm. bo‘lgan. Tadqiqotchilar bu sopol idishni mil.avv. IV-II asrlarga oid deb qo‘rsatishgan<sup>4</sup>. Yozuv ostrakning tashqi qismida olti qator, ichki qismida 3 qator yozilgan, lekin ko‘p harflar o‘chib ketgan. Tadqiqotchilar saqlanib qolgan harflarni o‘qishgan va yozuvni quyidagicha tiklaganlar: “... [ olib kelindi?]: ... Xshum..., ... upan -10 ; ...-20; Se... ,... -10; Xvazenak..., ...-9; Xrutak birgalikda... .”<sup>5</sup> Ichki tomoni quyidagicha o‘qilgan<sup>6</sup>; “... 180...; ... mak-3; Sax...;... -3; Turak-3...”.

Lingvist V.A.Livshich ostrakda 4 ta ism- Xshum, Xrutak, Xvazenak, Turak yozilganligini qayd qilib, ularning ma’nosini taxlil qilgan. “Xshum”-

<sup>1</sup> Мамбетуллаев М.М. Городище Большая Айбуйиркала // В кн.: Археология Приаралья. Вып. 4. –Тошкент. 1990. –С.98-102.

<sup>2</sup> Мамбетуллаев М.М. Хум из городища Большая Айбугиркала с древнейшей надписью в Средней Азии // Вестник. ККО АН УзР. 1979. № 1. -С .47; Мамбетуллаев М. Городища Большая Айбуйиркала, –С. 99-100.

<sup>3</sup> Мамбетуллаев М.М. Городища Большая Айбуйиркала, –С.100.

<sup>4</sup> Мамбетуллаев М. Хумбузтепе-керамический центр южного Хорезма. //Археология Приаралья. Вып. II. – Тошкент. 1984. –С.36.

<sup>5</sup> Лившич В., М.Мамбетуллаев Острок из Хумбуз-тере.//Памятники истории и литературы Востока. –Москва. 1986. –С.36.

<sup>6</sup> Мамбетуллаев М. Хумбузтепе-керамический центр южного Хорезма, -С.36.

xorazmliklar e'tiqod qiladigan xudoning nomi, "Xrutak"- "yaxshi qurolga ega bo'lgan"-degan ma'noda, "Xvazenak" - "yaxshi joyga ega bo'lgan"- degan ma'noni anglatgan, "Turak"ni-"tur(turan)" so'zi bilan bog'laydi<sup>1</sup>. Ostrakdagi "h" harfi – o'lchov birligining birinchi harfi bo'lib, Nisa va Qo'shtepa yodgorliklaridan topilgan ostraklardagi "hin" o'chov birligi deb taxmin qilingan, u unning o'lchov birligi bo'lgan<sup>2</sup>. Ostrakning oltinchi qatoridagi "(x) rw (t) k m" yozuvini "Xrutak (olib keldi yoki oldi)...(un o'lchovi) yirik maydalangan" – degan ma'noni bergan. Demak, ostrakda Xumbuztepaga olib kelingan yoki olib ketilgan un miqdori, sifati, uni olib kelgan yoki olib ketgan odamlar haqida ma'lumot yozilgan.

Xumbuztepadan topilgan bu yozuv o'ziga xos xo'jalik hujjati bo'lgan. Bu hujjat misolida biz Xumbuztepaga olib kelingan yoki olib ketilgan narsalar hisob-kitob qilinib borilganligini va bu jarayonda kimlar ishtirok etganligini, olingan yoki olib kelingan narsalar miqdori aniq berilib, mahsulot sifati ham qayd qilib borilgan degan xulosa berishimiz mumkin.

Qadimgi Xorazmning Burliqal'a (mil.avv IV–III asrlar) Qo'yqirilganqal'a ( mil.avv IV –III asrlar), Govur-3, Qalali-3, Ayozaqal'a, Qal'aliqir-2 (mil.avv. III –II asrlar), Tuproqqal'a (milodiy II –III asrlar) kabi yodgorliklaridan suyakka, sopol parchalariga, teriga yozilgan yozuvlar topilgan. Burliqal'adan topilgan yozuv tuyaning bosh chanog'iga yozilganligi bilan ajralib turadi. Yozuvni arxeolog Yu.P.Manilov topgan. Tuyaning bosh chanog'iga qora rang bilan 10 qatorda ismlar yozilgan: Dahakinak (Daxlar qilichi), Asnivarnik (asni ga e'tiqod qiluvchi), Yastzenak (qurol bilan himoyalangan), Asbayak (da'vat qiluvchi), Xtumk (etimologiyasi noma'lum), Kanishtak (kichkina), Vayxay (xudodan nasibasiga ega bo'lgan), Xshumanak (Xshum xudosining nazariga tushgan),

<sup>1</sup> Лившич В., М.Мамбетуллаев Острак из Хумбуз-тепе, -С.38-39.

<sup>2</sup> Лившич В., М.Мамбетуллаев Острак из Хумбуз-тепе, -С.37.

Dyonik (dindor), Tovyavak (kuchli chorvaga ega)<sup>1</sup>. Lingvist V.A.Livshichning taxliliga ko'ra, bu yozuvlar oromiy yozuvidan farq qilgan va uni qadimgi Xorazm yozuvi deb ko'rsatgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l shahridan 22 km. shimoli-sharqida joylashgan Qo'yqirilgan qal'adan qadimgi Xorazm yozuvi namunalari topilgan. Ular sopol idishlarning sirtiga yozilgan. mil.avv.III asrga oid xumga yozilgan yozuv topilgan. Hozirgacha faqat bittasini o'qish imkoni bo'ldi. Yozuv qisqa bo'lib, u xurning tepa qismiga "aspabarak" ("otda ketayotgan", yoki "ot minib turgan") tarzda yozilgan. S.P.Tolstov buni biror kishining ismi bo'lsa kerak degan fikrni ilgari suradi. Qo'yqirilgan qal'a sopol idishlariga o'xshash buyumlar uning atroflaridagi mustahkamlanmagan qishloqlar va sharqiy Xorazmning ko'pgina yodgorliklaridan ham topilgan. Bunday sopol idish Qal'aliqir 1 yodgorligida ham bo'lgan.

Tuproqqal'a yodgorligidan mil.avv.III-IV asrlarga oid 140 ga yaqin hujjatlar topilgan. Uning 18 ta si yog'ochga, qolganlari teriga yozilgan, ularni 8tasi yaxshi saqlangan. Yozma yodgorlikdan 26tasi S.P.Tolstov va V.A.Livshich tomonidan o'qilgan. Tadqiqotchilar bu topilmani podsho arxivi deb hisoblashadi. Tuproqqal'a arxivini 2 guruhga bo'lish mumkin bo'ldi. 1-guruh hujjatlari soliq ishlari bilan bog'liq. Ular yog'ochga yozilgan. 2-guruh hujjatlar teriga yozilgan bo'lib, ularda podsho hazinasiga tushgan jarimalarning nomi, miqdori hamda qaerdan kelganligi yozib qo'yilgan. Hujjatlarda bir oilaning tarkibi, ularning ismi va qullarining ismlari keltirilgan.

Qadimgi Xorazm tangalari mil.avv. II asrdan – milodiy VIII asrgacha deyarli bir xil tarzda zarb qilingan. Oldi tomonida hukmdor va orqa tomonida chavandoz tasviri bo'lgan. Tangalarga qadimgi Xorazm yozuvida yozilgan. Tuproq qal'ada Xorazm podshosi Arsamux I va uning rafiqasining tasviri tushirilgan tangalar topilgan. Bu tangalarda Arsamux

---

<sup>1</sup> Лившич В., М.Мамбетуллаев Острак из Хумбуз-тере. –С.40.

baland bosh kiyimda sersoqol hukmdor sifatida tasvirlangan. Tanganing yuqori qismida yunon yozuvida “podsho” so‘zi, tanganing pastki qismida esa podsho surati ostida Xorazm yozuvida “Podshoh Arsamux” so‘zi yozilgan. Tanganing orqa tomonida ananviy sipohiy surati “S” tamg‘asi bor. Xorazm tangalarida Arsamux merosxo‘rlaridan biri sifatida Vazamarining nomi eslatiladi. Uning nomidan kushush tangalar zarb etilgan. Vazamar tasvirida uzun va qalin soqolli posho burgut qiyofasidagi bosh kiyimida berilgan. Bu xildagi tangalar qadimgi Xorazmning III asrning 1yarimiga oid yodgorliklarida uchraydi.

Xorazm yozuvi, Xorazm posholari Artav shoh, Arsamux va Vazamarlar tasviri tushirilgan mis va kumush tangalarning III asrda qadimgi Xorazmda qudratli Xorazm davlati bo‘lganligidan guvohlik beradi.

XX asrning 90- yillarida Qoraqalpog‘istonning Beruniy tumani hududidan Oqshaxonqal’a yodgorligi topilgan. Yodgorlikning ibodatxonasi yo‘lagidan rangli devoriy suratlar aniqlangan. Bu Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha eng qadimiy rangli devoriy surat hisoblanadi.

Ibodatxonadan o‘tgan 240 metrli yo‘lakning devorlariga devoriy suratlar chizilgan<sup>1</sup>. 2005-2008 yillardagi arxeologik tadqiqotlar natijasida, shimoliy yo‘lakdan 30 nafar kishining portretlari aniqlangan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlar jarayonida 6 metr hajmdagi zardushtiylik xudolarining tasviri, bog‘ va qushlarning rasmlari ham aniqlangan. Bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlar natijasi devoriy suratlar orasida yozuv namunasi topilgan. Bu yozuv bo‘yicha tadqiqotchilar tahlili e‘lon qilinmagan bo‘lsa da, uning ism bo‘lishi mumkinligi e‘tirof etishadi. Radiokarbon analizi natijasida suratlar mil.avv. II asrning oxiri I asrning boshlariga oid ekanligi aniqlangan. Oqshaxonqal’adan topilgan devoriy suratlardagi hukmdorlarning rasm, hayvonlar, qushlar, bog‘lar, xudolarning tasvirlari,

---

<sup>1</sup> Ягодин В.М., А.Беттс. Хоразмнинг номаълум хукмдорлари. // Фан ва турмуш. № 3-5.2008. 115-бет.

yozuv namunasining o'qilishi o'tmish tarixning yanada boyishiga, tarixdagi jumboqlarni yechishga imkon yaratadi.

O'tmishning moddiy va yozma yodgorliklarini o'rganish uchun olimlarimiz, arxeologlar tinmay izlanish olib bormoqdalar. Bunda horijiy olimlar bilan hamkorlikda tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Ularning fidoiy sa'i-harakatlari tufayli, o'tmishning noma'lum qirralari ochilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston hududidan topilgan yozma yodgorliklarni o'qish, tahlil qilish dolzarb masalaga aylangan. Bu borada mazkur soha bo'yicha mutaxassislarining yo'qligi uning dolzarbligini yanada oshiradi. Tarixchi-lingvistlarni tayyorlash, ularning o'z sohasining yetuk mutaxassisi qilib yetishtirish kechirib bo'lmaydigan masalaga aylanib bormoqda.

## **O'ZBEK DAVLATCHILIGI QADIMGI DAVR TARIXINING TADQIQOT MASALALARI (manbaviy-metodologik mulohazalar)**

**Z.A.Ilhomov, t.f.n, professor  
Nizomiy nomidagi TDPU**

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixining ta'lim va tadqiqot masalalari dolzarb yo'nalishlardan biriga aylandi. Davlatchilik jarayonlarining shakllanishidan boshlab eng taraqqiy etgan davrlarigacha bo'lgan davlatchilik jarayonlari tadqiqi bugungi kunda ko'plab tadqiqot obyektlarining ilmiy muammosiga aylangan va bu borada keng ko'lamda ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda, bu orqali davlatchilik jarayonlari tarixining yangi qirralari ko'rsatib berilmoqda. Bugungi kunda o'zbek davlatchiligi tarixi va taraqqiyoti bosqichlarini ko'rsatib berish, O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari tarixchi mutaxassilar munozarasidagi asosiy mavzulardan biri sifatida ko'rilmogda. O'zbek davlatchiligi taraqqiyoti bosqichlari mutaxassislar tomonidan bir qancha tarixiy davrlarga bo'lib

ko'rsatib berilgan bo'lsada, bu bosqichlarning o'ziga xos jihatlari va bosqichlarning asoslab beruvchi xususiyatlari yanada kengroq va mukammalroq yoritib berilishiga extiyoj mavjudligini ko'rish mumkin<sup>1</sup>. O'zbek davlatchiligi taraqqiyotining tarixiy jarayonlarini tahlili qilish hamda uning tarixiy davrlardagi xususiyatlarini chuqur o'rgangan holda, nazariy va metodologik jihatdan aniq davrlarga yoki bosqichlarga bo'lib o'rganish va o'qitish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonning qadimgi davr davlatchiligi tarixining ayrim xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Xususan, bu davr o'zbek davlatchiligi taraqqiyoti tarixining ikkinchi bosqichi sanalib, miloddan avvalgi VI-IV asrlardan milodiy III asrlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr siyosiy jihatdan bu davrda O'rta Osiyoda, jumladan hozirgi O'zbekiston xududlarida mavjud bulgan davlatlar boshqaruv tizimida Eron va qisman Yunon-makedon davlatlari boshqaruv tizimi ta'siri ostida davlatchilik an'analari davom etdi va ayrim o'zgarishlarni qabul qildi. Ayni vaqtda mahalliy davlatlar boshqaruv tizimi va davlatchilik tuzilishi takomillashib bordi. Bu davrlarda asosiy davlat mafkurasi otashparastlik va zardo'shtiylik dinlari negizida shakllanib bordi. Iqtisodiy jihatdan yirik ekin maydonlarining barpo etilishi va sug'orish tarmoqlarining shakllantirilishi, o'unarmandchilik va chorvachilikning alohida xo'jalik turlari sifatida tarqqiy etib borishi, ichki bozorlarning faollashuvi va Buyuk Ipak savdo yo'lining yuzzaga kelishi va tashqi savdo-madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi bilan xususiyatlanadi<sup>2</sup>.

Tarixdan ma'lumki, miloddan avvalgi IV asrda O'rta Osiyo hududlariga makedoniyalik Aleksandrning harbiy bosqinchilik yurishlari sodir bo'ldi. Bu voqeaning tafsilotlari qadimgi davr tarixi yozilgan ko'pgina

---

<sup>1</sup> Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихи концепцияси. / Ўзбекистон тарихи. 1999 йил, 1 - сон.

<sup>2</sup> Илхомов З. Ўзбек давлатчилиги тараққиёти босқичлари. Ўзбек давлатчилиги тараққиёти босқичлари, тарихи ва тарихшунослик масалалари. –Тошкент. 2021.38-46-бб

asarlarda yoritilgan.<sup>1</sup> Ularda keltirilgan ma'lumotlardan biri Aleksandr va Xorazm davlati o'rtasidagi munosabatlar haqidagi fikrlardir. Garchi bu fikrlar to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lsada, ular o'sha davr tarixiy jarayonlarini to'liq ochib bermaydi va turli mualliflarning asarlarida ma'lumotlar turlicha mazmunda keltiriladi. Xususan, yozma manbalarda, jumladan, "Aleksandrnomada" Xorazmshoh "Feruzbaxsh va Jamshidshoh o'z askarlari bilan yordamga" kelganligi ta'kidlansa, Arrian "Xorazmliklar shohi Farasman Aleksandrga bosh egib keldi",- deb yozadi.<sup>2</sup> Tarixchi R.Shamsuddinov esa bu jarayonga fikr bildirar ekan, Xorazmshoh Farasmanning uzoqni ko'ra bila olishi va donishmandligi tufayli harbiy ittifoq orqali o'z davlatining mustaqilligini saqlab qola oldi, xatto Aleksandrga Qora dengiz tomonga yurish qilishni taklif etib, Aleksandrning harbiy rejalaridan xabardor bo'ldi, deb baho beradi.<sup>3</sup> Tarixchi F.Boynazarov esa bu haqda Arrianning Farazmen So'g'diyona va Baqtriyada yashovchi birodarlariga yordam berishdan bosh tortib, Aleksandrga 1500 jangchidan iborat qo'shin va sovg'a salomlar berib, o'z mustaqilligini saqlab qoldi, agar shoh Spitemenga yordam berib, Aleksandrga qarshi kurashganda bosqinchilar yanada ko'proq talafotga uchrar edi, deya fikr bildiradi.<sup>4</sup> "Sharq va G'arb" asari muallifi F.Sulaymonova ham yuqoridagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan holda, "Aleksandrning Xorazm o'lkasiga borgan-bormaganligi to'g'risida qadimgi adiblar asarlarida yakdillik yo'q. ...To'g'rirog'i Aleksandr Xorazm bilan aloqa ham o'rnatmagan bo'lsa kerak"-degan mavhum fikrni bildiradi.<sup>5</sup>

Bunday fikrlarga asos bo'lgan ma'lumotlar antik davr tarixchilarining asarlarida deyarli bir-birini takrorlab keltirilgan. Yuqoridagi keltirib

---

<sup>1</sup> Каранг: Ўзбекистон халқлари тарихи. ЎзР ФА ҳақиқий аъзоси А.Асқаров таҳр. ост. –Тошкент. Фан, 1992; А.Сағдуллаев ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. –Тошкент. Академия. 2000; К. Шониёзов. Қанг давлати ва қанглилар. –Тошкент.Фан. 1990; Ф.Сулаймонова. Шарқ ва Ғарб. –Тошкент. Ўзбекистон. 1997; Ф.А.Бойназаров. Қадимги дунё тарихи. –Тошкент. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004 ва бошқ.

<sup>2</sup> Shamsutdinov R., Sh.Karimov. Vatan tarixi. –Toshkent. Sharq. 2010. B.54-55.

<sup>3</sup> Ўша жойда.

<sup>4</sup> Бойназаров Ф.А.Қадимги дунё тарихи. 96-97-66.

<sup>5</sup> Сулаймонова Ф.Шарқ ва Ғарб. 110-б

o'tilgan ma'lumotlardan ham anglash mumkinki, tarixchilarning xulosalarida va manbalarda keltirib o'tilgan ma'lumotlarda ham turlilik mavjud.

Arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, Markaziy Osiyoda mudofaa tizimi mukammal tarzda shakllantirilgan istehkomlar vazifasini bajargan shaharlar va qal'alari mavjud bo'lgan. Mavjud ma'lumotlar hamda arxeologik tadqiqotlar natijasida o'rganilgan moddiy manbalarning tahlili natijasida O'rta Osiyo hududlarida yashagan xalqlarning jang olib borish uslublari va taktikalari, suvoriylarning yengil qurollanishi hamda tez harakatlanishga moslashganligi, turli sharoitlarda jang olib bora olishlari bilan yunonlar uchun mutlaqo notanish bo'lganligi ham Aleksandrning harbiy yurishlaridagi muvaffaqiyatlarini cheklab qo'yadi.<sup>1</sup> Eng qizig'i bu davr haqida yozilgan manbalarda O'rta Osiyoda yashagan bir qancha xalqlar va elatlar haqida ma'lumotlar uchrasada, Sirdaryo bo'ylarida siyosiy-harbiy jihatdan uyushgan xalqlar yoki qabilalar ittifoqlarining mavjud bo'lganligi yoki yo'qligi haqida deyarli ma'lumot uchramaydi. Antik davr mualliflaridan biri Kvint Kursiy Rufning "Makedoniyalik buyuk Aleksandr tarixi" asarida Sirdaryo bo'ylarida saklarning shoh tomonidan idora etiladigan davlati mavjud bo'lganligiga ishora qilinib quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: -"Mamlakati hududlari Tanais daryosining ortida bo'lgan saklar shohi daryo bo'yida makedoniyaliklar tomonidan barpo etilgan shaharni (Sirdaryo bo'yida Ho'jand yaqinida qurilgan olisdagi Iskandariya-Aleksandriya Esxata) kelgusida o'z davlati uchun zulm sirtmog'iga aylanadi, deb hisobladi. Shuning uchun o'zining Kargasis ismli ukasini katta otliq qo'shin bilan yuborib, shaharni buzib tashlash va makedoniyaliklarni u yerdan haydab yuborishni buyurdi".<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Гафуров Б. Цибикудис Д. Александр Македонский и Восток. –М.: Наука. 1980. 155-156-66.

<sup>2</sup> Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. — М.: Издательство МГУ, 1993. Книга VII. Глава 7. 1. Стр.135

O‘z navbatida Aleksandrning ham Sirdaryo bo‘yida yashagan saklar va ularning mavjud davlatchiligi, qudrati va hududlarining bepoyonligidan xabarsiz bo‘lishi mantiqqa zid keladi. Kursiy Rufning asarida yana shunday ma‘lumotlarni uchratish mumkinki, ularning birida Aleksandr huzuriga saklar tomonidan yuborilgan 30 kishilik elchilik haqida so‘z yuritilib, elchilardan birining tilidan shunday so‘zlar keltiriladi: -“Tanaisdan kechib o‘tsang sen bizning hududlarimiz bepoyon ekanligiga amin bo‘lasan. Bizning shijoatimiz sening o‘zga xalqlar boyliklarini talab og‘irlashib qolgan qo‘shinlaring harakatidan shiddatliroq bo‘ladi. Yoki boshqa vaqtda bizni uzoqda deb o‘ylasang, shu zahoti o‘z qarorgohingda ko‘rasan. Biz birdek shiddat bilan kelamiz, ta‘qib qilamiz va ketamiz”.<sup>1</sup> Bu ma‘lumotlar yuqoridagi fikrlarimizni quvvatlantiradi.

Antik mualliflarning asarlarida Orol dengizi haqida aniq tasavurga ega bo‘lmaganliklaridan Sirdaryo (Yaksart) hamda Don (Tanais) daryolarining aynan bir daryo sifatida e‘tirof etish hollari uchragan va ularni bir daryo sifatida Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi chegara deb bilganlar. Kursiy Ruf ham o‘z asaridagi voqealarni bayon qilish jarayonida Sirdaryo (Yaksart, Tanais) ni Azov yoki Qora dengizga (Pont, Bospor — VI, 2, 13) quyilishini ko‘rsatgan. Dengiz atroflarida yashagan skiflar va Sirdaryo bo‘ylarida yashagan saklarni ham ayni shu holatdan kelib chiqqan holda bir xalqlar sifatida ko‘rsatgan. Biroq asarda keltirilgan voqealarning geografik ko‘lamlari va tarixiy jarayonlarning tavsifining tahlili “Tanais daryosi bo‘ylarida yashagan skiflar”ning Sirdaryo (Tanais) bo‘ylarida yashagan saklar (VII, b, 12; VII, 4, 7 va boshq.) ekanligini ko‘rsatadi.<sup>2</sup>

Bu ma‘lumotlar yuqorida keltirilgan savollarga ma‘lum darajada javob bo‘lishi mumkin. YA’ni, birinchidan, Xorazm shohi Farasman va Aleksandr o‘rtasidagi harbiy ittifoqqa aynan ana shu, ya’ni, Tanais daryosi ortidagi “saklar davlati” sabab bo‘lganligini anglash mumkin. YA’ni, bu

---

<sup>1</sup> Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. — М.: Издательство МГУ, 1993. Книга VII. Глава 8. 22-23. Стр.139.

<sup>2</sup> Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. — М.: Издательство МГУ, 1993. Стр. 6.

ittifoq natijasida Xorazm Aleksandrdan emas, balki “saklar davlati”dan o‘z mustaqilligini saqlab qolishga harakat qilgan. Ikkinchidan, Aleksandrning o‘z harbiy yurishlarini serunum va bepoyon O‘rta Osiyoning shimoliy hududlariga emas, balki Hind daryosi tomonga cho‘zilgan hududlarga nisbatan amalga oshirganligining ham asosiy sabablaridan biri aynan ana shu Tanais daryosi ortidagi “saklar davlati” bo‘lganligini taxmin qilish mumkin. Agar bu masalaga harbiy omillar nuqtai-nazaridan yondashilsa, birinchidan Aleksandr qo‘shinlari cho‘l va dashtlarda hujum qilishga moslashmagan bo‘lib, uning o‘sha davr harbiy qurollari orasida yangilik hisoblangan shahar devorlarini buzishga moslashtirilgan qurollari ham hech qanday naf bermasdi, ikkinchidan So‘g‘d jangchilaridan og‘ir talafotlarga uchragan yunon-makedon qo‘shinlari “sak davlati”ga qarshi ochiq va bepoyon hududlarda jang olib borishga qodir emasligini anglagan bo‘lishi mumkin edi. Uchinchidan antik davr tarixchilarining deyarli barchasida sak jangchilarining mohir jangchilar bo‘lganligi va qo‘shinlar asosan otliqlardan iborat ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Strabon saklar yashagan joylarni juda aniq ko‘rsatib, “Iaksart daryosi saklarni so‘g‘dilardan, Oks esa so‘g‘dilarni baqtriyaliklardan ajratib turadi” deydi<sup>1</sup>. Antik manbalari (Aristey, Gekatey) va Axmoniylar yozuvlari sak qabilalari Markaziy Osiyoda eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda bo‘lganliklarini tasdiqlaydi. Arxeologik materiallar esa uni yanada qadimiylashtirib, eradan avvalgi VII asrga taalluqli ekanligini tasdiqlaydi.<sup>2</sup>

“Avesto” ma’lumotlariga asosida bildirilgan fikrlarga ko‘ra O‘rta Osiyodagi “sak” qabilalari “Avesto”da “tur” yoki “tura” nomi ostida berilganligi, “tur”larning yashash joylari esa Danu daryosi (Sirdaryo) sohillari ekanligi, Kangxoy esa turlar hokimlarining qarorohi ekanligi

---

<sup>1</sup> Сулаймонова Ф. Шарқ ва Фарб. 65-б

<sup>2</sup> Сулаймонова Ф. Шарқ ва Фарб. 67-б

ko'rsatib o'tilgan.<sup>1</sup> Shuningdek, Eron ahmoniylari hukmronligi davrida saklarning kaspiy bo'yi xalqlari bilan birgalikda 250 talant<sup>2</sup> miqdorida o'lpon to'laganliklari ko'rsatiladi.

O'zbek davlatchiligining ilk davrlari haqida so'z yuritar ekan, akademik A.Asqarov shunday fikrlarni bildiradi: -"Arxeologik yodgorliklar va ularning davriy ketma-ketlikda tarkib topish jarayonlar taxliligiga ko'ra, O'rta Osiyo, jumladan o'zbek davlatchiligining tarixiy ildizlari bronza davriga borib taqaladi. Aynan shu davrda mulkchilikning yerga, chorvaga egalik qilishlikning xususiy shakli paydo bo'ladi. Yerga xususiy egalik qilish monogomik juft oilaning katta patriarxal oila darajasiga o'sib chiqishidan boshlanadi. Aynan shu sharoitda jamoa mulkchiligining ijtimoiy xarakteri tagiga zil ketib, uning o'rnini patriarxal xususiy mulkchilik egallaydi. Yerga va chorvaga xususiy egalik qilishlikning paydo bo'lishi davlatchilikning kelib chiqishiga olib keladi. Davlatchilikning dastlabki, ilk kurtaklari katta patriarxal oilalardan boshlanib, ularning mujassamlashtirgan qishloq jamoalari-vislar darajasidagi ko'rinishi ilk davlatchilikning tarixiy ildizlarini tashkil etadi"<sup>3</sup>. Bu jarayon keyingi davrlarda O'rta Osiyo hududlarini qamrab olgan va tabiiyki, Sirdaryo havzasida ham o'z hududiga va siyosiy ta'sir doirasiga ega bo'lgan qabilalarning siyosiy birlashmalari shakllana boshlagan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda mantiqan fikr yuritilsa, miloddan avvalgi VII-VI asrlardan boshlab keyingi davrlarda saklar hukmronligi va ta'siri ostidagi hududlar shakllanib borgan va bu aynan Sirdaryo bo'ylari edi, degan xulosa kelib chiqishi mumkin. Biroq nima uchundir ilmiy adabiyotlarda saklarning miloddan avvalgi IV asrdagi tarixi haqida ma'lumotlar salmoqli emas va miloddan avvalgi III asrda bu hududlarda Qang' davlati shakllanganligi ko'rsatiladi. Yuqorida keltirilgan fikrlar turli davrlarda yashagan saklar yoki turlar haqida ketayotgan

<sup>1</sup> Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. 96-б

<sup>2</sup> 1 talant-25,9 kg kumush miqdoriga teng

<sup>3</sup> Асқаров А. Давлатчиликнинг ilk босқичларида – Ўзбекистон. Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент. 2010 -Б. 9-14.

bo'lsada, fikrimiz bu yerda gap aynan Sirdaryo bo'yida joylashgan va keyinchali qabilalarning harbiy-siyosiy uyushmasidan davlat darajasiga ko'tarila olgan Qang' davlati haqida ketmoqda. Taxmin qilish mumkinki, kuchli qarshiliklar va uch yillik kurashlardan so'ng katta qiyinchilik bilan So'g'dni zabt etgan Iskandar undan shimoliy sharqda joylashgan kuchli Qang' davlati mavjudligini hisobga olib o'z yurishlarini O'rta Osiyoning ichkari hududlariga emas, balki, olis Hind daryosi tomon yo'naltirishga majbur bo'lganligi ham fikrimizni quvvatlantiradi.

Biroq ilmiy adabiyotlarda Qang' davlatining shakllangan sanasi miloddan avvalgi III asr bilan belgilangan. Bu haqda taniqli olim K.Shoniyozov shunday yozadi: –“Qang' davlati solnomalarda aytilgan davrdan ancha oldinroq mavjud bo'lgan”- deb, bu davlatning Aleksandr va undan keyingi Salavkiylar sulolasi bilan tinimsiz janglar natijasida miloddan avvalgi III asrda shakllanganligini ta'kidlaydi.<sup>1</sup>

Ayrim tarixchilarning fikricha Kangyuy yoki Qongli – qadimgi Xorazm davlati bo'lib, miloddan avvalgi II-I asrlarda ushbu davlat hududi O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning hozirgi hududidga to'g'ri keladi (Farg'ona va Surxondaryodan tashqari) deb hisoblanadi. Ularning fikricha “Maxabxarata» va “Avesto” da zardo'shtiylikning paydo bo'lishi munosabati bilan yod etilgan Qonqa Xorazmiylar davlatidir. Arxeologik izlanishlar Qongli davlati hududiga qadimgi Chochni ham kiritadi. Qongli davlatining poytaxti sifatida Sirdaryo yaqinidagi ko'hna Qanqa shahar harobalari ko'rsatiladi<sup>2</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, Qang' davlati tarix adabiyotlarida qayd etilganidek, miloddan avvalgi III asrda emas, balki undan avvalroq, fikrimizcha miloddan avvalgi IV asr birinchi yarmida yuzaga kelgan. Ayni vaqtda u kuchli markazlashgan davlat sifatida manbalarda qayd etilmagan

---

<sup>1</sup> Шониёзов К.. Қанғ давлати ва қанғлилар. 27-б.

<sup>2</sup> Ўзбекистон халқлари тарихи. 45-б.

bo'lsada, biroq O'rta Osiyoning shimoliy hududlarini deyarli to'raligicha o'z nazoratiga olgan yirik siyosiy birlashma sifatida keyingi olti asr davomida hukm surgan kuchli davlatning shakllanishiga zamin hozirlagan.

Xulosa sifatida ta'kidlash kerakki, avvalo tarixchi tomonidan tadqiqot davomida manbalardagi ma'lumotlarni aniqlab, ularni umumiy tarixiy jarayonlarni aniqlashda va tavsiflashda faqatgina faktlarning o'ziga emas, balki shu bilan bir qatorda tarixiy jarayonlarning yuz berishidagi mantiqiy izchillikdan kelib chiqqan holdagi ilmiy yondashuv umumiy ilmiy xulosalarning to'laqonli bo'lishidagi muhim omillardan biri ekanligi ilgari surildi. Ikkinchidan, manbaviy ma'lumotlarning tahlili va umumiy tarixiy jarayonlarni anglashda mantiqiy fikrlash asosida nafaqat O'zbekiston hududlarida, balki Osiyo mintaqasi siyosiy tarixida muhim o'rin tutgan Qang' davlatining shakllanishi va davlat sifatida qaror topishi miloddan avvalgi III asrda emas, balki undan avvalroq, miloddan avvalgi IV asrda sodir bo'lganligi haqidagi fikrlar ilgari surildi. Bu borada albatta mutaxassislarning fikri va xulosalarida farq bo'lishi tabiiy va bildirilgan har bir fikr Qang' davlatining shakllanishi va davlatchiligi tarixini yanada mukammal o'rganish uchun xizmat qilishi shubhasizdir.

## **QADIMGI XORAZM HUDUDIDAGI KO'CHMANCHI CHORVADORLAR TARIXI TADQIQOTI MASALALARI**

**M. U. Matnazarova**  
**Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi**

Qadimgi Xorazm tarixini ob'ektiv yoritishda ularning ko'chmanchi chorvadorlar bilan munosabati, savdo-iqtisodiy aloqalari tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi Xorazm davlatning chegaralarida va dehqonchilik bilan shug'ullanish mumkin bo'lmagan joylarda

ko'chmanchi chorvadorlar iste'qomat qilganlar. Ko'chmanchi chorvadorlar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi bilan uzoq tarixiy davrlar davomida qo'shni bo'lib yashab kelganlar. Ular o'rtasida o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalari mavjud bo'lgan. Ko'chmanchi chorvadorlar bilan bir tomondan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari bo'lsa, ikkinchi tomondan qarama-qarshilik munosabatlari bo'lib, o'rtada janglar bo'lib turgan. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi, o'zlarini hujumlardan himoya qilish uchun, chegara hududlarni va har bir qal'ani, ayniqsa chegara hududlardagi qal'alarning mudofaasiga alohida e'tibor qaratganlar. Ko'chmanchi chorvador qabilalarning joylashishi, hujumlari asosan, shimol tomondan bo'lganligi sababli, davlatlar shimoliy chegaralarga alohida e'tiborni qaratib, bu hududlarda uzun, baland, mustahkam qo'shimcha mudofaa tizimi, ya'ni devorlarni qurganlar<sup>1</sup>.

Amudaryoning Oqchadaryo, Sariqamish o'zanlari bo'ylarida, Orololdi hududlarida, Ustyurt platosida va Tuyamo'yin hududlarida ko'chmanchi chorvadorlar iste'qomat qilganlar. Ulardan ko'plab mozor-qo'rg'onlar saqlanib qolgan. Ularni arxeologik jihatdan o'rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bunda S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik – etnografik ekspeditsiyasi alohida o'rinni egallaydi<sup>2</sup>.

Arxeologik tadqiqot ishlari natijalarini va yozma manbalardagi ma'lumotlarni solishtirish orqali mil.avv. VII–VI asrlarda vohalarda, cho'l hududlarida va tog' oldi rayonlarda ko'chmanchi chorvadorlar: amyurglar, daxlar, derbeklar, saklar iste'qomat qilganligi aniqlangan<sup>3</sup>. Arxeologik tadqiqot ishlari natijasida ularning turmush tarzi va iqtisodiy hayoti kabi masalalar yoritilgan. Mil.avv. VII asrda ko'chmanchi chorvadorlar ittifoqi vujudga keladi. Bu tarixga massagetlar ittifoqi deb kirgan. S.P.Tolstov

<sup>1</sup> Egamberdieva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv. VIII-mil. IV asrlar).– Toshkent. Innovatsiya-ziyo. 2020. –B. 112.

<sup>2</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. –М.: МГУ. 1948. –С.20-27; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта –М.:Наука. 1962. –С.77-96.

<sup>3</sup> Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.: Изд. АН СССР. 1948. – С.112; 19, p.38.

yozma manbalar va olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida ko'chmanchi chorvadorlarning nomlarini va ularning joylashgan xududlarini aniqlagan. Xorasmiy va apasiaklar Xorazmning shimolida, Uzboydan Jonidaryogacha bo'lgan hududda botqoqlikda yashaydigan saklar, sakavaraklar Xorazmning janubi-sharqiy chegarasidan Nurota tog'larigacha bo'lgan joylarda, Sakaxaumavarka, amyurglar Xorazm vohasining tog' va vodiylarini egallagan. Derbeklar Amudaryoning o'rta oqimida Chorjo'ydan Buxorogacha bo'lgan joylarda, toxar va daxlar Sirdaryoning quyi oqimida Kuvondaryo old hududlarida, asianlar hozirgi Turkiston shahridan to o'rta Sirdaryo bo'ylarida yashaganlar.

1955-1965 yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Sirdaryoning qadimiy o'zanlari Janadaryo va Quvondaryo bo'ylarida ham ko'chmanchi qabilalar ittifoqi yashaganligi aniqlangan. Janadaryo bo'ylarida apasiaklar, Quvondaryo bo'ylarida toxarlar, Kuvondaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida augasiylar iste'qomat qilgan. 1959 yilda Jeti asar, Chirik–Rabat, Babish–Mulla, Balandi yodgorliklarini o'rganish orqali, ularni Strabon tomonidan yozib qoldirilgan “botqoqlik va orollarda yashaydigan massagetlar” deb hulosa berishgan<sup>1</sup>.

Ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan qoldirilgan eng yirik yodgorliklardan biri bu apasiak qabilalar ittifoqining qal'asi Chirik–Rabot hisoblangan. U 1946 yilda topilgan va 1948-1949, 1957-1958 yillarda tadqiqot ishlari olib borilgan. Yodgorlik Qozoqistonning Qizil–O'rda shahridan 300 km. janubi–g'arbda joylashgan. Qal'a tepalik ustiga qurilgan, ikki qator mudofaa devori bilan o'ralgan. Mudofaa devori va burjlar nayzasimon shinaklar bilan mustahkamlangan. Yodgorlik mil.avv. 1 ming yillikning o'rtalariga oid<sup>2</sup>.

1961 yilda Uygarakda olib borilgan statsionar tadqiqot ishlari natijasida 80ga yaqin mozor–qo'rg'on topilgan. Ularda marhumni yoqish urf-odatlari bo'lgan. U yerdan mil.avv. VI-V asrlarga oid ot anjomlari,

---

<sup>1</sup> Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М.:Наука. 1962– С.136.

<sup>2</sup> Ўша асар. –Б.139.

suvliq, ikki va uch pallali bronzadan ishlangan o'q paykonlari topilgan. Uygarak Tagisken mozor-qo'rg'onidan 25 km. uzoqlikda joylashgan<sup>1</sup>.

1947-1951 yillarda apasiak va sakavarakalar moddiy madaniyatidan butunlay farq qiluvchi yangi yodgorlik aniqlangan. U Quvondaryo bo'yidagi Jeti–asar darasidan topilgan. Tadqiqotlar jarayonida uning toxarlarga oid ekanligi aniqlangan. Yodgorliklar mil.avv. 1 ming o'rtalaridan milodiy VI–VII asrlarga oid bo'lgan. Ularning orasidagi eng yirigi Oltin-asar yodgorligi bo'lgan. Yodgorlik 16 gektarni egallagan. Aholisi asosan chorvachilik bilan shug'ullangan. Xo'jaligida yirik shohli mol ko'pchilikni tashkil qilgan. Dehqonchilik bilan ham shug'ullanishgan.

XX asrning 70-80 yillarida Xorazm arxeologik–etnografik ekspeditsiyasi Uzboy va Kaspiy orti xududlarini o'rganib, u yerdan ham ko'chmanchi chorvadorlarining manzilgohlari tadqiq qildi. Ko'chmanchi chorvadorlar turli ijtimoiy tuzum davrini boshdan kechirishgan. Lekin qadimgi Xorazm davlati bilan iqtisodiy, ijtimoiy aloqalarni o'rnatishgan. Ustyurtda V.N.Yagodin tomonidan o'tkazilgan arxeologik tadqiqot natijasida ham uni asoslovchi materiallar topilgan<sup>2</sup>.

B.I.Vaynberg tomonidan ko'chmanchi chorvadorlar bilan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasidagi aloqalar tadqiq qilingan. U asosan Sariqamish o'zani atroflarida tadqiqot ishlarini olib borgan. Bu yerda u o'ziga xos saklarning madaniyatini tadqiq qilgan, ya'ni mahalliy saklarning Markaziy Osiyoning janubi-g'arbiy hududlari bilan aralashgan madaniyati aniqlagan. Uning fikricha, janubi-g'arbiy tomondan bu yerga qandaydir etnik guruh ko'chib kelgan. Buni u Geradot va Gekateyning Xorazmliklarning ilgari janubda yashagan degan g'oyasini asoslashga harakat qiladi<sup>3</sup>. Bu tadqiqot jarayonida mil.avv. VII—IV

<sup>1</sup> Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – С.184-185.

<sup>2</sup> Ягодин В.Н. Устыурт и Приаральская дельта. // “Общественные науки в Узбекистане”. 1976. №1. –С.45-52.

<sup>3</sup> Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культуры. // В кн.: Кочевники на границах Хорезма. М.:Наука.1979. –С.40-41.

asrlarga oid Kuyisoy madaniyati topilgan. Kuyisoy madaniyati aholisi yarim ko'chmanchi chorvador qabila vakillari bo'lgan. Chorvachilik bilan birgalikda dehqonchilik bilan ham shug'ullanishgan. Ularning turmush tarzida saklar madaniyatiga xos xususiyatlar ustunlik qilsa-da, janubiy hududlardagi qabilalarning ham madaniy ta'siri kuzatilgan. Jumladan, yodgorlikdan saklarning qo'lda ishlangan sopol idishlari bilan birgalikda, janubiy Turkmaniston va shimoli-sharqiy Eron hududlariga oid charxda ishlangan sopol idishlar ham topilgan. Ularning chaylasining, yerto'lasining ishlanish uslublarida ham o'xshashliklar kuzatilgan. Lekin saklarning qabrlarida qurol bilan ko'mish odati bo'lgan, kuyisoyliklarnikida bunday holat kuzatilmaydi. Tadqiqotchi B.I.Vaynberg ko'mish urf-odati, chaylaning qurilish uslubi, sopol idish yasash uslubi asosida quyisoyliklarni mahalliy sak aholisi deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

Quyisoy madaniyatiga oid moddiy manbalar Quyisoy-2, Yassiqir qishloqlari, Sakarchaga, Tumek-Kichijik mozor-qo'rg'onlari, Tarmqoya qishlog'i va qabristonidan topib o'rganilgan<sup>2</sup>. Tarim-qoya mozor -qo'rg'oni mil.avv. V-IV asrlarga oid bo'lgan. Muzor – qo'rg'onda olib borilgan tadqiqot natijasida aholining zardushtiylik dini ta'siri kuzatiladi. Muzor-qo'rg'onlarda marhum ostodonlarga dafn qilingan. Mil.avv. IV-II asrlarga oid Chermonyob kanali bo'ylaridan o'troq chorvadorlarning Govur 3 qo'rg'oni topilgan. Ular chorvachilik bilan bir qatorda, qayir dehqonchiligi bilan ham shug'ullanganlar<sup>3</sup>. Qanga-qir, Tarim-qoya, G'ovur 3, Zangi-bobo vohalarida chorvadorlar, Sariqamish deltasining janubiy qismida esa, ko'chmanchi chorvadorlar yashagan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida chorvadorlar va dehqonchilik vohalari o'rtasidagi chegara qal'alar aniqlangan. Bu esa o'z navbatida, qadimgi Xorazm davlatining chegarasi

---

<sup>1</sup> Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культуры. –С.6.

<sup>2</sup> Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культуры. – С. 7– 77; Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранний земледельческой культуры в низовьях Амударьи. // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Том 5. – Москва: Собрание, 2016 – С. 17 – 26.

<sup>3</sup> Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. – С. 29.

hisoblangan. Bular shimoldan janubga Qanxa–qal'a, Butentov I–II, Devkesken qal'alari hisoblangan<sup>1</sup>.

M.A.Itina Babish-mulla va Chirik-rabotda chorvadorlarning turmush tarzini o'rganish orqali ularning qadimgi Xorazm davlati bilan mustahqam aloqada bo'lganligini ko'rsatadi.<sup>2</sup> Uygarak va Janubiy Tagiskandan Yoz–II madaniyatiga xos munchoq va sopol idishlar topilgan<sup>3</sup>.

1969 yilda Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi xodimlari tomonidan Sulton Uvays tog' hududlarida tadqiqot ishi olib borilgan. Tuproqqal'a yodgorligidan 4 km. shimoli – g'arbda ko'chmanchi chorvadorlarning mil.avv. VI–V asrlarga oid 4 ta mozor-qo'rg'onlari topilgan<sup>4</sup>. U yerdan topilgan feruza munchoqlari qadimgi Xorazmning shu davrga oid yodgorliklaridan, Uygarak va Afrosiyobdan topilgan.

XX asrning 70-80 yillarida Uzboy hududlari X.Yusupov tomonidan o'rganilgan. To'g'oloq, Aqtom, Ichyanlidepe yodgorliklari o'rganilgan<sup>5</sup>. Bu yodgorliklardan boshqa hududlardan keltirilgan buyumlar topilgan.

XXI asrning boshlarida janubiy Xorazmda olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida mil.avv. VIII–V asrlarga oid ko'chmanchi chorvadorlar madaniyati –Meshekli va Uch o'choq yodgorliklari topilgan<sup>6</sup>. Bu yodgorliklar saklar, ya'ni avtoxton chorvador qabilalarning qabrlari hisoblanib, Tuyamo'yin havzasi bo'ylarida joylashgan.

Quyida Amudaryo bo'ylariga kelgan aholi bo'sh yotgan, lekin dehqonchilik uchun qulay bo'lgan hududlarni o'zlashtirganlar. Mahalliy

---

<sup>1</sup> Болелов С.Б. Керамические обжигательные горны на территории южного и юго – восточного Приаралья (вторая половина I тыс. до н.э. – первые века н.э.). // ИМКУ. Вып. 33. – Ташкент, 2002.

<sup>2</sup> Итина М.А. Хорезмская экспедиция: основные итоги и перспективы исследований. // В кн: Культура и искусство древнего Хорезма. М.:Наука. 1981. –С.10

<sup>3</sup> Вишневецкая О.А., Итина М.А. Ранние саки Приаралья. //Проблемы скифской археологии. М.: Наука. 1971. –С.206.

<sup>4</sup> Манылов Ю.П. Курганы VI–V вв. до н.э. в Хорезме // “Общественные науки в Узбекистане”. 1975. № 3. –С.81.

<sup>5</sup> Юсупов Х. Древности Узбоя. Ашхабад: Ылым. 1986. –С.133-140.

<sup>6</sup> Баратов С.Р. Новые археологические материалы к истории древнего Хорезма. // Хоразм Маъмур академияси ахборотномаси. 4 – сон. – Самарканд, 2014. – С. 30- 40.

chorvador aholi bilan tinch qo'shnichilik munosabatlarini olib borganlar. Bu arxeologik tadqiqotlar natijasida o'z isbotini topgan.

## **QADIMGI XORAZM SHAHARLARINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O'RGANILISH TARIXI.**

**M. Atajanov**

### **Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi**

Mustaqillik yillarida ota-bobolarimizning o'tmish tarixini ob'ektiv va har tomonlama chuqur o'rganish, uni aholi va yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev bu xususda shunday fikr bildirgan: "...eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda<sup>1</sup>". Bugungi kunda tarix fani sohasida ko'pgina yutuqlar va yangiliklar qo'lga kiritilmoqda. Tarix fanida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni tahlil qilish va uni ob'ektiv ravishda yosh avlodga yetkazish kunning dolzab muammosiga aylangan.

Shaharsozlik madaniyati tarixi ham yozma ham arxeologik tadqiqot natijalarining tahlili asosida o'rganila boshlangan. O'lkamiz tarixi bo'yicha eng qadimiy yozma manba "Avesto" da eng qadimgi shahar "Kvadrat Vara" haqida yozib qoldirilgan<sup>2</sup>. Bu to'rtburchak shaklda qurilgan shahar haqida turli g'oyalar ilgari surilgan bo'lsa-da, uni qurgan hukmdor Yimanning faoliyati zardushtiylar an'analarida Xorazm bilan bog'laydilar.

Shaharlarning yozma manbalardagi bayoni asosan, o'rta asrlardagi yashagan mualliflarning asarlarida uchraydi. Jumladan, Istaxriy, Ibn Havkal, al-Muqaddasiy, Yoqut, Rashididdin va boshqalarning asarlarida

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак.-Т.: 2017, 49-бет.

<sup>2</sup> Рапопорт Ю.А., Незарик Е.Е., Левина Л.М. В низовьях Окса и Яксарта. Образцы древнего Приаралья. – Москва: Индирик, 2000. – С. 25.

o'rta asr shaharlarga ta'rif berilgan. Lekin qadimgi davr shaharlari to'g'risida yozma manbalarda ma'lumotlar uchramaydi. Ular asosan halq orasida saqlanib qolgan rivoyat va afsonalarda saqlanib qolgan. Bu afsona va rivoyatlarni aksariat hollarda arxeologlar qadimiy qal'alarni o'rganish jarayonida tahlil qilganlar. Bu G'.Xodjaniyazovning "Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari" asarida keltirgan<sup>1</sup>. Unda mil.avv. III-IV asrlarga oid Baroqtom, Anqaqal'a, Qirqqizqal'a, Ayoqzal'a 1, Katta Guldursin, Devkesgan, Govur qal'a, Chilpiq, Pil qal'a, Ko'hnauz, Kat shaharlari haqida ma'lumotlar berilgan. Bu qal'alar haqidagi afsonalar qadimgi Xorazm qal'alari haqida bayon qilingan boshqa asarlarda ham uchraydi<sup>2</sup>.

Xiva shahrining tashkil topishi haqida ham xalq orasida afsonalar saqlanib qolgan. Uning qurilgan vaqtini Nux payg'ambar bilan bog'lashadi<sup>3</sup>. Shaharlar haqida saqlanib qolgan bunday afsonalar shaharlarning qadimiy ildizlarga ega ekanligini asoslash uchun xizmat qiladi.

Qadimiy shaharlarning tarixi asosan, arxeologik tadqiqot ishlari natijasida aniqlanadi. Qadimgi Xorazm shaharlarini arxeologik jihatdan o'rganilish tarixini 2 yirik davrga bo'lish mumkin:

1. 1938 yildan 1991 yilgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Bu davrda qadimgi Xorazm hududidagi tadqiqot ishlarini Xorazm arxeologik – etnografik ekspeditsiya a'zolari tomonidan olib borilgan. Bu davrda S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, M.G.Vorob'eva, B.V.Andrianov, O.A.Vishnevskaya, I.Jobborov va boshqa bir qator arxeologlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.
2. 1991 yildan bugungi kungacha bo'lgan davr bo'lib, bu O'zbekiston mustaqilligi davri bilan bog'liq. Bu davrda O'zR FA Qoraqalpoqiston

<sup>1</sup> Ходжаниязов Г. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: О'zbekiston, 2007. –Б.13-22.

<sup>2</sup> Алламбергенов М. Қадимий мудофаа қўрғонлари. – Тошкент, 2007. 32-б.

<sup>3</sup> Джаббаров И. Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). – М.: ИЭАРАН, 2014. – С.174-175.

bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Avstriyaning Sidney universiteti, Rossiyaning Arxeologiya instituti va Sharq xalqlari muzey hamkorlikda tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu davrda V.N.Yagodin, M.Mambetullaev, G'.Xodjaniyazov, S.B.Bolelov, S.R.Baratov, V.G.Betts, Q.Sobirov, A.Razzoqov, M.S.Abdullaev, B.P.Sa'dullaev va boshqalar qadimgi davr shaharlar tarixini o'rganishda muhim hissasini qo'shganlar.

Birinchi bosqichda S.P.Tolstov boshchiligida tashkil qilingan Xorazm arxeologik – etnografik ekspeditsiya a'zolari tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari hisoblanadi. Bu davrda qadimgi Xorazm xududidagi qal'alar ilk bor ilmiy asosda o'rganila boshlangan. Bu ekspeditsiya o'z faoliyati davomida ko'plab ilmiy asarlar nashr qilgan. Ekspeditsiya a'zolarining tomonidan nashr qilingan eng muhim ilmiy nashrlar:

1. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining ilmiy ishlari (Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции) ilmiy to'plamlari 1952 yildan 1991 yilgacha 16 tomi nashr qilingan<sup>1</sup>.

2. Xorazm ekspeditsiyasining materiallari (Материалы Хорезмской экспедиции) ilmiy to'plami bo'lib, u 1959 yildan 1975 yilgacha 10 nashri e'lon qilingan<sup>2</sup>.

Bu davrda arxaik davrga oid Ko'zaliqir<sup>3</sup>, Xumbuztepa<sup>4</sup>, Xazorasp<sup>5</sup> qal'alarida keng miqyosda ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi. Antik davrga oid shaharlar tarixi, qurilish uslubi, moddiy topilmalari o'rganilgan<sup>6</sup>. Katta Guldursun, Pil qal'a, Qal'ajiq, Olmaotishgan, Ayozaqal'a I-III, Duman qal'a,

<sup>1</sup> <http://kronk.spb.ru/library/mhe.htm>

<sup>2</sup> <http://kronk.spb.ru/library/trhaee.htm>

<sup>3</sup> Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко – археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948. – 352 с.; Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма. // ВДИ. 1997. № 2.

<sup>4</sup> Мамбетуллаев М. Хумбузтепе – керамический центр южного Хорезма. // Археология Приаралья. Вып. II. – Ташкент. 1984.

<sup>5</sup> Воробьева М.Г., Лапиров – Скобло М.С., Незарик Е.Е., Археологические работы в Хазораспе в 1958 – 1960 гг. // МХЭ. – Москва: Наука, 1963. Вып.6. – С. 157 – 201.

<sup>6</sup> Воробьева М.Г. Дингильже: Усадьба I тысячелетия до н.э. в древнем Хорезме. // МХЭ. Вып. 9. – Москва: Наука, 1973. – 220 с; Городище Топрак кала. Раскопки 1965 – 1975 гг. / Отв.ред. Е.Е.Незарик, Ю.А.Рапопорт. – Москва: Наука, 1981. – 150 с; Кой – Крылган – кала – памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. – IV в. н.э. – Москва: Наука, 1967. – 348 с. ва бк.

Jildiq qal'a, Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Bozorqal'a, Jonbosqal'a, Qizilqal'a, Anqaqal'a, Katta va kichik Qirqqizqal'a, Qo'ziqirilgan, Kaparas, Yelxaras qal'a kabi ko'plab antik davrga oid qal'alarda tekshiruv ishlari olib borilgan. Ularning xaritalari ishlangan. Bu davrda qadimgi Xorazmning tarixining rivojlanish jarayonlari ilk marta ilmiy asosda bayon qilingan.

O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgach, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi a'zolari o'zlarining faoliyatlarini Rossiya Fanlar Akademiyasining Etnologiya va Antropologiya instituti doirasida davom qildirganlar. Qadimgi Xorazm qal'a-shaharlari tarixini o'rganishni yanada yuqori darajada davom qildirganlar. Bu asosan, turli tabiiy fanlarning yutuqlarini va ilg'or texnologiyalarni arxeologik tadqiqot ishlariga joriy etish bilan bog'liq edi.

Qadimgi qal'alarni o'rganishda O'zR FA Qoraqalpoqiston bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti olimlari XX asrning ikkinchi yarmidan hududdagi qal'alarni o'rganishda muhim yutuqlarga erishganlar. To'qqal'a, Mizdaxkon, Katta Aybuyirqal'a, Devkesgan, Butentovqal'a 1,2, Qo'rg'onqal'a, Qal'ajiq, Chilpiq kabi qadimgi davrga oid bir qator yodgorliklarda statsionar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ular tomonidan Xorazm viloyatining arxeologik xaritasi tuzildi. M.Mambetullaev Oybuyirqal'a yodgorligini o'rganish orqali Markaziy Osiyo bo'yicha eng qadimiy yozuvni aniqlagan<sup>1</sup>. Xiva shahrida olib borgan tadqiqot ishlari natijasida uning 2500 yillik tarixga ega ekanligini asoslab bergan<sup>2</sup>.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, institutning yetakchi olimlari tomonidan qadimgi Xorazm hududida arxeologik tadqiqot ishlari yanada keng ko'lamda davom ettirildi. Janubiy Xorazmning antik davrga

---

<sup>1</sup> Мамбетуллаев М.М., Ходжаниязов Г. Раскопки городища Айбуйир кала. // АО. 1977. Москва: 1978.

<sup>2</sup> Мамбетуллаев М., Р.Абдиримов Основные этапы развития города Хивы. // Общественные науки в Узбекистане. 1997. №7-8. -С.3-9.

oid yodgorliklari tadqiq qilindi<sup>1</sup>. Qadimgi davr qal'alarining fortifikatsiyasi, mudofaa tizimlari o'rganildi<sup>2</sup>. Xorasmiylarning janubdan migratsiyasi borasida yangi qarashlar ilgari surildi<sup>3</sup>. Janubiy Xorazm hududidan mil.avv. VIII–V asrlarga oid ko'chmanchi chorvadorlar madaniyati – Meshekli va Uch o'choq yodgorliklari topildi va u yerda statsionar tadqiqot ishlari olib borildi<sup>4</sup>. Yodgorliklar saklarning, ya'ni avtoxton chorvador qabilalarning makoni ekanligi asoslangan.

Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti arxeolog olimlari V.N.Yagodin, G'.Xodjaniyazovlar 1995 yildan Tashxirmon vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida qadimgi Xorazmning yirik markaziy shahari – Oqchaxon qal'a yodgorligi aniqlandi. Keyingi yillarda bu yodgorlikda Avstraliyaning Sidney universiteti olimlar bilan tadqiqot ishlari davom ettirganlar. Oqshaxonqal'a ibodatxonasidan qadimgi Xorazmning mil.avv. IV asrga oid xorazmshohlarning portretlari, zardushtiy xudolarining olti metrlik devoriy suratlari va tabiati tasvirlangan rangli devoriy suratlar topilgan.

Xumbuztepa yodgorligi XX asrning 70 yillari oxirlarida M.Mambetullaev, XX asrning 90-yillari va XXI asrning boshlarida S.R.Bolelov, XXI asrning 10- yillarida S.R.Baratov va B.P.Sa'dullaevlar tomonidan o'rganilgan. Yodgorlik mil.avv.VII asrning oxiri – mil.avv.VI asrning birinchi yarmida vujudga kelganligini va uning qadimgi Xorazmning kulolchilik markazi bo'lganligi asoslangan. S.B.Bolelov

---

<sup>1</sup> Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в. до н.э. – IV в. н.э.). Автореф. на соис.уч.ст.докт. ист.наук. – Тошкент. 1994.

<sup>2</sup> Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: O'zbekiston, 2007; Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарларининг мудофаа иншоотлари. – Тошкент: Фан, 2009; Ходжаниязов Г. Фортификация городища Акшахан – кала. // Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд: МИЦАИ, 2013. – С. 109 – 128.

<sup>3</sup> Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранней земледельческой культуры в низовьях Амударьи. // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Том 5. – Москва: Собрание, 2016. – С. 13 – 49; Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма. // Ўзбекистон тарихи. № 4. 2007. – Б. 22 – 34.

<sup>4</sup> Баратов С.Р. Новые археологические материалы к истории древнего Хорезма. // Хоразм Маъмур академияси ахборотномаси. 4 – сон. – Самарканд, 2014. – С. 30 – 40.

Xumbuztepaning uchta rivojlanish davrini aniqlagan<sup>1</sup>. S.R.Baratov yodgorlikning eng pastki madaniy qatlamini ochgan.

1995 yilda “Qoraqalpog‘iston–Avstraliya” xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi Qadimgi Xorazmning markaziy shahri Oqshaxonqal’a hamkorlikdagi tadqiqot ishlarini boshlaganlar. Yodgorlik mil.avv. IV asrda bunyod etilgan<sup>2</sup>. Oqchaxon qal’ada olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning ikki qismdan iborat bo‘lganligi, mustahkam mudofaa tizimi mavjudligi aniqlandi. Bu yodgorlikdan mil.avv. II-I asrlarga oid devoriy suratlar topildi. Bu O‘zbekiston hududi bo‘yicha topilgan eng qadimgi devoriy surat bo‘lgan. Unda Xorazm hukmdorlari, o‘simliklar, qushlar va zardushtiylik xudolarining tasvirlari aks etgan edi.

Qadimgi Xorazmning shaharlarini arxeologik jihatdan o‘rganish bugungi kunda keng miqyosda davom etmoqda. 2019 yilda Rossiyaning Sharq Davlat muzeyi, Rossiya FA Arxeologiya instituti bilan hamkorlik asosida Qoraqalpog‘iston–Rossiya Janubiy Orololdi kompleks arxeologik ekspeditsiyasi tashkil qilindi. Hamkorlik davomida Ustyutda ko‘chmanchi chorvadorlarning Gunjeli qo‘rg‘onlari va Katta Qirqqizqal’a yodgorliklarda tadqiqot ishlari olib bordilar<sup>3</sup>.

Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyati Axamoniylar imperiyasi hukmronligidan oldin vujudga kelgan. Axamoniylar qadimgi Xorazmda o‘zining hukmronligini o‘rnatgan bo‘lsa-da, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmaganlar. Qadimgi Xorazm hududidan axamoniylar uslubi bunyod etilgan Qal’aliqir qal’asigina aniqlangan. Mil.avv.V asrning oxiri – IV asrning boshlarida o‘z mustaqil taraqqiyot

<sup>1</sup> Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма (вторая половина I тыс. до н.э.). / Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд – Ташкент: МИЦАИ, 2013. – С. 5 – 19.

<sup>2</sup> Ходжаниязов Г.Х., Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Макларен Б.П. Раскопки на Акшахан кале. //Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар- 2000 йил. 1-сон. –Самарқанд. 2001. – С.175-181.

<sup>3</sup> Китов Е.П., Болелов С.Б., Балахванцев А.С. Возвращение в Древний Хорезм: исследования совместной российско-каракалпакской экспедиции на Устырте и Большом Кырк-Кызе // Восток (Oriens). 2019. № 6. С. 52–70.

yo'lini boshlagan qadimgi Xorazm davlatida shaharsozlik madaniyatini keng rivoj topgan.

## **TOSH DAVRIDAGI MIGRATSIYA JARAYONLARINING AYRIM MASALALARI.**

**Sh.Sh.Shavkatov**  
**Alfraganus University**  
**mustaqil tadqiqotchisi.**

Yer yuzining insoniyat tomonidan o'zlashtirilishi masalasi doimo tadqiqotchilar o'rtasida dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Insoniyat bir hududda paydo bo'lib, boshqa hududlarga tarqalganmi yoki har bir hududda o'zi paydo bo'lganmi degan savol ko'pchilikni qiziqtiradigan savollardir biridir. Ayniqsa, O'rta Osiyoga ibtidoiy odamlar qachondan kirib kelgan va qaerdan degan masala ham bugungi kunning tadqiqoti markazida turibdi. Tabiiy fanlar, arxeologiya, antropologiya kabi fanlarning rivojlanishi esa, bu masalalarni yanada chuqur tadqiq etish imkonini bermoqda va yildan yilga yangi ma'lumotlar va dalillar qo'lga kiritilmoqda.

Migratsiya jarayonlari dastlab tadqiq qilgan olim - amerikalik arxeolog Royal Taylordir. U 1958 yilda nashr qilgan asarida O'rta Osiyo va Sibirdagi xalqlarning ko'chishlari, ularning mintaqa xalqlari madaniyati va turmush tarzining shakllanishiga ko'rsatgan ta'sirini tasvirlab bergan. 1980-yillardan boshlab arxeogenetikadagi yutuqlar insonning ilk migratsiyalarini o'rganishga hissa qo'shdi.

L3 mitoxondrial gaploguruhining tashuvchilari (Gaploguruh L3 - populyatsiya genetikasida - odam mitoxondriyal DNK gaploguruhi. Gaploguruh taxminan 105-85 ming yil oldin paydo bo'lgan. M va N gaploguruhilari taxminan 5 ming yil oldin L3 mitoxondrial guruhidan kelib chiqib Sharqiy Afrikada qolgan va keyinchalik Yevroosiyoga tarqala boshlagan<sup>1</sup>. Taxminan 80 ming yil oldin oxirgi muzlik davri boshlanganda

---

<sup>1</sup> A single origin, several dispersal hypothesis. Дата обращения: 13 января 2012. Архивировано 23 сентября 2015 года.

va dengiz sathi pasayganida, bu odamlarning kichik bir guruhi Qizil dengizni kesib o'tib, Arabistonga joylashadi. Bab-el-Mandeb bo'g'ozining kengligi hozirgi davrda atigi 20 kmni tashkil qiladi. Bu muzlik davrida esa dengiz sathi 70 m ga past bo'lishi mumkin edi. Qazilma qoldiqlariga ko'ra, ko'chmanchilarning ovqat ratsionining muhim qismi sayoz suvda yashovchi mollyuskalar bo'lgan. Shuning uchun ular suvda yaxshi suzuvchi bo'lishlari mumkin. Ehtimol, ularda qandaydir suzish moslamalari mavjud bo'lgan va ular yangi sayoz qirg'oqlarini topishga qiziqishgan.

Sohilbo'yi migratsiya nazariyasiga ko'ra, odamlar dastlab Afrikadan sharqqa qirg'oq bo'ylab joylashganlar<sup>1</sup>.

Bunday odamlarning sohilbo'yi tarqalishi zamonaviy veddoidlar yoki proto-avstraloidlar kabi odamlarni Fors ko'rfazi va Hindistonga, so'ngra Andaman orollari va Indoneziyaga olib kelgan va Afrikadan chiqib ketganidan 25 ming yil o'tgach, odamlarning birinchi guruhlar Avstraliya qirg'oqlariga taxminan 55 ming yil oldin yetib kelgan<sup>2</sup>. Denisova g'oridagi neandertalning DNK tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, Sharqiy (Oltoy) neandertallari 100 000 yil oldin anatomik jihatdan zamonaviy odamlar bilan chatishtirgan bo'lishi mumkin<sup>3</sup>.

Avstraliyalik aborijenlarning genomini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mahalliy avstraliyaliklar, shuningdek, Yangi Gvineya tog'lik odamlari 75-62 ming yil oldin janubi-sharqiy Osiyoga kirib kelgan va Denisovanlar bilan chatishtirilgan qadimgi muhojirlar to'lqinidan kelib chiqqan. Zamonaviy

---

<sup>1</sup> Both Australian Aborigines and Europeans Rooted in Africa. Дата обращения: 13 января 2012. Архивировано 1 августа 2009 года; A single origin, several dispersal hypothesis. Дата обращения: 13 января 2012. Архивировано 23 сентября 2015 года; Searching for traces of the Southern Dispersal Архивная копия от 10 мая 2012 на Wayback Machine, by Dr. Marta Mirazón Lahr, et al.; Nina G. Jablonski (2002), The First Americans: The Pleistocene Colonization of the New World, University of California Press, ISBN 0940228505 Архивная копия от 26 февраля 2020 на Wayback Machine.

<sup>2</sup> Nina G. Jablonski (2002), The First Americans: The Pleistocene Colonization of the New World, University of California Press, ISBN 0940228505 Архивная копия от 26 февраля 2020 на Wayback Machine; Spencer Wells (2002), The Journey of Man: A Genetic Odyssey, Princeton University Press, ISBN 069111532X Архивная копия от 25 апреля 2015 на Wayback Machine.

<sup>3</sup> Ancient gene flow from early modern humans into Eastern Neanderthals, 2016; Учёные: неандертальцы скрещивались с людьми уже 100 тыс. лет назад. Дата обращения: 1 мая 2016. Архивировано 7 марта 2016 года.

osiyoliklar asosan g'arbdan kelgan muhojirlarning ikkinchi keyingi to'lqinidan kelib chiqqan bo'lib, ular zamonaviy yevropaliklarning ajdodlaridan ajralib, taxminan 38-25 ming yil oldin Osiyoga o'rnashib, o'zlarining o'tmishdoshlarini siqib chiqargan va qisman assimilyatsiya qilgan<sup>1</sup>. Sahul populyatsiyalarining genetik tadqiqotlari boshqa zamonaviy inson populyatsiyalarini o'rganish bilan solishtirganda, yoruba Yangi Gvineya papuaslaridan taxminan 90 ming yil oldin va Yevroosiyoning qolgan populyatsiyalaridan - 75 ming yil oldin bo'linganligini ko'rsatdi. Bu esa o'z navbatida odamlarning Afrikadan tarqalishi ikki marta sodir etilganligi, ya'ni taxminan 120 ming yil va taxminan 80 ming yil oldin tarqalganligi to'g'risidagi gipotezani tasdiqlaydi. Papuaslar va Yevrosiyo populyatsiyalarining ajralish vaqti 40 ming yil oldin sodir etilgan. G'arbiy Yevroosiyo va Sharqiy Osiyo populyatsiyalarining ajralish davridan bir oz oldin, ya'ni 30 ming yil ilgari bo'lgan<sup>2</sup>. Isroilning Misliya g'orida 194-177 ming yil muqaddam sapienslarning topilishi Afrikadan 220 ming yil oldin ko'chganligini isbotini ko'rsatadi<sup>3</sup>.

Jahon okeani sathining pasayishi o'sha davrda Sunda deb atalgan hozirgi Katta Sunda orollarini bog'laydigan katta quruqlik massasining (chiqib ketgan kontinental shelf) mavjudligiga sabab bo'lgan. Yangi Gvineya Avstraliya bilan birga yagona qit'adagi Sahul qismlarini ham ifodalagan va atigi 8 ming yil oldin Avstraliyadan bo'g'oz orqali ajralib chiqqan<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> An Aboriginal Australian Genome Reveals Separate Human Dispersals into Asia // Science. Published online 22 September 2011. Дата обращения: 24 сентября 2016. Архивировано 6 ноября 2016 года; 9. Геном австралийского аборигена свидетельствует о двух волнах заселения Восточной Азии. Дата обращения: 14 января 2012. Архивировано 25 октября 2012 года

<sup>2</sup> Человечество вышло из Африки дважды? Дата обращения: 29 июля 2022. Архивировано 15 мая 2021 года; 11. Genomic analyses inform on migration events during the peopling of Eurasia, 2016.

<sup>3</sup> Scientists discover oldest known modern human fossil outside of Africa Архивировано 11 февраля 2019 года., January 25, 2018.

<sup>4</sup> Hudjashov G., Kivisild T., Underhill P. A., et al. Revealing the prehistoric settlement of Australia by Y chromosome and mtDNA analysis (англ.) // Proceedings of the National Academy of Sciences of the United States of America : journal. — 2007. — May (vol. 104, no. 21). — P. 8726—8730. — doi:10.1073/pnas.0702928104. — PMID 17496137. — PMC 1885570; From DNA Analysis, Clues to a Single Australian Migration. Дата обращения: 30 сентября 2017. Архивировано 15 мая 2013 года.

Sunda xalqining yana bir qismi shimoli-sharqqa Xitoyga yo'l olgan va u yerda qadimgi qirg'oq joylari zanjirini qoldirgan. Bundan tashqari, hozir Hindiston, Xitoy, Hindixitoy, Yaponiya va boshqa hududlarda istiqomat qilayotgan ularning avlodlari ota-bobolaridan mitoxondrial gaplotip M ni olganlar. Shu bilan birga, Yaqin Sharqda yashagan xalqlarning bir qismi O'rta Osiyo, Sibirga va uzoq sharqqa ko'chib o'tgan. Ularning avlodlari taxminan 50 ming yil oldin ajralib chiqqan A, B va G mitoxondrial gaploguruhlar bilan ajralib turadi.

Y-xromosoma gaploguruhi K\*(xLT) va mitoxondrial gaplogruh R bo'lgan Ust-Ishim odamining topilishi, shuningdek, Sopkargin mamontining topilishi shuni ko'rsatdiki, bundan 45 ming yil avval g'arbiy Sibir va Taymirda zamonaviy odam yashagan. Shunga qaramay, g'arbiy va sharqiy yevroosiyoliklar qayerda va qachon ajralganligi noma'lumligicha qolmoqda. Sharqiy yevroosiyoliklar Xitoyda, ehtimol Mo'g'ulistonda va janubiy hududlarda yashagan deb taxmin qilinadi. Ehtimol, u yerda ular o'zlarining genomlarining bir qismini bergan Denisovchilar bilan chatishtirilgan. Genetiklarning fikriga ko'ra, taxminan 24-18 ming yil oldin, Amur o'lkasi va Baykalda yashagan sharqiy yevroosiyoliklarning avlodlari shimoliy-sharqiy Sibirga yetib kelishgan<sup>1</sup>.

Tosh davridagi migratsiya jarayonlarini tadqiq etgan yana bir taniqli olim rus arxeologi Lev Gumilyovdir. U o'z asarlarida O'rta Osiyo xalqlarining ko'chishlari va ularning mintaqa xalqlari madaniy an'analarning shakllanishiga ta'sirini tasvirlab bergan. Lev Gumilyov dashtliklarning ko'chishi majburiy deb hisoblagan. U o'z asarida: "III asrda O'rta Osiyoda qurg'oqchilik boshlanib, ko'chmanchilar Xitoyning shimoliy chekkalariga ko'cha boshladilar. Garchi Xitoy hukumati ularni sovuqqonlik bilan qabul qilgan bo'lsa-da, zodagon xunlar xitoyning ta'limini olib,

---

<sup>1</sup> Дорога древних Архивная копия от 18 февраля 2020 на Wayback Machine, 06.06.2019.

sharqiy Osiyoning eng buyuk madaniyatiga qo'shilishdi, lekin ular hech qachon xitoylik bo'lmadilar va xitoyliklarni o'zlariniki deb hisoblamadilar. Natijada qo'zg'olon ko'tarilib, yangi hukumat tuzildi va migrantlarning avlodlari bosqinchilarga aylandi”<sup>1</sup> deb yozib qoldirgan. L.Gumilyovning III—V asrlar tarixidan xulosasi shu edi: “...bir hududda bir-biriga dushman bo'lgan ikki yoki undan ortiq etnik guruhlarining hayoti davlat va jamiyatni ximeraga (o'z tarkibiga kirgan xalqlar uchun beqaror va xavfli shakllanishga) aylantiradi”. L. Gumilyov bu atamani parazitologiyadan olgan va ximeralar odatda superetnoslar chegaralarida paydo bo'ladi, deb hisoblagan. Ximeralar millatlararo aloqalarning yagona shakli emas. Assimilyatsiya bo'lishi ham mumkin (bir etnik guruhning boshqasiga singib ketishi). Qoida tariqasida bu nizosiz etnik aloqa paytida va hatto etnik ximerada ham sodir bo'lishi mumkin. Bir nechta eski etnoslarni birlashtirib, yangi etnik guruh yaralishi (integratsiya) mumkin.

L.Gumilyov millatlararo aloqalarning yana ikkita shaklini ajratib ko'rsatdi. Ularda etnik guruhlar qo'shilmaydi, lekin janjal ham qilmaydi. Kseniya (ya'ni "mehmon") va simbioz. Kseniya neytral shakldir: xalqlar yonma-yon yashaydi, birlashmaydi, lekin bir-biriga aralashmaydi. Millatlararo aloqalarning ijobiy shakli bo'lgan simbioz bilan do'stona munosabatlar etnik guruhlar raqobatlashdan bir-birini to'ldirganda paydo bo'ladi. Ximera yoki kseniyadagi millatlararo aloqaning tabiati komplementarlik bilan belgilanadi, ammo, simbioz ijobiy komplementarlikdan tashqari, mehnat taqsimoti bilan ham bog'liq. Gumilyov xitoyliklar va dashtliklar o'rtasidagi ziddiyatni ularning xulq-atvori stereotiplari, etnik an'analarining mos kelmasligi bilan izohlagan.

Tosh davrida O'rta Osiyoda migratsiya jarayonlari murakkab va xilma-xil bo'lgan. Ular resurslar uchun kurash, iqlim o'zgarishi, yangi texnologiyalar va madaniy an'analarning tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan. Tosh davridagi aholi migratsiyalari yangi jamoalarning saqlanib qolishi va

---

<sup>1</sup> Беляков С. С. Гумилёв сын Гумилёва: [биография Льва Гумилёва]. — М.: АСТ, 2013. — 797 с.

rivojlanishi uchun zarur bo'lib, ular mintaqa va butun insoniyat tarixiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Tosh davridagi migratsiya jarayonlarini zamonaviy tadqiqotlar arxeologiya va genetikaning zamonaviy usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Ular xalqlar migratsiyasining kelib chiqishi va yo'nalishlarini, shuningdek, mintaqa xalqlari madaniyati va turmush tarzining shakllanishiga ta'sirini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Tosh davridagi migratsiya jarayonlarining so'nggi tadqiqotlaridan biri amerikalik olimlarning 2015 yilda "Science" jurnalida chop etilgan ishi bo'ldi. Unda taxminan 4,5 ming yil muqaddam Yamna xalqining Yevropaga ko'chishi tasvirlangan. Bu etnik guruhlarning aralashib ketishiga va yangi madaniy an'analarning shakllanishiga olib kelgan.

## ***O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO TARIXI MASALALARI.***

### **XORAZMSHOHLAR DAVLATINING IJTIMOIIY VA IQTISODIY AHVOLI**

**D.M Yunusova**  
**Toshkent amaliy fanlar Universiteti**  
**o'qituvchisi**

IX-XII asrlar Movarounnaxr va Xorazm tarixida oltin davr deb yuritiladi, negaki bu davrda Xorazm ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy jabhalarda yuksak darajalarga erishdi. Avvalo, davlatchilik taraqqiy etdi. Dastlab Ma'muniylar, keyin Anushteginiylar davlati barqarorlashdi. Anushteginlar qo'l ostidagi mulklarda katta miqyosda qurilish, bunyodkorlik ishlarini olib bordilar. Masjidlar, madrasalar, karvonsaroylar barpo ettirdilar. Gurganj sharqning go'zal shaharlaridan biriga aylandi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot, san'at nihoyatda rivoj topdi. Mana shunday

buyuk ishlar tufayli bu davr Xorazm tarixida oltin davr sifatida muxrlangan<sup>1</sup>.

Xorazm davlati qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik rivojlangan xududlardan biri bo'lgan. Qadimgi davrlarda bu xududning rivojlanishining asosiy omillardan biri Buyuk ipak yo'lining bu xududdan o'tganligi edi. Xorazmshohlar davlati davrida-yirik siyosiy birlashmaning vujudga kelishi bilan davlatning siyosiy mavqei oshdi. Bu esa o'z navbatida hunarmandchilikning, savdoning rivojlanishiga, shaharlarning yuksalishiga zamin yaratdi. Ulkan mintaqada siyosiy yaxlitlik va barqarorlikka erishilishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida ham ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Arxeologik izlanishlar, yozma manbalar guvohligiga ko'ra sun'iy sug'orishga katta e'tibor berilib, vohalar imkonidan iloji boricha keng foydalanishga harakat qilingan. Natijada dehqonchilikni rivojlanishida uzilish bo'lmagan. Turli xil qishloq ho'jalik mahsulotlari yetishtirilgan. Ulardan yuqori hosil olingan. Shaharlarda hayot qaynab, savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlangan. Mamlakatda ishlab chiqarilgan turli xildagi gazlamalar, zargarlik buyumlari, kiyim-kechaklar, gilam, poyondozi, teri, jun, yog'moy, sovun, qurol-aslaha, egar-jabdug'lar, ho'l meva, quruq meva, ipakliklar, javohirlar va boshqa ko'plab mahsulotlar ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda xaridorgir edi. Albatta, bunda tegishli davlat idoralarining hissasi ham katta bo'lgan. Chunonchi, doim bo'lganidek muxtasiblar bozorlardagi narx-navo, mahsulotlarning sifati, toshu tarozuning ahvolidan xabardor bo'lishni to'xtatmaganlar. Karvon yo'llarida to'xtash joylari, suv omborlari, havzalari qurilgan yo borlari ta'mirlangan, katta karvonlarni qo'riqlab borishga hatto sultonning shaxsiy pahlavonlari ham jalb etilgan.

Xorazmshohlar davlati markazi Gurganj yirik savdo va madaniy markazga aylangan. Shuningdek, Xazarasp, Kat, Xushmusan, Darg'on,

---

<sup>1</sup> Ibrohim Qafes o'g'li. Xorazmshohlar davlati tarixi. – T.: Navro'z, 2016. – 315 b.

Savag'on, Mang'ishloq, Nuzkat kabi shaxarlari obod shaxarlar qatoriga kirgan. Xorazmshohlar davlatida raiyat, ya'ni oddiy aholining ijtimoiy turmush tarzi yaxshi bo'lishi uchun hukmdorlar alohida ahamiyat berganlar. Jumladan, Xorazmshoh Takash o'z farmonlaridan birida raiyatga nisbatan adolatli bo'lishga, dehqonlarning manfaatini himoyaga qilishga, soliqlarni olish jarayonida qonunlarga to'liq rioya etishga amr qilgan. Jaloliddin Xorazmshoh ham urush natijasida qiyin ahvolga tushib qolgan aholini soliqlardan ozod etgan.<sup>1</sup>

Xorazmshohlar davrida dehqonlarning turmush tarzi ancha yuqori bo'lgan. Xukmdorlar va iqto egalari ham dehqonchilikdan yuqori hosil olish uchun dehqonchilikka ko'p mablag' sarflab, qishloqning iqtisodiyotiin qo'tarishga harakat qilganlar. Takashning munshiysi-shaxsiy kotibi Muxammad Bag'dodiy At-tasviri ila-t-tarassul (Muxim nomalar bitish yo'l-yo'riqlari) asarida o'sha davrdagi axvolni yozib qoldirgan.<sup>2</sup>

Bu davrdagi voqea-hodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va to'g'ri xolis xulosalar chiqarishi mumkin bo'lgan inson Shahobiddin An-Nasaviy Sul-ton Muhammadning hukmronligini yuksak baholab shunday deydi: «Uning amalga oshirgan ishlari nihoyatda ulug' edi, otasi unga Xuroson va Xorazm hukmdorligini meros qoldirdi, u bunga Iroq va Mozandarinni ham birlashtirdi. Shu bilan birga, qo'l ostiga Kirmon, Kesh, Seyiston, G'ur, O'azni, Bomiyon mamlakatlarini, Hindistonning vodiylariga qadar maskanlarni qo'shib oldi. Bu ishlarning hammasini qilichlar qindan chiqarilmasdan, hatto qinlar yelkalarga osilmasdan amalga oshirildi, bu mamlakatlarni ortiqcha kuchsiz, kurashsiz, zo'ravonlik va vayronagarchiliksiz, bosib oldi. U o'z qo'l ostiga to'rt yuzga yaqin shaharlarni birlashtirdi. Boshqa birov bo'lganda bu darajada

---

<sup>1</sup> <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/116>

<sup>2</sup> Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sul-ton Jaloliddin Manguberdi hayoti / Matyoqubov K. tarjimasi. – Toshkent: O'zbekiston - Yozuvchi, 1999. – 432 b.

muvaffaqiyatga erishishi qiyin kechardi, u esa bir og‘iz so‘z bilan qo‘l ostiga shuncha miqdordagi mulkni to‘pladi».<sup>1</sup> Anushteginlar davrida madrasalar barpo etish, kutubxonalar ochish, ularni kitoblar bilan to‘ldirish, iste’dod egalarining boshini silash, asrab-avaylash odati saqlanibgina qolmay, yanada rivoj topdi. Ziyo maskani bo‘lmish kutubxonalar faoliyatiga katta e’tibor berilgan. Masalan, Buxoro viloyatidagi shaharlardan birida fuqarolar, ya’ni umumiy kutubxona mavjud bo‘lib, unda saqlanadigan qo‘lyozma asarlar g‘oyatda noyob hisoblangan. Xuddi shunday kutubxonalar Xorazmda ham bo‘lgani ma’lum. Madrasalarga kelsak, manbalarda yozilishicha, bunday bilim maskanlari saltanat markazi Xorazmdan tashqari Nishopur, Isfahon va boshqa shaharlarda ham qad ko‘targan. Ularda o‘qish jarayoniga juda katta mas’uliyat bilan qaralganini shundan ham bilib olsa bo‘ladiki, madrasa rahbari va mudarrislar oliy hukmdor yo uning joylardagi noibining maxsus buyrug‘i bilan tayinlanganlar. Mutaxassislar esa tarbiyalanadi, parvarish etiladi. Xorazmshohlardan Otsiz, Takashlarning shu ma’nodagi buyruqlarini tahlil qilarkanmiz, ular mazkur haqiqatni juda to‘g‘ri anglaganliklari namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham ular ta’lim va tarbiya, fan sohalariga mutasaddilarning ilimli, iymonli, hurmatli, halol bo‘lishlariga katta e’tibor bilan qaraganlar. Mazkur siyosat o‘z mevasini ham bergan.<sup>2</sup>

Qutbiddin Muhammad va Otsiz zamonlarida mashhur tibbiyot olimi Sayyid Ismoil Jurjoniy faoliyat ko‘rsatib, bir qator qimmatli asarlar yaratgan. Ular orasida Qutbiddin Muhammadga bag‘ishlangan «Zahirayi Xorazmshohiy» asari alohida o‘rin egallaydi. Bu asarning qimmatini shu qadar bo‘lganki, Jolinus (Galen), Muhammad Zakariyo, Ibn Sino, Abu Sahl Masihiy asarlari bilan bir qatorda tibbiyot sohasidagi eng muhim asar va manbalardan biri sifatida qabul qilingan. Ulkan hududda markazlashgan davlatning tashkil topganligi turli xalqlar o‘rtasidagi savdo-sotiq va

---

<sup>1</sup> Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti / Matyoqubov K. tarjimasi. – Toshkent: O‘zbekiston - Yozuvchi, 1999. – 432 b.

<sup>2</sup> <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/116>

madaniy aloqalarni nihoyatda rivojlanishiga olib keldi, o'zaro urushlarga chek qo'yilib, xalqning tinchligi ta'minlandi. Mirzo Ulug'bek bu holatni shunday ifodalaydi: «Mo'tabar tarixlarda bitilmish va zikr etilmishkim, Sulton Muhammad Xorazmshoh zamonida Eron va Turon davlati bag'oyat osoyishtalikda va so'lim edi. Shoh shu darajada kuchaydiki, mamlakatda birorta ham o'g'ri qolmadi».<sup>1</sup>

Xorazmshohlar davri fan va madaniyat yuksalgan, chunki Xorazm an'anaviy ravishda fan va madaniyat beshigi bo'lib kelgan. Shuningdek, Xorazmshohlar davrida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiy etgan va davlat arboblari ham ilm-ma'rifatli bo'lgan. Xorazmshohlar zamonida ayni shu ikki omil o'zaro uyg'unlashgan edi.

XIII asrning boshida Markaziy Osiyo xalqlari Chingizxon boshliq mo'g'ullar bosqiniga uchradi. Bu bosqin katta hududni o'ziga bo'ysundirgan Xorazmshohlar davlatiga qarshi shiddatli janglar bilan boshlandi, ko'p shaharlar, madaniy yodgorliklar vayron etildi. Olimu fozilar o'ldirildi, boshqa mamlakatlarga quvg'in bo'ldi, ilm-fan, madaniyat keskin tushkunlikka yuz tutdi.<sup>2</sup>

Mo'g'ullar istilosi oqibatida Movarounnahr va Xorazmning yashnab turgan obod dehqonchilik viloyatlari halokatga uchradi. Gavjum va ko'rkam shaharlar, ayniqsa, **Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Banokat, Xo'jand** va boshqalar xarobazorga aylantirildi. Urganch suvga bostirilib, batamom vayron etildi. Xorazm va Movarounnahrning ziroatchi aholisi soni keskin kamayib ketishi oqibatida ekinmaydonlari jiddiy qisqarib, dehqonchilik inqirozga uchraydi. Mohir hunarmandlar g'oliblarning yurtini obod etish uchun majburan Mo'g'ulistonga yuborildi. Butun Sharqda shuhrat topgan qurol - aslaha yasash, nafis ipak matolar to'qish, naqshli shishasozlik hunarmandchiligi barham topdi.

<sup>1</sup> Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. –Т: Чўлпон, 1994.- 356 б.

<sup>2</sup> Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов — Ануштегинидов. –Москва. 1986.

## **IX VA X ASRLARDA O'RTA OSIYODA MUSTAQIL DAVLATLARNING VUJUDGA KELISHI**

**B.A.Saidusmonov**  
**CHDPU Ozbekiston tarixi kafedrası**  
**katta oqituvchisi**  
**N.R. Berkinbayeva**  
**CHDPU Tarix yonalishi**  
**2 bosqich talabasi**

IX - XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish davri bo'ldi. IX - X asrlarga kelib Movarounnahr hududida mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Buxoro, Samarqand, Gurganj va Marv kabi shaharlar ilm - fan va madaniyat markazlari sifatida shakllanib, rivojlana boshladi. Yoqut al - Hamaviy " Mo'jam al - buldon" asarida shunday yozadi: "Movarounnahr eng ko'rkam, eng unumdor va xazinası ko'proq o'lkalardandir. Aholisi esa yaxshilikka va saxovatga rag'batli chaqirgan kishiga kamtarlik bilan muomila qiluvchi, qo'llarida borini baham ko'ruvchilardir. Agar bir xonadonda bir kechada yuz, ikki yuz yoki ko'proq odamlar ot ulovlari bilan mehmon bo'lsa, ulovlarga yem - xashak, o'zlariga taom va ko'rpa to'shaklar ham topish mumkin edi. Uy egalari esa bu narsa doimiy odat bo'lganligi uchun hech qiynalmasdilar. Movarounnahr aholisining ko'pchiligi o'z mablag'larini bog' - rog' barpo qilishga, yo'llarni ta'mirlashga sarf qilishga odatlanganlar. Ko'rkamlikda esa butun dunyoda Buxorodan go'zal joy yo'q" <sup>1</sup>.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan yuksaldi, hozirgi zamon fanining ko'plab tarmoqlari va yo'nalishlariga chinakam poydevor yaratildi. Xususan matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, geologiya, geodeziya, jug'rofiya, falsafa singari dunyoviy fanlarning tamal toshi tom ma'noda shu

---

<sup>1</sup> Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent. SHARQ. 2001. 402-b.

davrda qo'yildi. Buyuk matematik, astronom va geograf olim Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850) nomi fan tarixida alohida o'rin tutadi. Olim o'zining «Hisob aljabr val Muqobala», «Hind arifmetikasi haqida kitob», «Quyosh soatlari haqida risola», «Astronomik jadvallar» singari asarlari bilan «Algebra» faniga asos soldi. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi paytda biz foydalanayotgan o'nlik hisoblash sistemasining Evropada tarqalishiga sabab bo'ldi. Allomaning «alXorazmiy» nomi «algoritm» shaklida fanda abadiy muhrlanib qoldi. Olimning «Kitob surat al-arz» nomli geografiyaga doir asari shu qadar fundamental ahamiyatga egaki, u arab tilida ko'plab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi.<sup>1</sup> Uning Sharq geografiyasining otasi deb nomlanishi ham shundan. Xorazmiy yaratgan «Zij» Ovro'pada ham, Sharqda ham astronomiya fanining rivojlanishi yo'llarini belgilab berdi. Alloma qalamiga mansub «Kitob at-tarix» («Tarix kitobi») asari Movarounnahr, Xuroson va Kichik Osiyo halqlarining VIII-IX asrlarga oid tarixini to'laqonli yoritishda muhim qo'llanmadir. Al-Xorazmiyning arab ilmiy dunyosining yirik markazi - Bag'doddagi Ma'mun akademiyasida ishlagan davrlari uning iste'dodining eng barq urgan paytlari bo'ldi. U shu akademiyaning rahbari sifatida ilm ahliga ibrat ko'rsatdi.

IX asrda O'rta Osiyo hududida hali ham arablar hukmronligi davom etardi. Ammo erk va hurlik singari oliyjanob tarixiy an'analarga sodiq bo'lgan avlod-ajdodlarimiz arab bosqinchilariga qarshi kurashni bir daqiqa bo'lsada to'xtatmadilar va mustaqil markazlashgan davlat barpo qilishga intildilar. Bu harakat arab istilochilarini har doim tahlika va qo'rquv ostida saqlab turdi. Ular joylardagi, hatto o'zlaridan chiqqan hukmdorlarga ham shubha bilan qarar va ishonmas edilar. Hokimiyat tepasiga barmoqiylar o'rniga Tohiriylar keladi. Tohiriylar Xurosonning yirik oqsuyak yer egalaridan bo'lib, bu sulolaning asoschisi

<sup>1</sup> Murtazayeva R. O'zbekiston tarixi. – Toshkent. Yangi asr avlodi. 2003.

Tohir ibn Husayn edi. Bu sulola asli Hirot viloyatining Bushang shahridan edi. Tohir 809–813-yillarda Xorun ar-Rashidning o‘g‘illari Ma‘mun bilan Amin o‘rtasidagi bo‘lgan kurashda Ma‘mun tomonida bo‘ldi, unga Bag‘dodni va xalifalik taxtini egallashda yordam berdi. Ma‘mun 813-yilda xalifalik taxtiga o‘tirgach, Tohir ibn Husayn katta hurmat va e‘tiborga loyiq nufuzli kishi bo‘lib qoldi. 821-yilda u Xurosonning noibi etib tayinlandi. Abulabbos Abdulloh noibligi davrida (830–844) xalifaga rasman qaram — vassal bo‘lsada, amalda mustaqil davlatga aylanib, poytaxtni Marvdan Nishopurga ko‘chirdi. Ettisuv, Sharqiy Turkiston o‘lkalarida IX asr ikkinchi yarmida turli turkiy qavmlar, elatlarning o‘zaro birikuvi natijasida va qo‘shiluvi davomida Qoraxoniylar davlati tashkil topdi. Mazkur davlatga asos solgan siymo Abdulkarim Sotuq Bug‘roxon (859-955) yag‘molar qavmiga mansub bo‘lgan. Bu davlat hukmdorlari «arslonxon» yoki «qoraxon» unvonlari Qoraxon so‘zining lug‘aviy ma‘nosi esa turkiy qabilalarda «ulug‘», «buyuk» degan tushunchalarni anglatgan. IX-XII asrlarda Movarounnahrda moddiy madaniyat o‘ziga xos uslub va shakllarda to‘xtovsiz rivoj topib bordi. Somoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar sulolalariga mansub ma‘rifatparvar hukmdorlarning ilm-fan va madaniyatga doimiy rag‘bat berishlari orqasida ko‘plab iste‘dod sohiblarining salohiyati, ijodi o‘sib, yuksalib borgan.

IX-XII asr boshlarida O‘rta Osiyoda Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatlari hukm surdilar. Bu davlatlar xalqaro maydonda o‘z mavqei va tutgan o‘rni jihatidan katta e‘tibor va nufuzga ega bo‘ldilar. Ahmad, Nasr, Ismoil Somoniy, Alptagin, Mahmud G‘aznaviy, To‘g‘rulbek, sulton Sanjar, Otsiz, Takash singari tadbirkor va uzoqni ko‘ra oladigan davlat arboblari davrida O‘rta Osiyoda hayotning barcha jabhalarida yuksalishlarga erishildi, davlat hokimiyati mustahkamlandi, nisbatan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik vujudga keldi.

**Ўрта асрларда Фарғона водийсидаги этник жараёнларга доир  
айрим маълумотлар**

**Тошкент Амалий фанлар университети**

**PhD., доц. Севинч Улашова**

Барча даврларда бўлгани каби ўрта асрларда ҳам Фарғона водийси аҳоли гавжум минтақа ҳисобланган. Манбаларда X асрда Фарғона вилоятида 40 та шаҳар бўлганини қайд этилиши ҳам фикримизни исботлайди. Водийнинг йирик шаҳарлари қаторида Қува, Ўш, Ўзган қабилар тилга олинган. X-XII асрларда водий шаҳар ва қишлоқлари янада кенгайиб, аҳоли қалинлашганини араб ва форс манбаларида кўп бор таъкидланади. Хусусан, Истахрий бутун Мовароуннаҳр Дар ал-Харб ҳудуддир<sup>1</sup>. Хоразмдан Исфижобгача ўзуз туркларининг, Исфижобдан Фарғонага қадар қарлуқ туркларининг еридир. Мовароуннаҳр халқи туркларнинг қаршисида бир ҳудуд ташкил этади. Зеро, турклар бошқа ирқларга (халқларга) қараганда, қувват, журъат, жасоратда устун бўлганидан Мовароуннаҳр халқининг аскарлари турклардандир<sup>2</sup>, дейди.

Муқаддасий “Мовароуннаҳр – Naytal (Neftal) минтақаси бўлиб, халқи зангин, номусли, яхшилик севар, мусофирпарвар, олимларга хурмат кўрсатиш билан бирга илмга кўп рағбат кўрсатади, динлари бутун, бақувват, бўйинлари қалин, қалби тоза, жамоатлари энг давомли кишилардир”<sup>3</sup>, дейди. Манбада айтилишича, Шош халқининг тили Хайтал минтақасининг энг гўзал тилидир<sup>4</sup>. Муаррих фикрини давом эттириб, “энг гўзаллари Шош, Фарғона ва атрофларининг халқи, сўнгра Насаф, Фароб халқидир, дейди. Бу ернинг

<sup>1</sup> Доимий ҳарбий ҳаракатлар бўладиган ҳудудга нисбатан ишлатилган ибора.

<sup>2</sup> Istahrî. Mesâlik el-memâlik / de Goeje. – Leyden, 1927. – S. 289.

<sup>3</sup> Makdisî. Ahsen el-takâsîm fî ma’rifet el-ekâlîm / de Goeje. – Leyden, 1885. – P. 261.

<sup>4</sup> Ўша асар. – Б. 335.

хотинларига гўзалликда ўхшаши йўқдир. Кейингилари самарқандлик, бухоролик ва марвликлардир<sup>1</sup>.

XIII асрда маҳаллий турғун аҳоли Мовароуннаҳрнинг барча шаҳар ва қишлоқларида яшаб, деҳқончилик, савдо-сотик ва хунармандчиликнинг турли соҳалари билан шуғулланган. Туркийзабон аҳолининг маълум қисми кўчманчи, ярим кўчманчи ва ярим ўтроқ ҳаёт кечириб, хўжалигида чорвачилик муҳим аҳамиятга эга бўлган. Чорвадор ва ўтроқ халқлар доимо бир-бирлари билан иқтисодий ва маданий алоқада бўлиб келганлар.

Араб ва форс манбаларида айтилишича, Мовароуннаҳр вилоятлари орасида энг нуфузли ва аҳоли зич яшаган ҳудуд Фарғона водийси бўлган. Ибн Ҳавқалнинг айтишича, бу даврда Фарғонанинг 60 та кўйи (шаҳар ёки қишлоққа нисбатан ишлатилган – У.С.) бор эди<sup>2</sup>. Уларда асосан турғун аҳоли истиқомат қилган. Фарғонада шаҳар ва қишлоқлар сони ҳам кўп бўлган. Истахрий “қишлоқларнинг кўплиги бўйича Мовароуннаҳрда Фарғонага тенг келадигани йўқ. Аҳолисининг кўплигидан қишлоқларнинг баъзилари ниҳоятда катта ва ундан ўтиш учун бир кун йўл юриш керак”<sup>3</sup>, дейди. Муаррих Хоразм кўлининг шимолидан Фарғона ва Тарозга қадар қарлуқ турклари яшаганини айтади<sup>4</sup>.

Водийдаги шаҳарлар ичида энг йириклари Кува, Ўш, Ўзганд бўлиб, Идрисий “Ўзганд халқи эҳтиёткор, жасурдирлар. Бу шаҳарнинг кўп қишлоқлари бор”<sup>5</sup>, дейди. Фарғона водийсида қишлоқларнинг кўплиги ва катталиги ҳудудда ўтроқ аҳолининг зич жойлашганидан далолат беради.

К. Шониёзовнинг фикрича, IX-X асрларда Фарғона водийсидаги турғун аҳоли 1,5 миллион бўлган. Бунга тоғолди яйловларда, водийнинг шимоли-шарқидаги тоғли ҳудудларда яшовчи кўчманчи ва ярим кўчманчи қавмларнинг сони тахминан ярим миллион бўлган десак, шунда мазкур

<sup>1</sup> Ўша жойда. – Б. 335

<sup>2</sup> Şeşen Ramazan. İslam coğrafyacılarına göre türkler ve Türk ülkeleri. 2-baski. Türk Tarih kurumu basımevi. Ankara, 2001. – S. 245.

<sup>3</sup> Истахри // МИКК. Т. 1. – Москва, 1973. – С. 31.

<sup>4</sup> Makdisî. Ahsen el-takâsîm fî ma'rifet el-ekâlîm / de Goeje. – Leyden, 1885. – P. 287.

<sup>5</sup> Şeşen Ramazan. İslam coğrafyacılarına göre türkler ve Türk ülkeleri. 2-baski. Türk Tarih kurumu basımevi. Ankara, 2001. – S. 96.

даврдa Фарғона водийсининг жами аҳолиси 2 миллион киши бўлиб чиқади<sup>1</sup>. Мўғуллар босқинига қадар ҳудудда аҳолининг ўсиши натижасида водийдаги умумий аҳоли 2,5 миллионга чиққан деб тахмин қилиш мумкин.

Фарғона водийсининг ғарбий чегараси Сирдарёнинг ўрта қисмидаги вилоятларга уланиб кетган. Бу минтақада Хўжанд, Усрушона ва Шош воҳаси жойлашган. Хўжанд Фарғонадан Усрушонага ўтишда Мовароуннахрнинг ўрта асрлардаги йирик шаҳарлардан бири бўлиб, у ерда асосан турғун маҳаллий аҳоли (*ўзбек* ва *тожик*) истиқомат қилган. Ибн Ҳавқал Хўжанд халқи гўзал ва инсонлик соҳибидир<sup>2</sup>, дейди.

Мўғуллар босқини Мовароуннахрнинг бошқа вилоятлари каби Фарғона водийси аҳолисининг ҳам кескин камайишига олиб келди. Водий аҳолисининг бир қисми урушда ҳалок бўлган бўлса, бошқа бир қисми кўшни мамлакатларга кўчиб ўтди. Минтақада яшаб қолган ўтроқ ва кўчманчи аҳолининг аксарияти камбағаллашиб қолган эди.

Бу даврдa Фарғона аҳолисининг аксарияти худди Тошкент ва Хоразм аҳолисининг катта қисми каби ўзларини *сарт* деб атаганлар<sup>3</sup>. Сартлар асосан шаҳар ва қишлоқлар марказларида истиқомат қилган бўлишса, шаҳар ва қишлоқлар атрофларида кўчманчи, ярим кўчманчи ва ярим ўтроқ уруғ-қабилалар истиқомат қилган.

Мазкур даврдa Фарғонада яшаган йирик этнослардан бири *қарлуқлар* ҳисобланиб, бу вақтда улар қорахонийларнинг Ўзгандаги меросини бошқариб келаётган эди. Ўзган мулки давлат сифатида XIII аср 60-70-йилларигача сақланиб қолган. XIII аср ўрталарида улуғ коон Мункехон (1251-1259) Ўзган давлати ва Фарғонани Арслонхон *қарлуқнинг* ўғлига (мўғулларга хизмати эвазига) инъом қилган<sup>4</sup>.

<sup>1</sup>Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент, 2001. – Б. 193.

<sup>2</sup>Ўша асар. – Б. 244.

<sup>3</sup>Бартольд В.В. Сарт. Соч. Т. II, ч. 2. – Москва, 1964. – С. 527-529.

<sup>4</sup>Бартольд В.В. Карлуки, соч. Т. V. – М., 1968. – С. 548; Кадырбаев А.Ш. Турки и иранцы в Китае и Центральной Азии XIII-XIV вв. – Алма-Ата, 1990. – С. 41.

Мўғуллар минтақа халқлари бошига фақатгина кулфат келтирмаган, албатта. Водий аҳолиси зич бўлгани боис ҳам бу ерда янгидан янги шаҳар ва кишлоқларни бунёд этишга эҳтиёж доимо бўлган. Хусусан, Чигатой улусида Бука Темурдан кейин Бароқхоннинг ўғли Дувахон тахтга келади. У 30 йил хукмронлик қилади. Унинг даврида хароб бўлган шаҳарлар қайта тикланди ва Андижон деган янги шаҳар барпо этилди<sup>1</sup>.

Шунингдек, мўғуллар билан бирга кириб келган уруғ-қабилаларнинг айримлари Фарғона водийси ва унга қўшни ҳудудларга жойлашдилар. Жумладан, *дуғлот*лар мўғуллар даврида минтақага келиб жойлашган этнослардан биридир. Улар йирик этнос бўлиб, XIV-XV асрларда Мовароуннаҳрга келиб ўрнашган. Уларни Фарғона, Самарқанд, Қоратегин, Ҳисор ва бошқа вилоятларда тарқоқ ҳолда яшагани “Бобурнома”да қайд этилган. Манбага кўра, Ҳисор *дуғлот*лари Бобурга беғараз хизмат қилган<sup>2</sup>.

Яна бир йирик этнос *найман*лар бўлиб, улар Зарафшон, Фарғона водийси ва Хоразм воҳасида ҳам яшаган. Улар уч йирик гуруҳга (*қўштамғали, садирбек* ва *увохтамғали*) ва бир қанча уруғ бўлимларига (*ағрон, айрончи, бадир, бия, бағонали, болтали, бугалай, бурунсов, жағалбайли, жостовон, жилонли, жумалоқ бош, олти ота, олти ўғил, оқ тўнли, пўлатчи, сагиз урув, сари найман, тўртул, тўрт тамғали, ургуч, чангалли, чўмичли, гоз оёқли, қора найман, қора гадой, қора сирак, қарғали, қил тамғали, қўл тамғали*<sup>3</sup>) бўлинган.

Фарғона водийсидаги йирик этнослардан яна бири *қипчоқ*лар бўлиб, улар бир қанча уруғларга (*қўғай, бугоч, кумушой, ўлмас, яшиқ, жайдоқ, пучугой, элатан, бўғоз, огим, тоз, сирмоқ, еттиқашқа, қутлуқсаид, черек, кўкмўйин, тўртайғир (ёки, тўрт оғайни), тўрттой, товулди, чангроқчи, чиял, кўлон, оқбўйра, қорабовур, бошқирд, тикан, қора-тикан, сари-тикан, қорамоюн*<sup>4</sup>) бўлинган.

<sup>1</sup> Mustafa Kafalı. Çagatay hanlığı. – Ankara. 2005. – S. 116.

<sup>2</sup> Бобур. Бобурнома. – Т., 2008. – Б. 89-90.

<sup>3</sup> Бўриев О., Хўжамбердиев Т. Этнологик атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. – Қарши. 2008. – Б. 56-57.

<sup>4</sup> Зиётов З. Турон қавмлари. Т., 2011. – Б. 201.

Мўғуллар билан бирга Мовароуннахрга дастлаб муҳофиз гуруҳлари сифатида кириб келиб, кейинчалик қабилла даражасига кўтарилган этнос қавчинлар эди. *Қавчинлар* бу даврнинг етакчи ҳарбий кучи бўлиш билан бирга Мовароуннахрдаги йирик қабилла ҳам эди. Улар Фарғона водийси ва Қашқа воҳасида истиқомат қилган. Амир Темур ва Темурийлар олиб борган деяри барча жанглarda *қавчинлар* ҳал қилувчи куч ҳисобланган. Шу билан бирга ҳукмдорнинг шахсий гвардияси ҳам *қавчинлардан* бўлган.

*Арғунлар* (арғин) ҳам бу даврнинг йирик этносларидан бўлиб, Фарғона водийсидан ташқари Зарафшон воҳасида, Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари ҳудудида, шунингдек, Хоразмда истиқомат қилган<sup>1</sup>. Уларнинг аجدодлари VIII-XII асрлар давомида бу ҳудудларга келиб ўрнашган эди. Улар Амир Темур тан олган қирқта ўзбек қавмларидан бири эди. *Арғунларнинг* етакчилари Амир Темур ва темурийларнинг энг ишончли кишилари бўлган<sup>2</sup>. Хусусан, Жаҳонгир Мирзо даврида булар имтиёзли катта ер эгалари – тархонлар ҳисобланган. Улуғбек қўшини таркибида ҳам *арғунлар* салмоқли эди. Аммо, улар Улуғбекнинг Абдуллатиф бўлган курашида темурийзодага хиёнат қилиб, Абу Саид Мирзо томонига ўтиб кетади<sup>3</sup>.

Бу даврда *чағрақлар* асосан, Фарғона билан Қошғар орасидаги тоғли ҳудудларда яшаб, чорвачилик билан шуғулланган. “Бобурнома”да бу тўғрида шундай қайдлар бор: “Андижон вилоятининг саҳронишинларидан бир *чағрақ* элдир, қалин элдур. Беш-олти минг уйли эл бордур. Фарғона билан Қашғар орасидаги тоғда бўлурлар. Отлари кўп ва қўйлари қалиндур”<sup>4</sup>. Шунга ўхшаш маълумот Мирзо Ҳайдарда ҳам акс этган<sup>5</sup>. Унга кўра, Қошғар ҳукмдори Абобакр *дуглот* Андижон яқинидаги тоғларда яшовчи *чағрақларнинг* уч

<sup>1</sup> Бўриев О., Хўжамбердиев Т. Этнологик атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. – Қарши. 2008. – Б. 15.

<sup>2</sup> Темур тузуклари. – Тошкент, 1991. – Б. 86-87.

<sup>3</sup> Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. – Тошкент, 1992. – Б. 103.

<sup>4</sup> Бобур. Бобурнома. – Т., 2008. – Б. 47.

<sup>5</sup> Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Тарихи Рашидий. Тошкент.: Шарқ, 2010. – Б. 241.

мингдан ортиғини, Ўзган ва Моду аҳолисининг катта қисмини қириб юборган<sup>1</sup>.

Шунингдек, бу даврда турли сабабларга кўра, кўшни ҳудудлардан баъзи этносларнинг ёппасига Фарғона воҳасига кўчиш ҳолатлари юз берганини кўриш мумкин. Хусусан, Абобақр Мирзо ибн Сонсиз Мирзо мўғул хонларига қарши уруш олиб борган *дуғлот* амирларидан биридир. У Қошғарни 48 йил мобайнида бошқарган. М. Кутлуковнинг таъкидлашича, Абобақр Мирзо Қошғар, Ёркенд ва Хўтан шаҳарларини бирлаштириб, 1465 йилда Ёркенд хонлигига асос солган. У жуда каттиққўл ҳукмдор бўлган. 885/1480-81 йилда Қошғарнинг кўпгина аҳолиси унинг зуғмидан қочиб, Андижонга кўчиб ўтади<sup>2</sup>.

Хулоса қилиб айтганда, Фарғона водийси ўрта асарларда ҳам аҳоли энг гавжум ҳудуд ҳисобланади. Водийнинг аҳоли, шаҳар ва қишлоқлари хусусида арабий ва форсий манбаларда салмоқли маълумотлар келтирилган. Шунга кўра, минтақа аҳолисининг катта қисми қадимдан мазкур ҳудудда турғун яшаган. Уларнинг шаҳар ва қишлоқлар марказларида истиқомат қилувчи қисми ўзларини сартлар деб аташган. Бундан ташқари Фарғона водийсида қарлуқ, қипчоқ, найман, дуғлот, арғун, чакрак каби ўнлаб кўчманчи, ярим кўчманчи ва ярим ўтроқ этнослар ҳам яшаган. Улар сафига турли сабабларга кўра, баъзи этнослар кўшилиб ёки ажралиб тургани ҳам манбаларда таъкидланган.

---

<sup>1</sup> Ўша асар. – Б. 241, 369, 374.

<sup>2</sup> Ўша асар. – Б. 170.

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRINING JAHON  
TARIXIDA TUTGAN O'RNI**

**MUNIDDIN NATANZIYNING «MUNTAXAB UT-TAVORIXI MUINIY»  
ASARI AMIR TEMUR SALTANATI TARIXINI O'RGANISHDA MUHIM  
MANBA SIFATIDA**

**A.Rahmatullaeva**  
**Temuriylar tarixi davlat muzeyi**  
**ilmiy xodimi, t.f.n.**

Amir Temur haqidagi o'rta asrlarga oid ko'plab yozma manbalar o'zbek tilidan tashqari Yevropa va rus tillarida bosilib chiqqan. Ma'lumki, O'zbekistonda yozma manbalarning rus va o'zbek tillariga tarjimalari 1960 yillar oxirlariga kelib amalga oshirila boshlangan. Ammo Muiniddin Natanziyning "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" asarining rus va o'zbek tiliga tarjimasi amalga oshirilmagani bois, aksariyat tadqiqotlarda iqtiboslarni uchratmaymiz. Faqat B.Ahmedovning va sovet tarixshunosligida V.V.Bartold tadqiqotlarida "Anonim Iskandera"<sup>1</sup> nomi bilan iqtibos berilgan.

"Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" xorijiy tillarga ham to'liq tarjima qilinmagan. G'.Karimning asosli ta'kidlashicha, asarning xorijiy mamlakatlarda faqat fors tilidagi asli nashr etilgan xolos. Tadqiqotchi bu borada mustaqillik yillaridagi ayrim fundamental nashrlardagi asarni xorijiy tillarga tarjimasi amalga oshirilgan deb yozilgan xatoliklarni ko'rsatib, asarning shu davrgacha hech qaysi tilga tarjimasi amalga oshirilmaganini asosli ko'rsatgan.<sup>2</sup>

Muiniddin Natanziy asarini 1413 yili hukmdor Mirzo Iskandar ibn Mirzo Umarshayxga bag'ishlagan, muarrix hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar juda oz.

Asar umumiy tarix, Chig'atoy ulusi tarixi, Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlarining eng qadimgi davrlardan to Amir Temur vafotigacha (1405 yil

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Определение "Аноноима Искандера" // Соч. Т. 8. – М., 1973. – С. 4881-482.

<sup>2</sup> Натанзий, Муиниддин. Мунтахаб ут – таворихи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси) / Муиниддин Натанзий; форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муалифи Ғ.Каримий; масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент. Ўзбекистон. 2011. - Б. 40.

18 fevral) bo'lgan tarixi tavsifidan iborat. Asar 1957 yili Eronda J.Oben tarafidan fors tilida chop etilgan. Undan ayrim parchalarning asl matni V.Tizengauzen va L.Zimin tomonidan e'lon qilingan. Uning qo'lyozma nusxalari Rossiya, Angliya, Fransiya, Eron kutubxonalarida mavjud. O'zbekistonda mustaqillik yillarida asar O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida alohida ilmiy tadqiqot mavzui sifatida G'.Karimov o'rgangan bo'lib, ushbu olim tomonidan muarrix, uning asari to'g'risida, tarjima qilingan lavhalar<sup>1</sup>, jumladan, Sohibqironning saltanat taxtiga chiqishigacha va undan so'ng ro'y bergan voqealar bayoni tarjimalari to'plamlarda, keyinroq "Jahon adabiyoti" jurnalida bosilib chiqdi<sup>2</sup>. Ushbu manbaning ilmiy muomalaga keyinroq, ya'ni 2011 yillarda kiritilishi bois, ulardagi ma'lumotlar tadqiqotlarda deyarli aks etmagan. Dastlab biz dissertatsiyaga keng jalb qildik.<sup>3</sup>

Asarni "Chig'atoylar shajarasi" nomli qismining rus tiliga tarjimasi A.Ziyoev tomonidan amalga oshirilgan<sup>4</sup>.

Asarda boshqa manbalarda uchramaydigan ilmiy asoslangan nodir ma'lumotlarning borligi uning mustaqil asosiy tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

"Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" asaridagi boshqa manbalarda uchramaydigan jihatlar quyidagilardir:

Asarda Amir Temurning yoshligi kechgan davr, ya'ni XIV asrning 40-50 – yillari, 1360-1370 yillar siyosiy voqealari boshqa manbalarga qaraganda mufassal, tarixiy voqealarning asl sabablari asosida yoritilgan. Ularda "Movarounnahrda isyon ko'targan amirlar tabaqasi", "Amir Qazag'on zikri", "Amirzoda Abdullaning taxtga chiqishi", "Amir Bayon Sulduz zikri" bayoni, ya'ni Movarounnahrda Amir Temurning taxtga kelguniga qadar voqelari sodda, she'riy bezaklarsiz tushunarli yoritilgan.

---

<sup>1</sup>Муъиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворих / Фулом Карим таржимаси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2000. № 3. – Б. 14-17.

<sup>2</sup> Муъиниддин Натанзий. Соҳибқирон ҳаётидан лавҳалар (Мунтахаб ут-таворихи Муиний) / Форсчадан Ғ. Карим таржимаси. Муҳаммад Али сўзбошиси // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2006. № 3. – Б. 3-52; 2006. № 4. – Б. 3-42.

<sup>3</sup>Раҳматуллаева А.Р. Ўзбекистонда Амир Темур ҳаёти ва фаолияти тарихшунослиги (1991-2009). Тарих фан. ном. дисс. – Тошкент: ЎзРФА Тарих институти, 2010. – Б. 60.

<sup>4</sup>Муъин ад-Дин Натанзи. "Мунтахаб ат-таварих". Избранная история Муъини / Перевод А.Зияева // Материалы по этнической истории тюркских народов Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2003. – Б. 102-136.

Muarrir mahalliy amir Qazag'onning o'n ikki yil davomida Movarounnahrni adolatli boshqargani, shu davr mobaynida chingiziy Doshmanchani, Bayonqulini nomiga xon etib tayinlagan bo'lsada o'zi mustaqil hukmdor sifatida Movarounnahrni boshqarishi, ya'ni yurtda mo'g'ullarga qarshi kurashib, boshqaruvni o'z qo'liga olishi haqida tarjimon G'.Karimning "*kichikroq bo'lsada Temurona ishlar*" deb baholaganiga qo'shilish mumkin.<sup>1</sup> Bu boshqaruvda muhim siyosiy tarixiy voqeliklardan yana biri, bu amirlar hukmronligi chog'ida taxtga chingiziylardan nomigagina xon tayinlash masalalari hisoblanadi. Amir Qazag'on g'alaba qozongach, chingiziy O'qtoy xon naslidan bo'lgan Donishmandchani taxtga qo'ydi, ammo Amir Qazag'on bir oz vaqt o'tgach, Donishmandchaga O'qtoy naslidan degan aybni qo'yib, uni shahid qiladi va Chig'atoy naslidan bo'lgan Bayonqulini (13488-1358) xonlik taxtiga qo'yadi. Shu tariqa Movarounnahrda fitnachi odamlarning qarshiligini sindirish maqsadida amirlar tomonidan taxtga nomigagina *qo'g'irchoq xonlarni* qo'ygan. Demak, amir Qazag'on taxtga chingiziylardan Donishmandchaxonni o'tqazgach, shu voqedan boshlab Chig'atoy ulusida saltanat amirlar ixtiyoriga o'tgan va davlatda amirlar boshqaruvi chog'ida nomiga xon tayinlash an'anasi Amir Temurgacha ham bo'lgan, sohibqiron tomonidan ushbu an'ana davom ettirilgan.

Muiniddin Natanziy bu ittifoqlik haqida shunday yozadi: "Bu ikki ulug' zotning ittifoqi mujdasi va Qazag'onning adolati tufayli mulki millat ishlari shu darajada mustahkam va ustuvor bo'ldiki, bo'ri bilan qo'y bir buloqdan suv ichib, darvish kulbasi bexatarligidan najot uyiga aylandi"<sup>2</sup>. Muiniddin Natanziyning Amir Qazag'on davridagi davlat boshqaruvi haqida ham ma'lumotlar qiziqarlidir. Xususan, dastlabki amir davrida zulmning yo'qolib, avom xalqning ahvoli yaxshilangani, ulardan qabchur (chorva solig'i)dan boshqa bir dinor ham olinmagani, shamoldan boshqa biron narsa odamlarning uylariga ijozatsiz

---

<sup>1</sup> Натанзий, Муиниддин. Мунтахаб ут – таворихи Муиний ... - Б. 25.

<sup>2</sup> Натанзий Муиниддин. Соҳибқирон ҳаётидан лавҳалар (Мунтахаб ут-таворихи Муиний) / Форсчадан Ғ. Карим таржимаси // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2006. – № 3. – Б. 3.

kirmagani kabi o'xshatishlar yoritilgan<sup>1</sup>. Ammo amir Qazag'on ovga chiqqanida Qutlug'temur nomli bir mo'g'ul pistirmadan turib o'ldirgan.

Natanziy ma'lumotiga ko'ra, amir Qazag'onning o'g'li amir Abdulla Chig'atoy naslidan bo'lgan Bayonqulixonni sababsiz o'ldirtirdi, otasi o'rnatgan tartiblarga amal qilmadi. Natijada u yuritayotgan siyosatga qarshi amirlar Bayon Sulduz va Xoji Barloslar birgalikda isyon ko'tarib, Abdullani qatl qildilar. Uning naslidan kim qo'lga tushsa, barchasini o'ldirdilar. Taxtga esa an'anaga ko'ra chingiziy Yasun Temurxonning o'g'li Temurshoh o'g'lonni (1358 – 1359) xon qilib ko'tardilar. Ayni paytda, bu masala ya'ni amirlar Bayon Sulduz va Hoji Barlos yuritgan siyosat tarixchilar e'tiboridan chetda qolgan. Amir Bayon Sulduz esa Movarounnahr taxtiga o'tiradi. U davlat ishida beg'am va beparvo bo'lib, umrini sharobxo'rlik bilan o'tkazardi<sup>2</sup>. Amirlar yakka hukmronlik uchun kurashda bir muncha ustunlikka ega bo'lsalarda, lekin boshqaruvda zaiflik qilganlar va natijada siyosiy vaziyat ancha qiyinlashishiga olib keldi.

Natanziy Amir Temurning taxtga intilmaganini tushunarli yoritgan. Bu paytda yuqorida ta'kidlanganidek, amir Abdulla shahid qilingach, ushbu xonadonga mansub vakillarni qirib tashlangani, amir Qazag'onning nabirasi amir Husayn qochqinda payti Amir Temur uni izlab topib, Movarounnahrni chingiziylardan tozalash maqsadida izlab topib, u bilan ittifoqdosh bo'lib harakat qilishga undagani tavsilotlari diqqatga sazovordir. Ushbu ma'lumot ko'pgina bahsli masalalarga oydinlik kiritadi.

Aynan shu masala ya'ni Amir Temurning taxtga intilmaganligi masalasi muhim bo'lib, bu turli bahslarga sabab bo'lgan. Bu haqda aksariyat tarixchilar amirlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganar ekanlar, amir Husaynning halokatiga sabab, uning shaxsidagi salbiy jihatlar edi, deb qisqa umumiy tavsif berish bilan cheklanganlari, uning taxtga qonuniy kelishi kerakligi masalasini ko'ndalang qo'yadi.

D.Abidjanova ayrim xorijiy tarixchilar 1360 – 1370 yillarda Movarounnahr siyosiy hayotida kechgan voqeliklarga noxolis fikr bildirganini tanqid qiladi va

---

<sup>1</sup> Натанзий Муиниддин. Соҳибкирон ҳаётидан лавҳалар ... – Б. 4.

<sup>2</sup> Натанзий Муиниддин. Соҳибкирон ҳаётидан лавҳалар ... – Б. 5.

bunga misoli tariqasida, R. Grussening Amir Temurni mo'g'ul xonlariga sotqinlikda va amir Husaynga nisbatan adolatsizlikda, ikkiyuzlamachilikdagi ayblovlariga hamda "Sharq ikkiyuzlamachiligining kamyob komediyasi", degan noxolis bahosiga asosli qat'iy e'tirozlarini bildiradi<sup>1</sup>.

Muiniddin Natanziygina yagona muarrix sifatida Samarqanddagi sabardorlar harakatini o'ziga xos uslubda "*vatanparvarlar*" deb baholab, ularning faoliyati haqida boshqa manbalarga qaraganda ancha batafsil va mustaqil, o'ziga xos uslubdagi ma'lumotlarni faktlar asosida keltirgan. Boshqa tarixchilar xususan, Nizomiddin Shomiy sarbadorlarni "bezorilar"<sup>2</sup>, Ibn Arabshoh "shuttorlar", "talovchilar", "buzuqilar", "qaroqchilar"<sup>3</sup> degan salbiy fikrni bildirs, Sharafiddin Ali Yazdiy: "Ey xudo, gado mo'tabar bo'lib qolishidan saqlagin!"<sup>4</sup> - deb, ularni salbiy izohlaganlar. Muiniddin Natanziy<sup>5</sup> ulardan farqli o'laroq, asarning "Samarqand sarbadorlari qissasi" nomli qismida sarbadorlarni vatanparvarlar sifatida tasvirlangan va ularning faoliyatini ijobiy baholab, Mavlonozodani nasl nasabli "...Ilm tahsili uchun Samarqandga kelgan asli buxorolik aslzoda yigit"<sup>6</sup>, deb ta'riflagan. G'.Karimov ham sarbadorlarni "xalq qahramonlari"<sup>7</sup>, bu harakatni esa, o'zbek xalqining buyuk va boy tarixidagi eng yorqin, iftixorli sahifalaridan biri bo'lib qoldi"<sup>8</sup>, degan fikrni ilgari surgan edi.

Muiniddin Natanziy Amir Temurning Xorazmga qarshi yurishining asl sababini Xorazm hukmdorlari maktublari orqali ochib beradiki, bu tadqiqotchilar tomonidan shu paytgacha yurish bilan bog'liq masalalarga aniqlik kiritadi<sup>9</sup>. Jumladan, ikki oradagi munosabatlarni buzilishida Xorazm amiri Husayn So'fining elchilarga qo'pollik bilan aytgan so'zlarini keltiradi: "Sizning

<sup>1</sup> Абиджанова Д. Маверауннахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60 – 90-х годов XX в.: Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2001. – С. 59.

<sup>2</sup> Шомий. Зафарнома ... – Б. 50–51.

<sup>3</sup> Арабшоҳ Ибн. Амир Темура тарихи ... 1-китоб. – Б. 85.

<sup>4</sup> Яздий. Зафарнома. Мовароуннахр воқеалари ... – Б. 113-114.

<sup>5</sup> Натанзий Муъиниддин. Мунтахаб ут-таворих / Фулом Карим таржимаси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2000. № 3. – Б. 14-17.

<sup>6</sup> Ўша жойда.

<sup>7</sup> Карим Ф. Ватан озодлиги учун бошин дорга тикканлар // Мозийдан садо. – Тошкент, 2000. № 3. – Б. 13-14.

<sup>8</sup> Ўша жойда.

<sup>9</sup> Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний ... - Б. 120.

mamlakatingiz dorulharbdir va uning barcha joyiga jihod qilib (bostirib kirish) jami musulmonlar uchun vojibdir. Shunga qaramasdan biz hujum qilmadik. Bizni Movarounnahr yerlarini ham Xorazmga qo'shib olishga majbur etmang"<sup>1</sup>. Ammo Amir Temur yana bir bor pand-nasihatlardan iborat yana bir maktub yo'lladi, bunga ham Husayn So'fi iltifot qilmagach, Amir Temur bahodirlarni mukammal qurollantirib O'kuz nomli daryodan o'tgach, Husayn So'fi orqasiga qaytdi va o'sha kunning o'zida vahima tufayli kasalga chalinib, bir haftadan keyin o'ldi.<sup>2</sup> So'ng Husayn So'fining ukasi Yusuf So'fi uzr so'rab, sulh so'raydi. Natijada, Amir Sohibqiron sulhga rozi bo'lib, uning birodari Oqso'fining qizi Xonzodani (asl ismi Sevinbeka, onasi Oltin O'rda xoni O'zbekxonning qizi bo'lgan) o'g'li Jahongirga nikohlaydi.

- Asarda Amir Temurning shaxsiy hislatlari, ilm ahliga bo'lgan homiyligi va e'tibori ham o'zgacha yoritilganki, ushbu ma'lumotlar bugungi kundagi tadqiqotlardagi ma'lumotlarni yanada to'ldiradi.

- Amir Temurning harbiy mahorati haqida boshqa manbalarda uchramaydigan jihatlari bilan keng yoritilganki, ushbu nodir manbani harbiy tarixni yoritgan mualliflar tadqiqotlariga jalb qilinmagan.<sup>3</sup> Harbiy atamalarni yoritishda Muiniddin Natanziy aksariyat hollarda turkiy so'zlardan ko'p foydalanganki, bu muarrixning yirik harbiy sarkardalarning og'zaki ma'lumotlariga tayanganligini ko'rsatadi. Bunday turkiy harbiy atamalarning ma'nosini H.Dadaboevning atamalarga bag'ishlangan tadqiqotidan aniqlash mumkin<sup>4</sup>.

Asarda bahsli jihatlar ham bor. Jumladan, fanda Amir Temur tug'ilgan joyini Ibn Arabshoh ma'lumotiga ko'ra Keshdagi Xo'jailg'or qishlog'i deb qabul qilingan, ammo Natanziy bu joyni Keshdagi Niyoziy qishlog'i deb ko'rsatganini

---

<sup>1</sup> Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний ... - Б. 120.

<sup>2</sup> Ўша асар. ... - Б. 21.

<sup>3</sup> Иванин М. Икки буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Темур: харбий санъати, стратегияси ва тактикаси. Михаил Иванин / Гаржимон Акмал Маҳкамов. Масъул муҳаррир Юсуф Музаффар. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. - 304 б.; Дадабоев Х. Амир Темурнинг харбий маҳорати / Масъул муҳаррир А.Қаюмов. - Тошкент: Ёзувчи, 1996. - 93 б.

<sup>4</sup> Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке / Х. Дадабаев, И. Насыров, Н. Хусанов. Проблемы лексики староузбекского языка. - Ташкент, 1990.; Дадабаев Х. Тарихий харбий терминлар луғати. - Тошкент, 2003.; Дадабаев Х. Эски ўзбек тилида харбий терминларнинг қўлланилиши (VII-XVII асрлар) // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1981. № 2.

B.Ahmedov noto'g'ri ekanini boshqa birlamchi manbalardan olingan dalillar orqali asoslab bergan<sup>1</sup>.

## **КУЛЬТУРА В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ**

**Ш.Р. Алиева**

**Ташкентский университет прикладных наук,  
старший преподаватель кафедры «История».**

Культура является одним из ключевых аспектов любого общества и эпохи, и культура Темуридов не является исключением. Амир Темура (1336-1405 гг.) был одним из самых влиятельных правителей в истории Средней Азии, который сформировал и развил мощную империю, которая просуществовала более ста лет. В период правления Темура и его преемников была создана уникальная культурная среда, в которой сочетались элементы многих культур и народов, включая персидскую, турецкую, монгольскую и другие.

Одним из самых ярких проявлений культуры Темуридов было строительство архитектурных сооружений, таких как мечети, медресе и мавзолеи. Эти здания были не только прекрасными образцами архитектуры, но и играли важную роль в культурной жизни народов, живших в этих землях. В том числе, были созданы такие известные памятники архитектуры, как Гур-Эмир, Улугбек медресе, Кок Гумбаз мечеть и многие другие.

Также важной частью культуры Темуридов была литература, включающая поэзию и прозу. За время правления Темура и его наследников было создано множество литературных произведений на различных языках, в том числе персидском, турецком и чагатайском. Кроме того, были созданы энциклопедии и научные труды, которые оставили значительный след в истории науки и культуры.

---

<sup>1</sup> Ахмедов Б. Мукаддима ўрнида / Амир Темур ва Улугбек замондошлари хотирасида ... – Б. 3-4.

Нельзя не упомянуть искусство, которое было одним из наиболее ярких проявлений культуры Темуридов. Были созданы множество уникальных произведений искусства, включая ковры, керамику, миниатюры и многое другое. Эти произведения искусства не только служили украшением жилищ и зданий, но и имели глубокий символический смысл, отражая мировоззрение и культурные традиции народов Средней Азии.

В эпоху Темуридов было построено множество великолепных сооружений, которые стали символом архитектурного мастерства и высокой культуры Туркменистана и сопредельных регионов. Некоторые из них до сих пор являются популярными туристическими объектами и источником гордости местных жителей.

Одно из самых значимых сооружений этого периода - это главный дворец Темур-мала, который был построен в городе Херат (современный Афганистан) в начале XV века. Дворец был окружен садами и прудами, а его интерьер украшали богатые росписи и мозаики. Кроме того, Темуриды знамениты своими мавзолеями и мечетями. Например, мавзолей Гур-эмир был построен в Самарканде на могиле Тимура и является одним из наиболее впечатляющих памятников темуридской архитектуры. Также стоит отметить мечеть Биби-Ханум, которая была построена Тимуром в Самарканде и служила главной мечетью города.

Кроме этого, Темуриды строили крепости, замки и каравансарай, которые использовались для защиты торговых путей и обеспечения безопасности населения. Некоторые из этих сооружений до сих пор стоят и продолжают использоваться в повседневной жизни.

Особое внимание Темур уделял науке. Решая вопросы, он всегда советовался с учеными, только потом принимал конкретные решения. Он любил лично беседовать с учеными по естествознанию, математике, медицине, астрономии, с историками, филологами,

богословами и заботился о них. На собраниях ученых и представителей духовенства он обычно выступал с речью и просил их принимать активное участие в управлении страной и народом, в строительстве различных сооружений, общественных зданий. Так, он в Боилкане, в курултае ученых, говорил: «Ученые и представители духовенства исстари помогали правителям своими советами. А я не вижу вашей поддержки. Главная моя цель – установление справедливости в стране, улучшение благосостояния народа, форсирование строительства в стране, развитие нашего государства. В осуществлении всего этого вы должны помочь мне своими советами. Положение в стране, злоупотребление властью чиновниками, притеснение простых людей хокимами и другие нежелательные явления больше известны вам. Было бы очень хорошо, если вы подсказывали законы шариата и пути, предотвращающие подобные несправедливости. Если раньше все наше внимание было обращено на военные походы, то теперь наша задача – принятие мер по обеспечению порядка и стабильности в стране. Я прошу вас помочь мне в этом благородном деле». Во дворце Темура работали такие ученые, как Абдужаббор Хорезми, Шамсуддин Мунши, Абдулла Лисон, Бадриддин Ахмад, Нугманиддин Хорезми, Ходжа Афзал, Алауддин Коший, Жалол Хокий и другие. По просьбе Амира Темура великий суфий Юсуф Хамадони с 700 учениками-последователями отправился в Кашмир с целью организовать научные курултаи, просвещать народ, приобщать к высокой духовности.

Таким образом, эпоха Темуридов была богата на создание значимых и впечатляющих архитектурных сооружений, которые остаются до сих пор важными историческими объектами и символами культуры этого региона.

# **AMIR TEMURNING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI VA MARKAZIY DAVLAT BOSHQARUVINING TAKOMILLASHUVI**

**H. X. G'ofurov**

**Toshkent amaliy fanlar universiteti**

**Tarix kafedrası katta o'qituvchi**

Amir Temur turkiy barlos urug'ining biy(urug' oqsoqoli)laridan bo'lmish Muhammad Tarag'ay va Buxoro shariat qonunlarini sharhlovchisining qizi Takina Mohbegimlarning farzandi bo'lib, 1336-yilda Shahrisabzga yaqin Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topgan. Uning to'liq ismi Sohibqiron Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barkuldir. Temur siyosiy kurash maydoniga kirib kelgan XIV asming 60-yillarida mo'g'ullarning Chig'atoy ulusi hukmronligi davom etayotgan edi. 1346-yili Chig'atoy ulusi xoni Qozonxon amir Qazag'on tomonidan o'ldiriladi. 1358-yilda amir Qazag'on ham o'ldiriladi<sup>1</sup>, ulusda parokandalik jarayoni kuchayadi. O'lkaning turli hududlarida mustaqillik da'vosi bilan ish ko'rayotgan 10 ga yaqin mahalliy bekliliklar, chunonchi, Xorazmda so'fiylar, Qashqadaryoda barloslar, Ohangaron vodiysida jaloyirlar, Buxoroda sadrlar, Termiz atrofida sayidlar amirlarining va hokazo kuchlarning ajratuvchilik harakatlari yurt butunligiga jiddiy havf tug'dirayotgandi. Ulus o'ntacha mustaqil bekliliklarga bo'lingan bo'lib, ularning beklari o'rtasidadoimo nizo, janjal bo'lardi. Buning ustiga, o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida 1360-yilda Movarounnahrda katta qo'shin tortib kelgan Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur xuruji ham dard ustiga chiqqon bo'lgan edi. Bunday qaltis vaziyatda siyosiy kurash maydonida hozir bo'lgan yosh Temurbek oldida nihoyatda ehtiyotkorlik, aql-zakovat bilan ish ko'rish, o'z atrofiga yurtparvar, vatanparvar kuchlarni to'plash, so'ngra qulay imkoniyat tug'ilishi bilan yurt dushmanlariga qaqshatqich zarba berish vazifasi turardi.

---

<sup>1</sup> Ibrat. Farg'ona tarixi. -Toshkent. Meros. 1991.

Temurbek uddaburonlik bilan o'ziga xos taktika qo'llab, o'zining bosh orzu-maqсадlaridan voz kechmagan holda, vaziyat taqozosi bilan vaqtdan yutish, ishonchli kuch topish uchun vaqtincha 1361-yilda Tug'luq Temur xizmatiga kiradi. Biroq bir yil muddat o'taro'tmay, Balx hokimi, kelib chiqishi Chingiziylar nasabidan bo'lgan Amir Husayn bilan do'stlashib, u bilan birgalikda yurt birligi va ozodligini tiklashga kirishadi. U 1362-1364-yillarda mo'g'ul qo'shinlariga bir necha marta zarba beradi.

Tug'luq Temuming o'g'li Ilyosxo'ja 1365— yil bahorida Movarounnahrda yurish qiladi. Chinoz atrofida, Sirdaryo bo'yidagi «Loy jangi»da Amir Temur va amir Husayn qo'shininig Ilyosxo'ja boshliq mo'g'ul qo'shidan kutilmaganda yengilishi Amir Temur uchun juda katta saboq bo'ldi. Ilyosxo'ja qo'shinlari Samarqandga tomon yurdi. Hokimiyatsiz qolgan mahalliy aholi (Samarqand hokimi qochib ketgan edi) mudofaaga ko'tarildi, bu harakat sarbadorlar harakati nomi bilan mashhurdir Samarqand uning markaziga aylandi. Harakatga tolibi ilm vakili Mavlonozoda, jun tituvchilar oqsoqoli Abu Bakr Kalaviy va mohir mergan Xo'rdaki Buxoriylar boshchilik qiladilar. Jome masjidida to'plangan 10 mingga yaqin aholi Mavlonozoda da'vati bilan mo'g'ullarga qarshi kurashda faol qatnashadilar. Ilyosxo'ja Samarqandda katta zarbaga uchrab Movarounnahrda chiqib ketishga majbur bo'ldi. Samarqandda hokimiyat sarbadorlar qo'lga o'tadi. Ular xalq turmushini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar ko'radi, mo'g'ullarga tarafdorlik qilganlaming yer va mulklari musodara etiladi.

Samarqand sarbadorlari g'alabasidan xabar topgan amir Husayn va Amir Temur 1366-yil bahorida Samarqandga keladilar. Amir Husayn hiylasi bilan sarbadorlar boshliqlari qo'lga olinib, o'ldiriladi. Amir Temuming sa'y-harakatlari tufayligina Mavlonozoda tirik qoladi. Movarounnahrda hukmronlik amir Husayn qo'lga o'tadi. Amir Husayn Movarounnahrda Amir Temurni qoldirib o'zi Xurosonga ketadi.

Amir Temurning keyingi jo'shqin faoliyati davomida uning amir Husayn bilan ittifoqi mustahkam bo'lolmadi. Tabiatan shuhratparast, hokimiyatparast shaxs bo'lgan amir Husayn qanday qilib bo'lmasin Amir Temurga pand berish, unga xiyonat qilishdan qaytmaydi. Sharofiddin Yazdiy aytganidek, «ularning o'rtalarida sadoqat va do'stlik munosabati yaqinlik va qarindoshlik aloqasi bilan qat'iy qilingan edi. Ammo Amir Husaynning ko'ngli makr va g'addorlik o'y-hayolidan bo'shamasdi»<sup>1</sup> (Sh.Yazdiy. «Zafarnoma», 207-bet).

Xalqimizda «birovga cho' qazisang, o'zing yiqilasan» deyilganidek, amir Husayn ham o'zi qazigan cho'gha o'zi yiqildi. Vaziyat taqozosi bilan Amir Temur amir Husayn o'rnashib olgan Balxga 1370-yilning bahorida qo'shin tortib boradi va uni mahv etadi. Shundan so'ng Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qoldi. Samarqand mamlakat poytaxtiga aylandi. Endilikda yurtni boshqarish jilovini qo'lga kiritgan Amir Temur oldida hali g'oyatda katta, murakkab vazifalar ko'ndalang bo'lib turardi. Eng asosiysi, mamlakat hududlarini birlashtirish, yagona markazlashgan davlat tuzishdan iborat bosh vazifani hal etish kerak edi. Busiz mamlakat taraqqiyotini olg'a bostirish, uning dovrug'ini jahon miqyosiga ko'tarish mumkin emasdi. Shu boisdan, dastlab Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi hududlar diplomatikyo'l bilan birlashtirildi.

Amir Temur sharqiy hududlami mo'g'ullar ta'siridan ozod yetish uchun 1370-yil oxiri va 1371-yil boshida Sharqiy Turkiston tomon yurish qiladi. Mo'g'ul xoni Kepak Temurga qaqshatqich zarba berilishi orqasida Farg'ona mulki va boshqa bir qator hududlar egallanadi. Ko'p o'tmay, Afg'oniston shimolidagi Shibirg'on viloyati ham uning tasarrufiga olindi.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning Mo'g'uliston tomon 7 marta harbiy yurishlar qilgani tilga olinadi.

Uning qudratli mo'g'ul hukmdorlaridan sanalgan amir Qamariddin bilan olib borgan ko'p yillik urushlari mamlakatining sharqiy hududlarini

---

<sup>1</sup> Yazdiy Sh. Zafarnoma. -Toshkent. O'zbekiston. 207-bet

mo'g'ullar asoratidan xalos qilish, yurt tinchligi, osoyishtaligini qaror toptirishga qaratilgan edi. O'z tasarrufida Qoshg'ar, Issiqko'l va Yettisuv vohasini birlashtirgan hamda 1369-yili Ilyosxo'jani taxtdan ag'darib, Mo'g'uliston xoni bo'lib ko'tarilgan Qamariddin bilan 1370-1389-yillar davomida Amir Temur hayot - mamot janglari olib bordi. Bu jang-u jadallar oqibatida Movarounnahrqa qarashli asosiy sharqiy hududlar uning tarkibiga qo'shib olindiki, bu hoi yurtimiz hududida markazlashgan davlatning vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

<p><b>Amir Temur tomonidan markazlashgan qudratli davlatga asos solinishi</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ 1361 -1365-yillar Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur va uning o'g'li Ilyosxo'jaga qarshi urush.</li> <li>➤ 1370-yili Amir Husaynga qarshi Balxga yurish va uni bartaraf etish.</li> <li>➤ 1370-1371-yillarda Farg'ona, O'tror. Yassi, Toshkent, Hisor, Badaxshon, Qunduz bo'ysundirildi</li> <li>➤ 1381-yili Hirot, Seislon, Mozandaron, Saraxs, Sabzavor bo'ysundiriladi.</li> <li>➤ 1371-1389-yillarda jami 7 marta Mo'g'uliston hukmdori Ajnir Qamariddinga qarshi jang: u jadallar olib borish va sharqiy, shimoliy hududlarni yurtga birlashtirilishi</li> <li>➤ 1371, 1373, 1375, 1379, 1388-yillarda Xorazmdagi so'fiylar sulolasi hukmdorlari: Husayn, Yusuf va Sulaymon So'tiylarga qarshi olib borilgan urushlar va Xorazmning yurt tarkibiga qo'shib olinishi</li> </ul>
---	---

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turganidek, Amir Temur o'z saltanati tarkibiga Xorazm mulkini ham qo'shib olish uchun ko'p sa'y-harakatlarda bo'ldi. Chingizxon tomonidan Jo'ji ulusiga berilgan Xorazm yerlari Oltin O'rdadan mustaqil bo'lib, hokimiyat tepasida Qo'ng'iro't so'filari turardi. Keyinroq ikkiga bo'linib, janubiy qismi Chig'atoy ulusiga bo'ysundirilgan edi, ammo Qo'ng'iro't so'filari janubiy qismni ham fath etadi. Amir Temur esa butun Xorazmni o'z ulusining tarkibiy qismi deb hisoblar edi. Shu bois, Xorazmni o'z tasarrufiga olish uchun bir necha marta yurish qiladi. 1388-

yilda bo'lgan so'nggi Xorazm yurishi natijasida Sulaymon So'fiy hukmronligi ag'darilib, bu o'lka Temur saltanati tarkibiga uzil-kesil qo'shib olindi.

Shunday qilib, Amir Temur bir necha yillar davom etgan qonli va qonsiz kurashlar, muhim tadbirlar, kezi kelganda diplomatik aloqalarni muvafTaqiyatli qo'llash natijasida mamlakatni mo'g'ullar zulmidan ozod etdi, siyosiy tarqoqlik, o'zaro nizolami bartaraf qildi. Movarounnahr va Xuroson hududlari birlashtirilib, yagona markazlashgan davlat barpo etishga muvaffaq bo'lindi.

Amir Temur kuchli, markazlashgan davlat barpo etish barobarida o'z qudratini jahonga mashhur qilish, hududlarini kengaytirish maqsadida XIV asming 80-yillaridan e'tiboran xorijiy yurtlar tomon ko'plab harbiy yurishlar uyushtiradi. Uning 1386-1388- yillardagi «uch yillik», 1392-1396-yillardagi «besh yillik» va nihoyat 1398-1404-yillardagi «yetti yillik» yurishlari xuddi shu maqsadlarga qaratilgandi. Bu harbiy yurishlar davomida Eron, Kavkazorti hududlari, shimoliy Hindiston, Suriya, Iroq yerlari, Kichik Osiyoning talay qismi egallanadi. Shu tariqa, qudratli saltanat vujudga kelib, uning dovrug'i butun olamni tutdi. Biroq kezi kelganda shuni ta'kidlash joizki, Sohibqironning ko'plab jahongirlik yurishlariga faqat bir yoqlama nuqtayi nazardan baho berib bo'lmaydi. Negaki, bu yurishlar goho mamlakat hududlariga tajovuz qilgan ajnabiy kuchlarga zarba berish, goho muqaddas islom ta'limoti g'oyalarini, ulaming tahqirlovchilaridan himoya qilish yohud Sohibqiron yurtiga muttasil dushmanlik qilib kelgan xorijiy davlatlarga nisbatan so'nggi chora sifatida amalga oshirilgan. Jumladan, Amir Temurning Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi bir necha marta (1389, 1391, 1394-1395 yy.) olib borgan jang-u jadallari, eng avvalo, yurt osoyishtaligi, lining hududiy yaxlitligini ta'minlash maqsadiga yo'naltirilgan edi. Ayniqsa, To'xtamishning Xorazm yerlariga da'vosi bunda muhim sabablardan biri bo'lgan. Amir Temur tomonidan Oltin O'rdaning mahv etilishi esa, tabiiyki,

uning tarkibiga kirgan hududlarning, chunonchi, rus knyazliklarining mustaqillikka erushuvida ayricha ahamiyatga ega bo'lganligi ham tarixiy faktdir.

Shuningdek, Sohibqiron qo'shinining Turkiya sultoni Boyazid kuchlari bilan 1402-yilda Anqara yaqinida bo'lib o'tgan hayot-mamot urushi ham, avvalo, turk sultonining qaysarligi, manmanligi, murosasizligi, adolat talabiga qo'l siltaganligi tufayli yuz bergan. Bu beomon jangni o'z foydasiga hal etgan Amir Temur esa ayni paytda o'z qudratini, nafaqat, Sharqda, balki G'arbda ham namoyish yetishga musharraf bo'ldi. Shu buyuk g'alabadan so'ng G'arbiy Yevropaning Angliya, Fransiya, Ispaniya singari nufuzli davlatlari va ularning hukmdorlari Amir Temur bilan yaqindan aloqa bog'lash, hamkorlik qilish, ayniqsa, savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatishga faol yo'l tutganliklari shundan yaqqol dalolatdir.

Darhaqiqat, Amir Temurning naqadar uzoqni ko'ra bilish salohiyatini uning Yevropa hukmdorlari - Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413), Kastiliya va Leon qiroli Genrix III (1390-1407) bilan diplomatik aloqalari va yozishmalaridan ham bilsa bo'ladi. Jumladan. Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan maktubida savdo aloqalarini yo'lga qo'yishni taklif qilib «Dunyo savdo ahli bilan obod bo'lajak», degan fikrni bildirgan edi. Fransiya qiroli 1403-yil 15-iyunda yozgan javob xatida taklifni mamnuniyat bilan qabul qilganini bildiradi. Bu davrga kelib Buyuk ipak yo'li shuhratining yanada ortishi davomida Movarounnahr va Xuroson dunyoning turli mamlakatlari bilan har jihatdan yaqindan bog'lanib, xalqaro karvon savdosining eng muhim markaziga aylandiki, bu esa Vatanimizning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy yuksalishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Amir Temur o'zigacha shakllangan o'zbek davlatchiligining asoslariga izchil amal qilish bilan birga ularni mazmunan boyitishga jiddiy hissa

qo'shdi. Amir Temur milliy davlatchilik asoslarini rivojlantirishda, jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va ularning manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor berdi. Shundan kelib chiqib Amir Temur dunyo tarixida birinchi bo'lib jamiyat ijtimoiy tarkibini 12 tabaqaga ajratib, ularning harbirining alohida mavqeyi, manfaatlarini, shunga muvofiq keladigan davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab bergan.<sup>1</sup>

Uning davrida boshqaruv ikki idoradan, ya'ni dargoh va vazirliklardan iborat bo'lgan. Dargoh tepasida oliy hukmdoming o'zi turgan. Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik masalalar uning ko'rsatmasi bilan hal etilgan.

Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirliklari, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechayotgan jarayonlar bilan bog'liq ishlar oliy devon zimmasida bo'lgan. Oliy devonda har kuni 4 vazir, ya'ni ijroiya idoralari nomidan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo'lib, o'ziga xos ravishda hukmdorga hisob berib turgan.

Sohibqiron Amir Temuming davlat boshqaruviga xos eng muhim xususiyatlaridan biri unda adolat me'zoniga alohida ahamiyat berilganligidir. U har doim «Kuch-adolatda» deb ta'kidlar va unga amal qilardi. Uning davlat boshqaruvi tizimi masalalariga bag'ishlangan mashhur tuzuklarida ham har bir ishda adolat me'zoniga amal qilishlik, nohaqlik, adolatsizlikka nisbatan murosasizlik g'oyasi chuqur ifodalanganligi bejiz emasdir. Zero, xoh moliya-soliq tizimida, xoh savdo-tijorat sohasida yohud mulkiy masalalarda bo'lsin, hamma narsada odilona, qonunchilik qoidalari, talablariga asoslanib ish yuritish Amir Temurning qat'iyat va izchillik bilan o'tkazgan davlatchilik siyosatining asosiy me'zoni bo'lgan. O'z amali, mansabini suiiste'mol qilishlik, poraxo'rlik, maishiy

---

<sup>1</sup> Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). -Toshkent. 1996.

buzuqlik kabilar og'ir jinoyatlar sanalib, ularni sodir etuvchilar qattiq jazolangan.

Amir Temur tuzuklariga asos qilib olingan davlatchilik siyosatining muhim jihati yana shundan iboratki, uning davrida har bir sohaga kadrlar tanlash, lavozimlarga tayinlashda ularning iqtidoru qobiliyatiga, bilimu iste'dodiga, nasl-nasabiga alohida e'tibor berilgan. Davlatga sadoqat bilan xizmat qilgan xodimlar doimo rag'batlantirilib, martabalari oshirib borilgan.

## **AMIR TEMUR HAMDA TEMURIYLAR DAVRIDA SAN'AT VA MADANIYAT**

**O. G'. G'ulamov**  
**TAQU o'qituvchisi**

Temur va temuriylar davri O'rta Osiyo madaniyatida alohida davrni tashkil qiladi. Madaniyat tarixida klassik davr hisoblangan bu davr xususan, o'zbek madaniyatining bugungi huquqiy joylashuvida asos bo'lib xizmat qiladi. Avvalo, bu davr madaniyati Temur asos solgan kuchli davlatchilik tamoyillari asosida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liqdir.

O'rta Osiyo zaminida temuriylar davri ilm-fan, adabiyot, san'at sohalarida kamolot bosqichiga ko'tarildi. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda namoyon bo'ldi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan «qudratimizni ko'rmoq istasang- binolarimizga boq!» degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temur davrida Movarounnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar keng ko'lam kasb etadi<sup>1</sup>. Ilk o'rta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo'lgan «Shahriston»dan ko'lam va mazmuni bilan

---

<sup>1</sup> Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. -Toshkent. 1996. 10- bet.

farq qiluvchi «hisor» qurilishini Samarqand va Shahrisabzda kuzatish mumkin. Temur davrida Kesh shahar qurilishi yakunlandi. «Hisor»ning janubi-g'arbida hukumat saroyi Oqsaroy va atrofida rabotlar, bog'-rog'lar qurildi.

Shahar mahalalardan iborat bo'lib, guzarlarga birlashgan. Shaharda me'moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutug'i bo'ldi. Me'morchilik taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarildi, inshootlar ko'lami bilan birga uning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muhandislar, me'morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo'ydi.

Temur davrida gumbazlar tuzilishida qirralar oraliq'i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg'alarga tayangan tashqi gumbazni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi. Ulug'bek davrida gumbaz osti tuzilmalarning yangi xillari ishlab chiqildi. Aniq fanlardagi yutuqlar me'morchilik yodgorliklarida aniq ko'rinadi (Shohizinda, Ahmad Yassaviy, Go'ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasasi). Ularning old tomoni va ichki qiyofasi rejalarini tuzishda me'moriy shakllarning umumiy uyg'unligini belgilovchi geometrik tuzilmalarning aniq o'zaro nisbati bor. Bezak va sayqal ishlari ham bino qurilishi jarayonida baravar amalga oshirilgan.

Temuriylar davridan qolgan maqbara, din arboblari va ruhoniylar qabrini o'z ichiga oluvchi to'siq-xazira, avliyolar qadamjolari, dahma alohida guruhni tashkil qiladi. Samarqandda Temur davrida shayx Burxoniddin Sag'orjiy xilxonasi – Ruhobod maqbarasi va Temuriylar xilxonasi -Go'ri Amir. Shuningdek, Shohizinda majmuasida peshtoqli maqbaralar guruhi quriladi. Ulug'bek davrida ijodiy izlanishlar samarasi dahmalarning me'moriy ko'rinishiga ham ta'sir o'tkazadi. Shohizinda majmuasida sakkiz qirrali maqbara va hozirgacha qozizoda Rumiylar maqbarasi deb kelinayotgan («Sultonning onasi» uchun qurilgan, asli noma'lum) maqbara quriladi. Ulug'bek Buxoro, g'ijduvon, Shahrisabz, Termiz, Toshkentda ham noyob obidalar qurdirgan. Ammo qurilish miqyosi va bezaklar bo'yicha

Samarqanddagi obidalar ustunlik qiladi. Toshkentda Zangi ota maqbarasi va Shayxontohur majmuasi, bo'lib, qaldirg'ochbiy maqbarasi XV asrning birinchi yarmiga mansub<sup>1</sup>.

Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo'lgan. Birinchisi-ma'muriy-siyosiy maqsadda bo'lib, qal'a yoki shahar ichida qurilgan. Ikkinchisi-shahar tashqarisidagi bog'larda qurilgan qarorgohlarda qabul marosimlari, majlislar o'tkazilgan va xordiq chiqarilgan. Shahrisabzdagi Oqsaroy gumbazining diametri 22 metr bo'lib, toq va ravoqlari beqiyos bo'lgan. Temur va Ulug'bekning asosiy qarorgohi Samarqanddagi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy deyiladi. Shuningdek, shahar tashqarisida Temur o'n ikkita bog' va saroylar bunyod ettirgan<sup>2</sup>.

Amir Temur va Ulug'bek davrida tasviriy san'at turli yo'nalish bo'yicha yuksaldi. Islomda jonli narsalar tasviriga sig'inmaslik tasviriy san'atda naqshning ravnaqiga sabab bo'ldi. O'rta Osiyoda arablar bosqini tufayli to'xtab qolgan devoriy suratlar va umuman tasviriy san'at Temur davrida yangi shakl va mazmunda tiklandi. Xattotlik- qo'lyozma adabiyotning ajralmas bir qismi hisoblangan. Miniaturaga- tasviriy san'atga ham avvalo naqsh sifatida qaralgan. Temuriylar davrida tiklangan devoriy suratlar esa XVI asrda yana to'xtab qoldi. Samarqanddagi Temuriylarning saroy-qarorgohlarida qabul marosimlari, jang voqealari, ov manzaralari, xalq bayramlari tasviri tushirilgan devoriy suratlar bo'lgan. Temur, o'g'illari, nabiralari, ayollari va kanizaklari tasviri bu devoriy suratlarda aks ettirilgan Ulug'bek devorida ham devoriy suratlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, uslubiy jihatdan miniaturaga janriga yaqin bo'lgan. Bu davrda qayta ko'chirilgan Abdurahmon as-So'fiyning (X asr) falaqiyotga oid asariga ishlangan bir suratda Andromeda yulduzlar turkumi Chochlik ayol qiyofasida tasvirlanadi. Samarqand rasadxonasida esa to'qqiz falak

<sup>1</sup> Қиссан Темур («Малфузоти Темурий»). – Тошкент, 2000. 245-252-б

<sup>2</sup> Фоййбов Н. Амир Темур даври маънавияти. – Тошкент, 2001, 8-б.

ko'rinishi, yetti gardish, yetti yulduz-yoritqich daraja, vaqt bo'limlari, Yer yuzining yetti iqlimi tasvirlangan<sup>1</sup>.

Temur davrida qurilgan Shirinbeka opa, Bibixonim, Tuman opa obidalarida naqqoshlik va xattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka opa maqbarasida tasvir ko'p ranglarda, qolgan ichki bino devorlarida oq va moviy rangdagi tabiat manzaralari tasvirlanadi.

Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi badiiy hunarmandchilikning turli shakllarida namoyon bo'ldi. Badiiy hunarmandchilik asosan me'morchilik bilan bog'liq bo'lmay, koshinkorlik kulolchiligi, yog'och va tosh o'ymakorligi bilan ham bog'liq edi. qabr toshlariga qisman o'simliksimon, asosan geometrik nazmlarda xattotlik namunalari bilan so'zlar bitilgan. Bu yozuvlar chuqur, qusha o'yiqlarida bitilgan. qabrtoshlar sag'ana yoki suna shaklida bo'lib, bo'z rangli marmardan, ayrim hollarda o'ta noyob toshlardan tantana idishlar ishlangan. Yog'och o'ymakorligida Go'ri Amirda, Shohi Zinda, Yassaviy maqbaralari, eshiklari, shuningdek Xv asrga oid uy ustunlari naqshlar bilan ishlangan. Temur va Ulug'bek davrlarida metall o'ymakorligi taraqqiy etadi. Buyum va idishlar oltinsimon bronza, latun, qizil misdan ishlangan. Naqshlar o'yib, bo'rtma usulda, qimmatbaho toshlar qadalib tayyorlangan. Yassaviy maqbarasi ulkan-shamdonlar, ayniqsa ikki tonnalik qozon bronza qo'yish san'atining eng yuksak namunasidir.

Amaliy san'atning kulolchilik turi uchun yashil, zangori tusdagi yorqin sir ustiga sodda o'simliknoma naqshlarni qora bo'yoqlar bilan tushurishga yoki uyurma gullar ishlanishi, bu davrda paydo bo'lgan oppoq idishlarga sir ustidan kobalt yordamida naqsh berilishi yangilik edi. Sopol buyumlardagi naqshlar mo'yqalamda chizilgan. Oldingi asrlarda sopol buyumlariga chiziq naqshlar chizishgan, temuriylar davriga mansub chikkisimon sopol buyumlarda kulol-rassom turli uslubda och havorangdan to lojuvardga qadar ranglarni qo'llaydi. Temur va temuriylar

---

<sup>1</sup> Ma'naviyat yulduzlari. –Toshkent. 1999. 15-20 betlar.

davrining amaliy san'at turlaridan to'qimachilik, gilamdo'zlik, kashtachilik yuksak san'at darajasiga ko'tarildi.

O'rta Osiyoda Temur va temuriylar davrida madaniyat rivojlandi va kamol topdi. XIV-XV asrlardagi Movarounnahr va Xurosondagi madaniy taraqqiyotining tamal tojini Buyuk sohibqiron Amir Temur qo'ygan edi.

## **AMIR TEMURNING TARIXIDA NAQSHBANDIYA TARIQATINING O'RNI**

**N. E. Sultonova**

falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent, TAFU

XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr Vatanimiz tarixida Amir Temur (1336-1405 yillar) boshchiligida yagona tug' ostida markazlashgan, kuchli va mustaqil davlat tashkil topdi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan bu tarixiy jarayonda shubhasiz Sohibqiron Amir Temurning xizmatlari buyukdir. Bu aqlli va bilimli inson o'z davlatining kuch-qudratini oshirish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda harbiy va eng muhim iqtisodiy islohotlar o'tkazdi. Bu islohotlar zaminida avvalgi davr donishmandlarining aql-idroki, g'oyalari mujassam edi, ayniqsa, taraqqiyot uchun yagona davlat, o'zaro totuvlik, ishbilarmonlarga qulay mulkiy va huquqiy sharoit yaratishga, ayniqsa savdo-sotiqni rivojlantirishga alohida e'tibor berildi.

U Movarounnahrni yagona davlatga birlashtirish bilan chegaralanmadi, davlatning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarini shakllantirib va mustahkamlab, buyuk saltanat darajasiga ko'targanligiga tarix guvoxdir.

Temurning otasi Muhammad Tarag'ay Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo'lgan barlos qavmidan chiqqan obro'li beklardan biri bo'lib, Temurning jahonga hukmdor bo'ladigan farzand

bo'lishi haqida birinchi bo'lib, avliyo shayx Shamsuddin Kuloldan eshitib, o'g'lining ilm olishiga juda katta e'tibor qaratgan. Amir Temur ilk bor Keshdagi madrasalarda bilim olgan. Bu yerda yetarli shart-sharoitlar mavjud bo'lib bu esa o'quv uslublarini takomillashtirishga ham katta yordam berargan. To'qqiz yoshli Temur Qur'oni Karimni yoddan bilgan. Temur madrasaning boshlang'ich davrini muvaffaqiyatli tamomlagandan so'ng, tahsilni Madrasai Oliyalarda davom ettirgan. U nafaqat Qur'oni Karimni, balki arab, turk mashoyixlarining durdona fikrlarini ham yod olgan. Bo'lajak jahongirning behad jarangdor va yoqimli ovozi kishilarni o'ziga rom etib, dillarga zavq-shavq bag'ishlagan. O'qish davomida u jahon mamlakatlarining tarixi, islom ta'limoti va huquqshunosligi, handasa, riyoziyot, jug'rofiya va falakiyot ilmlarini puxta o'rgangan, ma'naviy olamini boyitgan. Diniy ilmni nafaqat o'rgangan, shuningdek, unga amal qilgan va qadirlaganligi, ustozlarini doimo hurmat qilganligi va ular bergan o'gitlarga amal qilganligi uning ma'naviy yetuk insonligidan dalolatdir.

Ma'lumki, XIV-XV asrlarda islom mafkurasi o'zining rasmiy hukmronligi uchun kurash olib bordi, buning natijasida u kuchli markazlashgan davlat barpo bo'lishiga yordam berdi. Yilnomalar va tarixiy manbalarda Temurning dinga munosabati o'zining yaqqol ifodasini topgan. Temur nimaiki qilsa, shariat doirasida, musulmon fiqhi qoidalariga tayanib, umuman Islom qudrati bilan ish tutdi. Bu esa Temurning o'z piri Abu Bakr Toyibodiyning «rosti-rasti» ya'ni, «haqgo'y bo'lsang, najot topasan» hikmatini, o'z tamg'asiga muhr sifatida o'rnashtirgan edi.<sup>1</sup> Jumladan, islom diniga munosabat tamoyilini ishlab chiqqanligi butun temuriylar uchun dastur vazifasini o'tadi. Chunki Temur islom diniga davlatni idora qiladigan siyosiy tamoyili yo'qligi uchun emas, balki uning xalqqa eng yaqin va ma'qul qadriyat bo'lganligi hamda uning insonparvar xususiyati uchun to'la tayangan. Temur o'z «Tuzuklari»da islom dini va shariat qonunlariga tayanmaydigan hokimiyat uzoqqa bormay, o'z

---

<sup>1</sup> Ибн Арабшоҳ. «Ажойиб ал-Мақдур фи тарихи Таймур» (Темур тарихида тақдир ажойиботлари. 2-қисм. – Тошкент: Меҳнат, 1992, 65-б.

qudratini yo'qotadi, shuning uchun podshohlik, albatta, din va shariat qonunqoidalariga so'zsiz amal qilishi lozim, deb hisoblaydi.

Amir Temur adolatli hukumdor sifatida maydonga chiqib, o'z saltanati siyosatini tasavvuf asosiga qurgan adolat bayrog'ini baland ko'tarib, xalqni quruq qonun-qoidaga emas, balki insoniy tartib-intizomga bo'ysunishga chaqirgan. Tasavvufning rivojlanishini yangicha xususiyat bilan boyitgan va uning dunyoviylik ahamiyatini yanada kengaytirgan.<sup>1</sup> Amir Temur har gal Qur'oni Karimdan so'ng payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning muborak nomlarini hadsiz hurmat-ehtirom bilan tilga oladi, ul hazratning sahobalarini va avlodlari – saidlarni o'zining yagona va eng yaxshi do'sti deb bilib, islomga taalluqli ishlarni dunyoviy ishlardan ustun qo'ydi. «Avval Tangri taolo toatini ado etib bo'lgandan keyingina kundalik ishlarga qo'l urdim». Hamda, «Men o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olib, saltanat martabasiga erishdim... davlat va saltanatinga bog'langan mening birinchi tuzugim Tangri-taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim, har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim,<sup>2</sup> «Qaysi mamlakatda dindan qaytishlik (ilhod) va zindqlik (xudosizlik, dinga ishonmaslik) kuchaysa va u diyorning aholisi, sipohu raiyati turli maslakka kirib, ittifoqlari buzilsa, u mamlakatning halokati yaqindir» degan fikrlari buning yaqqol misolidir.

Amir Temur davlatni qanday boshqarganligini o'zining “O'z tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida qurilmas, to'ratuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshaydirkim, ko'rgan har kimsa (undan) nigohini olib qochadi. Yoxud har xil qalang'i-qasang'i odamlar tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga

---

<sup>1</sup> Каримов С.К. Амир Темурнинг тасаввувга муносабати. Амир Темур ва унинг дунё тарихидаги ўрни. 17-18 бетлар. Халқаро илмий конференция маърузалари баёни. – Самарқанд, 1996. 22-23 май.

<sup>2</sup> Қиссаи Темур («Малфузоти Темурий»). – Тошкент, 2000. 260-262-б.

o'xshaydi.”<sup>1</sup> - degan fikrlari bilan ifodalagan. Darhaqiqat, davlat nafaqat dunyoviy balki, dinu tartib asosida qurilmasa va uning mazmuni qonunlarga bog'lanmasa, unday saltanatning qudratini yo'qotadi.

Temurshunos olimlarning uning davlat boshqaruvini quydagi fikrlar bilan asoslaydilar. Ya'ni, Temur saltanati – imperiyasining boshqarish qonun-qoidalari Naqshbandiy tariqati g'oyalari bilan asoslangan, Temur tuzuklarining vujudga kelishi, kuchli mafkuraviy nazariya hamda boy amaliy tajribalar mahsuli sifatida maydonga kelganligi ko'rsatib o'tiladi. «Ana shu tarzda Naqshbandiya tariqati g'oyalari Amir Temur davrida Movarounnahrda va saltanatning boshqa hududlarida kuchli ijtimoiy mafkuraga aylandi. Amir Temur ma'naviyatining shakllanishida, uning diniy, falsafiy qarashlari va o'z ta'limotini yaratishda, faqat Naqshbandiylikni takrorlayverishda ilmiy asos yo'q. Faylasuf olim S.Karimov ushbu holatlarning barchasini nazarda tutadi, shekilli, Amir Temurni biron-bir tariqat yoki sulukning muridi emas, balki umuman «...so'fiylarning muoshirlari (suhbatdoshlari, sheriklari), ya'ni tasavvuf ahlining muxlisi, do'sti deb aytish, muvofiq bo'ladi, – deb xisoblaydi,<sup>2</sup> chunki so'fiy hech narsaga band va giriftor bo'lmasligi kerak. Amir esa saltanat el-ulus tashvishlari bilan band, mudom toat-ibodat bilan hayot kechirishga imkoni yo'q shaxs». Darhaqiqat shunday katta davlatning boshlig'i tarafdorlik qilib, biron-bir tariqatga ustunlik berishi mumkin emas edi. Temur o'z saltanati siyosatini amalga oshirishda dunyoviy ilmlarni hamda siyosat tamoyillarni, o'tmishdagi davlat boshliqlari siyosiy - qarashlarini o'rganish va qabul qilish, balki islom, shariat, tariqat, futuvtat ilmlarini to'la egallash bilangina emas, ularga amal qilgan holda muvaffaqiyatli siyosat yurgizish mumkinligini anglab yetgan.

Amir Temur o'z siyosatini dunyoviy ilmlar hamda siyosat tamoyillarni, o'tmishdagi davlat boshliqlari siyosiy qarashlarini o'rganish

---

<sup>1</sup> Temur tuzuklari. – Toshkent. 2018. 75- 6

<sup>2</sup> Fойибов Н. Амир Темур даври маънавияти. – Тошкент. 2001. 10-6.

va amalda qo'llash bilangina emas, balki islom shariati va tariqati ilmlarini to'la tatbiq etish va qadrlash bilan muvaffaqiyatga erishish mumkinligini anglab yetganligi sababli ana shunday qudratli davlat barpo etgan.

Darhaqiqat, diniy bilimlarga to'yingan Amir Temur o'z siyosatining falsafasini qadriyatlar negizida qurish asnosida din va davlat muvozanatining samarli vositalarini shakllantirishga erishadi. Bu esa o'z navbatida talato'p ixtiloflarda yurgan Movarounnahr xalqini birlashtiruvchi milliy mafkuraga aylanadi.

Amir Temur adolat haqidagi o'z qarashlarini diniy qariyatlar asosida bayon qilib, islomga, uning olimlariga yuksak hurmati va o'zining yuksak ma'naviyatli musulmon sifatida davlatni islom qonun-qoidalari asosida tuzishi ham Movarounnahrning diniy markazga, tasavvuf markaziga aylanishiga olib keladi.

Amir Temur islom dini ta'limoti va turli xalqlar madaniy merosini chuqur o'rgangan va unga amal qilishning tartib-qoidalarini tashkil etishga erishgan va qadrlagan buyuk davlat arbobi hamda yirik tafakkur sohibi sifatida namoyon bo'ladi.

## **AMIR TEMUR SIYOSATIDA DIN VA DAVLAT MUVOZANATI**

**N. Sh. Berdaliev**  
**siyosiy fanlar nomzodi, dotsent, TAQU**

XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr Vatanimiz tarixida voqealarga nihoyatda boy tarixiy ijtimoiy saboq davri hisoblanadi, chunki bu davrda mo'g'ullar hukmronligi va feodal tarqoqlik tugatilib, bosqinchilarning vayronagarchiliklari va bir yarim asrlik zulmlari oqibatida iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy turg'unlik holatiga tushib qolgan mamlakatimiz o'z mustaqilligini qayta tiklashga kirishdi. Bu mintaqada Amir Temur (1336-1405 yillar) boshchiligida yagona tug' ostida markazlashgan, kuchli va

mustaqil davlat tashkil topdi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan bu tarixiy jarayonda shubhasiz Sohibqiron Amir Temurning xizmatlari buyukdir.

Bu aqlli va bilimli inson o'z davlatining kuch-qudratini oshirish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda harbiy va eng muhim iqtisodiy islohotlar o'tkazdi. Bu islohotlar zaminida avvalgi davr donishmandlarining aql-idroki, g'oyalari mujassam edi, ayniqsa, taraqqiyot uchun yagona davlat, o'zaro totuvlik, ishbilarmonlarga qulay mulkiy va huquqiy sharoit yaratishga, ayniqsa savdo-sotiqni rivojlantirishga alohida e'tibor berildi.

U Movarounnahrni yagona davlatga birlashtirish bilan chegaralanmadi, davlatning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslarini shakllantirib va mustahkamlab, buyuk saltanat darajasiga ko'tardi.

Temurning otasi Muhammad Tarag'ay Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega bo'lgan barlos qavmidan chiqqan obro'li beklardan biri bo'lib, Temurning jahonga hukmdor bo'ladigan farzand bo'lishi haqida birinchi bo'lib, avliyo shayx Shamsuddin Kuloldan eshitib, o'g'lining ilm olishiga juda katta e'tibor qaratgan. Amir Temur ilk bor Keshdagi madrasalarda bilim olgan. Bu yerda yetarli shart-sharoitlar mavjud bo'lib bu esa o'quv uslublarini takomillashtirishga ham katta yordam berargan. To'qqiz yoshli Temur Qur'oni Karimni yoddan bilgan. Temur madrasaning boshlang'ich davrini muvaffaqiyatli tamomlagandan so'ng, tahsilni Madrasai Oliyalarda davom ettirgan. U nafaqat Qur'oni Karimni, balki arab, turk mashoyixlarining durdona fikrlarini ham yod olgan. Bo'lajak jahongirning behad jarangdor va yoqimli ovozi kishilarni o'ziga rom etib, dillarga zavq-shavq bag'ishlagan. O'qish davomida u jahon mamlakatlarining tarixi, islom ta'limoti va huquqshunosligi, handasa, riyoziyot, jug'rofiya va falakiyot ilmlarini puxta o'rgangan, ma'naviy olamini boyitgan. Diniy ilmni nafaqat o'rgangan, shuningdek, unga amal qilgan va

qadirlaganligi, ustozlarini doimo hurmat qilganligi va ular bergan o'g'itlarga amal qilganligi uning ma'naviy yetuk insonligidan dalolatdir.

Ma'lumki, XIV-XV asrlarda islom mafkurasi o'zining rasmiy hukmronligi uchun kurash olib bordi, buning natijasida u kuchli markazlashgan davlat barpo bo'lishiga yordam berdi. Yilnomalar va tarixiy manbalarda Temurning dinga munosabati o'zining yaqqol ifodasini topgan. Temur nimaiki qilsa, shariat doirasida, musulmon fiqhi qoidalariga tayanib, umuman Islom qudrati bilan ish tutdi. Bu esa Temurning o'z piri Abu Bakr Toyibodiyning «rosti-rasti» ya'ni, «haqgo'y bo'lsang, najot topasan» hikmatini, o'z tamg'asiga muhr sifatida o'rnashtirgan edi.<sup>1</sup> Jumladan, islom diniga munosabat tamoyilini ishlab chiqqanligi butun temuriylar uchun dastur vazifasini o'tadi. Chunki Temur islom diniga davlatni idora qiladigan siyosiy tamoyili yo'qligi uchun emas, balki uning xalqqa eng yaqin va ma'qul qadriyat bo'lganligi hamda uning insonparvar xususiyati uchun to'la tayangan. Temur o'z «Tuzuklari»da islom dini va shariat qonunlariga tayanmaydigan hokimiyat uzoqqa bormay, o'z qudratini yo'qotadi, shuning uchun podshohlik, albatta, din va shariat qonunqoidalariga so'zsiz amal qilishi lozim, deb hisoblaydi.

Amir Temur adolatli hukmdor sifatida maydonga chiqib, o'z saltanati siyosatini tasavvuf asosiga qurgan adolat bayrog'ini baland ko'tarib, xalqni quruq qonun-qoidaga emas, balki insoniy tartib-intizomga bo'ysunishga chaqirgan. Tasavvufning rivojlanishini yangicha xususiyat bilan boyitgan va uning dunyoviylik ahamiyatini yanada kengaytirgan.<sup>2</sup> Amir Temur har gal Qur'oni Karimdan so'ng payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning muborak nomlarini hadsiz hurmat-ehtirom bilan tilga oladi, ul hazratning sahobalarini va avlodlari – saidlarni o'zining yagona va

<sup>1</sup> Ибн Арабшоҳ. «Ажойиб ал-Макдур фи тарихи Таймур» (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). 2-қисм. – Тошкент. 1992. 65-6.

<sup>2</sup>Каримов С.К. Амир Темурнинг тасаввувга муносабати. Амир Темур ва унинг дунё тарихидаги ўрни. 17-18 бетлар. Халқаро илмий конференция маърузалари баёни. – Самарқанд, 1996. 22-23 май.

eng yaxshi do'sti deb bilib, islomga taalluqli ishlarni dunyoviy ishlardan ustun qo'ydi. «Avval Tangri taolo toatini ado etib bo'lgandan keyingina kundalik ishlarga qo'l urdim». Hamda, «Men o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olib, saltanat martabasiga erishdim... davlat va saltanatinga bog'langan mening birinchi tuzugim Tangri-taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim, har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim,<sup>1</sup> «Qaysi mamlakatda dindan qaytishlik (ilhod) va zindqlik (xudosizlik, dinga ishonmaslik) kuchaysa va u diyorning aholisi, sipohu raiyati turli maslakka kirib, ittifoqlari buzilsa, u mamlakatning halokati yaqindir»<sup>2</sup> degan fikrlari buning yaqqol misolidir.

Amir Temur davlatni qanday boshqarganligini o'zining “O'z tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida qurilmas, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshaydirkim, ko'rgan har kimsa (undan) nigohini olib qochadi. Yoxud har xil qalang'i-qasang'i odamlar tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi.” - degan fikrlari bilan ifodalagan. Darhaqiqat, davlat nafaqat dunyoviy balki, dinu tartib asosida qurilmasa va uning mazmuni qonunlarga bog'lanmasa, unday saltanatning qudratini yo'qotadi.

Temurshunos olimlarning uning davlat boshqaruvini quydagi fikrlar bilan asoslaydilar. Ya'ni, Temur saltanati – imperiyasining boshqarish qonun-qoidalari Naqshbandiy tariqati g'oyalari bilan asoslangan, Temur tuzuklarining vujudga kelishi, kuchli mafkuraviy nazariya hamda boy amaliy tajribalar mahsuli sifatida maydonga kelganligi ko'rsatib o'tiladi. «Ana shu tarzda Naqshbandiya tariqati g'oyalari Amir Temur davrida Movarounnahrda va saltanatning boshqa hududlarida kuchli ijtimoiy mafkuraga aylandi.<sup>3</sup> Amir Temur ma'naviyatining shakllanishida, uning diniy, falsafiy qarashlari va o'z ta'limotini yaratishda, faqat

---

<sup>1</sup> Қиссаи Темур («Малфузоти Темурий»). – Тошкент, 2000. 260-262-б.

<sup>2</sup> Мен ким фотиҳи Темур. // Шарк юлдузи, 1995, №1-11.

<sup>3</sup> Гойибов Н. Амир Темур даври маънавияти. – Тошкент, 2001, 10-б.

Naqshbandiylikni takrorlayverishda ilmiy asos yo'q.<sup>1</sup> Faylasuf olim S.Karimov ushbu holatlarning barchasini nazarda tutadi, shekilli, Amir Temurni biron-bir tariqat yoki sulukning muridi emas, balki umuman «...so'fiylarning muoshirlari (suhbatdoshlari, sheriklari), ya'ni tasavvuf ahlining muxlisi, do'sti deb aytish, muvofiq bo'ladi, – deb xisoblaydi, chunki so'fiy hech narsaga band va giriftor bo'lmasligi kerak. Amir esa saltanat el-ulus tashvishlari bilan band, mudom toat-ibodat bilan hayot kechirishga imkoni yo'q shaxs».<sup>2</sup> Darhaqiqat shunday katta davlatning boshlig'i tarafdorlik qilib, biron-bir tariqatga ustunlik berishi mumkin emas edi. Temur o'z saltanati siyosatini amalga oshirishda dunyoviy ilmlarni hamda siyosat tamoyillarni, o'tmishdagi davlat boshliqlari siyosiy - qarashlarini o'rganish va qabul qilish, balki islom, shariat, tariqat, futuvtat ilmlarini to'la egallash bilangina emas, ularga amal qilgan holda muvaffaqiyatli siyosat yurgizish mumkinligini anglab yetgan.

Amir Temur o'z siyosatini dunyoviy ilmlar hamda siyosat tamoyillarni, o'tmishdagi davlat boshliqlari siyosiy qarashlarini o'rganish va amalda qo'llash bilangina emas, balki islom shariati va tariqati ilmlarini to'la tatbiq etish va qadrlash bilan muvaffaqiyatga erishish mumkinligini anglab yetganligi sababli ana shunday qudratli davlat barpo etgan.

Darhaqiqat, diniy bilimlarga to'yingan Amir Temur o'z siyosatining falsafasini qadriyatlar negizida qurish asnosida din va davlat muvozanatining samarli vositalarini shakllantirishga erishadi. Bu esa o'z navbatida talato'p ixtiloflarda yurgan Movaraunnahr xalqini birlashtiruvchi milliy mafkuraga aylanadi.

Amir Temur adolat haqidagi o'z qarashlarini diniy qariyatlar asosida bayon qilib, islomga, uning olimlariga yuksak hurmati va o'zining yuksak ma'naviyatli musulmon sifatida davlatni islom qonun-qoidalari asosida

<sup>1</sup> Яхшиликков Ж., Ахадов Ш. Темурийлар маънавияти. – Тошкент: Фан, 1999, 34-б.

<sup>2</sup> Каримов С.К. У фоний бўлмаган (Амир Темур ва тасаввуф). // Гулистон, 1996, №5, 9-б.

tuzishi ham Movarounnahrning diniy markazga, tasavvuf markaziga aylanishiga olib keladi.

Amir Temur islom dini ta'limoti va turli xalqlar madaniy merosini chuqur o'rgangan va unga amal qilishning tartib-qoidalarini tashkil etishga erishgan va qadrlagan buyuk davlat arbobi hamda yirik tafakkur sohibi sifatida namoyon bo'ladi.

Davlatchilik tarixiy tajribalar Amir Temur yaratgan siyosat falsafasi manfaatlarni umumlashtirishda, xalqning yuksak maqsadlariga erishishida samarali va ijobiy ta'limot ekanligini isbotlab kelmoqda. Bugun davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirish, kuchlar va manfaatlar muvozanatini ta'minlash, rivojlanishning barqaror shakl va vositalari tadbiq etishda, millatlar va dinlararo bag'rikenglik falsafasini o'rganishda Amir Temur merosi haloskor g'oyaga aylangan.

Shu nuqtai nazardan, din va davlat munosabatlarini tartibga solishning ilmiy asoslarini yaratishda Amir Temur bobomiz merosiga murojaat qilish ehtiyoji saqlanib kelmoqda.

## **AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI VA SAN'ATINING JAHON MADANIYATI TARIXIDA TUTGAN O'RNI**

**N.A.Buranova TAQU dotsenti**  
**N.Sh. Berdaliev TAQU dotsenti**

Mustaqillikni mustahkamlashning eng muhim ustuvor vazifalaridan biri yosh avlodda milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalash, boy madaniy – tarixiy merosimizning munosib vorislarini voyaga yetkazishdan iborat. Shubhasiz, tarix saboqlari asosida bunyod etilayotgan bugungi kunimiz kelajak taraqqiyotimiz uchun zamin yaratadi. Shu bois o'zligini tiklamoqqa azm qilgan har bir millat bu yo'lda o'ziga xoslikni, mustaqil rivojlanish yo'lini tanlaydi. Bu yo'lda ajdodlar hayot tajribasi, bilim va tafakkuri, yaratgan

moddiy va ma'naviy boyliklari millat va jamiyat taraqqiyoti uchun ishonchli va mustahkam tayanch bo'lib hizmat qiladi.

Markaziy Osiyo madaniyati tarixida Temur va temuriylar hukmronlik davri XIV asrning ikkinchi yarmidan XV asrning boshlarigacha bo'lgan davr so'nggi umumiy tarix rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta'limga e'tibor, ilm- fanga homiylik davlat siyosatiga aylandi. Barcha shaharlarda oliy ta'lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o'z davrining yetuk olimu ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etildi. Amir Temur va temuriylar davri qadim Turon o'lkasida maorif va ta'lim tizimi, ilm-fan yuksak rivojlangan davr sifatida ahamiyatlidir. Temuriylar davri renessansi rivoji bevosita Amir Temur asos solgan ulkan saltanatda adolatli boshqaruv tizimi barpo etilganligi katta o'rin tutgan. Qudratli saltanat va ma'rifatli jamiyat barpo etishda qadim turkiy davlatchilik an'analari va islomiy shariatga tayanib ish tutgan Amir Temur. har qanday taraqqiyotning asosi sifatli ta'lim tizimi ekanligini chuqur anglagan edi. Shu sababli Sohibqiron birinchi galda ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, ilmi, ma'rifati shaxslarning jamiyatdagi mavqeyini ko'tarish yo'lidan bordi.

Ahli ilmni yuksak qadrlagan Sohibqiron olimu fuzalolar bilan tez tez kengashib turgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Xususan, Sharofiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarida Amir Temur biror masalani hal qilmoqchi bo'lsa, avval shu sohaning bilimli mutaxassisleri, olimlar bilan maslahat qilganligini qayd etadi. Amir Temur tarixchi olimlarni juda e'zozlagan va Sohibqironning buyrug'i bilan saroyda bitikchilar, tarixchilar faoliyati yo'lga qo'yilgan edi. Bu Amir Temur va temuriylar davrida tarixnavislik fani yuksak darajada rivojlanishiga olib keldi.

Shu tariqa, olimu ulamolar Amir Temur va temuriylar saltanatida katta hurmatga va mavqega ega ijtimoiy qatlamga aylangan ediki, bu Movarounnahr va Xurosonda Ikkinchi Islom uyg'onish davrini yuzaga

chiqardi. Samarqand, Kesh, Buxoro, Hirot va boshqa shaharlarning ma'rifat va ilm fan markazlariga aylanishiga olib keldi. Buyuk ipak yo'li bo'ylab xalqaro savdo va madaniy aloqalar tiklandi, ilm fanning turli sohalaridagi hamkorlik yo'lga qo'yildi, qo'shni va uzoq mamlakatlar bilan elchilik munosabatlari o'rnatildi. Bu o'zgarishlar zamirida Amir Temur asos solgan va ko'plab temuriy hukmdorlar davom ettirgan ilm fanga, madaniyat va san'atga, maorifga e'tibor, ularga homiylikka yo'naltirilgan davlat siyosati muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Amir Temurning ilm fanga homiylik siyosati uning vorislari, xususan, Mirzo Ulug'bek tomonidan ettirildi. Mirzo Ulug'bek garchi uzoq Sultoniyada tavallud topgan bo'lsada, saltanat poytaxti Samarqandda tarbiya topdi, ilk savodini bobosi Amir Temurning sa'y harakatlari bilan butun islom dunyosining nufuzli ilm fan va ma'rifat markaziga aylangan shu azim shaharda chiqardi. Mirzo Ulug'bek (1409-1449) islom dunyosining yirik ta'lim dargohlariga aylangan madrasalar barpo etish va bu madrasalarda dars berishga o'z davrining yetuk olimu ulamolarini jalb yetishga katta e'tibor qaratdi. Bu jihatdan Mirzo Ulug'bek temuriy hukmdorlar ichida alohida o'rin tutadi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqandda Rasadxona, Buxoroda, G'ijduvonda va Samarqandda madrasalar qurildi. Bu davrda birgina Samarqand shahrida 100 dan oshiq olimlar fanning turli sohalarida ajoyib yutuqlarga erishgan. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, o'z zamonasining «Aflotuni» deb nom olgan Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviy, mavlono Ali Qushchi va boshqa taniqli zotlar bor edi. 1410 yilda Samarqandga kelgan va 1420 yilda ish boshlagan Ulug'bek madrasasida mudarrislik qilgan Qozizoda Rumi (1360 yil Bursa - 1437 yil Samarqand)ning tashabbusi bilan keyinchalik Samarqandga G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy va boshqa taniqli olimlar taklif etilgan. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida 60ga yaqin olimlar fanning turli sohalarida faoliyat olib borgan. Zamondoshlari tomonidan «Aflotuni

zamon» deya ulug'langan Qozizoda Rumiylar madrasada matematika va astronomiyadan dars berib, G'iyosiddin Jamshidning vafotidan keyin rasadxona mudirligi vazifasi bajargan. Qozizoda Rumiylar Samarqandda Ulug'bek rasadxonasi qurilishiga ham rahbarlik qilgan, Ulug'bekning «Ziji Kurogoniy» asarida yulduzlar jadvalini tuzishda qatnashgan.

Temur va uning avlodlari adabiyot va san'atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Temuriylardan 22 ta ijodkor-shoir bo'lib, ular o'zlari she'r yozish bilan birga ijodkorlarga xomiylik ham qilgan. Xalil Sulton, Husayn Boyqaro kabilar o'z she'rlaridan devon tuzganlar.

Xuroson va Movarounnaxrda forsiy va turkiyda ham ikkala tilda ijod qiluvchi shoirlar ko'p bo'lib, adabiy hayot yuksaladi. Sharq klassik adabiyoti tarjimalariga ham e'tibor kuchayadi. «Chaxor manoli» kabi adabiyot nazariyasiga oid asarlar yaratilgan. Badiiy ijodning g'azal, ruboiy, tuyuq kabi turlari rivoj topgan. Adabiy jarayonda shohlar ham, oddiy kosib va hunarmandlar ham, olim va fozillar ham qatnashgan.

Xurosondagi adabiy hayotning rivojida Boysung'ur Mirzo (Shohruhning o'g'li) ning o'рни beqiyos bo'lib, u o'z tashabbusi bilan fanlarning barcha sohalariga va san'at rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning rahbarligida Firdavsiy «Shohnomasi»ning ko'p qo'lyozmalarni qiyoslash asosida ishonchli ilmiy matni yaratildi. Boysung'urning o'zi ham forsiy va turkiyda she'rlar yozgan. Xullas, XV asr o'rtalarida Xurosonda o'zbek adabiyotining yangi maktabi yuzaga keldi.

Movarounnaxrda Ulug'bek davrida ko'plab forsiy va turkiy ijodkorlar to'plandi. Adabiy muhitni bevosita Ulug'bekning o'zi boshqarar, Samarqandda o'sha davrning eng yaxshi shoirlari yig'ilgan edilar. Shoirlarning sardori («Malik ul-kalom») qilib Mavlono Kamol Baraxshiy tayinlangan edi. Sakkokiy o'z qasidalaridan birida Ulug'bekning she'r yozishini va uning she'r haqidagi tushunchasi yuqori bo'lganligi ta'kidlab o'tgan. Ulug'bek Xurosondagi ijodkorlar bilan ham do'stona munosabatda

bo'lgan. U Lutfiy she'rlarini XV asrning mashhur shoiri Salmon Sovajiy she'rlari bilan teng ko'rgan. Mumtoz shoir bilan tenglashtirish Lutfiy uchun katta sharaf edi.

Ulug'bek saroyidagi eng obro'li o'zbek shoiri Sakkokiyning lirik she'rlari bilan birga o'zbek tilidagi qasidalari ham bu she'riy janrning sezilarli yutug'i bo'ldi. Temur va Temuriy shahzodalar o'z davri tarixini yozib qoldirish, Movarounnaxr va Xurosonning mo'g'ullar zulmidan ozod etilishi tarixini o'rganish va yoritishga katta e'tibor berdilar. Nizomiddin Shomiy, Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, hofizi Abru, Natanze, Fosih Xavofiy, Mo'yniddin Isfizoriy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar temuriylar davri tarixini yozib qoldirdilarki, ular yozib qoldirgan asarlar hozirda biz uchun o'sha davr hodisalarini, madaniy yuksalishini o'rganishda, muhim manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda<sup>1</sup>.

XV asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotining eng rivojlangan davri bo'lib, bu yuksalik Temuriy Boyqaro va o'zbek adabiyotining porloq quyoshi Navoiy nomlari bilan bog'liq. Boyqaro hukmronligi davrida adabiyot, san'at va fanning ko'p sohalari rivojiga katta ahamiyat bergan. «Husayniy» taxallusi bilan she'rlar yozgan, bu ulug' zot o'z hukmronligi davomida Navoiyga «muqarrabi hazrati sultoniy» mansablarini berib birgalikda madaniyatning rivojlanishiga homiylik qilishgan. Navoiy ustoz Jomiy bilan hamkorlikda ma'naviyat taraqqiyotiga rahnamolik qildi. Ular timsolida badiiy adabiyot eng buyuk yutuqlarga erishdi. Navoiyning «Xamsa» va «Xazoyinul-maoniy» devoni, Jomiyning «Xasht avrang» va she'riy devonlari shu davr adabiyotining eng buyuk namunalari bo'ldi. Husayn Boyqaro o'z «Risolasida» uning hukmronligi davrida shunday asarlar yaratilganidan cheksiz faxrlangani bejiz emas<sup>2</sup>.

Shu tariqa, olimu ulamolar Amir Temur va temuriylar saltanatida katta hurmatga va mavqega ega ijtimoiy qatlamga aylangan ediki, bu Movarounnahr va Xurosonda Ikkinchi Islom uyg'onish davrini yuzaga

---

<sup>1</sup> Маънавият юлдузлари. -Тошкент. 1999, 15-20 бетлар.

<sup>2</sup> Хайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. -Тошкент. 1996. 8-10 бетлар.

chiqardi. Samarqand, Kesh, Buxoro, Hirot va boshqa shaharlarning ma'rifat va ilm fan markazlariga aylanishiga olib keldi. Buyuk ipak yo'li bo'ylab xalqaro savdo va madaniy aloqalar tiklandi, ilm fanning turli sohalaridagi hamkorlik yo'lga qo'yildi, qo'shni va uzoq mamlakatlar bilan elchilik munosabatlari o'rnatildi. Bu o'zgarishlar zamirida Amir Temur asos solgan va ko'plab temuriy hukmdorlar davom ettirgan ilm fanga, madaniyat va san'atga, maorifga e'tibor, ularga homiylikka yo'naltirilgan davlat siyosati muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

### **AMIR TEMUR DAVRIDA MAMLAKATDA IJTIMOIIY- IQTISODIY VAZIYATNING BARQARORLASHUVI**

**M.K.Rashidova TAQU dotsenti, f.f.n.**  
**J.Sh.Elumurotov TAQU dotsenti, (PhD)**

Bugun Amir Temur va Temuriylar sulolasining dunyo sivilizatsiyasi rivojiga, insoniyatning ilmiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-g'oyaviy, madaniy va tafakkur darajasi keskin ko'tarilishiga qo'shgan hissasi beqiyosligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Jahon hamjamiyati Temuriylar davrini ilm-fan, madaniyat, san'at va adabiyot taraqqiyoti hamda ulug' kashfiyot va ixtirolarda o'z aksini topgan davrdir.

Amir Temurning ibratli hayoti va davlatdorlik iqtidori, faoliyati, saltanati tarixi, undagi ilm-fan va madaniyatni o'rganish tarixshunoslikning yirik ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida doimo jahon olimlari, davlat rahbarlari, siyosatchilar diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda.

Amir Temurning tarihdagi hizmati shundan iboratki, u davlatchilikning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosatning tartib koidalari, hukukiy asoslarini yangi tarixiy sharoitda takomillashtirdi.

Tashqi va ichki favkulodda voqealardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar tuya mingan, ming nafar ot mingan choparlari bo'lgan. Butun saltanat bo'ylab bir kunlik yo'l oralig'ida yemxonalar tashkil etilgan. Har bir yemda 50-200 boshdan ot-ulov tutilgan. Sohibqiron mamlakatni boshqarishda o'z yaqinlariga suyanardi. Mamlakatning g'arbiy viloyatlari o'rtancha o'g'li Mironshohga, Balx viloyati katta o'g'li Jahongir mirzoga, Huroson kichik o'g'li Shohruh mirzoga suyurg'ol etilgan. U nabiralariga ham suyurg'ol bergan. Jumladan Kobul, G'azna, Kandahor, Hind yerlari Pirmuhammadga, Isfahonni Umarshayhning o'g'li Rustamga, Bog'dodni Mironshohning o'g'li Abubakrga suyurg'ol kilgan. Amir Temur saltanat ishlarida o'zining pirlari maslahatlaridan ham keng foydalangan.<sup>1</sup> «Temur tuzuklari»da sohibqironning pirlari va ularning ko'rsatmalari bayoni berilgan. Asli Xurosonlik yirik shayh bo'lgan Zaynuddin Abubakr Toyobodiy Amir Temurga davlat boshqarish ishlarida kengash, mashvaratu maslahat, hushyorlik, ehtiyotkorlik amallariga rioya etishni maslahat bergan. Shuningdek, «Temur tuzuklari»da Sayid Baraka, Mir Sayid Sharif Jurjoni, Termiz sayidlaridan Ali Akbarlarning Amir Temur Davlati dargohlarida, mashvaratu kengashlarda faol ishtirok etganlari haqida ma'lumotlarga duch kelamiz. Davlat boshqaruv ishlarida Sohibqiron islom qonun-qoidalariga asoslangan. Amir Temurning Qur'oni Karim va Hadisi shariflarga bo'lgan munosabati samimiy va oliy darajada bo'lgan. Payg'ambar avlodlari shayhul-mashoyihlarga hurmati cheksiz bo'lgan. Davlatni kuchaytirishda ham ana shunday qishilarga tayanib ish yuritgan. Amir Temur davrida Movarounnahrda axolining yashash darajasi va sharoiti yaxshilandi. Yagona markazlashgan davlatning shakllanishi va rivoj topishi bilan oddiy axolining tinch va osuda yashab, mehnat qilishiga shart-sharoit yaratildi.

---

<sup>1</sup> Темур тузуклари. –Тошкент. 1991.

Temur davlatining iqtisodiy hayotida hunarmandchilik alohida o'rin egallagan. Eng muhim hunarmandchilik turlari sifatida temirchilik va to'qimachilikni misol qilib keltirish mumkin. Bu davrda shahar va qishloq aholisi, dashtlarda yashovchi yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida, to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talab yuqori bo'lgan. Turkiston shaharlarida ip, ipak, jun va kanop tolasidan turli hildagi rangdor, guldor hamda nafis va dag'al gazlamalar ko'plab to'qib chiqarilar edi. Masalan, o'sha paytlarda oq, yashil, malla, zangori, binafsha va ip kalavalaridan karbos, ya'ni bo'z, guldor chit, ok surp, nafis zarlar berilgan, kanop tolasidan katon kabi turli hil gazlamalar to'qilgan. Albatta to'qilayotgan matolarda jamiyatda mavjud sinflar ehtiyoji hisobga olingan. O'sha davrda eng arzon mato karbos bo'lib, undan shahar va qishloqlarning mehnatkash axolisi hamda dashtlik chorvadorlar kiyimlik sifatida foydalanganlar. Shuningdek ichki kiyimlar, ustki liboslarning astarlari, ko'rpa-to'shaklar ham karbosdan tikilgan. Kanop tolasidan katon, zig'ir poyadan to'qilgan targ'u nomli matolar ancha pishiqligi bilan mashhur bo'lgan. Ulardan «jamoikatoniy» deb atalgan kimmatbaho choponlar, kimmatbaho toshlar kadalgan zarbof to'nlar tikilgan. Navoiyning yozishicha, karbosga qaraganda katon ancha qimmat turgan. Ipak va ipakdan to'qilgan futada salla, belbog' va aslzoda yoshlar kiyim-kechaklari tikilgan. O'sha davrda futaning bir belbog'i yoki bir sallalik baxosi Hirotda ellik tanga turgan.

Ayniqsa bu davrda mahalliy va chetdan keltirilgan ipakdan turli shoyi gazlamalar to'qish keng yo'lga qo'yilgan. Manbalarda atlas, kimhob, banoras va duhobalar qatorida tovlanuvchan yaltiroq horo, nafis va guldor debo kabi shoyidan to'qilgan gazlamalarning nomlari uchraydi. Shoyi matolardan, hususan qirmizi va zangori duhobalardan zarbof liboslar tikilgan. Ammo shuni e'tirof etmoq lozimki, shoyi matolar va zardo'zi

buyumlar zeb ziynat qatorida turgan. Shu sababli uni faqat saroy ahli va mulkdor tabaqa vakillari kiyishgan va foydalanishgan.

Umuman olganda Amir Temur davrida Movarounnahrda hunarmandchilik sohasida shunday ulkan ishlar amalga oshirildiki, hech ikkilanmasdan bu davr hunarmandchilik taraqqiyotining yuksak cho‘qqisi deb hisoblash mumkin. XV asrda O‘rta Osiyo shaharlarning sharq mamlakatlari bilan tijorat, iqtisodiy va madaniy aloqalari Buyuk ipak yo‘lining an‘anaviy yo‘llari orqali olib borilgan. Qit‘aning yo‘liga Samarqand, Buhoro, Urganch, Toshkent, Andijon kabi yirik tijorat hunarmandchilik markazlarining o‘zigina bog‘langan. Buyuk ipak yo‘li Movarounnahrning kichikrok shaharu qishloqlarini ham qamrab olgan. Biroq shuni ham ta’kidlash kerakki, bu aloqalar doimiy bo‘lgan. Davlatlarning o‘zaro munosabatlari yaxshi davrlardan alokalar jonlanar edi. Siyosiy ixtilof paytida esa ko‘shib butkul uzilib kolgan. Amir Temur davrida boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq ancha jonlandi.

O‘sha davr muallifining habar berishicha, Samarqandda har yili o‘tkaziladigan turli yarmarkaga turli mamlakatlar Hitoy, Hindiston, Tatariston va boshqa xilma-xil joydan mol keltirilar edi.

Samarqandga chetdan keltiruvchi mollar muhim o‘rin tutgan. Klavixo Samarqand va uning to‘g‘risida yozar ekan, bu yerning boyligi oziq-ovqat mo‘llicangina emas, balki bu yerda tayyorlanuvchi atlas, shoyi, kimhobdan ham deb ko‘rsatib o‘tadi. Samarqandga turli mamlakatlarning mollari, shu jumladan O‘rusiya va Tatariyaning yo‘li bilan zig‘ir tolasidan to‘kilgan gazlamasi olib kelinardi. O‘rta Osiyo Volga bo‘yidagi Bulg‘or degan nom olgan davlatdan turli-xil poyabzallar, qimmatbaho egar, kamon, muqova va boshqa narsalar olib kelingan. Bulg‘or terisi keyinroq Moskvadan jo‘natilgan o‘sha kezlari Kozonda Volgadagi tatarlar mamlakatida ishlab chikarishardi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. –Тошкент. 1990. 50 б.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qadimiy taraqqiyot an'analari Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xiva, Toshkentda, Farg'ona va Surxondaryo vodiylarida, shuningdek, Turkiston hududidagi boshqa yodgorliklarda, o'tgan asrlar tarovatini o'zida saqlagan puxta o'ylangan ko'plab o'quv markazlari, madrasa, kutubxonalarda o'z ifodasini topdi.

Erk va mustahillikka erishgan o'zbek xalqi bugungi kunda tarixning ana shu obidalarini avaylab saqlab, misli ko'rilmagan ishtiyoq bilan o'z milliy an'alarini qayta tiklamoqda, begona mayl va biz uchun nomaqbul mafkura bilan ataylab yashirilgan o'zining boy tarixi va madaniyati sahifalarini zargarona yangitdan yaratmoqda.

#### **THE DEVELOPMENT OF TRADE ROUTES DURING AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS PERIOD.**

**N. Tangirova**  
**Nizomiy nomidagi TDPU 2-kurs magistranti**

It is known that Central Asia, especially the territory of Uzbekistan, played an important role in international trade and cultural relations during the period of Amir Temur and the Timurids. After Amir Temur took power in Movarounnahr, he managed to create a centralized authority in the former Chigatoy ulus and fully ensure the safety of international caravan routes. Because of this, since the 14th century, the central branch of the Great Silk Road passing through Movarounnahr began to take a more important place in international economic and cultural relations than the northern route. The revival of the movement of international trade caravans along the Movarounnahr led to the development of cities and the rise of economic and cultural relations. During this period, the roads connecting the country's capital Samarkand with the large cities of Movarounnahr and Khorasan formed the main link of the system of internal trade routes in the region. The activities carried out in the field of ensuring

security on caravan routes, the construction of many roadside structures (caravans, reservoirs, bridges, etc.), the promotion of internal and external trade to the level of state policy were among the main directions of the socio-economic policy of Amir Temur's state. During this period, there were several communication routes connecting the large cities of Movarunnahr with Herat, the capital of the Timurids state in Khorasan. Among them, the roads leading from Herat through Marv to Bukhara and Urganch and through Balkh to Samarkand had a strong place in the internal and external economic, cultural and political life of the region.

The roads connecting the cities of Samarkand and Herat, which became the two capitals of the Timurids state in the 15th century, with the northern parts of the kingdom, in particular, the Khorezm oasis, were also of great importance during this period. From Urganch, the capital of Khorezm, which was considered the main transit area in the relations of the Timurid rulers with the Golden Horde, to Herat was mainly passed through the Murghab oasis. The road that went south from Urganch and other cities of Khorezm joined in the city of Marv. The road from Marv to Herat passed along the left bank of the Murghob River, turned right at the confluence of the Murghob and Kushka Rivers, and continued along the left bank of the Kushka River to Kushka. From here, it went to Herat through Raboti Sangi Poin and Rabat Hill. The first part of the roads leading from Herat to Samarkand passed through the crossings in the middle course of Amudarya. In particular, Herat, which was the capital of Khurasan during the Timurids era, was connected with the cities of Movarounnahr through the route Sabzak - Qal'ai-Nov - Murghob - Maymana - Andkhai - Kelif. The road from Herat branched off in Andkhai, and one direction led to Termiz through Shibirgan, Balkh, Khairabad. The road from Kelif and Termez to Samarkand passed through the cities of Kesh (Shahrisabz) or Karshi in the Kashkadarya oasis. Roads from India and Afghanistan through the Kelif pass to the central cities of Movarounnahr passed mainly through Karshi.

Hafizi Abru informs about the location of the city of Nakhlab on the plain, the route from Bukhara to Samarkand passes through this ancient city<sup>1</sup>. In "Boburnoma" it is noted that Karshi is located south of Samarkand and the distance between them is 18 miles<sup>2</sup>. The route from Samarkand through Kesh to the Surkhan oasis and to India was also actively used during this period. In particular, according to Sharafuddin Ali Yazdi, during his campaign from Samarkand to India, Amir Temur built a garden and a palace on a mountain located 7 yards from Samarkand, on the road to Kesh, and named it "Takhti Karacha"<sup>3</sup>. One direction of the road passing from Kelif and Termez to Samarkand passed through the city of Kesh (Shahrisabz). It is known that the Spanish ambassador Ruy Ganzalis de Clavijo, who came on an official visit to Amir Temur, came to Samarkand from Khurasan via Termiz - Darband - Temir Darvoza - Oqrobot - Kesh. Clavijo gave a high assessment of the position of Samarkand in the state of Amir Temur, and reports about the bazaar and covered stalls built by Sahibqiran<sup>4</sup>. During the period of Amur Timur and the Timurids, international relations were actively established with many countries of Europe and Asia. In particular, economic and cultural relations were conducted along important international caravan routes connecting the capital Samarkand with India, Khurasan, Iran, Iraq, Egypt in the south, the Golden Horde and Russian cities (Novgorod, etc.) in the northwest, East Turkestan and China in the east. During this period, the relations between Central Asia and India continued for many millennia. Ambassadors from India came to Shahrukh's palace in 1411-1416 and 1421, and it is known that in 1422 Abdurazzak Samarkandi went to southwestern India via the sea

---

<sup>1</sup> Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 85.

<sup>2</sup> Захриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома... 47-бет.

<sup>3</sup> Шарофуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Тошкент, 1997. – Б. 191.

<sup>4</sup> Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. 1403- 1407 гг. Перевод со староиспанского, предисловия и комментариев И.С. Мироковой – СПб., 1990. – С. 134; Руи Гонсалес де Клавихо. История Великого Тамерлана // Тамерлан. Эпоха. Личность. Деяния. – М.: Гураш, 1992. – С. 299-301.

route of ambassadors, that is, in the direction of Herat-Kirman-Khormuz-Kolikut<sup>1</sup>. The port of Hormuz in the Persian Gulf was of great importance as an important port from which the water route from Amir Temur and the Timurids state to India began<sup>2</sup>.

In written sources, especially in the works of the Middle Ages, in particular, in the famous work "Baburnoma", information is given about the mountain passes from India to Central Asia through Kabul and Kandahar. According to it, Kashkar, Fergana, Turkestan, Samarkand, Bukhara, Balkh, Hisar and Badakhshan were passed to Kabul through 7 kotal (pass, mountain road) in the Hindikush mountains. There were 4 roads (passes) from India to Kabul through the Khybar Mountains, and there were no mountain passes on the Khurasan road between Kabul and Kandahar<sup>3</sup>. During the period of Amir Temur and the Timurids, relations with China did not stop. It is known that in 1368, the Yuan Dynasty of the Mongols ended in China, and the Ming Dynasty came to power. Due to the policy of the Ming Empire (1368-1644) to reliably protect the north of China from the Mongols and to strengthen the borders, the relations between Central Asia and China were disrupted for a certain period of time. After Amir Temur subjugated Mongolia in 1389 and eliminated the threat to Movarounnahr from the Mongolian side, there was an opportunity to ensure the safety of the caravan route passing through Mongolia and Eastern Turkestan, and to restore trade and diplomatic relations with China. In particular, in the years 1389-1398, ambassadors went to China 9 times on behalf of Amir Temur, and in 1395, ambassadors were sent to

---

<sup>1</sup> Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II-китоб. 2 ва 3 қисмлар. 1429–1470 йиллар воқеалари / Форс тилидан таржима, ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Географик номлар изоҳли кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев – Тошкент: O'zbekistan, 2008. – Б. 112-180; Ҳасанов Х. Сайёҳ олимлар. – Тошкент, 1981. – Б. 162-165.

<sup>2</sup> [Шильтбергер И.]. Путешествия Иоганна Шильтбергера по Европе, Азии и Африке (с 1394 по 1421 гг.) / Перевел с немецкого и снабдил примечаниями Ф.Брун. – Тошкент: Шарқ, 1997. – С. 57.

<sup>3</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 117-118.

Samarkand under the leadership of Fu An, indicating that the relations between the two countries continued<sup>1</sup>.

Relations with China continued during Shahrukh Mirza's reign. In the written sources of this period, it is known that Chinese ambassadors came to Herat in 1409 and 1420, and in turn, Timurid rulers also sent their ambassadors to China several times. Trade routes, which are an important branch of the Great Silk Road connecting Central Asia with China, mainly led from the center of Movarunnahr to Eastern Turkestan through Ferghana and Yettisuv, and through the trading cities here to Beijing, the capital of China. The directions of this important trade route were described in detail in the diary written by the member of the embassy mission sent by Shahrukh Mirza to China under the leadership of Shahidhoja in 1419-1422. According to the information presented in this work, the ambassadors moved along the caravan route connecting Herat with China through Central Asia: Herat - Balkh - Kelif route - Samarkand - Sayram - Ashpara (the fortress of this city was built by Amir Temur) - Mogul Eli (Bilgutu - Konkir Suvi) - Star pasture) - Turfon - Karakhoja - Sufi Ato village - Kumul - Qarovul - Sukju - Qamju - Pinlon - Khanbaliq (Beijing). Among the roads connecting Central Asia with China, the Shosh oasis has an important place, and caravans covered the distance from Shosh to Turfon in 3 months<sup>2</sup>. It is known that diplomatic relations have been established during the period of Amir Temur and the Timurids with European countries - France, England, Spain and other countries. In particular, looking at the route of the official visit of the Spanish ambassador Rui Ganzalis de Clavijo, who visited Samarkand in 1402-1404 from the Mediterranean Sea via Iraq-Iran-Khorasan, it is possible to get

---

<sup>1</sup> Бўриев О., Колганов А. Об одном участке Великого шелкового пути // На Среднеазиатских трассах Великого шелкового пути. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 106-116.

<sup>2</sup> Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Епифановой. Примечание и указатели Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 367.

information about the activity of trade routes that came to Samarkand from Khurasan via Termiz-Darband-Temir Darvoza-Aqrobot-Kesh. During the period of Amir Temur and the Timurids, there were connections with the cities of the Golden Horde, which were in two directions; it was carried out through Khorezm oasis or cities in South Kazakhstan (Turkestan, Sayram). With this, the ancient relations between the peoples of Central Asia and the peoples of Eastern Europe were revived. Russian chronicles of the 14th century contain information about Bukhara and Khorezm merchants living in Nizhny Novgorod<sup>1</sup>, which indicates trade and cultural relations between the two. From the 15th century, when the position of the Moscow principality began to strengthen, we see that the Russian princes began to seek to establish diplomatic relations with the Timurids.

Thus, the advanced Middle Ages, especially the era of Amir Temur and the Timurids, is the last and peak period of the Great Silk Road. During this period, the cities of Movarounnahr and Khorasan were the central routes of the Great Silk Road played a major role in international economic and cultural relations.

## ***XONLIKLAR DAVRIDA O'RTA OSIYO XALQLARI.***

### **MADRASADA MUDARRISLIK QILGAN BUXORO AMIRLARI**

**A.T. Zamonov**  
**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti “Tarix”**  
**bo‘limi mudiri, t.f.f.d., katta ilmiy xodim.**

*Mudarris (arabcha “dars beruvchi”) – madrasa o‘qituvchisi hisoblanib, madrasalarda o‘qitiladigan muayyan fandan dars bergan. Iste’dodli, barcha bilimlardan xabardor va hurmat-e’tibor qozongan*

---

<sup>1</sup> Жуковский С.В. Сношение России с Хивой и Бухарой за последней трехсотлетие // Труды общества русских ориенталистов.– СПб, 1915. – № 2. – С. 12.

*allomalar maxsus komissiya sinovidan o'tib, mudarrislik vazifasiga tavsiya etilgan.*

Ahmad Donish mudarrislik kasbining mashaqqatlari haqida: "...kunduz kuni muallim o'z o'quvchilari bilan mashg'ulotda band bo'ladi, kechqurun esa ertangi kungi mashg'ulotlarga tayyorlanadi, xullas u umr bo'yi o'qiydi va o'z kasbi bilan muttasil, tanaffussiz shug'ullanadi", degan fikrlarni bayon etadi.

Madrasada dars berishi uchun mudarrislikka tayinlanish tartibiga ko'ra, kichik madrasalarning mudarrisini qozikalon tayinlasa, yirik madrasalarning mudarrisi esa amir tomonidan tegishli hujjat asosida tayinlangan.

Tarixda ayrim hukmdorlarning o'zi ham madrasada mudarrislik qilgani haqida ma'lumotlar mavjud. Xususan, manbalarda Mirzo Ulug'bek (1394-1449)ning Samarqanddagi madrasada astronomiyadan, uning nabirasi Kuchkunchixon (1452-1529) esa aruz ilmidan dars berganligi haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolgan. Buxoroning ba'zi amirlari ham ilm-fan va madaniyat rivojida homiylikdan tashqari, muayyan fanlarni chuqur o'zlashtirib, o'zlari bevosita madrasalarda dars ham berganlar.

Masalan, Amir Shohmurod (1749-1800) amirlik taxtiga chiqqunga qadar bozorda hammollik qilgan, pichoqlarga qin yasab sotgan. Yoshligidan xudojo'y, porso bo'lib o'sgan, madrasani bitirib darvishlik suluki soliklaridan biriga aylangan Shohmurod shaxsiyatida hukmdor va so'fiy sifatlari mujassam. Muarrixlar ta'biri bilan aytganda, u «so'fiy tal'at, darvesh surat» kishi edi<sup>1</sup>. U Samarqand hokimligi mansabida uzoq vaqt turmagan bo'lsa kerak. Chunki ba'zi tarixiy manbalarda hammollik bilan kun kechirgani yozib qoldirilgan<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Mirzo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. Tabdil, so'z boshi va izohlar muallifi Sh.Vohidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 170 b.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

Abu Tohirxojaning «Samariya» asarida keltirilishicha, Shohmurod yoshligida bir necha yil Mir Arab madrasasida tahsil olgan<sup>1</sup>. U boshqa fanlar qatorida tasavvuf ilmini ham oʻrgangan va soʻfiyona turmush tarzi uning hayoti mazmuniga aylangan. U Buxoro madrasasida «Hidoya», Bayzoviyning «Kitob usul ad-din» asaridan hamda Shotibiyning asarlari va unga yozilgan sharhlardan dars bergan. Shohmurodning oʻgʻli Miriyning yozishicha, Shohmurod «Shotibiya» va uning sharhlarini yoddan bilgan. Shuningdek, u qiroat, hadis va fiqh ilmlari bilimdoni boʻlgan va umrini talabalarga dars berishga sarflab, koʻplab shogirdlar yetishtirgan. Buni Sadri Ziyo (1865-1932 yy.)ning quyidagi maʼlumoti ham tasdiqlaydi: “Shohmurod Mir Arab madrasasining bitta hujrasida kecha-kunduz riyozat chekib, ilm olish bilan shugʻullangan va xalq orasida «Amir Jannatmakon» laqabi bilan tanilgan. Amirlik taxtiga chiqqach (1785), oʻz lavozimiga belgilangan maosh bilan kun koʻrgan, hadya va tortiqlarni qabul qilmagan”. Amir Shohmurod madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaqa (stipendiya) toʻlashni joriy etgan<sup>2</sup>. Amir Shohmurod islom shariatiga oid «Fatoviyi ahli Buxoro» nomli kitob tartib etgan. Ammo bu fatvolar toʻplamini toʻliq kitob holiga keltirishga ulgurmagan. Otasining vafotidan soʻng oʻgʻli amir Haydar mazkur kitobni oxiriga yetkazgan<sup>3</sup>.

Shohmurod davri tarixchilaridan biri u toʻgʻrida: “Qubbat ul-islom va dor ul-xilofa Buxoroyi sharifning oxirgi avliyoulloh sultonlaridan edi, muborak ismi Muhammad Shohmurod Valiydir”, – deb yozadi<sup>4</sup>.

Shohmurodning oʻgʻli Amir Haydar ham otasining maʼnaviy-maʼrifiy ishini davom ettirgan. Amir Haydar hijriy 1193-yil muborak ramazon oyining 19-kuni (1779-yil 30-sentyabr) tavallud topadi. U tugʻilgach, Amir Shohmurod oʻsha paytda Buxoroda qozi ul-quzzot boʻlib turgan shayxulislom Atoullaxojaning huzuriga oʻzi boradi va uni Oliy Arkka olib

---

<sup>1</sup> Abu Tohirxoja Samarqandiy. Samariya. / Forschadan tarjima Abdul Moʻmin Sattoriy, qayta ishlangan va toʻldirilgan nashriga masʼul Sh.Vohidov, B.Aminov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 131 b.

<sup>2</sup> Asrorova L.Q. Buxoro madrasalari tarixidan. – Toshkent: Nihol nashr. 2017. – 129 b.

<sup>3</sup> Jumanazar Abdusattor. Buxoro taʼlim tizimi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 264 b.

<sup>4</sup> Oʻsha asar. – 256 b.

kelib, chaqaloqqa ot quyib berishni iltimos qiladi. U kelgusida mo'minlar amiri hazrati Alidek hamisha g'olib bo'lib yursin deya xayrli duo qilib go'dak shahzodaga Haydar<sup>1</sup> ismini qo'yadi<sup>2</sup>.

Amir Haydar qariyb o'n yil – hijriy 1206 – 1215-yillar oralig'ida (1791 – 1801) Nasaf viloyati hokimi bo'ladi. Amir Haydar Qarshida hokim bo'lib turgan yoshlik chog'larida alloma Mirakjon an-Nasafiydan ta'lim oladi<sup>3</sup>.

Amir Haydar Buxoro arkidagi masjid qoshida madrasa qurdirgan va o'zi ham mazkur madrasada «Sharhi Kofiya», «Sharhi Mishkot», «Shamoili Nabaviy» va «Tafsiri Qozi Bayzoviy»dan dars bergan. Qur'onni yod olganligi uchun manbalarda Hofizi Qur'on podshoh sifatida tilga olinadi<sup>4</sup>. «Tuhfat az-zoirin» asarida Amir Haydar «Amir sayid» va «Firdavsmakoniy» laqablari bilan tanilgani qayd etilgan. Hatto Amir Haydarning «Amir» yoki «Oliy» nomli madrasa qurdirgani to'g'risida ma'lumotlar mavjud. U qiroat ilmi va xattotlik san'atini puxta egallagan mudarris edi<sup>5</sup>.

Herman Vamberi Amir Haydarning madrasadagi faoliyatiga doir bir qiziq ma'lumotni keltiradi. “Amiri Sayyid har kuni bir necha soat vaqtini takyalarda ibodat bilan o'tkazish yoki mashhur mudarrislarining tasavvuf darslaridan saboq olish bilan mashg'ul bo'lgani bois, qo'shni mamlakat Xorazm xoni Muhammad Rahimxon Eltuzarxon qasdi uchun Chorjo'y va Qorako'lni zabt etib, Buxoro ostonasiga kelganida, pinagini buzmay, “Axir, Registon omonku” deb gapirgan ekan<sup>6</sup>. Bu yerda bir oz mubolag'a ishlatilgan bo'lsa-da, har holda amir ilm-fan va ma'rifatga bir qadar berilganligi eslatiladi.

---

<sup>1</sup> Haydar, Asad – Xalifa Ali ibn Abu Tolib (656-661)ning mashhur laqabi. Bizning tilimizda “arslon” ma'nosini anglatadi.

<sup>2</sup> Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 415.

<sup>3</sup> Mirzo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – 178 b.

<sup>4</sup> O'sha asr. – 170 b.

<sup>5</sup> Asrorova L.Q. Buxoro madrasalari tarixidan. – Toshkent: Nihol nashr. 2017. – 42 b.

<sup>6</sup> Armeniy Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: Info capital group, 2019. – 173 b.

Manbalarda yozilishicha «...odatda u tushdan keyin xonaqoh oldida 20 nafar talaba bilan suhbat o‘tkazar, qimmatli umrini zoye ketkazmas edi»<sup>1</sup>. Amir Haydarning madrasada ta’lim oluvchi 400–500 nafar talaba shogirdlari bo‘lgan<sup>2</sup>. Amir talabalar uchun Istanbuldan o‘quv adabiyotlari keltirishga shaxsan o‘zi bosh-qosh bo‘lgan. Ya’ni, 1815-yil o‘z elchilarini Istanbulga yuborib, sulton Mahmuddan shariatga doir kitoblarni so‘ratganda, Sulton Buxoroga 32 jilddan iborat kitob jo‘natgan<sup>3</sup>. Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda ilm olish maqsadida Buxoroga dunyoning turli joylaridan talabalar kelgan.

Amir Haydar saroyida shoir Hoziq va tarixchi Mirzo Sodiq Jondoriy (u munshiy lavozimida ishlab, tarixga oid “Futuhoti Amiri Ma’sum (Shohmurod) va Amir Haydar” va “Tarixi Manzum” asarlarini yozgan), tarixchi olimlardan Mulla Ibodulloh va Mullo Muhammad Sharif (“Tarixi Amir Haydar” asari muallifi), Muhammad Shariq ibn Muhammad Naqiy (“Toj at-tavorix” asarini 1800-yili yozgan), Mir Zohid Xo‘ja Sadr ul-Hattob (“Shijoatnomai sultoni olam” yoxud “Tarixi Amir Haydar” nomli asar muallifi), Abdulkarim Buxoriy (“Xuroson, Hindiston, Afg‘on va Turon davlatlaridagi podshohliklar va mulklarning 1747-1830-yillardagi tarixi” asari muallifi), Mir Husayn ibn Shohmurod – Miriy (“Mahazin at-taqvo” asarini yozgan), Mu’in (“Zikri te’dodi podshohoni o‘zbek” asari muallifi), Muhammad Ya’qub Buxoriy ibn Amir Doniyol (“Risola” va “Gulshan al-muluk” asarlari muallifi), so‘fiy va qozi Humuliy (“Tarixi Humuliy” asari muallifi), Mirzo Shams Buxoriy (“Buxoro, Xo‘qand va Qoshg‘ardagi hodisalar bayoni” asarini yozgan) kabi olimlar va shoirlar yashab, ijod etgan<sup>4</sup>.

Amir Haydar hukmronligi davrida Buxoroda Chor Minor me’moriy majmuasi va Xalifa Niyozqul madrasasi (1807), ko‘plab masjidlar, xonaqolar, hammomlar qurilgan, Xalifa Xudoydod me’moriy majmuasi

---

<sup>1</sup> Asrorova L.Q. Buxoro madrasalari tarixidan. – Toshkent: Nihol nashr. 2017. – 42 b.

<sup>2</sup> O’sha asar. – 43 b.

<sup>3</sup> O’sha asar. – 42 b.

<sup>4</sup> Rajabov Q. Amir Haydar yoxud Amiri Sayyid. // Buxoro mavjlari. 2005. – 42 b.

(1777-1855) qurilishi davom ettirilgan. Amir Buxoroda volidasiga atab maxsus madrasa qurdirgan. Qarshida Ali madrasasi va Mir Muhammad madrasasi ham shu davrda qurilgan<sup>1</sup>.

Mirzo Salimbekning yozishicha, Amir Haydar 48 yil umr ko'rgan. U tirikligida tahajjud ishroq<sup>2</sup> namozini tark etmagan va hofizi Qur'on hukmdor bo'lgan<sup>3</sup>. Har yili o'n ming g'arib va miskinlarga vazifa<sup>4</sup> berar, shayxlarga ehtirom qilar edi. Undan yetti o'g'il va sakkiz qiz farzand qolgan edi<sup>5</sup>.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sovet tarixshunosligi va hatto, mustaqillik yillarida Buxoro amirlari faoliyatiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda asosiy e'tibor amirlarning xalqqa nisbatan zulm qiluvchi dispotik hukmron doira sifatida qaralib, ularning saroy va haramdagi o'ziga xos tartib-qoidalar asosidagi turmush tarzi kayf-safo sifatida bir tomonlama baholanib, tanqid ostiga olindi. Natijada, ularning ilm-fanga qo'shgan hissalar, madaniyat sohasidagi islohotchilik faoliyatlari, eng muhimi, ularning bugungi yosh avlodga o'rnak qilib ko'rsatgulik ma'rifatparvarlik siyosati ko'plab tadqiqotchilar nazaridan chetda qoldi.

---

<sup>1</sup> O'sha joyda.

<sup>2</sup> Besh vaqt manozdan tashqari, quyosh chiqishi bilan o'qiladigan namoz – Tahajjud ishroq deyilgan.

<sup>3</sup> Muin va uning "Zikri te'dodi podshohoni o'zbek" asari. Xrestomatiya. – 109 b.

<sup>4</sup> Nafaqa. Kunlik, oylik, yillik nafaqa bo'lib, bir shaxsga xazina hisobidan naqd pul yoki oziq-ovqatlar nafaqa tariqasida berilgan.

<sup>5</sup> Mirzo Salimbek. Kashkuli Salimiy tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin. Buxoro: "Buxoro" nashriyoti, 2003. – 296 b.

## **XONLIKLAR DAVRIDA O'RTA OSIYODA SOLIQLAR.**

**A.X. Xudayorov**

**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası” dotsenti.**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

So'ngi o'rta asrlarga kelib, ayniqsa O'rta Osiyo xonliklari hukumronligi davrida yer egaligining bir necha shakllari, xususan davlat yerlari, mulkiy yer egaligi hamda mulki holis, mulki hur va vaqf yerlari mavjud bo'lgan. Davlat xazinasining katta qismi asosan, yer egaligi asosida ya'ni, daromadlar manbai asosida shakllantirilgan. Masalan Shayboniylar davrida xuddi Temuriylar davridagi kabi yer-suv, mol-mulklarning katta qismi viloyatlar, tumanlar ixtiyoriga o'tkazilib, davlat oldida alohida xizmat ko'rsatgan shaxslarga suyurg'ol sifatida berilganligi tarixdan ayon. Bu davrda soliqlarning oshib borishi, o'z navbatida mehnatkash aholining turmushini ancha og'irlashtirib yuborgan.

Jumladan, Shayboniylar davrida ham xuddi Temuriylar davridagi kabi soliqlar, to'lov va majburiyatlarning turlari saqlanib qolishi bilan birga, ularning turlari yanada ortgan. Masalan, bu davrda bog'lardan, uzumzorlardan, polizlardan, bedazorlardan qo'shimcha soliqlar olib turilgan<sup>1</sup>. Bunday soliqlar, shubhasiz xalqning turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, mahalliy boylarga nisbatan xalq qo'zg'olonlarining ko'tarilishiga ham sabab bo'lgan. Shu bilan birga iqto' tuzilmasining nufuzi ortib borgan.

Xiva xonlikda soliq va o'lponlarning 25 ga yaqin turlari bo'lgan.

Xonliklar davrida aholi turmush sharoitlarining oldingi davrlarga qaraganda birmuncha og'irlashuviga sabab, hokimiyatda mutlaq boshqaruv tizimining joriy etilganligi bo'lib, unga ko'ra xon va uning atrofidagi hukumdorlar o'z vazifalari bo'yicha mutlaq vakolatlarga ega bo'lganlar.

---

<sup>1</sup> Бобобеков Х, Каримов Ш ва бошқалар Ўзбекистон тарихи. –Тошкент. 2000. 122 - бет.

Bunday holat soliq tizimida ham ko'zga tashlangan. Ya'ni, aholidan to'planadigan soliq yig'ishga mas'ul kishilar tomonidan kimda-kim soliqlarni o'z vaqtida to'lamasa, ularga nisbatan ayrim choralar ko'rilgan. Masalan, yer solig'ini to'lamaganlik uchun xon va amiraga tegishli yerlarda ishlatish uchun yuzlab mehnatkash aholi majburiy mehnatga tortilganlar.

Xonga tegishli mol-mulk omboriga hamda xazinaga tushuvchi narsa, ya'ni mol-mulk, qimmatbaho buyumlar, pul, tanga kabilarni nazorat qiluvchi va xazinaga tushuvchi mablag'ni hisob-kitob qiluvchi mas'ul kishilar bo'lib, ular ham xon devonining mas'ul shaxslaridan hisoblanganlar.

Masalan, Qo'qon xoni saroyida xizmat qilgan mirza-i daftardor soliqlar va tushumlar asosida xon xazinasining ahvoli haqida daftarga qayd etib borgan. Sarkor va inoq esa xonlik xazinasiga qabul qilinadigan mahsulotlarni saqlovchi hisoblangan. Agar ular pullardan iborat bo'lsa, uni mehtar yoki xonning g'aznachisi, ya'ni kassiri qabul qilgan, shuningdek u xonning barcha qimmatbaho buyumlarini boshqaruvchisi bo'lib ham hisoblangan<sup>1</sup>. Shunday qilib, xonliklar davrida yer egaligi munosabatlarining yanada ortishi soliqlarning turlari va shakllarning ortishi va o'zgarishiga ham olib kelganligini qayd etish zarur.

Shuni alohida qayd etish zarurki, o'z davrida xon, amir, bek va davlat xazinasina to'ldirishda umumdavlat byudjeti va mahalliy byudjetlar muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan Qo'qon xonligida xon xazinasiga kelib tushadigan soliqlar *xossachi* deb, mahalliy byudjet esa *bek xazinasini* deb atalgan<sup>2</sup>. Xon xazinasiga barcha turdagi natura soliqlari va pullar, qimmatbaho buyum va boshqa mollar kelib tushgan. Ular asosan Qo'qon va uning atroflaridagi qishloqlardan to'plangan. Xon xazinasining zahirasini quyidagilar tashkil etgan: tovar va hayvonlardan yig'ilgan zakot; Sirdaryo

---

<sup>1</sup> Бобобеков Х, Каримов Ш ва бошқалар Ўзбекистон тарихи. 147 бет.

<sup>2</sup> Ўша асар. 149 бет.

kechuvlaridan va tuzdan olinadigan boj; xossachi joylardan olinadigan soliqlar; xon mablag'i hisobiga qurilib, ijaraga berilgan do'kon, karvonsaroy, omborlardan yig'iladigan soliqlar; to'y marosimlardan yig'iladigan soliqlar; meros bo'lishdan yig'iladigan soliqlar<sup>1</sup>.

Viloyat hokimlariga xiroj va tanobona soliqlarni olish huquqi ham berilgan. Yuqorida biz qayd etganimizdek boshqa davrlarlarda bo'lgani kabi, XIX asrning birinchi yarmida xonlik daromadi asosan natural mahsulotlar va puldan iborat bo'lgan.

Xonliklarda mahalliy aholi daromadlaridan davolat xazinasiga kelib tushadigan soliqlar bilan birga ajnabiy fuqarolar, xususan o'lkaga savdo ayriboshlash uchun kelgan savdogarlar, turli boshqa etnik jamoaga mansub aholidan ham ma'lum miqdorda soliqlar olinganligini ko'rish mumkin. Masalan Qo'qon xonligida savdo karvonlaridan viloyat hokimlarining davlatning maxsus chegara o'tish joylari (bojxona)da turgan mas'ul shaxslari boj undirganlar. Masalan, chet eldan kelgan savdo karvonlari bir marta umumiy narxdan 2,5 foiz soliq to'laganlar. Yahudiy va xristianlarga tegishli tovarlardan esa 5% zakot olingan<sup>2</sup>.

Shunday qilib xonliklar davrida ham yer egaligining o'tmishda shakllangan turlari saqlanib qoldishi barobarida, ulardan tushadigan soliqlar ham ma'lum miqdorada davlat va amladorlar xazinasini to'ldirishda katta ahamiyat kasb etgan. Ammo, qishloq xo'jaligida mehnat unumdorliging pastligi, qishloq ho'jaligida saqlanib qolgan ibtidoiy agrotexnik an'analari, mehnatkashlarning talab darajasida hosil yetishtirishlariga to'sqinlik qilib kelgan. Shunday bo'lsada, mahalliy boy va hukumdorlar tomonidan joriy etilgan soliqlar, to'lov va yig'imglar majburiy xarakterga ega bo'lgan. Natijada birgina soliqlarning o'ziyoq xalqning gardaniga og'ir yuk bo'lib tushgan. Ayniqsa cheka qishloqlar aholisining katta qismi mana shu belgilangan soliqlarni to'lay olmasdan qiynalar edilar. Bu esa xalqning mahalliy hukumdorlarga nisbatan g'azabini yanad

---

<sup>1</sup> Ўша асар. 150 - бет.

<sup>2</sup> Ўша жойда.

qo'zg'atib, ularga qarshi xalq harkatlarini sodir bo'lishga sabab bo'lgan. Birgina XIX asrda Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida ana shunday qo'zg'olonlardan o'nga yaqini sodir bo'lganligi fikrimiz dalilidir. Masalan, yirik qo'zg'olonlardan biri, 1612 yilda Toshkent va Samarqandda, 1709 yilda Buxoroda, 1714-120 yillarda Samarqandda, XVIII asrning 20, 40 yillarida Karman, Miyonkol, Shahrisabz va boshqa joylarda ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari shular jumlasidandir.

Soliq solish ham ma'lum tartiblar asosida amalga oshirilib, hosil yetilgan paytda amlokdor (soliq yig'ishni boshqaruvchi amaldor) o'z kishilari bilan dehqonning ekin ekilgan yeriga tashrif buyurganlar. Amlokdor qishloq amini yoki oqsoqoli bilan birga dalalarni aylanganlar. Amlokdor dala necha tanob<sup>1</sup> ekanligini taxminan chamalab o'lchagan va qancha soliq to'lanishi belgilangan. Daromad olinib soliq to'langach, amlokdor soliq to'lovchiga patta berib unga o'z muhrini bosgan, bu dehqonning va yer egasining soliq to'laganligini amalda isbotlovchi hujjat hisoblangan. Hosil o'rilganidan keyin, yanchilib, bug'doy xirmoniga to'kilgan bo'lsa, unga hech kim tegmasligi uchun alohida kuzatuvchilar tomonidan maxsus loy muhrlar bilan muhrlangan.

Barcha xonliklarda xususan, Buxoro amirligida ham pul tarzidagi soliqlar davlat xazinasiga kelib tushgan. Uni devonbegi boshqargan, unga daftardor<sup>2</sup> yordam bergan. Natura tarzida to'langan soliqlar ya'ni narsalar ham xon yoki amir xazinasiga kelib tushgan, uni nazorat qilishni *arbob*<sup>3</sup> boshqargan.

---

<sup>1</sup> Бухоро амирлигида ўша давр ҳисоби билан бир таноб ер 2500м<sup>2</sup> га яқин бўлган.

<sup>2</sup> Daftardor bu, xon yoki amirning kirim-chiqimlari hamda xazinaga kelib tushuvchi soliqlarni hisoblab borgan amaldor hisoblangan. Ba'zi joylarda daftardor xon huzurida o'tkazilgan marosimlarga va boshqa tadbirlarga sarflangan mablag'larni yozib borgan.

<sup>3</sup> Bunday lavozim egasi ba'zi joylarda soliq yig'ish bilan ham shug'ullangan, shu bilan birga xon xazinasiga kelib tushayotgan narsalarni nazorat qilgan.

## ***CHOR ROSSIIYASI VA SOVET HUKUMATI DAVRI TARIXI***

### **XORAZM VA BUXORODA DEMOKRATIK HARAKATLARNING O‘SIB BORISHI**

**H. X. G'ofurov**  
**Toshkent amaliy fanlar universiteti**  
**Tarix kafedrası katta o'qituvchi**

Rossiyada 1917 – yilda yuz bergan fevral inqilobiy o'zgarishi chorizmning yarim mustamlaka o'lkalari hisoblangan Xiva xonligi va Buxoro amirligida ham aks-sado bermay qolmadi. Avvalo, bu tobe davlatlarning Rossiya ta'siridan xalos bo'lishga intilishi ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, mahalliy xalqning demokratik erkinliklar va huquqlarga ega bo'lish sari harakatlari faollashdi. Jumladan, Xorazmda Yosh xivaliklar harakati xonlikdagi siyosiy vaziyatni o'zgartirish va bir qator demokratik o'zgarishlarni yuzaga chiqarishga otlandilar. Yosh xivaliklar yetakchilari ishlab chiqqan manifestda konstitutsion monarxiya tuzish, xonning vakolatlarini cheklash, iqtisodiyot, ta'lim va madaniy hayot jabhalarini isloh qilish talablari ilgari surilgandi.

Xivada ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskin tus olayotganidan cho'chigan Asfandiyorxon 1917-yil 5-aprel kuni manifestni imzolashga majbur bo'ldi. Manifest talablariga ko'ra, xonlikda konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatildi. Ayni paytda, tarkibi 30-50 kishidan iborat ruhoniylar va savdo-sanoat ahli vakillaridan saylangan Majlis va Nozirlar Kengashi tuziladi. Ular xalq vakilligi boshqaruvi organlari sifatida xon hokimiyati vakolatlarini ma'lum darajada chekladi. Manifestga muvofiq, yosh xivaliklarning taniqli rahbari Boboovun Salimov Majlis raisi, Matmurodov esa Nozirlar Kengashi raisi etib saylandilar. Xon xazinasini va uni tasarruf qilish ustidan nazorat o'rnatildi. Xon temir yo'llar qurish, pochta-telegraf o'rnatish, yangi jadid maktablari ochish to'g'risida va'dalar berdi. Biroq Xiva xoni va uning atrofidagi mutaassib kuchlar bu demokratik

o'zgarishlarni yo'qqa chiqarish, eski tartiblarni qayta tiklash payida bo'ldilar.[1]

1917-yil iyunga kelib, Asfandiyorxon Rossiya Muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili, general Mirbadalov yordamiga tayanib, Matmurodov boshliq Yosh xivaliklar rahbarlarini qamoqqa oladi. Bu partiyaning faoliyati qonunga xilof deb e'lon qilindi. Yosh xivaliklarning aksariyati qo'lga olinib, jazolanadi. Qolganlari xonlik hududini tark etdilar.

Xiva xonligining tugatilishi. 1917-yil yuz bergan oktabr o'zgarishi, Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi davomida Xivada ham demokratik harakat yangi bosqichga qadam qo'ydi. Demokratik kuchlar, aholining kambag'al tabaqalari faol harakatga kela bordilar. Qo'ng'iroq, Ko'hna Urganch, Xojayli, Taxta, Porsu bekliliklarida mahalliy aholi qat'iy harakatlarga chiqdi. Buning ustiga, mamlakatni boshqara olmay qolgan xonning 1918-yil yanvarida turkmanlar sardori Junaidxonni Xivaga chaqirishi va uni bosh qo'mondon etib tayinlanishi ham vaziyatni yanada chigallashtirib yubordi.[2] Junaidxon tez orada Asfandiyorxonni qatl ettirib, o'rniga uning tog'asi, irodasiz Said Abdulloni nomiga xon qilib ko'tarib, amalda yakka hukmdor bo'lib oldi. Junaidxonning harbiy diktaturasi zulmidan og'ir aziyat chekkan ko'plab aholi qo'shni Turkistonga qochib o'ta boshladi. Ularning aksariyati Sovetlarning qizil qo'shini safmi to'ldirib bordi. Bularning hammasi Sovetlarga qo'l keldi. Shu zaylda ularga qarashli Amudaryo bo'limida (To'rtko'lda) N.A. Shaydakov va N.M. Shcherbakov boshchiligida shimoliy va janubiy harbiy guruhlar tuzilib, xonlik tuzumini ag'darishga shay qilib qo'yildi. Darhaqiqat, Turkiston sovet rahnamolari yo'l-yo'riqlari asosida harakatga kelgan qizil qo'shinlar va shuningdek, o'zbek va turkman aholisidan tashkil topgan qo'zg'olonchi dastalar 1919-yil dekabr oyining oxirlaridan Junaidxon rejimiga qarshi harbiy yurish boshlaydilar. Bu kuchlar Junaidga ketma-ket zarbalar berib,

birin-ketin xonlik hududlarini qo'lga kiritib bordilar. 1920-yil 2-fevralda Xiva egallandi.

Junaidxon qolgan-qutgan qo'shini bilan Qoraqum sahrosiga chekinadi. Qo'g'irchoq xon Said Abdulla taxtdan voz kechadi. Shu tariqa, sovetlar kuchi bilan Xiva xonligi ag'darildi va 5 kishidan iborat Inqilobiy qo'mita tuzildi. Uning tarkibiga Yosh xivaliklar va turkman urug'-qabilalaridan vakillar kiritildi. Inqilobiy qo'mita raisi etib Yosh xivaliklar rahbari D.Sultonmurodov saylandi. Tez orada Yosh xivaliklar ishlab chiqqan manifest e'lon qilindi.

1920-yilning 27-30-aprel kunlari Xivada bo'lib o'tgan xalq vakillari Butunxorazm qurultoyi xonlik tugatilganligi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi. Qurultoy XXSRning muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Qurultoy shuningdek, 15 kishidan iborat hukumat – Xalq Nozirlar Kengashini sayladi. Yosh xivaliklar rahbarlaridan Polvonniyoz Yusupov uning birinchi raisi bo'ldi. Tez orada (iyunda) Rossiya bolshevik rahbarlari ko'magida Xorazm Kompartiyasi tashkil etilib, uning hukmronlik mavqeyi oshib bordi. Sovet Rossiyasi ayni paytda yangi tug'ilgan Xorazm Xalq Sovet Respublikasini o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida 1920-yil 13- sentabrda XXSR bilan ittifoq shartnomasi tuzdi. Bu shartnoma bilan birga ikkala respublika o'rtasida imzolangan harbiy-siyosiy va iqtisodiy kelishuvlar asosida Xorazm Xalq Sovet Respublikasiga sovet Rossiyasi tomonidan tegishli harbiy, iqtisodiy va madaniy yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan edi. Biroq “katta og'a”ning bunday yordami zamirida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi ichki ishlariga aralashish, uning siyosatini o'z manfaatlariga bo'ysundirish maqsadlari yotardi. Faqatgina 1921-yil davomida Xorazm Xalq Sovet Respublikasida uch marta (mart, sentabr, noyabrda) hukumat o'zgarishi yasalib, uning Moskvaga ma'qul kelmagan tarkibi o'zgartirildi. O'z xalqining milliy manfaatlarini ko'zlab siyosat yuritgan P.Yusupov, M.Ibniyaminov, O.Muhammadrahimov bosh

bo'lgan hukumat tarkibi bekor qilindi, uning rahbarlari asossiz qoralandi, so'ngra turli jazolarga giriftor etildi.

1923-yil oktabrda bolib o'tgan IV Butunxorazm Sovetlari Qurultoyi Xorazm Xalq Sovet Respublikasini Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e'lon qildi va respublikaning yangi konstitutsiyasini qabul qildi. Unda Xorazmda Sovetlar rahbarligida amalga oshirilgan jiddiy o'zgarishlar tufayli bu respublika endilikda o'z taraqqiyotining yangi, sotsialistik bosqichiga kirganligi alohida ta'kidlandi. Konstitutsiya yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni bekor qildi, barcha yerlar umumxalq mulki deb e'lon etildi. Vaqf mulklari maorif nozirliги ixtiyoriga olindi. Xorazm xalqlarining xohish-irodasiga zid tarzda amalga oshirilgan bu xil tadbirlar va eng asosiysi, respublika boshqaruvi tobora Sovetlar hukmronligi ostiga o'tishi, pirovardida voha aholisining umumiy noroziligining kuchayib borishiga sabab bo'ldi.

Buxoro amirligida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat Xiva xonligiga o'xshash tarzda kechdi. Amirlik ham Rossiyaga tobe, vassal davlat edi. Ichki siyosatda mustaqil bo'lgan amirning mutlaq hokimiyati hukm surib, bundan oddiy xalq ommasini behad zulm tortib kelardi. XX asr boshlarida bu yerda ham amirlik tuzumiga qarshi demokratik harakatlar yuzaga kela bordi. Mamlakatning ilg'or, taraqqiyparvar ziyoli yoshlaridan tashkil topgan Yosh buxoroliklar tashkiloti bu harakatlarga yetakchilik qildilar. O'z saflarida Abduvohid Burhonov, Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Muhitdin Mansurov, Po'latxo'ja Usmonxo'jayev kabi yurt fidoyilarini birlashtirgan Yosh buxoroliklar harakati keng xalq manfaatlari foydasiga muhim siyosiy o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishga intilganlar. Ular ishlab chiqqan islohotlar loyihasida mamlakatda konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatish, ijtimoiy-siyosiy erkinliklar joriy qilish, maorif ishini yaxshilash masalalariga alohida urg'u berilgandi.

Keng xalq ommasi tazyiqi va Yosh buxoroliklar islohot talablari asosida amir 1917-yil 7-aprelida ba'zi yon berishlar bilan manifest chiqarishga majbur bo'ldi.

Biroq amirlikning mutaassib, hukmron doiralari tish-tirnoqlari bilan bunga qarshilik ko'rsatdilar. Ular islohot tarafdorlariga nisbatan ochiqdan-ochiq shahar ko'chalarida qirg'in uyushtirdilar. Ko'plab islohotchilar Buxoroni tark etishga majbur bo'ldilar. Bu gal amir tarafdorlarining qo'li baland keldi. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi Buxoro amirligi uchun ham jiddiy siyosiy vaziyatni vujudga keltirdi. Negaki, sotsialistik inqilob g'oyasini boshqalarga yoyishga intilgan bolsheviklar chegaradosh Buxoroni o'z mo'ljaliga olgandilar. Xususan, 1918-yil martida "Kolesov voqeasi" nomi bilan tarixga kirgan qonli voqea bunga aniq misol bo'la oladi. Turkiston sovet respublikasi hukumati raisi F.I. Kolesov Buxoroga ochiq tazyiq o'tkazib, 1918-yil 2-martda Kogon temir yo'li yoqalab qizil qo'shinlar intervensiyasini uyushtirdi. Bunga javoban Buxoro amiri xalqni g'azovotga chorlab, o'z qo'shinlari va g'azabga kelgan aholini urushga safarbar etdi. Oqibatda, Kolesov sharmandalarcha mag'lub bo'ldi. Bu esa amir va uning arkoni davlatiga barcha demokratik kuchlardan qonli o'ch olish uchun bahona bo'ldi. Ayniqsa, Yosh buxoroliklar ayovsiz qirg'in qilindi. Bolsheviklarning bu avantyurasi Yosh buxoroliklar uchun g'oyatda qimmatga tushdi. F.Xo'jayevning guvohlik berishicha, bu qirg'inda Yosh buxoroliklar, ularning tarafdorlaridan 1,5 ming kishi qurbon bo'lgan.

## O'ZBEKISTONGA MAJBURIY KO'CHIRILGAN XALQLAR TARIXIDAN

**A. X. Raxmankulova**

**Toshkent amaliy fanlar universiteti,  
dotsent, tarix fanlari nomzodi**

Bizning qadimiy va saxovatli yurtimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari yashab kelmoqda. Kam sonli millatlar vakillari yurtimizga turli tarixiy voqealar sababli kelib qolishgan. Ayniqsa Rossiya mustamlakasi va sovet davrida ko'p millatlikning alohida rivojlanganligini ko'rish mumkin. Jumladan, ko'plab xalqlar yashab turgan joylaridan majburiy ravishda ko'chirilgan va O'zbekistonga joylashtirilgan.

XX asrning 30-40-yillarida SSSR aholisining 60 dan ortiq milliy guruhlar deportatsiyaga duchor buldi, shu jumladan, 10 dan ortiq xalqlar va elatlar o'zlarining yashab turgan joylaridan ommaviy ravishda mamlakatning boshqa hududlariga zo'rlik bilan ko'chirildi. Majburiy ko'chirishlar deyarli mamlakatning hamma hududlaridan asosan Rossiyaning Shimoliy hududlari, Ural, G'arbiy Sibir, Qozog'iston, O'zbekiston va O'rta Osiyoning boshqa respublikalariga amalga oshirildi. Ommaviy ravishda ko'chirilgan koreyslar, Qrim tatarlari, Mesxetiyalik turklar (*Axiska turklari*) va boshqa xalqlar uchun O'zbekiston asosiy joylashuv hududiga aylantirildi.

Xususan, Davlat Mudofaa Komitetining 1944 yil 31 iyuldagi "Gruziya SSRning chegara hududlaridan mesxet-turklari, kurdlar va hamshallarni ko'chirish to'g'risida"gi (№6279ss raqamli) qaroriga<sup>1</sup> ko'ra, «Gruziya SSRning davlat chegaralarini ximoya qilish shart sharoitlarini yaxshilash

---

<sup>1</sup> РГАСПИ (Российский Государственный архив социально-политической истории), Ф. 644, Оп. 1. Д. 285. Л. 22.

maqsadida» Gruziya SSRning chegara hududlaridagi 5ta rayoni va Adjariya ASSRdan jami 92307 kishidan iborat mesxet turklari, kurdlar i hamshallar ko'chirildi. Bu xalqlarni ko'chirish 1944 yilning 15 noyabrida boshlandi. 1944 yilning 25 noyabridan 13 dekabrigacha O'zbekistonga Gruziyadan ko'chirilganlar bilan to'la 29 ta eshelon olib kelib tushirildi. Ular respublikamizning 7 viloyatidagi 43 rayonga joylashtirildi. 1945 yilning boshida Gruziyadan ko'chirilgan 53827 kishi O'zbekistonga joylashtirildi<sup>1</sup>.

Umumittifoq miqyosida deportatsiyaga duchor bo'lgan maxsus ko'chirilgan aholining huquqlari asosan maxsus komendaturalar tomonidan tartibga solingan edi. Bundan ko'zlangan maqsad davlat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini qo'riqlash va maxsus ko'chirilganlar qochish hollarining oldini olish hamda ularning yashash va mehnat sharoitlarini nazorat qilishdan iborat edi. 1956 yilning 18 aprelida SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining mesxeti turklariga nisbatan cheklovlarni bekor qilish to'g'risidagi farmoni chiqarildi, lekin bu farmon o'sha vaqtda ularga o'z vatanlariga qaytish huquqini bermadi.

Ko'chirib keltirilgan mesxetiyalik (axiska) turklarining katta qismi O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo respublikalarida yashab qolishdi, O'zbekiston ularning Vataniga aylandi. O'zbekiston turk milliy madaniy markazining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda **70 mingdan ortiq** turk millati vakillari istiqomat qilib kelmoqdalar.

1991 yil O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab turli millatlarning milliy o'zligini, tilini, an'anasini, urf-odatlarini, tarixini va madaniyatini saqlab qolishga, namoyish etishga va rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, 1991 yilda Buxoro shahrida va 1992 yilda Toshkent shahrida turk milliy madaniy markazlari hamda 1997 yilda O'zbekiston turk milliy madaniy markazi tashkil etildi.

---

<sup>1</sup> ЦГА РУЗ, Ф. 314, Оп. 7, Д. 26. Л. 462.

1997 yildan buyon O‘zbekiston turk milliy madaniy markazi raisi lavozimini Salmanov Umar Ibragimovich, 2017 yildan Markaz raisi o‘rinbosari lavozimini Zubaitov Ismoil egallab kelmoqdalar.

Markazning asosiy faoliyati turk tilini, madaniyatini, an‘analarini va urf-odatlarini qayta tiklashga yo‘naltirilgani bois, Markaz qoshida “Nuroniylar Kengashi”, “Ayollar Kengashi”, “Yoshlar qanoti”, sport to‘garaklari va ansambllar bilan ishlash bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Markaz qoshida 3 ta “Sevinch”, “Anadolu” va xotin-qizlar havaskorlik folklor ansambllari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu ansambllar “O‘zbekiston – umumiy uyimiz”, “Bizning kuchimiz birlikda”, “Vatan bitta, Vatan bir” festivallarida faol ishtirok etib nufuzli laureatlarga aylangan.

Markaz faollari “Navro‘z”, “8 mart – Xalqaro xotin qizlar kuni”, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik kuni”, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni” kabi davlat bayramlari qatori turk milliy bayramlarini ham keng nishonlab keladilar.

1999 yil O‘zbekiston turk milliy madaniy markazining faxriy a‘zosi Mikoyil Suleymanov boshchiligida “MIKO” komediya-teatri ta‘sis etilib u tomonidan yaratilgan sahna tasvirlari Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Ozarbayjon davlatlarida namoyish etildi. Ushbu sahna obrazlari asosan turli millat vakillari orasida birlikni, hamjahatlikni va totuvlikni mustahkamlashga va avaylashga qaratilgandir.

Markaz yoshlarni tarbiyasida vatanparvarlik va oliy insoniy fazilatlarni namoyon eta olgan 8 ta badiiy filmni suratga olishda homiylik va hamkorlik qilgan, xususan, “Shirin buloq” (2000y.), “Burch” (2002y.), “Begona bahor” (2004y.), “Ota” (2006y.), “Qizg‘aldoq” (2006y.) va 25 seriyadan iborat “Jiyda gulim” (2010-2011 yy.) teleserialidir.

O‘zbekiston turk milliy madaniy markazi turklarning tarixiy Vatani hamda Turkiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan yaqin hamkorlik aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Markaz fan, ta‘lim, sport va madaniyat

sohalarida yutuqqa erishayotgan iqtidorli yoshlarni muntazam ravishda qo'llab-quvvatlab kelmoqda, ularning ochilmagan qirralarini ochib O'zbekiston bayrog'ini xalqaro maydonda balandga ko'tarilishiga xizmat qo'shib kelmoqda. Jumladan, 2002 yili Turkiya davlat arbobi Rishad Dogru bilan Markaz faollari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tgan. Uchrashuv iliq va do'stona muhitda bo'lib o'tdi hamda kelajakda hamkorlik aloqalarni kengaytirishga kelishib olindi.

2001 yili Turkiya Parlamenti raisi Omer Izgining O'zbekiston Respublikasiga tashrifi doirasida unga O'zbekiston turk milliy madaniy markazi faoliyati hamda O'zbekistonda turli millat vakillarining milliyliklarini saqlashga va rivojlantirishga yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan tanishtirilgan edi. O'z navbati Turkiya Parlamenti raisi O.Izgi O'zbekistonning millatlararo munosabatlar sohasida olib borayotgan siyosatini yuqori baholagan.

Markaz faoliyati davomida kam ta'minlangan, ijtimoiy zaif, nogironligi bo'lgan, tabiiy ofat qurbonlari va qarovsiz qolgan pensionerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida xayriya aksiyalari va homiylik ishlarini muntazam ravishda o'tkazib keladi. Markaz 2019-2021 yillar davomida 100 dan ortiq turli tadbirlar, seminarlar, davra suhbatlari va anjumanlarni tashkil etdi.

Bugungi kunda O'zbekistonda turk millati vakillari orasida 12 ta professorlar va 70 dan ortiq fan nomzodlari mavjuddir. Yurtimizda el bilgan va tanigan taniqli turk millati vakillari ichida alohida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan mexanizator - Javat Kuchiev, mehnat Qahramoni – Saodat Gulahmedova, Buxoro viloyati turk milliy madaniy markazi raisi – K.S.Shaxriev, Beruniy nomidagi mukofot sovrindori – Murat Ibragimov, tibbiyot fanlari doktori, ixtirochi olim, professor – M.A.Faxratov, shoir va rejjisyor - Mikoyil Suleymanov, aktyor, kompozitor, qo'shiqchi – Gulaydin Dunmas, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Turkologiya fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, turkshunos olim - Jumali Shabanov,

ih tirochi, olim, texnika fanlari doktori professor - Aliev Ismoil, ih tirochi, olim, texnika fanlari doktori professor – Askar Vardiashvili, ih tirochi, olim, tibbiyot fanlari nomzodi – Binali Aliev, O'zbekiston turk milliy madaniy markazi raisi - Salmanov Umar singari turk xalqining vakillari O'zbekistonning iqtisodiyoti va madaniyatiga, millatlararo totuvlik, hamjihatlik va barqarorlikni mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va imidjini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

## THOUGHTS OF MAKHMUDXOJA BEKHBUDI ABOUT EDUCATION

**S. A. Kurbanova**  
**Tashkent State University of Economics,**  
**Independent researcher of “Socia-humanitarin**  
**and exact sciences” department.**

Makhmudxoja Bekhbudi was a prominent Uzbek intellectual, educator, and writer, who lived in the early twentieth century. He was a well-known advocate for the modernization of education in Uzbekistan and believed that education was the key to the advancement of his country.

Bekhbudi's thoughts on education were shaped by his experiences as a student and teacher. He believed that education should not be limited to memorization but should foster critical thinking and analytical skills. He argued that education should be tailored to the needs of the society and the economy, and students should be taught practical skills that could be applied in real-life situations<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Baldauf I. Jadidism in Central Asia in terms of reformism and modernism in the Muslim world // Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlolchilik) .- T .: Manaviyat, 2001. - S. 45.

Bekhbudi was also a strong advocate for the education of women. He believed that women's education was essential for the development of society and that educating women would lead to greater social and economic progress. Bekhbudi recognized that women played a vital role in shaping the future of society as mothers and educators, and therefore their education was critical.

Bekhbudi's vision of education was informed by his belief in the transformative power of education. He believed that education could empower individuals to become agents of change and that it could lead to the development of a more just and equitable society. For him, education was not just about acquiring knowledge but also about developing moral character and social responsibility.

Bekhbudi's contributions to education in Uzbekistan were significant. He played a key role in the development of the Uzbek language as a medium of instruction and the promotion of modern education in the region. He founded a number of schools and wrote numerous textbooks, which were widely used in Uzbekistan and beyond.

Today, Bekhbudi's thoughts on education remain relevant, particularly in the context of the challenges faced by developing countries. The importance of education for social and economic progress cannot be overstated, and his emphasis on practical education and the education of women still resonates with educators and policymakers today<sup>1</sup>.

Makhmudxoja Bekhbudi was a pioneer in modern education in Uzbekistan, and his contributions to education in the region were significant. He founded a number of schools and wrote numerous textbooks, which were widely used in Uzbekistan and beyond.

Bekhbudi founded several schools in Uzbekistan, including the first Uzbek-language secondary school in Tashkent. These schools were

---

<sup>1</sup> Alimova D.A. Jadidism in Central Asia. Ways of renewal, reforms, struggle for independence. - Tashkent: Uzbekistan, 2000. - 24 p.; Alimova D.A. Bukhara of the late XIX - early XX century and the emergence of Jadidism // Social sciences in Uzbekistan. - Tashkent, 1997. - No. 9-10-11. - P. 81-93.

instrumental in promoting modern education in the region and providing access to education for a wider range of students. He wrote several textbooks in the Uzbek language, covering subjects such as history, geography, mathematics, and literature. His textbooks were notable for their emphasis on critical thinking and analytical skills, as well as their practical approach to education. Moreover, he was a strong advocate for the use of the Uzbek language as a medium of instruction in schools. He believed that using the Uzbek language would help to promote the development of the language and preserve Uzbek cultural identity.

Bekhbudi's ideas and contributions to education had a significant impact on education policy in Uzbekistan. His emphasis on practical education and the education of women influenced the development of education policy in the region and helped to promote greater access to education for women. In addition, Bekhbudi's contributions to education in Uzbekistan and his vision for modern education continue to inspire educators and students in the region. His legacy is celebrated in Uzbekistan, and his ideas on education remain relevant today as the country continues to develop its education system.

Makhmudxoja Bekhbudi's ideas on education were ahead of his time, and they continue to be relevant today, especially in the context of developing countries. His vision for education focused on practical skills, critical thinking, and the education of women, which are all essential for the development of societies. Here are some subpoints that can be included to discuss the relevance of Bekhbudi's ideas in the modern world: In the modern world, practical education has become increasingly important as it prepares students for the demands of the workforce. Bekhbudi recognized this need and advocated for practical education that focused on developing skills that could be applied in real-life situations. This approach to

education is still relevant today, particularly in developing countries where there is a need for a skilled workforce<sup>1</sup>.

The ability to think critically and analytically is essential for solving complex problems and making informed decisions. Bekhbudi recognized the importance of critical thinking in education and emphasized the need for students to develop these skills. In today's world, where information is abundant, critical thinking skills are crucial for making sense of complex information and understanding the world around us. The education of women is essential for the development of societies. Bekhbudi recognized this fact and advocated for the education of women, recognizing that they played a vital role in shaping the future of society as mothers and educators. Today, the education of women is still a critical issue in many developing countries, where women often face barriers to accessing education. Moreover, Bekhbudi was a strong advocate for the use of the Uzbek language in education. He believed that using local languages as a medium of instruction could help to promote cultural identity and preserve local languages. In many developing countries, the use of local languages in education is still a critical issue, as it can help to bridge the gap between communities and promote greater access to education. Furthermore, Bekhbudi's vision for education focused on empowering individuals to become agents of change. He believed that education could help individuals develop moral character and social responsibility, enabling them to contribute to the development of society. This approach to education is still relevant today, particularly in developing countries where education can help individuals to break out of poverty and improve their lives<sup>2</sup>.

In conclusion, Makhmudxoja Bekhbudi's ideas on education were ahead of his time, and they continue to be relevant today, particularly in the context of developing countries. His vision for education emphasized

---

<sup>1</sup> Behbudiy M. Tanlagan asarlar / Toplovchi, sozboshi va izohlar B.Kosimov. - Tashkent: Manaviyat, 1999. – P. 160.

<sup>2</sup> Amridinova D.T. Abstract of the dissertation for the degree (DSc ) of Doctor of Philosophy. Samarkand. 2021. – P. 33.

practical skills, critical thinking, and the education of women, which are all essential for the development of societies. His legacy serves as an inspiration for educators and policymakers in the modern world, reminding us of the critical role that education plays in shaping the future of societies. Makhmudxoja Bekhbudi was a visionary educator who recognized the transformative power of education. His vision of education was informed by his belief in the importance of critical thinking, practical skills, and the education of women. His contributions to education in Uzbekistan and beyond continue to inspire educators and policymakers today, and his legacy reminds us of the critical role that education plays in shaping the future of society.

## **TOSHKENT JADID MATBUOTINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI**

**Adxamova Z.Z.**

**Qibray tumani 40-maktab tarix o'qituvchisi**

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi keng jamoatchilikning tarixga, ayniqsa, yaqin o'tmish – Turkistonda aholining barcha qatlamlariga dahl qilgan, siyosiy voqealar avj olgan XX asr boshlaridagi hodisalarga qiziqishini kuchaytirdi. Tarix taqozosi bilan aynan shu davrda ijtimoiy hayot sahnasiga milliy taraqqiyparvarlarning jadidchilik deb atalgan harakati chiqqan edi<sup>1</sup>. Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishi bilan milliy ziyolilar, taraqqiyparvar vatanparlarning maorif sohasida, siyosiy va ijtimoiy sohalarga bo'lgan munosabatlari jadid matbuoti orqali keng xalq ommasiga yetkazib turilgan. Mustamlaka hukumatining qattiq nazoratiga qaramasdan jadidlar

---

<sup>1</sup> Жалолов А., Ўзганбоев Х. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг тараққиётида вақтли матбуотнинг ўрни. – Тошкент. Фан. 1993. – Б. 15.

tomonidan XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasining sharqiy mintaqalaridagi «Tarjimon» (Boqchasaroy), «Vaqt», «Yulduz» (Qozon), «Mulla Nuriddin» (Tiflis) kabi matbuot organlari bilan tanishib borish bilan bir qatorda Turkistonda o‘z matbuotlarini shakllantirish borasida ham ko‘p say-harakat qildilar. Bu ziyolilar va taraqqiyparvar jadidlar vakillaridan Munavvar Qori Abdurashidxonov, Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo‘jayev, Ashurali Zoxiriy, Obidjon Maxmudov va boshqalarning matbuot sohasidagi faoliyatini alohida baholash lozim. Ularning say-harakati bilan «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuxrat», «Tujjor» va boshqa milliy matbuot organlari birin – ketin dunyoga kela boshladi. XX asr boshlarida Rossiya imperiyasida yuzaga kelgan siyosiy taglik vaziyatida Turkiston general-gubernatori tomonidan jadidlarga gazeta chikarishga ijozat beriladi. «Taraqqiy» gazetasi shu tarzda dunyo yuzini ko‘radi. Umuman aytganda bu gazeta jadidlar vaqtli matbuotining ma‘lum maqsad yo‘lidagi kurashini yangi bosqichga ko‘tarish Ismoil Obidiyning «Taraqqiy» gazetasidan boshlandi. 1906-yildan gazeta chikarish yanada kuchaya boshlaydi. «Xurshid», «Shuxrat», «Osiyo» gazetalari nashr qilinadi.

1906 yil 14 iyunda I.Obidov Toshkentda matbaachilar SH.Muxtorov, I.Aliyev bilan hamkorlikda “Taraqqiy” gazetasini tashkil etgan. Gazeta atigi 72 kun umr ko‘rgan bo‘lsa-da, uning 20 ta soni nashr etilgan<sup>1</sup>. 1908 yil aprelda yana bir jadid ma‘rifatparvari A.Bektemirov muharrirligida “Osiyo” gazetasi nashr etila boshlangan. Taniqli o‘zbek ma‘rifatparvari A.Avloniy ham mazkur gazeta tashkil etilishida jonbozlik ko‘rsatgan. Gazetaning beshta soni chiqqandan so‘ng mustamlaka ma‘murlari tomonidan yopilgan.

1917-1918 yillar mobaynida Turkistonda jadid ziyolilarining bevosita muharrirligida quyidagi gazeta va jurnallar chop etilgan: “Ulug‘ Turkiston” gazetasi - Toshkentda K.Bakir va S.Abdusattorov muharrirligida chop

---

<sup>1</sup> Расулов А., Исоқбоев А. Зиё тарқатиш йўлида // Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари. –Наманган, 2002. – Б. 80.

etilgan. Gazeta Turkiston jadidlarining markaziy sho'rosi va Toshkent tatarlarining "Ittifoq" jamiyati nashri hisoblangan. "El bayrog'i" gazetasi - Qo'qonda Po'lat Soliyev va Ashurali Zohiriy muharrirligida 1917 yil 8 sentabrdan 1918 yil boshlariga qadar o'zbek tilida chop etilgan<sup>1</sup>. "Farg'ona sahifasi" gazetasi - 1917 yil 15 martdan Namanganda taniqli jadid matbaachisi H.Makayev tomonidan o'zbek tilida nashr etilgan. Gazetaning 19 ta soni chiqqan xolos. "Kengash" gazetasi - Toshkentda Z.Validiy va Munavvar Qori muharrirligida 1917 yil 25 iyundan 1917 yil oktabrga qadar Turkiston musulmon markaziy sho'rosining nashri sifatida chop etilgan. "SHo'roi Islom" gazetasi - Toshkentda A.Battol muharrirligida 1917 yil 16 maydan 1917 yil iyunga qadar "SHo'roi Islomiya" tashkiloti nashri sifatida o'zbek tilida chop etilgan. "Chayon" jurnali - Toshkentda X.Tulakov va I.Tohiriy muharrirligida 1917 yil iyundan 1918 yil avgustga qadar Turkiston milliy ishchilar seksiyasining nashri sifatida chop etilgan. "CHO'l chayon" jurnali - Toshkentda I.Tohiriy muharrirligida 1918-1919 yillarda nashr etilgan. "Xalq dorulfununi" - Toshkentda M.Bakir muharrirligida 1918 yil 31 maydan boshlab Turkiston xalq universitetining nashri sifatida chop etila boshlagan. Mazkur gazetalar orasida "Ulug' Turkiston" gazetasi Turkiston jadidlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatini keng yoritganligi bilan ajralib turadi.

Jadidlar ijtimoiy va ma'rifiy, siyosiy va iqtisoiy hayotning ko'p sohalarida faoliyat olib bordilar, ulardan eng muhim sohalaridan biri bu matbuot sohasi hisoblangan. Hozirgi kunda yurtimiz tarixchi olimlarining say harakatlari bilan ushbu masalalani o'rganishda yangicha yondashuvlar qaror topmoqda. Jadid matbuotining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida Toshkent shahridagi jarayonlar ham salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Toshkent butun O'rta Osiyo jadidchilik harakati markazi bo'lishi bilan

---

<sup>1</sup> Мингноров А.Т. Туркистонда миллий озодлик масалалари давр миллий матбуотида (1917 йил февраль-1918 йил ўрталари): Тарих фан. номз. ... дисс. - Т., 2000. - Б. 24.

birga, eng ko'p milliy ma'rifatchilik g'oyalari bilan sug'orilgan jadid nashrlari shu makonda chop etildi. Bunga misol tariqasida "Taraqqiy", "Xurshid", "Tujjor" gazetalariga, undagi maqola va materiallarni tahlil qilish bilan izoh berish mumkin. Turkistonda birinchi jadid matbuot organi "Taraqqiy" gazetasi Toshkent shahrida Ismoil Obidov muharrirligida, 1906 yil 27 iyundan etiboran chop etila boshlangan. Uning tahririyati O'ratepa ko'chasi, 97 uyda joylashgan edi. Gazeta bahosi bir yilligi 5 so'm, olti oyligi 2 so'm 50 tiyin, uch oyligi 1 so'm 50 tiyin bo'lgan, bir donasi 50 tiyindan sotilgan. Gazeta to'rt sahifada chop etilib, unda e'lonlar ham bosilgan. E'lonlar gazetaning birinchi sahifasida satriga 40 tiyindan, oxirgi sahifada satriga 20 tiyindan bosilgan. "Taraqqiy" gazetasining shiori: "Najot: maslakda sabot, to'g'rilikda ijobat" deb nomlangan. Nashr "ilmiy, adabiy, siyosiy, faniy, tijoriy" gazeta bo'lganligi uning o'zida ta'kidlab ko'rsatiladi. "Taraqqiy" Ivan Geyerning "Taraqqiy-O'rta Osiyo umrguzaronligi" gazetasi mablag'i asosida chop etilgan. Mashhur ma'rifatparvar jadid namoyondalaridan Abdulla Avloniy "Burungi o'zbek vaqtlari matbuotining tarixi" maqolasida "Taraqqiy" gazetasi Ivan Geyerning to'xtolg'on gazetasi o'rniga chiqdi, desa mumkindir. Uning obunachilarining kolgan haqqiga "Taraqqiy" gazetasi yuborildi", deb qayd etildi<sup>1</sup>. "Taraqqiy" gazetasi faoliyati haqida keng tadqiqotlar olib borgan jurnalistika tarixi mutaxasisi, olimi Nazira Abduazizova quyidagilarni yozadi: "...garchi nashr Ivan Geyerning mablag'i hisobiga nashr qilana boshlangan bo'lsa ham, uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi avvalgi gazetadan tubdan farq qilgan"<sup>2</sup> [9]. "Taraqqiy"da milliy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy masalalar ko'tarilib, mushtariylarni "mamlakat xabarlar", "xorijiy xabarlar", "telegraf xabarlar", "Toshkent axbori" ruknlari ostida yangiliklardan voqif etib turgan. Gazeta ma'rifat manbalaridan sanalgan

---

<sup>1</sup> Авлоний А. "Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи" // "Туркистон" газетаси. 1924 йил 24-июнь, 295-сон.

<sup>2</sup> Абдуазизова Н. Туркистон матбуоти тарихи. –Тошкент. 2000.

kitob, gazeta uchun hukumatning mablag' ajratmayotgani va buni uning o'zi ham bilib turganligini shunday o'xshatish bilan bayon etadi: "hozirda ijtimoi, kalom, matbuot uchun berilgan xarit(xarajat)lar; tushak ustida og'ziga suv tomizilib turgan og'ir xastadek ekanini tilsiz va ko'r tabiblar ham tasdiq eturlar"[10.1.].

Mustamlakachilik tuzumidan ozod bo'lish g'oyasi va millatni taraqqiy ettirish masalasi gazetaning bosh maqsadlaridan edi. Shunday g'oya gazetaning 1-sonidagi "Toshkentda 14-iyun" maqolasida ham o'z ifodasini topadi. Unda: "Biz musulmonlarni hurriyatga haqlari bormi?"- deb, savol qo'yib, "Yo'q! Qarindoshlar yuz marotaba yo'q"- deb javob beradi. Sababi ma'rifatsizlik, ilmsizlik hukmron bo'lgan jamiyat hech qachon erkinlikka erisha olmasligi ta'kidlanadi. "Taraqqiy"da milliy jadidlarimiz aholidan olinadigan soliqlar, yurt va xalq manfaati uchun ishlatilmasdan, "zolim ishga va aysh-ishratg'a" sarflayotganligidan zorlanayotganligini bildiradi [10.1.]. Gazetaning 1906 yil 3 sonida pivoxo'rlik va ichki bozlikning keng tarqalib ketilayotganligidan xavotirli fikrlar bildiriladi. Shuningdek, "Taraqqiy"da "felyeton" rukni ostida madaniy-ma'rifiy masalalar ko'tarilib, ta'lim tizimini isloh qilish, zamonaviy fanlarni o'quv dasturlariga kiritish, undan tashqari adabiy-tanqidiy maqolalar e'lon qilib borilgan. Jumladan, gazetaning 1-sonida "Bizni jaholat jahli murakkab" deb nomlangan M.Abdurashidxonovning maqolasi berilib, maktab va madrasa darslariga zamonaviy fanlar kiritilishini targ'ib qiladi. Gazetaning 10-sonida, shu ruknda berilgan maqolada, Toshkent shahrining Voskresenskiy mahallasida Fotix Oldin va Ismoil al-Alaviy maktablarga imtihon bilan o'quvchi qabul qilganligini, muallim Shokir Muxtorov ijobiy baholab chiqadi. Gazeta faoliyati juda qisqa vaqt davom etdi, aslida nashrning o'z oldiga qo'ygan quyidagi maqsadi bor edi: "Biz bir mo'ni sababidan gazetamiz biroz vaqtgacha qadimgi Taraqqiy ismi ila tasmin qilinub nashr etilsa ham inshoollo tez fursatda "Sharq" ismi ila tasmix qilinur". Chor

Rossiyasi mustamlakachilik tuzumi milliy g'oyalar targ'ibotchisi bo'lgan "Taraqqiy" gazetasining nashr etilishini bir necha oydan so'ng to'xtatib qo'ydi. Shundan so'ng ham jadidlar matbuot tashkil etishni yanada rivojlantirdi. Masalan M. Abdurashidxonov muharrirligida "Xurshid" gazetasini chiqarila boshlandi. "Xurshid" gazetasi "- deb yozadi A.Avloniy, "1906 yili "Taraqqiy" to'xtolg'ondan keyin o'sha vaqtning yoshlari tomonidan tuzilgan bir shirkatning moddiy ko'magi, Munavvar Qori Abdurashidxonovning mas'ul muxarrirligi orqasida tosh bosma usul bilan chiqa boshladi", - deydi. "Xurshid" Toshkent shahrining Zanjirlik mahallasida nashr etilib, haftada bir marta, "tezda ikki uch bor chiqadurg'on ilmiy, adabiy, siyosiy, maishiy, turkcha (ya'ni, o'zbekcha)" gazetadir. Bir donasi besh tiyindan sotilgan. Gazeta sakkiz sahifada nashr etilgan. Bu gazeta ham xuddi "Taraqqiy" kabi birinchi sahifada o'sha kuni Toshkentda bo'lgan muhim xabarni e'lon qilish bilan boshlanib, ikkinchi betda feleton rukni ostida maqolalar bosib chiqargan. Gazetadagi "Toshkent xabari", "Axbori xoriji" , "Axbori doxiliya" kabi ruknlar mushtariylarni yangiliklardan voqif etib turgan. "Xurshid" ta'qib ostida bo'lgani uchun atiga ikki oy davomidagina faoliyat olib bordi.

Yuqoridagi ikki gazeta taqdiridan ko'rinib turibdiki, mustamlakachilar o'zlarining siyosatini millat taraqqiyotiga, madaniyati va o'zligini anglashiga qarama – qarshi qo'yadi. Milliy matbuot esa milliy o'zlikni anglash, millat taraqqiyoti to'sqinlik qilayotgan illatlarni fosh qilish, Turkiston xalqlari oldida turgan dolzarb muommalarni yechib, mustamlakachilikdan ozod bo'lishga intiluvchi maqolalar e'lon qiladi, madaniyat va ma'rifatni tiklash milliy matbuotning bosh g'oyasiga aylanadi. Toshkent jadid matbuotining mazmun jihatdan mukammallashib borishi esa butun Turkiston jadid matbuotining yanada taraqqiy etishiga muhim ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

## **MILLATNING SIYOSIY ONGINI YUKSALTIRISH YOHUD TARAQQIYPARLARNING TURKISTONDAGI FAOLIYATI**

**G. S. Usmanova**  
**Nizomiy nomidagi TDPU**  
**Tarix fakulteti 2-kurs magistranti**

Taraqqiyparvarlar omma orasida ma'rifatni keng yoyish, millatning siyosiy ongini yuksaltirish borasida ommaviy nashrlar, bosmaxonalar ochdilar, teatr tomoshalari tashkil etdilar. Bu borada Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Abdurauf Fitrat va boshqalarning xizmatlari beqiyos bo'ldi<sup>1</sup>.

1905-1907-yilgi birinchi rus inqilobidan so'ng, Eron va Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar ta'sirida vujudga kelgan. Osiyo mamlakatlaridagi inqilobiy harakatlar, musulmon dunyosidagi, xususan, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va diniy fikrlarning taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib xizmat qildi.

1904-1905-yillaridagi Rus-yapon urushida Rossiyaning mag'lubiyati imperiyadagi barcha ezilgan xalqlar oldida podsho mustabid tuzumi obro'sining keskin tushishiga olib keladi. Bu esa siyosiy fikrlar rivojiga turtki berib, milliy ozodlikka erishish orzularining ushaliishiga ishonch uyg'otdi. Sharqdagi inqiloblar va o'lkaga u yerlardan kirib kelgan turli xil g'oyaviy oqimlar bu yerlardagi muxolif kuchlarning birlashishi, milliy-siyosiy tashkilotlar holiga kelishi va rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi<sup>2</sup>.

Turkistonning uyg'onishi podsho hukumatini, rasmiy doiralarni befarq qoldirmadi. Viloyatda tuzilgan har qanday jamiyat va tashkilotlar

---

<sup>1</sup> Alimova D. Jadidchilik mustamlaka davri tarixchisi talqinida. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadr. –Toshkent. Eldinur, 1998.-B.4.

<sup>2</sup> Qozoqov T.Q. XX asr boshlarida Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va jadidchilik harakati. –Toshkent. 2001.

mustabid hukumat ma'muriyati tomonidan qo'yilgan ayg'oqchilarning kuzatuv ostida bo'lgan.

1912-yil 20-iyulda Qo'qon shahrida "Qo'qon artistlar to'garagi" tashkil etilgan bo'lib, Hamza uning asoschilaridan biri edi. To'garakning maqsadi dramatik asarlarni o'rganish va ularni sahnalashtirish hamda san'at havaskorlarini unga jalb etishdan iborat edi. Bu davrda Hamzaning faoliyati, asosan, yangi o'zbek dramatik teatrini vujudga keltirishdan iborat bo'lgan. 1914-1916-yillar mobaynida u 18 dan ortiq adabiy-publitsistik asarlar yaratdi.

Birinchi jahon urushi yillarida o'lka ziyolilari ijtimoiy-siyosiy hayotga yanada faol aralasha boshladilar. Xuddi shu davrda Turkistonda milliy nashrlar va jamiyatlar soni ortib bordi, jadidlar tomonidan qoloqlikdan qutilish va milliy taraqqiyot sari dadil qadamlar tashlana boshladi.

1916-yil Qo'qon shahrida taraqqiyparvarlar tomonidan "G'ayrat" jamiyati tuzildi. Bu jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, birinchidan, yangi usul maktablarini darslik, daftar va o'quv qurollari bilan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, yerli xalq orasida kitob, gazeta va jurnallarni mahalliy tilda chop etib, tarqatishdan iborat bo'lgan. Qo'qonning eski shahar qismida joylashgan jamiyatga qarashli do'konda o'sha davr mahalliy aholi orasida mashhur bo'lgan Orenburgda chop etiladigan tatar tilidagi "Vaqt", Maskvadan chiquvchi tatarcha "So'z" gazetasi, Bokudan chiqadigan "Ochiq so'z" gazetalarining savdosi qizg'in bo'lgan. Bundan tashqari jamiyat tomonidan rus tilidagi gazetalardan Andijonda nashr etiladigan "Turkestanskiy Golos" gazetasi ham tarqatilgan<sup>1</sup>.

A.A.Chaykin muharrirligi ostida nashr etiladigan "Turkestanskiy golos" gazetasining Farg'ona jadidlari tomonidan tarqatilishiga taraqqiyparvarlar bilan rus demokratlari orasidagi hamkorlikning bir ko'rinishi sifatida baho berish mumkin. Dastlabki paytda moddiy qiyinchilikni boshidan kechirgan gazeta keyinchalik bu muammolarni

---

<sup>1</sup> O'z MDA 1-I fond. 31-ro'yxat. 1144-ish. V.36.

mavjud imkoniyatlar doirasida hal etishga erishadi. Ushbu gazetaning mahalliy aholi orasida obro' topishidagi asosiy omil shu ediki, gazeta sahifalarida tub joy aholisi manfaatlarini himoya qiluvchi maqolalar uchun ham joy ajratilgan edi.

Gazeta sahifalarida mahalliy aholi maktab-maorif tizimi haqida ham ko'plab maqolalar e'lon qilingan: "...Madaniyatli yerli aholi hozirgi zamon sharoiti ularning bolalari oldiga qanday talablarni qo'yayotganligini butunlay anglab yetdilar. Bugungi rus-tuzem maktablarining qoniqarsizligidan, ular o'z farzandlarini bilimli qilish uchun boshqa yo'llarni qidira boshladilar. Buning natijasida yangi usul maktablari paydo bo'ldi..."<sup>1</sup>.

Qo'qon shahridagi "G'ayrat" musulmon ma'rifatparvarlik jamiyati a'zolari orasida "Turkestanskiy golos" gazetasining ko'p sonli paychilari mavjud edi. Yuqoridagi gazeta muharririyatining umumiy rahbarligi ostida 1916-yilning oktyabr oyi boshlaridan e'tiboran Andijon shahrida mahalliy tildagi matbuotni tashkil etish uchun harakatlar bo'lgan. Jamiyatning 1916-yilning 4-oktyabridagi yig'ilishida jamiyat Nizomiga ba'zi o'zgartirishlar kiritilgan, shuningdek, pay sarmoyasini 12.500 so'mdan 50.000 so'mgacha ko'paytirish, xususiy bosmaxonaga ega bo'lish, musulmon matbuot nashriga ega bo'lish kabi masalalar ko'rilgan<sup>2</sup>.lekin "G'ayrat" jamiyati tarkibida erkin jurnalistlar soni yetarli darajada emas edi. Shundan so'ng qo'qon shahrida tashkil etilgan "Turkestanskiy kray" gazetasi "G'ayrat" jamiyatiga mahalliy tilda chop etiladigan nashrni Andijonda emas, balki Qo'qonda, "Turkestanskiy kray" gazetasi tahririyatining umumiy rahbarligi ostida chop etishni taklif qildi. Shuningdek gazeta, o'z paylarining ma'lum miqdordagisini sotib olish sharti bilan, "G'ayrat" jamiyati uchun o'z bosmaxonasidan foydalanishni ham taklif qildi. Ayni paytda jamiyat

---

<sup>1</sup> Turkestanskiy golos.-1916.-12 noyabr.

<sup>2</sup> O'z MDA. 1-I fond. 31-ro'yxat. 1144-ish. V.35.

“Turkestarskiy golos” gazetasining 25.000 so‘m atrofidagi paylarni ham sotib olgan edi<sup>1</sup>.

1916-yilda jadidlar tomonidan Andijon shahrida “Tariqqiyparvar” jamiyati tuzildi. Bu davrda o‘lka jadidlarining siyosiy faolligi ancha oshgan bo‘lib, ular o‘z yig‘ilishlarida gazeta va jurnallardagi maqolalarida ma‘rifiy mavzular bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni ham ko‘tarib chiqa boshlaganlar. Andijondagi bu jamiyat taniqli jadid Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev rahbarligida tuzilgan bo‘lib, bu haqda chor ayg‘oqchilari ham tez orada xabar topadilar.

“Taraqqiyparvar” jamiyati haqida Andijon uezdi shahar atrofi uchastka pristavi Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori nomiga 1916-yil 25-noyabrda 742-sonli axborot beradi. Unda aytilishicha, Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorining farmoyishi asosida Andijon uezdida “Taraqqiyparvar” jamiyati haqida yashirin so‘rov va tekshiruvlar o‘tkaziladi. Tekshiruv natijalariga ko‘ra, tashkilot safida mahalliy millat vakillaridan tashqari Chaykin, Shapiro va Okun kabi shaxslarning borligi, tashkilot rahbarligi Asaddulaxo‘jaev qo‘l ostida ekanligi ko‘rsatilib o‘tiladi. Uchastka pristavi Birshertning ta‘bricha, jamiyat tashkiliy jihatdan yaxshi uyushtirilgan<sup>2</sup>.

Jadid maktablari ommaviyligi va mashhurligi mustamlakachi ma‘muriyatni tashvishga soldi. Podsho hokimiyati ularda mustamlaka tartibotlari uchun ulkan xavf-xatarni ko‘rdi va hokimiyat jadidlarni oshkora ta‘qib eta boshladi, xalq ta‘limi ishlarida ularning faoliyati taraqqiy topishiga to‘sqinlik qildi.

1908-yilda Turkiston general-gubernatorligini tekshirgan graf va senator Konstantin Palen o‘z hisobotida shunday yozadi. “Yangiusul maktablari nihoyatda jiddiy e‘tiborga sazovordir. Musulmon hayoti islohchilari hatto maktablarni ham o‘z qo‘liga olishga intilayotir. Tegishli ma‘muriyat va dasturlar bilan ular islohotchilik ideallari uchun kuchli, ma‘rifatli harakatni vujudga keltirishni rejalashtirishgan”. Yangiusul

---

<sup>1</sup> O‘sha manba.

<sup>2</sup> O‘z MDA. 461-fond. 1-ro‘yxat. 2023-ish. V.15.

maktabi muallimi bir yozishmasida shunday yozadi: “Maktab kelajakda yagona davlatni barpo etish negizidir”.

Matbuotda yangiusul maktablari tanqid qilindi va kamsitildi. Mustamlakachi hokimiyat maktablarda xorijiy turk va fors adabiyotidan foydalanishni taqiqlab qo'ydi, mahalliy o'quv adabiyoti nashrlariga nisbatan senzura joriy etildi. Podsho hukumati ma'murlari boshida yangiusul maktablari faoliyatini cheklab qo'yishni, keyin esa butunlay yopib tashlashni ko'zladi. Xiva hamda Buxoro musulmon ruhoniylari va davlat hokimiyati ham jadid maktablariga qarshi chiqdi.

1911-yilda mustamlakachi ma'murlar 50 ta yangiusul maktablarini yopib qo'yishdi, qolganlarida esa rus tili majburiy fan sifatida o'qitila boshlandi.

1913-yilga kelib, Buxoro amirligidagi barcha yangiusul maktablari yopib tashlandi va yangi maktablar ochish uchun ruxsat berilmay qo'yildi.

Jadidlar maktabida ta'lim olgan Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Abdulla Avloniy, Mo'minjon Muhammadjon o'g'li, Fayzulla Xo'jayev, Botu va boshqalar xalq maorifi sohasida halol mehnat qildilar.

## **KOREYS MILLATI VAKILLARINING O'RTA OSIYOGA MIGRATSIYA JARAYONI. QATAG'ON QILINISH BOSQICHLARI HAMDA UNING OQIBATLARI**

**T. X. Jumaev**  
**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti**  
**“Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi” mudiri.**  
**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

1864 -1910 yillaradagi Rossiya hududiga boshlangan koreys migratsiyasi asosan iqtisodiy motivlar bilan bog'liq bo'lib, bunda iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolgan bo'sh yerlarni o'zlashtirishlari uchun yersiz koreys millati vakillariga bo'sh yer uchastkalari bo'lib berilgan.

Migratsion ko'chirish jarayonining ikkinchi bosqichi 1910-1945 yillardagi Yaponiya tomonidan Koreyani bosib olishi bilan bog'liq bo'lib, bunda mamlakatdagi ziyolilar hamda siyosiy doira vakillari Rossiya hududiga ko'chishiga majbur bo'ladi.<sup>1</sup> Bu esa ziyoli qatlamining mamlakat tashqarisidan turib, Koreya mustaqilligi yo'lida olib borgan siyosiy tashviqot ishlari bilan ham bog'liqdir.

Shunday qilib, Koreyslarning Uzoq Sharq o'lkasiga kirib kelish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshgan.

### **Birinchi bosqich 1863-1884 yillarni o'z ichiga oladi.**

Koreyaliklarning Janubiy Ussuri hududiga ko'chirilishi haqidagi birinchi rasmiy hisobot 1863 yil 30 dekabrga to'g'ri keladi, leytenant Ryazanov Primorskiy viloyati harbiy gubernatori P.V. U Kazakevichga bir nechta koreyalik dehqonlar Novgorod postining boshlig'iga "kamida 5 nafar harbiy xizmatchilar joylashishi maqsadida o'z aholi punktlarida rus uyini qurish" sharti bilan post yaqinidagi rus tuprog'iga joylashish uchun ruxsat olish uchun murojaat qilganlarini xabar qilishdi. Agar ruslar koreyslarning xavfsizligini ta'minlashsa, yana 100 ta koreys oilasi Rossiyaning boshqa hududiga ko'chib o'tishga tayyor ekanligini bildirishadi.

Ilk koreys yashash manzilgohlarining vujudga kelishi mintaqani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga xizmat qiladigan arzon ishchi kuchi sifatida rejalashtirgan, bu esa Rossiya hukumatiga har tomonlama manfaatli edi. Janubiy Ussuri hududida koreys aholisining birinchi to'liqsiz ro'yxatga olinishiga ko'ra, Sharqiy Sibir general-gubernatori huzuridagi maxsus topshiriqlarni bajaruvchi Busse 1867 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 185 oila (999 kishi) koreys muhojirlari ekanligi aniqlandi.<sup>2</sup>

**Ikkinchi bosqich 1885-1905 yy:** 70-yillarning oxiri - 80-yillarning boshlarida chor hukumati Janubiy Ussuri hududining rus aholisi bilan joylashishiga e'tiborni kuchaytirgan va favqulodda imtiyozlar bilan

---

<sup>1</sup> Ольга Михайловна Ворожищева . Корейская диаспора в странах дальнего востока: этно-историческая характеристика (вторая половина 19- начало 21 вв). Дисс..кан ист.наук. –Томск: 2013. С 15

<sup>2</sup> Алексеев А.И. Морозов Б.Н. Россиянинг Узоқ Шарқини ўзлаштириш. XIX аср охири. – М., Научный, 1989, -С.10.

ko'chirishni rag'batlantirgan. Rossiyada bo'lgan barcha koreyslar shartli ravishda uch toifaga bo'lingan. Birinchisi, 1884 yildagi Rossiya-Koreya shartnomasi tuzilgunga qadar Rossiyaga ko'chib ketgan koreyslar. Ularga Ussuri hududida qolishga ruxsat berilgan va Rossiya fuqaroligiga qabul qilingan. 1884 yildan keyin Rossiyaga ko'chib ketgan, ammo Rossiya fuqaroligini olishni istagan va birinchi toifada belgilangan qoidalarga rioya qilishga va'da bergan koreyslar ikkinchi toifaga kirgan. Amur viloyatida vaqtincha yashaydigan koreyslar, ya'ni, bu yerda emas, balki ishlash uchun kelganlar. Ular davlat yerlariga joylashish huquqiga ega emas edilar. Ular Rossiyada yashash chiptasini olgandan keyingina Rossiya chegaralarida qolishlari mumkin bo'lgan.<sup>1</sup>

**Uchinchi bosqich (1905-1917 yy.)** 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushi va Koreyaga nisbatan Yaponiya protektoratining o'rnatilishi Koreyaning Manchjuriya va Rossiyaning Uzoq Sharqiga imigratsiyasining kuchayishiga olib kelgan. Rus koreyslari tarixining taniqli tadqiqotchisi B.D. Pakning fikricha, koreys aholisining Koreyadan Rossiya Primore tomon harakatlanishi 60-yillarda boshlangan. Koreyaliklarning Rossiya hududidan o'zlari uchun vatan topish maqsadida o'z ini ommaviy tashlab ketish, aynan Yaponiya protektorati davrida boshlanib, Yaponiya tomonidan Koreya qo'shib olinganidan keyin yanada kengroq miqyosga ega bo'lgan. Bu jarayon Koreyaga yapon mustamlakasi to'lqini bosimi ostida boshlangan. Shu munosabat bilan, faqat Koreyaliklarning Yapon mustamlakasi tuzumi o'rnatilgandan keyin ko'chish hollari kengayganligi bilan izohlash mumkin, ammo 1863 yildan keyingi butun davri Koreyaning Rossiyaga immigratsiya tarixi bilan bog'lanib ketgan.

Immigratsiyaning asosiy ta'sir omillari avvalgidek iqtisodiy bo'lib qolgan, masalan koreys dehqonlarining ommaviy ravishda deportatsiya

---

<sup>1</sup> Герман Ким. История иммиграции корейцев. Книга первая. Вторая половина XIX в. - 1945 г. –Алматы: Дайк-пресс, 1999. –С.9.

qilinishi, Yaponiyaning iqtisodiy hukmronligi, Koreyadagi turmush sharoitlarining keskin yomonlashishi kabi sabablari bunga misol bo'la oladi. Ommaviy ko'chish jarayonida imigrantlar orasida yaponlarga qarshi milliy ozodlik harakatining ko'plab ishtirokchilari bo'lganligi shuni ko'rsatadiki, ular tezroq bu hududdan ketib, mamlakat tashqarisidan turib bosqinchilarga ta'sir etish choralari ham ko'rish rejalari bo'lganligini ko'rish mumkin.

1925 yil yanvar oyida Sovet hukumati Tashqi Ishlar Xalq Komissariyati "Sovet va Xitoy hududlariga xitoyliklarning hamda koreyslarning kirib kelishini to'xtatish uchun barcha choralarni ko'rishga bo'yicha qaror qilgan, chunki Uzoq Sharqning xitoylar va koreyslar tomonidan joylashib, o'zlashtirilishi sovet davlati tomonidan jiddiy xavf deb baholanib, unga nisbatan siyosiy tus berilgan. Buning oqibatida ushbu hududlar kuchli nazorat asosida tartibga solina boshlangan.

Koreyslarning ommaviy deportatsiyasi Stalinning qonli repressiyalari avjiga mingan 1937 yildan boshlangan. Uzoq sharqda yashab kelayotgan koreyslarni SSSR xalq komissarlari kengashining 1937 yil 21 avgustda chiqqan qarori bilan Markaziy Osiyo hududlariga ko'chirish – deportatsiyasi boshlanagan.<sup>1</sup>

1937 yil Sovet Ittifoqi tarixida yer yuzining oltidan bir qismida istiqomat qilgan millionlab barcha millat va elatlar boshiga tushgan ommaviy terror va qatag'on yili sifatida qayd etilgan. Shu yil sobiq SSSR koreys millati vakillari yilnomasida eng fojiali davr bo'lgan.

Uzoq Sharq Koreyslari Sovet Ittifoqida birinchi bo'lib deportatsiyaga mahkum qilingan xalqlarining birinchisi bo'lib, ulardan keyin esa o'nlab millatlar: nemislar, kurdlar, qrim-tatarlar, polyaklar, chechenlar va boshqalar ham deportatsiya siyosatining qurbonlari bo'lishgan. Deportatsiya koreyslar uchun majburiy ko'chirishning alohida chorasi emas edi, shuning uchun savol tabiiydir, 30- va 40-yillarda ko'plab xalqlarning

---

<sup>1</sup> Герман Ким. История иммиграции корейцев. Книга первая. Вторая половина XIX в. - 1945 . –Алматы: Дайк-пресс, 1999 -С. 36.

deportatsiya qilinishining umumiy sabablari nimada edi? Uning ortidan, 1937 yilda koreyslarni deportatsiyasini tayyorlash va amalga oshirish munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida mantiqiy savol tug'iladi.

Shunday qilib, Kommunistik partiya va Sovet hukumatining koreyslarni deportatsiya qilish to'g'risidagi qarori o'zining mantiqiy javobini SSSR Xalq Komissarlari Kengashining va KPSS Markaziy Komitetining 1937 yil 21 avgustdagi "Koreys millati vakillarini mamlakatdan chiqarib yuborish to'g'risida" gi 1428-326-sonli qo'shma qarorida o'z aksini topgan. V.Molotov va I. Stalin imzolagan ushbu farmonda Koreyaliklarni deportatsiya qilish "Uzoq Sharq hududida yapon josusligi kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun" rejalashtirilgan ijobiy ish deb baholagan.<sup>1</sup>

Sovet koreyslarining Uzoq Sharqdan deportatsiyasining haqiqiy sabablariga tashqi siyosiy omil muhim rol o'ynagan. Stalin va Sovet rahbariyati jahon urushining yaqinlashayotganini sezib va bunga tayyor emasliklarini anglab, imperialist raqiblar o'rtasida manyovr qilishga harakat qilgan. G'arbdagi Gitler Germaniyasi va Sharqdagi imperator Yaponiyasi bilan yaqinlashishga harakat qilgan. Yaponiya bilan yaqinlashish uchun koreys masalasini yaponiya foydasiga hal qilishni nazarda tutgan bo'lgan.

Tadqiqot tahlillari shundan dalolat beradiki, koreyslarning ko'chirilishi sabablari yana boshqa vajlarga ham bog'lanadi. Jumladan;

**Birinchidan,** O'rta Osiyo va Qozog'istonga ko'chirilishi, Uzoq Sharq hududidan o'n martalab katta hududda koreys xalqining bo'linib ketishi degani edi. Ko'chirishning ulkan iqtisodiy eksperiment sifatida o'ylab topilgani haqida ham ma'lumotlar bor, chunki 1929-1931 yillardagi

---

<sup>1</sup> Қаранг: 30-40-йилларда Россия корейс аҳолисини депортация қилиш тўғрисида оқ қоғоз. М.: 1992. -Б. 64.

ocharchilikdan so'ng Qozog'iston va O'rta Osiyoda qo'riq yerlarni o'zlashtirish va sholi yetishtirishni rivojlantirish bo'yicha besh yillik rejalarini bajarish uchun "ishchi zahiralari" yetishmayotgandi.

**Ikkinchidan,** Qozog'iston va O'rta Osiyoda bu davrda millionlab odamlar qirilib, yuz minglab kishilar o'z yurtlaridan qatag'on qilingan edi. 1931-1933 yillarda Qozog'istonning o'zida ochlik, epidemiya va boshqalardan vafot etganlar soni 1 mln. 700 ming kishini tashkil qilgan.<sup>1</sup> Shu sharoitlar tufayli, bu hududlarda mehnat resurslarining tanqisligi yuzaga kelib, bu resurslar maxsus ko'chirilganlar, shu jumladan koreyslar hisobiga to'ldirilgan. Taxmin qilish mumkinki, maxsus ko'chirilganlarning Qozog'istonning janubiy viloyatlari va O'rta Osiyo respublikalarida joylashtirilishiga sabab, ularning qishloq xo'jaligi: sholi va sabzavotchilik bilan shug'ullanishlari ko'zlangan edi. Ammo aytib o'tilganidek, bu sabablar asosiy hisoblanmaydi. Asosiy sabab bu totalitar siyosatning bir tomonlamalik mohiyatidadir.

## **SOVET O'ZBEKISTONI ISLOM DINIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATIDA ULAMOLARNING O'RNI**

**Z.E. Xalilova**

**O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Sharqshunoslik instituti doktoranti,  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Sovet davlatining islom dini va ta'limiga nisbatan turlicha siyosat olib borgan bo'lsada, Diniy boshqarma tomonidan olib borilgan tadbirlar o'z zamonasiga xos islom madaniyati va ta'limining shakllanishiga olib kelgan. Tadqiqotlarda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasi rahbarlarining o'lka musulmonlari madaniy-ma'rifiy hayotida islom an'analarining qayta tiklashdagi ahamiyati masalasi o'z aksini topgan.

---

<sup>1</sup> Абышгожин Ж.Б., Козмбаев М.К., Татимов Б.Б. Казахстанская трагедия. Вопросы истории. 1989. №7.

Biroq, ularda keng hajmli arxiv manbalari asosida O'zbekiston ulamolarining diniy ta'limni yo'lga qo'yishdagi faoliyatlari yetarlicha yoritilmaganini ko'rsatadi. Shu jihatdan mazkur qismda, Diniy boshqarma rahbarlarining diniy ta'lim muassasalarining o'quv faoliyatini tashkillashtirishda faol ishtiroki yangi fakt va ma'lumotlar asosida yoritiladi.

1942-1943 yillarda sovet hukumatining siyosiy va mafkuraviy sohada amalga oshirgan tadbirlari Sovet Ittifoqidagi qator shaharlarda diniy markazlarning ochilishiga olib kelgan edi. 1943 yil 20 oktyabrda Toshkentda O'rta Osiyo musulmonlarining I qurultoyi o'tkazilib, unda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari uchun diniy boshqarma ochilishiga ruxsat berilishi mintaqa musulmonlari hayotida muhim o'zgarishlar sifatida qabul qilingan edi<sup>1</sup>.

Diniy boshqarma Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxonning sa'y-harakati bilan 1943 yil 20 oktyabridan rasmiy faoliyat olib bora boshlagan<sup>2</sup>. 1957-1982 yillarda uni Z.Boboxonov<sup>3</sup>, 1982-1989 yillarda Sh.Boboxonov<sup>4</sup>, 1989-1993 yillarda Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf<sup>5</sup> boshqargan.

XX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo musulmonlari diniy hayotida yangi davr boshlandi. Bu o'zgarishlar diniy ta'lim sohasiga tegishli bo'lib, Diniy boshqarmaning tashabbusi bilan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasi tarkibida 1946 yildan Mir Arab

---

<sup>1</sup> Қаранг: Усмонхўжаев А. Жизнь муфтиев Бабахановых: служение возрождению Ислама в Советском Союзе. – М.: Нижний Новгород: ИД «Медина», 2008 – 266 с.

<sup>2</sup> Бабахановы // Ислам на территории бывшей Российской империи: Энциклопедический словарь. Вып.4. – М.: Восточная литература, 2003. – С. 12-14; Йўлдошхўжаев Х., Қаюмова И. Ўзбекистон уламолари. – Тошкент: Movogounnahr, 2015. – Б. 65-81.

<sup>3</sup> Бобохонов Ш. Сўнамас зиё. Шайх Зиёвуддинхон ҳазратларининг ҳаёт ва фаолиятлари. – Тошкент, Маънавият, 1998. – 144 б.; Шайх Зиёвуддинхон ибн Эшон Бобохонов // Замонамиз уламолари. Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси./Таҳр. З.Мунавваров ва бошқ. – Тошкент, 2001. – Б. 6-26; Туреун А. Улуғларни эсласак раҳмат ёғилар // Ҳидоят. 2006, 8-сон. – Б. 8.

<sup>4</sup> Усмонхўжаев А. Шамсиддинхон Бобохонов ибрати // Ҳидоят. 2012, 4-сон. – Б. 22-23; Усмонхўжаев А. Дарёдил аллома. Рисола. – Тошкент: Фафур Фулом нашриёти. 2017. – Б. 149-150.

<sup>5</sup> Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф // Ислам на территории бывшей Российской империи: Энциклопедический словарь. Вып.4. – М.: Восточная литература. 2003. – С. 53-55.

madrasasi, 1956-1961 yillarda Baroqxon madrasasi, 1971 yildan Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti faoliyati yo'lga qo'yildi.

Sovet Ittifoqi hududida tashkil etilgan diniy boshqarmalar orasida Toshkent (hozirgi Baroqxon madrasasi)da joylashgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan edi. Bu, bir tomondan, islom tarixiy yodgorliklarining aksariyati O'zbekiston hududida joylashganligi bilan izohlansa, boshqa tomondan, bunga tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida o'lkada jahonga mashhur yirik islom ulamolari yetishib chiqqanligi asos bo'ladi.

Diniy boshqarmaning 1943-1991 yillardagi faoliyatida diniy kadrlar tayyorlash eng muhim va muammoli masalalardan biri hisoblanib, unga alohida e'tibor berilganini ta'kidlash lozim. Sovet Ittifoqida yagona bo'lgan ushbu ta'lim muassasalari 1945-1991 yillardagi murakkab va ziddiyatli tuzum sharoitida, diniy e'tiqod masalasi cheklangan jamiyatda islom dini xodimlarini yetkazib bera olgan.

Madrasalarda ta'lim ishini tashkil etish va rivojlantirishda O'QOMB rahbarlari muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon, rais yordamchisi Ziyovuddin Boboxonov va qozi Murodxo'ja Solixo'jaev<sup>1</sup>, Shayx Ismoil Maxdum<sup>2</sup>, Shayx Yusufxon Shokir<sup>3</sup>, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf<sup>4</sup> xizmatlari katta bo'lgan.

Aytish mumkinki, so'nggi yillarda nashr qilingan adabiyotlarda O'QOMB rahbarlari Boboxonovlar sulolasi, shuningdek, mazkur davrda islom yo'lida xizmat qilgan ulamolarning faoliyati keng ommaga tanishtirildi. Masalan, H.Yo'ldoshxo'jaev va I.Qayumova hammuallifligida 2015 yilda nashr qilingan kitobda O'zbekiston ulamolarining, xususan, sovet yillarida yashab, boshqarma faoliyatining turli sohalarida (masjid,

<sup>1</sup> Тожиёв А. Муродхўжа Солихий ким бўлган? // Ҳидоят. – 2012, 7-сон. – Б. 28-29.

<sup>2</sup> Шайх Исмоил Махдум // Замонамиз уламолари. Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси / Таҳр. З.Мунавваров ва бошқ. – Тошкент, 2001. – Б. 26-55.

<sup>3</sup> Шайх Юсуфхон Шокир // Замонамиз уламолари. Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси / Таҳр. З.Мунавваров ва бошқ. – Тошкент, 2001. – Б. 55-68.

<sup>4</sup> Мухаммад Содиқ ислом диний таълим муассасаларида хориж даражасида ўқитиш ва ўқиш тартибларини қайта ташкил этган. Қаранг: Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Вып.4, – М.: Восточная литература РАН, 2003. – С. 53-55.

madrasa, institut)xizmat qilgan din arboblari hayotining tarixiy jihatlarini yoritiladi<sup>1</sup>. Shuningdek, “Zamonamiz ulamolari”, “Dinimiz fidoyilari” va turli ko‘rinishdagi islomshunoslik ensiklopediyalarida hamda “Islom nuri” gazetasi va “Hidoyat” jurnali sahifalarida doimiy ravishda Diniy boshqarma va ulamolarning islom ma’rifatini tarqatishdagi harakatlari tadqiq qilinadi. Ilmiy izlanishlardagi masalaning turli jihatlarini tadqiq qilinishi barobarida, Diniy boshqarmaning ta’lim sohasidagi faoliyati ham aytib o‘tiladi.

A.Mo‘minov va U.G‘afurov tadqiqotida sovet yillarida diniy ta’limning tashkil etilishida Boboxonovlar<sup>2</sup> oilasining xizmatlari katta bo‘lganligi qayd etiladi. Xususan, mualliflar Z.Boboxonov faoliyatida madrasalarda hadislarining o‘rganilishiga katta e’tibor berilgani, Imom Buxoriy tavalludining nishonlanishi va diniy kitoblarning nashr qilinishi shular jumlasidan ekanligini ta’kidlaydilar<sup>3</sup>.

Sobiq madrasa bitiruvchilarining xotiralarida O‘OQMB raisi muftiy Z.Boboxonovning diniy ta’limni tashkil etishdagi xizmatlari yuqori baholanib: “Z.Boboxonov fan va dinning rivoji uchun fidokor, samimiy, jonkuyar inson namunasi edilar. Buxorodagi Mir Arab madrasasiga borganda har bir talaba bilan suhbatlashar, oilaviy iqtisodiy ahvolini so‘rar va bayramlarda barcha talabalarga kiyim-bosh hadya qilganlar. Madrasada tashkil etilgan suhbatlarda bizni, talabalarni inson hayotining takrorlanmas qadr-qiyamatini saqlash, insonga g‘amho‘rlik qilish, uning manfaatini himoya qilish hissiyotini singdirar edilar”<sup>4</sup>, – deb qayd etiladi.

Yuqorida keltirib o‘tilganidek, islom ulamolari din xizmatchilarini tayyorlashga jiddiy e’tibor berganlar. Diniy boshqarma tomonidan diniy

<sup>1</sup> Йўлдошхўжаев Х., Қаюмова И. Ўзбекистон уламолари. ....– Б. 49.

<sup>2</sup> Бобохоновлар оиласи ҳақида тўлиқроқ: Бабаджанов Б.М. Бабахановы // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Вып.4. ... – С. 12-14; Бабаханов Ш. Шайх Зиёвуддинхон ибн Эшон Бобохон. Маънавият ва ибрат мактаби. – Тошкент, 2001. – 288 б.

<sup>3</sup> Muminov A., Gafurov U., Shigabdinov R. Islamic Education in Soviet and post Soviet Uzbekistan // Islamic Education in the Soviet Union and its Successor States Ed. Michael Kemper, Raoul Motika and Stefan Reichmuth. – New York. 2010. – P. 223-280.

<sup>4</sup> Бобохонов Ш. Шайх Зиёвуддинхон ибн Эшон Бобохон. Маънавият ва ибрат мактаби. – Тошкент, 2001. – Б. 162-163.

ta'limning tashkil etilishida yuzaga kelgan kamchilik va murakkabliklarni bartaraf etishda oqilona tadbirlar qo'llanilgani to'g'risidagi ma'lumotlar arxiv hujjatlarida uchraydi. Masalan, O'zbekistondagi madrasalar va Toshkent islom institutiga talabalar ancha cheklangan miqdorda qabul qilingan. 1960 yilda Mir Arab madrasasida 40 ta talaba, 1970-1980 yillarda TIIda 30 ta talaba tahsil olgan. Bu holat, ya'ni talabalar sonining cheklanishi xorijdan tashrif buyurganlarni ajablantirgan. Bundan foydalangan Diniy boshqarma rahbarlari talabalar kontingentini ko'paytirish masalasida markaziy davlat tashkilotlariga quyidagi mazmunda xat jo'natganlar:

*O'QOMB raisi Z. Boboxonovdan SSSR MSning Diniy ishlar bo'yicha vakili V.A. Kuroedovga. ...Sizga ma'lumki, bizning boshqarmamizga shuningdek, yuqoridagi 2 ta diniy muassasamizga xorijdan diniy vakillar tashrif buyurib, ta'limning qanday tashkil etilganligi bilan qiziqadilar. Ular tomonidan oliy maktabning kontingenti borasida fikr bildirilib, 40 million musulmon aholisi bo'lgan sovet davlati uchun din ilohiyotchilari juda kam tayyorlanishi ta'kidlanadi. 1980 yilda Toshkent shahrida yirik konferensiya o'tkazilishi mo'ljallanmoqda. Bu konferensiya qatnashchilari albatta, bizning ixtiyorimizdagi o'quv muassalari faoliyati bilan qiziqishadi. Yuqoridagi faktni hisobga olgan holda va bizning erishgan tajribamizga asoslanib, O'QOMB ixtiyoridagi Mir Arab madrasasi talabalari sonini 100 taga va Toshkent islom instituti talabalari sonini 50 taga ko'paytirishni so'raymiz<sup>1</sup>.*

Albatta, bunday murojaatlarning hammasi ham hukumat tomonidan maqsadga muvofiq deb topilmasa-da, ba'zi holatlarda ularning ayrimlari ijobiy yechimga ega bo'lgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasining 1943-1991 yillardagi faoliyati o'lka musulmonlari madaniy-ma'rifiy hayotida islom

---

<sup>1</sup> ЎзР МДА, Р-2456-жамғарма, 1-рўйхат, 622-йиғмажилд, 50-51- варақлар.

an'alarining qayta tiklanishida ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan. Sovet tuzumining tazyiq va keskinliklari Diniy boshqarmaning ichki va tashqi faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu jarayonda musulmonlar hayotidagi muhim o'zgarishlardan biri islom ta'lim muassasalari faoliyatiga rasmiy ruxsat berilishida ko'zga tashlanadi. Diniy boshqarma rahbarlari diniy ta'lim muassasalarining o'quv faoliyatini tashkillashtirishda faol ishtirok etganlar. Bu talabalar sonini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularning xorij islom universitetlarida tahsil olishlari yuzasidan qator tadbirlar olib borilganligida ko'zga tashlanadi.

### **XX ASRNING 70- 80 - YILLARIDA TOSHKENT VILOYATI TRANSPORT TIZIMINING TARAQQIYOTI VA UNING AHAMIYATI**

**B.A. Saidusmonov**  
**CHDPU O'zbekiston tarixi kafedrası**  
**o'qituvchisi**

Respublikamiz transporti xodimlari oldida yuksak va murakkab vazifalar turibdi. Asosiy vazifa respublika iqtisodi va aholining avtomobil transportiga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis qondirish, avtomobil transportini yanada zamonaviy texnika bilan qurollantirish, ravon avtomobil yo'llarini kengaytirishdir. Transporti ishini yanada takomillashtirish uchun transport-iqtisodiy aloqalarni ratsionalizatsiyalashtirish, temir yo'l va avtomobil transporti o'rtasida yuk, yo'lovchi tashishni to'g'ri taqsimlash, yuk tashishni tezlatish, yuk tashish masofasini va transport harajatlarini kamaytirish, transport vositalaridan unumli foydalanish, mashinalarning yuk ortish –tushirishda bekor turishini va yuksiz bo'sh yurishlarini kamaytirish, avtomatika va hisoblash texnimkalarini keng ko'lamda qo'llash, ichki rezervlarni ishga solish, yuk tushirish va ortish ishlarini maksimal darajada mexanizatsiyalashtirish,

avtomobil xo'jaligi xodimlarini planlashtirish va iqtisodiy rag'batlantirishning yangi sistemasidan bahramand etish kabi muhim vazifalar turibdi. Demak, avtomobil transporti va tosh yo'llar respublikada sanoat, qishloq xo'jaligining yanada yuksalishi, aholiga madaniy va maishiy xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi eng zarur vositalardan biridir. Respublika moddiy-texnika bazasini vujudga keltirishda avtomobil transporti va tosh yo'llarning xizmati beqiyos<sup>1</sup>.

Avtomobil yo'llari shahobchalarini rivojlantirishning g'oyat muhimligini nazarda tutib, shu yo'llarni qurishni jadallashtirish, jumladan, mamlakatning eng yirik shaharlaridan chiqiladigan yo'llarda zarur rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish, avvalgi besh yillikda barpo etishga kirishilgan magistral yo'llarni qurib bitkazish, shuningdek koxoz va sovxozlarning asosiy posyolkalarini ravon yo'llar bilan ta'minlash zarur.

Yuk tashish hajmini va masofasini uzaytirishga olib keluvchi omillar quyidagilardan iborat:

**1.** Mamlakatning Uzoq Sharq, Sibir, O'rta Osiyo kabi olis rayonlarida joylashgan foydali qazilmalarni va xom ashyo resurslarni xo'jalik oborotiga kiritish;

**2.** Mamlakatning Sharqiy rayonlarida, O'rta Osiyoda sanoat rivoj topganligi ishlab chiqarish rayonlarinig iste'mol qilish rayonlaridan ancha uzoq bo'lishi uchun imkon yaratish;

**3.** Ayniqsa mashinasozlikda mahsulotning ba'zi turlarini ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishni takomillashtirish;

**4.** Sanoat va qishloq xo'jaligida tovar mahsulotini ko'p va mo'l ishlab chiqarish;

**5.** Ayniqsa, yog'och, neft, toshko'mir singari ommaviy yuklarni olis masofalarga tashishda xalqaro savdo-sotiqning kengaytirilishi<sup>2</sup>.

Tarmoqning tarkibi o'zgardi. Umum foydalanishdagi avtotransportda yuk tashish yo'lovchilarga hizmat qilish trestlari tuzildi.

---

<sup>1</sup> Ходжаев Б.А. Автомобиль транспорти иқтисоди. Дарслик.-Тошкент. Ўқитувчи. 1982. –Б.20.

<sup>2</sup> Ходжаев Б.А. Автомобиль транспорти иқтисоди. Дарслик.-Тошкент. Ўқитувчи. 1982. –Б.20.

Trestning birinchi rahbari V.S.Rajabov va M.G.Zdraykovskaya bo'ldilar. Ular urash yillarini og'ir maktabidan o'tgan, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini bilishar edi. Rahbar lavozimida ishlagan davrlarida tashkilotchilik qobiliyatlarini ko'rsatdilar, xizmat vazifasiga vijdonan munosabatda bo'lish, intizomga qat'iy rioya qilish tufayli obro'-e'tibor qozondilar. Ular har bir xodimga shunchaki ijrochi deb qaramas edilar.

Markazlashtirilgan usulda yuk tashishning iqtisodiy samaradorligi katta. Bu usulda yuk tashish avtomobillarning yuk ortish va yuk tushirish vaqtida bekor tushirishlarini, ekspeditorlar sonini, yuk tashish tannarxini, har bir korxonaning avtomobillarga bo'lgan talabini kamaytiradi, mehnat unumdorligi ko'payadi.

Qishloq xo'jaligida yuklarni avtomobillarda tashish keng rivoj topadi. Qishloq xo'jaligida yuk tashishning o'ziga xos xususiyati qatnovning mavsumiyligi va yurish qiyin bo'lgan tuproq yo'llarda bajarilishidir. Vatanimizda eng ko'p tashiladigan qishloq xo'jalik yuklari – paxta va mineral o'g'itlar.

Chigitning salmog'i yengil bo'lganligi uchun ko'p yuk oladigan avtomobillar va avtopoezdlar to'liq yuklanmas, ularning yuk olish quvvatidan atigi 53 foiz foydalanilar edi. Chigitni tushirish ham mushkul ish edi, transport harajatlari ko'payib ketdi. 1978 yilda birlashma mutaxassisleri PSX-7 samosval yarim pritsep yasadilar. U manfaatdor vakillar ko'z oldida sinab ko'rildi. Bu yangi pritsep o'z vazifasiga loyiq va mos keladi deb hisoblanadi. Hamda seriyali ishlab chiqarishga berildi. Uning yuk tashish quvvati 7 tonna bo'lib, chigitni mexanizmlar vositasida bajarishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirildi<sup>1</sup>.

Agarda, 1980 yilda avtomobil transportida tashilgan paxta qariyb 4 mln tonnani mineral 5,0 mln tonnani tashkil etgan bo'lsa, 1985 yilda 4 mln tonna paxta va 7,0 mln tonna mineral o'g'it tashildi. Paxta

<sup>1</sup> Тошкент вилояти давлат архиви, 70-фонд, 1-рўйхат, 58-иш, 23-24-варақлар.

tashishining kelajakdagi ratsional sxemasi “dala-avtomobil poezd-paxta zavodi” usulida tuziladi. O‘zbekistonda ishlab chiqarildaigan mineral o‘g‘it ham qop-qanorsiz “zavod - avtomobil transporti - paxta dalasi” sxemasida tashishlihi zarur. Paxta va mineral o‘g‘itlarning bir qismini ratsional sxemada tashishni joriy qilish yiliga necha million so‘m mablag‘ni tejaydi.

1981-1985 yillarda og‘irligi 1,0 - 2,0 tonnadan ortmaydigan kichik partiyadagi yuklarni avtomobillarda bir yilga tashish ham o‘sadi. Bunday tashish magazinlar, oshxonalar, maishiy xizmat ko‘rsatish, mahalliy mayda sanoat korxonolari, aloqa punktlari va xakazolarga xizmat qilish uchun zarurdir. Mehnatkashlar turmushi yaxshilana borgan sari bunday yuklarga ehtiyoj orta boradi. Bu yuklarning hajmi umumiy avtomobil yuk oborotida hozircha 2-4 foizi tashkil qilsa-da, lekin bunday kam yuk ko‘ratadigan avtomobillar salmog‘ini oshirishi zarur va ular ishini tashkil qilishga ham katta e‘tibor berish lozim, chunki bunday tashish tannarxi ancha yuqori bo‘ladi<sup>1</sup>.

1975-1978-yillarda axborot – hisoblash markazi tashkil etildi. Unga Ya.S. Geller boshliq etib tayinlandi. Shu kundan boshlab Toshkent shahar markazlashgan yuk tashish avtotrestining 12 ta avtokorxonasida yo‘l varaqalari elektron hisoblash mashinalari yordamida hisob-kitob qilish boshlandi. Yuk tashish rejasining bajarilishi, yonilg‘i sarfi, texnikadan foydalanish ko‘rsatkichlari, haydovchilarning ish haqi, mijozlar bilan hisoblashishi va boshqa ma‘lumotlar olinadigan bo‘ldi.

Avtomobilchilar yuk oborotini 1,5 baravar ko‘paytirishlari kerak. Avtomobil pritseplarida yuk tashish hajmi keskin ravishda oshirilishi zarur. Bu esa kam chiqim qilib, beqiyos katta hajmdagi ishlarini bajarish, ko‘p miqdorda yonilg‘i moylash materiallarini tejab qolish, g‘oyat katta iqtisodiy samara olish imkonini beradi. O‘sha davrdagi markazlashgan usulda yuk tashish avtotrestining moddiy texnika bazasining ahvoli va iqtisodiy ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘lgan.

---

<sup>1</sup> Ходжаев Б.А. Автомобиль транспорти иқтисоди. –Б.30.

Avtotransport ishida ham qoloqliklar, nuqsonlar mavjud bo'lib, rahbar xodimlarning xatolari ham vaziyatni murakkablashtirdi. Natijada, vaziyat o'rganilib, tuzatilib, ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgani sabab, avtotrest ijobiy natijalarga erishdi. 1968-1988 yillar davomida avtotrest rahbariyati o'z tarkibidagi barcha avtokorxonalarining binolarini qurishga, ta'mirga sexlarni barpo etiga, ishchi va xodimlarga sharoitlarni yaratishga ko'proq e'tibor berdi. Shu yillarda 5322 ta ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqildi va joriy etildi. Buning hisobiga 950 ming so'mlik foyda ko'rildi.

Trest tizimidagi bunday o'zgarishlar 1968 yilgacha davom etdi, yo'lovchilar va yuk tashish hajmlari ortib, yangi avtoxo'jaliklar tashkil topdi. Shu yili markazlashtirilgan yuk tashish Toshkent viloyati avtotresti zaminida 2 ta yo'lovchilar va yuk tashish trestlari tuzildi. "Toshkent viloyatyuktrans" tresti tarkibida quyidagi korxonalar – Chirchiqdagi 2, Bekobodda16, Olmazordagi 45, Alimkentdagi 46, Angrendagi 72, To'ytepadagi 74, Olmaliqdagi 8, Soldatskoedagi 80, Pskentdagi 81, Yangiyo'ldagi 107, Yangibozordagi 212 Bo'kadagi 122, Bo'stonliqdagi 125-avtokorxonalar, Yangiyo'ldagi 2503 – avtokolonna, ixtisoslashtirilgan 56-avtokorxonalar faoliyat olib bordi. Keyinchalik Bekoboddagi, Zafardagi, Yangiyo'ldagi 107- avtokorxonalar, 2503 - avtokolonna birlashtirildi, 56-avtokorxonalar trest tarkibidan chiqarildi. Trestda jami 120 ta avtotransport tashkilotlari qoldirildi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Toshkent viloyati davlat arxivi, 361-fond, 1-r'yxat, 72-ish, 83-varak.

## **1925-1941 YILLARDA SAMARQAND VILOYAT XOTIN-QIZLARI TA'LIMI VA ULARNING SAVODXONLIK DARAJASI**

**G. K. Mardiyeva**  
**Samarqand davlat universiteti**  
**tayanch doktoranti**

O'zbekistonda sovet hukumatining 1920-1930 yillarda ta'lim sohasida amalga oshirgan ishlari, ayniqsa, xotin-qizlar savodxonligini oshirish borasidagi ishlari bir qancha ijobiy va salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Ushbu yillarda xotin-qizlar savodini chiqarishga katta e'tibor berildi. Ularning savodsizligini tugatish uchun maktablar, maxsus kurslar, texnikumlar tashkil qilindi. Ammo shunga qaramay sovet hukumatining shoshma-shosharlik bilan qilingan ishlari, mahalliy xalq milliy urf-odat, an'analariga bepisand qaraganligi xotin-qizlarni ta'lim sohasiga qamrab olishda bir qancha kamchiliklarni ham keltirib chiqargan.

Samarqand viloyatida xotin-qizlar o'rtasida savodsizlikni tugatish ishlari XX asrning 20-yillari o'rtalaridan keng ko'lamda boshlab yuborildi. Viloyat xalq maorifi bo'limi 1925-yilning qishida Samarqandning eski shahar qismida musulmon ayol o'qituvchilarni tayyorlovchi 2 yillik maktab ochishni rejalashtiradi.<sup>1</sup> Tashkil etilgan ayollar maktabi va savodsizlikni tugatish maktablarida ayol o'qituvchilarga ehtiyoj bor edi. Shu sababli viloyatda qisqa muddatli ayol o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari ochildi. 1926-yilda bu kurslarda 60 nafar xotin-qiz o'qidi.<sup>2</sup>

Samarqand viloyatida xotin-qizlar savodsizligini tugatish maktablarida o'quvchi xotin-qizlar soni yilma-yil o'sib borgan. Masalan, 1922/23 o'quv yilida maktabda 35 qiz o'qigan bo'lsa, 1923/24 o'quv yilida 119 ta, 1924/25 o'quv yilida 472 nafar, 1926-yilning 1-yanvariga kelib 546 kishi ularda o'qigan.<sup>3</sup> 1925-yilning yoziga kelib Samarqand viloyatida xotin-

---

<sup>1</sup> Правда Востока. 24 июля 1925 года

<sup>2</sup> Рахимова М.Д. Деятельность Самаркандской областной партийной организациии по ликвидации неграмотности среди женщин (1925–1927 гг.) // Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск 334. – Самарканд, 1978. – С. 20.

<sup>3</sup> Samarqand VDA, 1685-fond, 1-ro'yxat, 218-ish, 52-bet

qizlar uchun 35 ta savodsizlikni tugatish maktablarini ochish rejalashtiriladi.<sup>1</sup>

1924/25 o'quv yilida viloyat bo'yicha 5000 kishi savodsizlikni tugatish maktablarini bitirib chiqdi. Bu paytga kelib savodsizlikni tugatish maktablariga jalb qilinganlarning soni 7000 kishidan oshib ketdi.<sup>2</sup> 1926/27 o'quv yilida viloyatda o'zbek xotin-qizlari uchun 10 ta yangi savodsizlikni tugatish maktablari ochilib, ularda 189 kishi o'qigan bo'lsa, umumiy ta'lim maktablari, 5 oylik kurslarda 100 kishi, bir yillik kurslarning 3 ta guruhida 120 kishi, meditsina texnikumida 45 kishi o'qidi.<sup>3</sup>

1927/28 o'quv yilida "ozodlikka chiqqan" xotin-qizlar uchun 12 ta savodsizlikni tugatish maktablari ochildi. 1929-yilning 1-dekabriga kelib, Samarqand shahridagi I bosqich maktablari 2301 nafar o'zbek qizlarini va 2717 nafar tojik qizlarini qamrab olgan bo'lsa, Samarqand viloyati bo'yicha 7474 nafar o'zbek va 10097 nafar tojik qizlari maktablarga qamrab olingan edi. Viloyatdagi II bosqich maktablarida mahalliy millat vakillaridan bo'lgan 2986 nafar qiz o'qidi.<sup>4</sup>

1930/31 o'quv yilida Samarqand shahar kasaba uyushmasi va madaniy- oqartuv muassasalari hisobidan 25 ta savodsizlikni tugatish kurslari ochilib, ularda 817 kishi, shu jumladan 334 xotin-qiz o'qidi. Shu o'quv yilida bir yillik o'smirlar maktabida 13-14 yoshdagi qizlardan shaharda 3838 nafar, qishloqda 9149 nafar o'quvchi o'qidi. Shunday qilib, bir yillik o'smirlar maktabida o'qigan 32362 kishidan 12988 nafari qizlar

---

<sup>1</sup> Правда Востока. 27 мая 1925 года

<sup>2</sup> Правда Востока. 22 июля 1925 года.

<sup>3</sup> Рахимова М.Д. Деятельность Самаркандской областной партийной организациі по ликвидации неграмотности среди женщин (1925–1927 гг.) // Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск 354. – Самарканд, 1978. – С. 22.

<sup>4</sup> Нуриева В. Участие женщин Самаркандской области в культурном строительстве (1929–1932 гг.) // Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск 331. – Самарканд, 1977. – С. 23.

edi.<sup>1</sup> Chalasavodlilar maktabida shu o'quv yilida shahardagi 65 ta guruhda 1230 nafar, qishloqdagi 319 ta guruhda esa 5670 nafar qizlar o'qigan.<sup>2</sup>

1931-yilning 1-yanvarigacha Samarqand viloyati bo'yicha savodsizlikni va chalasavodlilikni tugatish kurslari va I bosqich maktablari 200842 nafar o'quvchini qamrab olgan edi. Shu yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumoti bo'yicha Samarqand shahrida 8 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning soni 18396 nafarni tashkil etib, ulardan 8360 nafari qizlar bo'lib, shundan 13431 nafari savodli va 4965 nafari savodsiz bo'lgan.<sup>3</sup>

Ushbu yillarda "millionlar shartnomasi" jarayonini amalga oshirishda O'zbekistonda xotin-qizlarni ma'lumotli qilishning turli usullari qo'llanildi. "Millionlar shartnomasi" xotin-qizlar yuzini ochish bo'yicha O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari o'rtasida tashkil qilingan sotsialistik musobaqa bo'lib, u shunday nom bilan tarixga kirgan edi.<sup>4</sup>

1932-yil boshida viloyatdagi 38 ta umumta'lim maktablarida xotin-qizlar uchun savodsizlikni va chalasavodlilikni tugatish kurslari ochildi. Shu yili xotin-qizlar uchun hammasi bo'lib 271 ta savodsizlikni va chalasavodlilikni tugatish maktablari faoliyat ko'rsatdi. Ularda 131 nafar xotin-qiz o'qituvchi ishlagan bo'lib, ular orasida M.Jo'raeva, K.Azizova, D.Mavlonova, X.Niyazova, M.Fayzieva va boshqalar bor edi.<sup>5</sup>

1932-yilning 20-mayiga kelib viloyatdagi savodsizlikni tugatish maktablari 10020 nafar xotin-qizni qamrab oldi, holbuki bu miqdor "Millionlar shartnomasi"ning nazorat raqami bo'yicha 16700 kishi bo'lishi kerak edi. Chalasavodlilikni tugatish kurslari 4900 xotin-qizni qamrab olgan, nazorat raqamlari bo'yicha esa 5500 xotin-qiz qamrab olinishi kerak edi. Viloyatning barcha tumanlarida savodsizlikni tugatish maktablarida

---

<sup>1</sup> Samarqand VDA, 7-fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 13-bet.

<sup>2</sup> Samarqand VDA, 7-fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 17-bet.

<sup>3</sup> Самибоев К.Х. Народное образование в гор. Самарканде за годы трех предвоенных пятилеток (1928–1941 гг.) // Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск. 101. Материалы по истории народов Узбекистана. Ч.2. – Самарканд, 1960. – С. 118.

<sup>4</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. 2-jild. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – B.377

<sup>5</sup> Samarqand VDA, 7-fond, 2-ro'yxat, 1-ish, 8-bet.

216 ta guruh tuzildi. Ularda nazorat raqamlari bo'yicha 445 nafar o'qituvchi ishlashi o'rniga 209 nafar o'qituvchi mehnat qildi.<sup>1</sup>

1931/32 o'quv yilida 5771 shaharlik (samarqandlik) va 4595 dehqon o'zining chalasavodligini tugatgan bo'lsa, 1933-yilga kelib Samarqand shahrida 12331 xotin-qiz, qishloqda 14827 xotin-qiz chalasavodligini tugatish maktablarida o'qidi. Shahar va qishloqdagi 8 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan qizlardan 30 mingdan ziyodi umumiy majburiy ta'limga qamrab olindi.<sup>2</sup>

1938/39 o'quv yilida viloyatda 6116 nafar o'qituvchi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1939/40 o'quv yiliga kelib ularning miqdori 6481 kishiga etgan, ulardan 1419 nafari xotin-qizlar edi.<sup>3</sup>

Majburiy ta'limni joriy qilish oldidan qizlar maktabga juda kam miqdorda jalb qilingan. 1927/28 o'quv yilida maktabga ro'yxatga olish davrida o'quvchilar umumiy sonidan 133,4 ming kishidan 34,7 ming nafari qizlar edi. Bu esa 26%ga teng degani edi. Qishloq maktablarida 6 ming nafar qiz o'qigan, bu umumiy o'quvchilar soniga nisbatan 11,5%ni tashkil qilgan. 1938/39 o'quv yilida maktablarda o'quvchi qizlar soni 429 ming kishini, ya'ni 42,7% ini, qishloqlarda qizlar soni 337 ming, ya'ni umumiy qishloq maktablaridagi o'quvchilar sonining 41,7% ini tashkil qildi.<sup>4</sup>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu yillarda xotin-qizlar savodini chiqarishda birmuncha yutuqlarga erishildi, maktablar va boshqa o'quv yurtlari ochildi. Xotin-qizlarni ta'limga jalb etishni ma'lum siyosiy o'zgarishlar mexanizmi ishlab chiqildi. Sovet hukumatining asosiy maqsadi bo'lgan xotin-qizlarni sanoatning asosiy ishchi kuchiga aylantirish uchun

<sup>1</sup> Samarqand VDA, 301-fond, 1-ro'yxat, 158-ish, 16-bet

<sup>2</sup> Нуриева В. Участие женщин Самаркандской области в культурном строительстве (1929–1932 гг.) // Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск 331. – Самарканд, 1977. – С.25.

<sup>3</sup> Самарканд тарихи. 2-жild. Mas'ul muharrir I. Mo'minov. – Tashkent: Fan, 1971. – B. 179.

<sup>4</sup> Народное образование в Уз ССР за 15 лет (1924–1939). – Ташкент: Государственное учебно-педагогическое издательство Уз ССР, 1939. – С.58.

harakatlari o'z samarasini bera boshladi. O'zbek xotin-qizlari ijtimoiy hayotning faol ishtirokchilariga aylana bordi.

## **SOCIO-ECONOMIC STRATIFICATION OF THE POPULATION OF UZBEKISTAN**

**Sh. Salimov**  
*Doctor of Philosophy (PhD) in historical sciences*  
**at Alfraganus University, Tashkent.**

**Introduction.** By the end of XX century to researchers – social scientists have accumulated a wealth of methodological tools and terminological apparatus for characterizing the processes of stratification in modern societies. However, with regard to Uzbekistan studies of this kind are in the initial stage. This is due to a number of factors relating to, first, the terms of humanitarian development, including historical and social science, and secondly, the complexity of the problems of the modern guest transit period.

Meanwhile, the formation of the market environment and the occurrence of the global economic space motivate the importance of studying the transformation processes in the social structure of the population in terms of the sovereign development. As part of this article examines changes in financial position and income levels of Uzbekistan, characterized by mixed stratification processes transit period. To carry out such studies, in our opinion, the most preferred is the analysis of changes revenue potential of the population, most objective adequately reflect changes in the social structure that occurred and are occurring in the country in the post-Soviet period. In this case, despite the complexity of the definition of an indicator or set of indicators that would be most appropriate to the actual financial position of the individual layers, groups, income potential can serve as the basis for the relative isolation of groups

on the basis of: the poor - middle income - the rich. Following the formal logic, they can be represented social group, located at the yield sign in a hierarchical axis of the standard of living and consumption.

**Methods.** The article used the methods of comparative, quantitative and system analysis, interviews and personal observation. The scientific novelty of the research is as follows:

In Uzbekistan, due to high population growth rates and large families, an increase in the number of unemployed, a significant part of the population living in rural areas, lack of stable income, poor economic development of the region and the emergence of labor migration, affected the smooth progress of reforms in the social sphere;

it is proved that socio-economic changes in the conditions of independence were reflected in the life of the population, the population was impoverished and the funds allocated for their social protection did not reach the population due to the irresponsibility of officials.

**Results and Discussion.** It is well known that for many decades, the former Soviet Union formed "triad" of social division, the characteristic matrix of the socialist structure of society (the working class - the peasantry - the intelligentsia), subsequently served as a potential base for the polarization of society in terms of market reforms. Meanwhile, this division can be considered more illusory, does not reflect the reality of living standards and material wealth of the population, both in Uzbekistan and in the country as a whole. In each stratum could attend at least three layers (rich-poor-average) is distributed in living standards and incomes.

Due to objective and subjective reasons associated with the collapse of the former Soviet Union and the disintegration of economic space, the representatives of the "triad" in large part been sidelined social change, and their material prosperity, as well as the economic situation has

deteriorated. Naturally, this process affected, and Uzbekistan, where the transformation of the social structure proceeds with its own characteristics.

Statistical materials of the Soviet period indicate that the standard of living and material prosperity of the population of Uzbekistan, as well as many other socio-economic indicators [1], compared to the European part of the former Soviet Union, were significantly lower throughout the existence of the USSR. It should be noted that in the absence of private property and statistics features of the period, one of the main criteria of the standard of living and income security of the population was of durable goods, although in terms of egalitarianism and income had little importance. Comparative data are presented in Table. 1-3.

**Provision of the population of durable goods (End of year) units.**

Durable goods	Per 100 families						Per 1000 people					
	1985	1990		1991	1992	1993	1985	1990		1991	1992	1993
		USSR	Uzbekistan					USSR	Uzbekistan			
Watches	508	565	496	539	497	451	960	1701	907	963	904	820
Radios	101	96	95	97	89	82	188	290	173	172	161	148
TVs	86	107	90	87	79	72	159	321	164	156	144	130
Tape recorders	33	55	49	51	47	43	60	165	89	91	85	79
Cameras	23	33	21	23	22	21	43	100	38	41	40	38
Refrigerators and freezers	80	92	80	78	73	68	150	276	150	140	132	123
Washers	57	75	67	68	63	58	106	226	123	121	114	106
Vacuum cleaners	20	48	29	30	28	26	37	143	53	53	50	47
Motorcycles and scooters	19	20	26	22	20	18	34	60	47	40	36	32
Bicycles and mopeds	100	59	97	97	86	77	185	179	168	174	157	139
Sewing Machines	78	61	76	76	71	66	147	179	144	136	129	120

From the above data suggest that in terms of the number of families the end of the Soviet era security of the population of durable goods in Uzbekistan was at an acceptable level. However, per 1,000 people. srednesoyuznye population and national figures are much different and really reflect the level of material prosperity Uzbeks [2, p. 279].

Other statistical data analysis also confirmed that Uzbekistan compared to the individual republics of the former USSR, was much slower than for prosperity. For example, in Russia, Kazakhstan, Georgia, almost every family had a refrigerator, Armenia, Estonia, Turkmenistan, Latvia 100 families had refrigerators 106-112, while in Tajikistan, Uzbekistan, Azerbaijan, every fourth - sixth family "get along" without him. Provision of cars on the Union was on average in 1990 to 100 families 19 pcs. (In 1980 - 10 pcs.), per 1,000 people. population, this figure was 58 pcs. (In 1980 - 30 pcs.) In Uzbekistan, these figures were respectively 11.9 and 21.9 pc [3, p. 226].

At the same time, it should be noted, to "build up" raw orientation rooted in the colonial period and to take biased in the Soviet period was the cause of formation in the country "imported" economy. Until the 1990s, most of the consumer goods were imported from abroad, including 100% of TV sets, washing machines, vacuum cleaners, cars, about 40% of cotton fabric, 30% of all shoes, etc [4, p. 12-13].

Low supply of durable goods was partly a result of complex (with several family nuclei) feature of families. In addition, numerous traditional family structure, and adversely affect the economic situation of the population. Thus, the average family size in the country at that time was 5.5 people., In some regions of the country over 6 people [6]. Whereas in the European part of the USSR, the figure was only 3.2 persons. Experts estimate that the birth of a child family member income decreased by 25-

30%. For comparison we present data reflecting the state per capita income in the country as well as in Uzbekistan (see: Table. 2)

**Distribution of population by average per capita income (based on household budget survey).**

Index	Average annual population figure								
	Million persons				Percentage of total				
	1985 г.		1990 г.		1985 г.		1990 г.		
	USSR	Uzb ekist an	USS R	Uzb ekist an	USS R	Uzb ekist an	USS R	Uzb ekist an	
Including a total average per capita joint income per month, rub.:	277,2	18,2	288,4	20,4	100	100	100	100	
до 75,0	49,6	8,9	22,3	6,9	17,9	49,3	7,7	34,1	<b>Low</b>
75,1–100,0	54,8	4,3	30,6	4,7	19,8	23,7	10,6	23,0	
100,1–125,0	53,6	2,3	39,5	3,3	19,3	13,0	13,7	16,6	<b>Average</b>
125,1–150,0	41,7	1,2	41,4	2,0	15,0	6,8	14,3	10,2	
150,1–175,0	28,9	0,6	37,9	1,3	10,4	3,5	13,2	6,4	
175,1–200,0	18,6	0,3	31,1	0,8	6,7	1,7	10,8	3,8	<b>High</b>
200,1–250,0	19,0	0,2	43,1	0,7	6,9	1,4	14,9	3,7	
more than 250	11,0	0,1	42,5	0,4	4,0	0,6	14,8	2,2	

In general, summarizing indicators of table. 2, it can be concluded that in 1990, 57.1% of the population had incomes below 100 rubles. per month, and in the Union, this figure was only 18.3%, "medium" level of wealth was, respectively - 33.2% and 41.2%, "high" - 40.5% and 9.7%. According to official data, in 1989 44% of Uzbekistan's population lived below the official poverty line and in the Union, this figure was 11.1%.

However, a significant impact on earnings had established structure of employment. The rapid population growth in the second half of XX century., And formed a lopsided economy of the republic exacerbated the problem of employment. Made in 1992, calculations showed that in the last years of the Soviet Union 14% of the economically active population of Uzbekistan turned out socially useful work [6, p. 18]. (5.5% compared to the other republics), with 9 out of 10 unemployed were women. This trend is even more acute in the early 1990s, when, on the one hand, Uzbekistan's

economy is experiencing a severe crisis, and on the other, in parallel with the formation of a mixed economy began to emerge the new stratum of society.

Meanwhile, the statistical office of the republic in the early 1990s, working on an established scheme, reporting continued to record data on the already well-established strata of the previous era [7, p. 18]. Analysis of statistical data for the period showed that the per capita income of the families of workers and employees (based on household budget survey) per month in 1993 was 12,742.5 rubles., Including industrial workers - 17,263.6 rubles., State farm workers - 7085.1 rubles.; farmers - 8056.1 rubles. A single pensioner - worker or employee, who lived in urban areas in 1993 - RUR 15,107.3. per month, pensioner farmers - 13,375.4 rubles. Averaged data are shown in Table. 3.

**Distribution of the population of Uzbekistan by average total income in 1993 (calculated according to the household budget survey).**

Index	The population figure ths.	Percentage of total	Performance *
Население	21703,0	100,0	
Including average per capita joint income per month, rub. *			
Until 1500	47,7	0,22	Low
From 1501 – to 3000	967,2	4,46	
3001 – 7000	7423,4	34,20	
7001 – 10000	5004,9	23,06	
10001 – 13000	3244,1	14,94	Average
13001 – 17000	2416,4	11,14	
17001 – 20000	983,1	4,53	
20001 – 22000	426,8	1,97	High
22001 – 24000	306,8	1,41	
24001 – and above	882,6	4,07	

Based on data from Table. 3, it can be concluded that an increase in per capita income with low layer "average" for some reduction remained

almost at the same level - 30% (in 1990 - 33%). It should be taken into account at the time carried out by an active social policy that covered almost the entire population and aimed at its protection from the harsh poverty [8].

The post-Soviet experience of construction shows that the development of a market economy involves more diverse than it was in Soviet society, the social structure. Due to the difficulties associated with the transition period, representatives of the "old" layers, the level of income refers mainly to the middle classes - the intelligentsia, at the initial stage of reforms have undergone dramatic changes in their social status, prestige, income, and role in society and as a result their share as "medium" in the social hierarchy is much underplayed. Thus, the costs associated with budgetary difficulties are inevitable in the process of large-scale reforms, which were carried out in Uzbekistan in the early 1990s, affected the state of the material-technical base of educational institutions, as well as stimulating the work of teachers. In particular, prior to the adoption of the State Program for Training in Uzbekistan in 1997, the level of teachers' salaries in the mid-1990s, the average was only 60-65% of the national average [9].

### **Stratification changes in the conditions of sustainable development**

If the socialist reality, almost all revenues were formed mainly due to wage and authority to strictly regulate the property status of citizens, in the conditions of trade and market relations sources of income undergone significant changes. Gradual transformation of the economic system from a planned to a market are adequately reflected in the collections of the Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan, where the classification structure cash income are as follows: this included income from business activities, salaries, social benefits, income from property and

rather complicated position in its content - other income, including hidden wages (the latter as a percentage of total income) [10, p. 3].

However, according to experts, by 2005, the republic formed is not the optimal structure of income: the share of wages in total income of the population was less than 40%, while in countries with developed market economies, the proportion was more than 75% of the total income households. While in rural areas the share of wages - less than 20%. At the same time, the revenue accruing to the family in the form of social transfers (pensions and benefits) are quite high - about 20%, including pensions accounted for about 13% of all household income. Excessively high as compared with other states, the income from the sale of products produced on peasant farms - about 35% of the total household income. But, according to experts, such a high level could be justified in the 1990s in the early stages of economic reform when dehqon farms use tax preferences to support household incomes during the economic downturn. However, at the present stage of economic development the share of this type of income should be reduced, giving way to the income from business in the form of wages. The proportion of income from entrepreneurial activity, then it during the study period was quite high - about 20%. However, excessive growth it may indicate an enhancement of differentiation by income as income from business concentrated only in a minority of households. It should take into account regional differences. This applies, above all, the relation of these indicators. In Tashkent and Navoi region, for example, the highest share of income from wages [11, p. 16].

In order to identify social attitudes and self-perception of citizens Center for the Study of Public Opinion "Ijtimoiy Fikr" conducted a rapid survey of citizens on the topic "Social Monitoring - social self-awareness of citizens." According to the study, the level of material support of 33.1% of

respondents identified themselves as average and 54% - to the layers "below average" (Table 4).

**To what social class you belong and your family? (% of respondents)**

1,4	33,1	53,9	7,4	4,2
Rich	Middle layer	Below average	Poor	Refusal

Judging by the results of the study, it can be argued that the indicators Self-assessment of respondents for this period are quite high. Promote positive changes in reforms implemented in Uzbekistan, the favorable situation on the world market resources (from the beginning of the XXI century.), Which resulted in a gradual increase in national income, which is the result of increased productivity and, as a rule, evidence of employment growth or an increase in salary board. According to research conducted by UNICEF since the mid-1990s in Uzbekistan, there is increase in the average level of real wages, and by the end of the 1990s she was stabilized, indicating that people with low wages also benefited from economic growth in country [12, p. 194].

About the latest developments in income and financial situation of the population in Uzbekistan since independence can be judged by the results of the study "Resource mobilization household» (FAM - Family Assets Mobilization) [13, p. 19], conducted in 2009 by the Center for Economic Research in cooperation with the United Nations Development Programme "Support to Reform Process in Uzbekistan". For the period 2003-2009. total assets households in the country (in Uzbekistan over five million households) increased three times and was estimated at \$ 87 billion analysis of data on household income leads to the main conclusion in Uzbekistan has been an increase in income, both nominal and real.

Whereas in 2003 the total value of all assets of the surveyed households was less than \$ 6,400 per family on average, or a scale republic around \$ 35 billion (roughly estimated), while in 2009, excluding the size of savings, the cost of home appliances and unevaluated the value of land, the total assets of the main country's households (real estate, vehicles, equipment, livestock) amounted to about \$ 17,000 per household [14, p. 86].

In addition to real estate and technology in Uzbekistan on the growth of incomes and living standards of the population affected by domestic animals. In terms of durable goods, available in working condition in families also have been significant changes. In 2003, most of the durable goods available to the families had from age 10 to 20 years, is in a strong state of disrepair and needed constant repair and investing. In 2009, more than 30% of the property at the basic heading (televisions, audio, video, etc.) has been acquired in the period from 2003 to 2009 has undergone substantial renovation and park personal vehicles - according to the survey, over 66% of cars were purchased by families for not more than 7 years. Twice as increased fleet of trucks. Sharp increase occurred at positions that in 2003 almost not been claimed population because of high prices - mobile phones, satellite dishes, computers, microwave ovens, DVD, etc.

These opinion polls are confirmed by statistical data authorities (see Table. № 5).

**Provision of the population durables (the amount of goods per 100 households) units.**

<b>Durable goods</b>	<b>1990 y.</b>	<b>2000 y.</b>	<b>2010 y.</b>
TVs	90	88	132
Refrigerators and freezers	80	86	99
Conditioners	9	11	18,5
Vacuum cleaners	29	30	37

PCs	-	0,2	12
Cameras and video cameras	21	21	24
VCRs, DVD players and video players	1	31	64
Washers	67	69	75
Mobile Phones	-	18	145
The number of cars per 1000 population, units.	21,9	38,9	51,5
The number of cars per 100 households, ed.	11,9	20,1	27,1

However, the steady growth of material reserves indicates the presence of significant reserves to boost incomes and living standards of the population and the growth of the middle strata in their composition. An important role to play in enabling measures of household assets, taken at the level of the center, and in the field. Most effective in this regard runs microcredit for development of family business.

Evolutionary approach consistent and gradual transition to a market economy, political and macroeconomic stability enabled Uzbekistan intense than in many post-Soviet countries with economies in transition, to overcome the effects of large-scale decline in production and since the mid-1990s to resume economic growth and rising living standards [15].

Clear evidence of the effectiveness of successive Uzbekistan and socio-oriented economic reforms is sustained growth of per capita indicators of socio-economic development and living standards. GDP per capita, calculated (based on World Bank data) at purchasing power parity (PPP) in 1990 was \$ 1328 in 2000 - \$ 1431 and in 2010 reached \$ 3271. Thus, Uzbekistan still in the 90s of the last century on this important indicator exceeded the pre-reform level, and by 2010 it increased 2.5-fold (compared with 1990).

It should be noted that a high demographic pressure causes the relatively low levels of per capita income. If you take the comparison of GDP per person employed in the economy, you can see her real qualitative differences. So, if in 1990, each employee in the economy accounted for the equivalent of \$ 3412 of GDP, in 2000 - \$ 3928, and in 2010 - an average of \$ 7940, or 2.3 times more than in 1990. We can assume that if the composition of families Uzbekistan would match the level of developed countries, the income increased to approximately twice that would be reflected favorably on the standard of living of the population [16, p. 23].

Parallel measures to mitigate the negatives sharp polarization of society undertaken by the republic's leadership to increase the income of the population, allowed to form the country's growing middle class. According to official estimates, in 1990 in the country at a fraction of the population with middle income countries accounted for about 18% of the population, and in 2000, from a survey of households - 24%, in 2010 60% of households had no cash income stable below average.

The experience of developed countries shows that in a market way out of this situation is to create favorable conditions for the formation and development of the middle strata through the creation of a class of owners-entrepreneurs. This postulate is reflected in the priority areas of economic reforms in Uzbekistan. Uzbek President Islam Karimov, seeing them as a prerequisite to assess the effectiveness of reforms, pointing to the stability of the entire system of economic, social and political institutions, noted that "... small business and entrepreneurship... are an important part of the process of establishing in Uzbekistan middle class of owners, foundations and supports socio-political life of the country".

A natural question arises: why the country's leadership pays special attention to limit sharp polarization of society (in the property plan)? According to experts, "inequality affects poverty reduction depends on

economic growth." So exceeding a certain threshold of inequality, on the one hand, it may deepen the socio-political polarization of society, in the form of use of social benefits (health, education), opening their own business, participation in government (political life), on the other hand, has a negative impact on growth GDP (sots.ek. apathy, falling economic efficiency) and ultimately increases socio-political instability. Particularly dangerous for any society is the sharp transitions from equality to inequality and vice versa.

In addition, the level of socio-political stability, economic development in the country affects the status of the various strata. Her deterioration or improvement respectively may affect the state especially the "temporary", regardless what position they occupy in the hierarchical social structure of the population axis. Thus, the need for temporary sale of its assets (land, houses, consumer durables), taking extreme steps go into "permanent". This trend is reflected in the permanent state of the next generations, handed "inherited."

**Conclusion.** In general, in the country the measures taken by the social protection of the population, prevent the possibility of a sharp polarization of the population by income level. According to President Islam Karimov "due to the rapid increase wages and incomes of socially vulnerable groups, providing them with support and tax incentives, with a total income growth in the last ten years by 8.1 times, the gap between the groups with the lowest and highest income, in other words, income differentiation ratio decreased from 21.1 to 8.3 times. This factor is one of the lowest among the CIS countries and a number of economically developed countries". The indicator for the whole country is at an acceptable level - the difference in incomes of the wealthiest 20% and the poorest 20% of citizens is 8.4 times.

Thus, the transformation processes of the last two decades in the socio-economic sphere of Uzbekistan have brought profound changes in the

social structure of society. Undergone significant changes in the economic relations of countries, expressed in changing relations of property and power. Along with them is a restructuring mechanism stratification intensive change of elites. However, data such as social statistics, and polls show the stability of the market reforms in the country and increase the role of personality in their implementation. Since the second half of the 1990s. upward trend in material well-being of citizens, which is the result of quantitative and qualitative changes in the standard of living of the population of Uzbekistan. On the "stage" of social and economic life came new social groups, certain segments of the population are changing their social status, where the main trend of increasing acts of the middle strata of society. And finally, the difficult conditions of a transition period had a positive impact on the socio-economic mobility Uzbeks, on the one hand, reducing their dependency on the other, the growth of economic activity and independence.

### References:

1. Vishnevsky A. G. The Sickle and the ruble: conservative modernization in the USSR. Moscow, 1998.
2. Karimov I. Uzbekistan: national independence, economy, politics, ideology., Vol. 1. - T., 1996. –P. 279.
3. Latsis O. R Fracture: the Experience of interpretation of unclassified documents. - M., 1990. –p.p.226.
4. Valovoy D. V. Secrets of the Kremlin's Oval hall. - Moscow: "Truth", 1991. –P. 12-13.
5. Karimov I. Uzbekistan: national independence, economy, politics, ideology., Vol. 1. - T., 1996. –p. 280.
6. Rashidov U. On the role of cooperation in the stabilization of the domestic consumer ring / / domestic science in Uzbekistan. - 1990. - № 11. –p. 18.
7. Rashidov U. On the role of cooperation in stabilizing the internal consumer ring ... P. 18.
8. When calculating the gross output of any economic Association of any network of all industries or industries in which there is an indissoluble

economic connection with each other, it was possible to avoid the real situation when determining the amount of output produced by them when adding their products. More precisely, aganda causes an increase in these indicators. For example, if the fabric produced was counted as a product of the textile industry, then its further recalculation when calculating the product of the clothing industry was made with wax. This process was also observed at later stages.

9. Since the time of Joseph Stalin in the industry of the USSR, the share of heavy industry has always been dominant. By 1986, the share of Group A (production of means of production) in the total volume of industrial production was 75,3 percent, Group B (production of consumer products) – only 24,7 percent. In the same period in the US, this figure is equal to 53.8 percent and 46.2 percent, respectively. Also, by 1987 year, compared to 1917 year, the products of Group B in the Union grew 103 times, and Group A-705 marotaba. A similar unity is evident in the industrial development of Uzbekistan. Sources: National economy of the USSR for 70 years. Jubilee statistical journal. - M.: "Finance and statistics", 1987. –P. 128.; Economic issue / / 1991, № 8, P. 4 Maslovskiy L. lagging the USSR from the USSR in the 1970-1980-s.

10. The economy of the USSR v 1990 - Moscow, 1991. –p. 3.

11. Ziyadullaev S. K. Economy of the Uzbek SSR in the conditions of reconstruction. - T., 1988. –P. 16.

12. National economy of the Uzbek SSR in 1990. Statistical yearbook. - T., 1991. –p. 194.

13. Rakhmatullaev Sh. Economic transformation processes in Fergana Valley (1991-1996 years). - Tashkent: "Nishonnoshir", 2017. P.19.

14. Main trends and indicators of economic and social development of the Republic of Uzbekistan during the years of independence (1990-2010) based on the forecast 2011-2015. Statistical compendium. T., 2011. P.86.

15. AlikhanAman. Population migration in Uzbekistan (1989-1998). UNHCR. – Tashkent, 2000. – P. 70. (Experts of the country explain the rapid growth of the population in Uzbekistan that the policy of encouraging birth in the Soviet period was carried out primarily for the defense capability of the country, taking into account the interests of the former Union. In this situation, conscripts from the republics of Central Asia, including Uzbekistan (for military service) formed an increasingly large part of the Armed Forces of the USSR.. See: National report on human development, 2005. Decentralization and human development. Uzbekistan 2005. UNDP/CER. C. 40.)

16. Impact of economic growth on reducing the share of the low-income population of Uzbekistan. (IFMR, UNDP, Uzbekistan). - T., 2012. –P. 23.

**O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI****TARIX TA'LIMINI SIFATLI TASHKIL ETISH MEKANIZMLARI****t.f.n., dos. O.Rahmatullayeva****Toshkent amaliy fanlar universiteti****“Tarix” kafedrası mudiri.**

Hozirgi kunda ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda: qonun ustuvorligini ta'minlash, inson manfaatlariga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, inson huquqlari, ta'lim tizimini takomillashtirishda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritish, yoshlarga jiddiy e'tibor masalasi kabi muvaffaqiyatlardir.

Har yili davlat rahbari tomonidan ilm-fan, ta'lim taraqqiyotiga e'tibor kuchaymoqda. Jumladan, 2020 yil 30 oktyabrda Prezident raisligida ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham ko'plab masalalar muhokama qilingan, ta'lim sohasiga strategik vazifalar qo'yilgan edi. Unga ko'ra *o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki mulohaza va fikrlashga chorlaydigan metodikani yaratish zarurligi*, bu borada Finlyandiya va boshqa xorijiy ta'lim tizimi tajribasini o'rganish vazifasi qo'yilgan edi.

2023 yil “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir, degan muhim ta'lim strategiyasi qilib belgilab olinib, bunda Prezident alloma Yusuf Xos Hojibning quyidagi fikrini keltirgan:

*“Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi,*

*Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi”.*

Keyingi yillarda boshqa ta'lim sohalarida rivojlanish bo'lgani kabi, tarix ta'limida yutuqlarga erishilmoqda. Xususan, tarixiy manbalarning

tarjimalarining ilmiy muomalaga kirishi, qator dissertatsiyalarning amalga oshirishi tarix fanini ilmiy yangiliklar bilan boyitishi, “tarixni raqamlashtirish”, “elektron darsliklar”, o‘quv adabiyotlari elektron bazasining shakllantirilishi, “O‘zbekiston tarixi” kanalida tarixchi olimlarning mualliflik ilmiy chiqishlari, Xalqaro forumlaridagi ilmiy ma‘ruzalarda fan taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi. Aslida bu to‘xtashi kerak bo‘lmagan jarayonlar bo‘lib, shundagina jamiyatda taraqqiyot ilgarilaydi.

**Amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, tarix ta’limi sifatiga ta’sir etuvchi quyidagi ayrim muammolar borki ularni bartaraf etish bugungi kun olimi va pedagogiga qiyinchilik tug‘dirmaydi, ko‘p vaqt va mablag‘ talab etmaydi:**

***Tarix ta’limini tashkil etish bo‘yicha:***

- ilmiy salohiyatning 70 % dan kam bo‘lishi;
- ayrim holatlarda ta’lim tizimida hujjat ishining mavjudligi, professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun qog‘ozbozlik saqlanib qolish holatlari;
- kredit-modul tizimi asosida talabalarning professor o‘qituvchilarni tanlashda raqobatbardorlik ta’minlanishi masalalari;
- o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy talab, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida tashkil etish, talaba bilan kredit modul modul talabi asosida individual ishlash mexanizmlari;
- tyutorlar va mentorlarning talabalar bilan hamkorlikda o‘quv-pedagogik jarayonda ishtirok etishi, talabalar bilan maqsadli faoliyatining yo‘lga qo‘yilmaganlik holatlari;

***O‘quv-metodik ta’minot bo‘yicha:***

- tarix fani bo‘yicha konsepsiyaning yo‘qligi, tarixiy atama va terminlar unifikatsiyasi, davrlashtirish masalalari yakuniga yetmaganligi;
- OTMlarning xorijiy elektron o‘quv adabiyotlari bazasiga ulanish zarurati;
- tarix fani bo‘yicha xrestomatiyalar tanqisligi;

- o'quv dasturlari asosida didaktik materiallarning yangi avlodining ishlab chiqish masalalari;
- tarix bo'yicha yagona elektron darsliklar, multimediya bazasini ishlab chiqish masalalari;
- o'quv adabiyotlariga ilmiy tadqiqot natijalarining joriy etilishi masalalari;

### ***O'qitish metodikasi bo'yicha:***

- mualliflik asosidagi o'qitish metodlari va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, ommalashtirish masalalari;
- bilim, ko'nikma, malakalarni nazoratida nazariy bilimlarga tayanishning ustuvorligi, amaliy jihatga yetarlicha e'tibor qaratilmaslik holatlari;

Ta'lim sifatini - ta'lim metodikasi ta'minlashini inobatga olgan holda, ta'lim yodlashga emas, tahlil qilishga o'rgatishi haqida Xitoy faylasufi Konfutsiyning g'oyalari ayniqsa bugungi kunda pedagogikaning asosiy qoidasi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tarix ta'limini sifatli tashkil etishda tarixchi pedagogning ***kasbiy, shaxsiy, metodologik*** kompetensiyalarni rivojlantirib borishi, shuningdek talabalarda ham ***amaliy kompetensiyalarni shakllantirish va baholash*** talab etiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirish va baholashda tarixchi pedagogdan vaqt va pedagogik, metodik bilimlar va fidokorlikni talab qiladi. Mualliflik o'qitish metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish, bunda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanilinish ustuvor hisoblanadi.

Bunda ***xalqaro tajribalardan umumli foydalanilayotgan faol ta'lim usullari*** qo'llangan mashg'ulotlar, jumladan, xatto ma'ruzalarga ham talabalarning faol ishtirokini kiritish, buning uchun ma'ruza-suhbat, muammoli ma'ruza, anjuman-ma'ruza, konspektsiz ma'ruza, mualliflik

ma'ruzasi, munozarali ma'ruza, qaytar aloqadan foydalanilgan ma'ruza, aniq vaziyatlarni ko'rib chiqish ma'ruzasi yaxshi samara beradi.

Kompetensiyalarni shakllantirish, nazorat qilish metodlarida xalqaro tajribalar, jumladan, talabalar bilan individual, kichik guruhlarda ishlashi talab etiladi. Shuningdek, Assessment metodi, o'quv konferensiyalari (Didactic conferences), rolli modellashtirish (Role modeling), rolli o'yinlar va vaziyatli topshiriqlar (CASE study, video), jurnalistik klub (Journal Club) – maqolalar muhokamasi, ustoz-shogird tizimi (Mentoring) qiziqishini rivojlantirish Simulyatorı (Simulation), individual va guruhli loyihalar (Individual or group projects), tadqiqotchilik loyihalari (Research projects), va boshq.

An'anaviy baholashda o'quv dasturlari talabidan chiqmagan holda asosan nazariy bilimlarni o'zlashtirishga va atalabalarning passiv ishtirokiga tayanilsa, *kompetensiyalarni baholashda* nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va erishilgan kompetensiyalar baholanadi. Xususan, tushunish, anglash, amalda qo'llay olish, fikrlashga qaratilgan va muhimi talabalaning faol ishtirokidagi o'quv mashg'ulotlari amalga oshiriladi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu metodlar tarixchi pedagogdan vaqt va o'z ishiga butunlay fidokorlikni talab qiladi. Oliy ta'limda egallanadigan kasbiy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga xizmat qiladi. O'rganilgan nazariy bilimni amalda, tajribada sinab ko'rish ko'rish yo'li bilan uni mustahkamlaydi, kasbni egallashga yo'l ochadi. Laboratoriya ishlari tadqiqot tavsifiga ega bo'lib, kuzatish, tajribada sinab ko'rish yo'li bilan masala (muammo)ga doir faktlar to'plash, ularni umumlashtirib, nazariy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Kompetensiyalarni baholashgina ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bu bizga quyidagi xulosalarga kelishga asos bo'ladi:

- nazariy bilimlarni baholash bilan amaliy natija va yuqori samaraga erishib bo'lmaydi;

- tarix ta'limida tajribamizda kam qo'llanilayotgan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga e'tibor berilishi, bunda individual amaliy loyihalarni bajarilishi ko'zda tutilishi kerak;
- kompetensiyalarni shakllantirish va nazoratini amalga oshirishga doir metodik bilimlarni rivojlantirish talab etiladi.

## **MILLIY-MA'NAVY MEROSDA KOMIL INSON HAQIDAGI QARASHLARNING TARIXIY-FALSAFIY ILDIZLARI**

**D. T. Amridinova**  
**Toshkent amaliy fanlar universiteti,**  
**“Tarix” kafedrası**  
**falsafa fanlari doktori (DSc).**

O'zbek xalqi mustaqilikka erishgach o'tmish ajdodlar qoldirgan boy falsafiy merosni o'rganish va uni qayta tiklashga musharraf bo'ldi. Fan va madaniyat namoyandalarining falsafiy asarlarida ifodalangan ma'naviy-axloqiy g'oyalar jamiyat taraqqiyotida, ayniqsa, yoshlarda ezgulik va iftixor tuyg'usining rivoj topishida muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda, ularda tabiat, jamiyatning kelib chiqishi, rivojlanishi haqida tasavvur hosil qilishda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy - falsafiy merosning o'rni muhim. Ushbu falsafiy merosdan foydalanish hozirgi vaqtda mustaqil davlatimizning oldida turgan dolzarb vazifadir.<sup>1</sup>

Komil inson g'oyasi xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismidir. Komil inson g'oyasi zardushtiylarni muqaddas kitobi «Avesto»da, Qur'oni Karim va hadislarda, tasavvuf falsafasida, Sharq mutafakkirlari asarlarida o'zining ifodasini topgan. Milliy tariximizda ham komillik timsollari bir necha manbalarda bayon etilgan. Jumladan azaldan

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил 20 сентябрь, № 189 -сони.

Alpomish xalqimizning ideal qahramonlari qatoridan joy olib ulgurgan. Alpomish yuksak jismoniy kamolot, aql va fahm-farosat, mardlik va vatanparvarlikning timsoli sanalgan. Hazrat Alisher Navoiy asaridagi Farhod obrazi ham komillik timsoli bo'lib, buni mutafakkir quyidagicha ta'riflagan.

Demakim, ko'ngli poku ko'zi pok,

Tili poku, so'zi poku o'zi pok.

Muningdek tiynati pokiga loyiq

Duosin aylabon poki xaloyiq<sup>1</sup>

Ta'kidlash joizki, “ma’naviy barkamol inson” (“komil inson”) tushunchasi islom falsafasida Muyiddin Arabiy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning e’tirof etishicha, barkamol inson Muhammad Payg‘ambar timsolida o‘z ifodasini topgan. Aziziddin Nasafiyning fikriga ko‘ra, “Yaxshi so‘z, yaxshi fe‘l, yaxshi axloq va maorif”<sup>2</sup> ni o‘zida mujassamlashtirgan har qanday kishini barkamol inson deyish mumkin. Barkamol inson uchun xalqqa naf keltirish, birovlarining mushkulini yengillashtirishdan boshqa muddao bo‘lmaydi. Barkamol insonning butun sa’y-harakati halollikka, rostgo‘ylikka, ezgulikka qaratilgan bo‘lib, odamlarni mehribon bo‘lishga, bir-biriga ozor bermaslikka, hamdard bo‘lishga, ijtimoiy masalalar yechishda suyanishga chorlaydi. Aziziddin Nasafiy falsafiy qarashlarida barkamol inson boshqalardan yaxshilig-u yomonlikni zukkolik ila bilib olish qobiliyati bilan ajralib turadi, ya’ni ijtimoiy o‘zgarishlar bunday kishilar qalbdan boshqalardan avvalroq o‘z aksini topadi deb tushuntiradi. Shunday ekan, olamdagi mavjudotlar orasida barkamol insondan ulug‘roq, donoroq kishi yo‘q, chunki mavjudotning eng pastidan eng a’losigacha bo‘lgan martabalar barkamol inson martabalaridir, barkamol inson mavjudot xulosasi va qaymog‘idir.<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> Navoiy A. Tanlangan asarlar. / nashrga tayёрlaganlar: P.Шамсиев, С.Фаниева. –Тошкент.: Фан, 1991. 8-жилд, -Б.86

<sup>2</sup> Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. - Тошкент.: 1996. –Б.147

<sup>3</sup> Ўша манба. –Б. 149

Aziziddin Nasafiy, barkamol inson deganda, eng mukammal, eng aqlli, eng donosi, g'ayb sirlarini boshqalarga yetkazuvchi kishini tushunadi. Bunday kishida ilohiy xislatlar mujassam bo'ladi, o'zining yuksak ma'naviyati bilan butun koinotni qamrab oladi. Bunday kishilar hamisha bedor va hamma narsadan xabardor bo'ladilar. Barkamol inson jamiyat ichida shakllanadi, ya'ni azaldan martabasi aniqlangan ruh emas, balki ma'naviy – axloqiy poklanish jarayonida kamolotga erishadi.

Tarixdan ma'lumki, buyuk alloma bobolarimiz o'z falsafiy ta'limotlarida inson komilligi mezonlariga alohida to'xtalib o'tganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy inson komilligining tayanch manbai sifatida yetuk axloq, ma'rifatli va adolatli jamiyat g'oyasini ilgari suradi. Axloqiy fazilatlar negizida insonni komillik sari yetaklovchi xislatlar shakllanadi. Fozil inson g'oyasi Forobiy ta'limotida fozillik xislatlarini tarbiya etuvchi fozil jamiyat g'oyasi bilan uyg'unlashib ketgan. «Fozil odamlar shahri» asarida mutafakkir ahloqiy yetuklikka erishgan inson o'n ikki fazilatga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Bular: sog'lomlik; farosatlilik; kuchli hotira; zukkolik; sabr-qanoatlilik; ma'rifatparvarlik; notiqlik; haqiqatgo'ylik; oliyjanoblik; molparast bo'lmaslik; mardlik; adolatparvarlik.

Abu Nasr Forobiyning komillik fazilatlari turkumida keltirgan ushbu insoniylik fazilatlari avvalo insonning ma'naviy yetukligi hislatlari bilan uzviy bog'lanib ketgandir. Vaholanki, bugun biz o'zida komillik fazilatlarini mujassam etgan barkamol inson tarbiyasini ma'naviy – ma'rifiy ishlarimizning pirovard maqsadi deb bilar ekanmiz, yoshlar tarbiya insonparvarlik, vatanparvarlik, erkparvarlik va fidoyilik tuyg'ularini qaror toptirishda buyuk ajdodlarimiz belgilab o'tgan axloqiy fazilatlarni ustuvor deb bilamiz.

Shuningdek, G'azzoliyning asarlarida keltirilishicha, insonlar qanday ijtimoiy sharoitda yashamasin, ya'ni yaxshi kunlarida ham, yomon kunlarida ham o'zlarining boshlang'ich va o'zaro bog'liq aloqalari haqida

unutmasliklari kerak. Ular faqatgina birlashib va bahamjihat bo'lib yashaganlarida jamiyat ilgarilab taraqqiy topishi mumkin. Professor V.V.Naumkin bu iboralarga izoh berib quyidagilarni aytadi: «G'azzoliy taraqqiyot g'oyalarini ilgari suradi. Bu mukammallik konsepsiyasida ifodalanadi, bunday konsepsiya insonni taraqqiyotga olib boradi, bu yo'l esa, aqliy va axloqiy komilikka yetaklaydi»<sup>1</sup>.

Abduxoliq G'ijduvoniyning falsafiy qarashlarida inson dastavval ongi va shuuridagi salbiy illatlardan xalos bo'lmog'i darkorligi uning barkamollik maqomi sari ketishiga pillapoyadir. Komillik sifatlaridan biri bo'lgan boriga shukur qilishi, yo'qlikka sabr va nafsini jilovlash insonni mukammal sari chorlaydi.<sup>2</sup>

Xulosa o'rnida, Falsafiy tafakkur tarixida "komil inson" tushunchasi ancha qadimiy bo'lib, u barcha shoir va mutafakkirlar ijodidan o'rin olgan, shuningdek, bu g'oya jadidchilik ta'limotida o'ziga xos mazmun kasb etib, "ziyoli shaxs" qiyofasida gavdalanadi. Zerokim, ma'rifatparvar-jadidlar ham o'z faoliyatlarida insonning ma'naviy barkamolligi uchun har tomonlama xizmat qilganlar va bu borada muayyan natijalarga erishganlar.

## **O'ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSATI VA XALQARO MUNOSABATLARI TARIXIDAN**

**t.f.n. dots. F. Ismatullaev  
Nizomiy nomidagi TDPU**

Jahon tarixidan ma'lumki, globallashuv davrida mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan hech bir mamlakat o'z qobig'iga o'ralgan, xalqaro hajamiyatdan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo'lishi bilanoq jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'lini tutdi. O'tgan 32 yil davomida O'zbekiston Respublikasi ko'plab xalqaro,

---

<sup>1</sup>Абу Хамид Газали. Воскрешение наук о вере (Ихйаулум ад - дин). Перевод с араб., исследование и комментарий В.В. Наумкин. – Москва: «Наука», 1980. –С.84.

<sup>2</sup> Ўша манба.

mintaqaviy va moliya tashkilotlariga a'zo bo'ldi. Bu o'z navbatida O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida muxim rol o'ynadi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi va uning bosqichlarini ilmiy va tarixiy nuqtai nazardan ob'ektiv taxlil etish, o'rganish bu davrni bevosita ikki bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga movfiq. Bunda Birinchi bosqich, 1991 yildan 2016 yilgacha bo'lgan davr ya'ni bu Birinchi Prezident Islom Abdug'anievich Karimovning O'zbekiston Respublikasida Prezidentligi davri bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, bu davr O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi, keng ko'lamli islohotlarni o'tkazilishi, yirik xalqaro va moliyaviy tashkilotlarga qo'shilishi, tashqi siyosatining asosiy prinsiplari, ustuvor yo'nalishlari va strategiyalarini ishlab chiqilishi, Tashqi siyosat prinsiplari to'g'risidagi Qonun(1996 yil dekabr) hamda Tashqi siyosat to'g'risidagi Konsepsiyani(2012 yil iyun) qabul qilinishi, xalqaro bitim va shartnomalarni ratifikatsiya qilinishi kabi jarayonlar amalga oshirilgani bilan xarakterlanadi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashini kuchayishi ikkinchi davri 2017 ildan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrning o'ziga hos xususiyati, birinchi navbatda, O'zbekiston Prezidenti Shakat Mirziyoevning hokimiyatga kelishi bilan bog'liq. Uning ochiq, puxta o'ylangan amaliy va pragmatik tashqi siyosati jahon afkor ommasi tomonidan iliq qabul qilindi. Buni Sh. Mirziyoevning BMTdagi chiqishlari, Yevropa davlatlariga tashriflari va Markaziy Osiyodagi barqarorlikni saqlashga qo'shgan hissalarini xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotganligida ko'rish mumkin.

Albatta, bu davrni tarixiga e'tibor qaratar ekanmisiz, osonlik bilan kechmaganligiga guvoh bo'lamiz. Dastlab, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga ildamlilik bilan kirib borishga urinar ekan, undan qisqa davrda tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari, prinsiplarini ishlab chiqish

hamda xalqaro munosabatlarning huquqiy asoslarini shakllantirilishi kabi masalalar turar edi.

1991 yil 31 avgustda mamlakat Oliy Kengashining VI sessiyasida qabul qilingan “Mustaqillik haqidagi bayonot”da O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi yo‘li aniq qilib belgilab berildi. Jumladan unda: “Xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq sub’ekti sifatida qatnashadi, uning mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o‘z hududini qurol-yarog‘lardan holi qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarini yo‘qotish, suveren davlatlar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo‘l qo‘ymaslikdan iborat<sup>1</sup>”, – deb qayd etilgan. Shu asosda, qisqa muddat ichida, mamlakat birinchi Prezidenti I. A. Karimov boshchiligida O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatdagi faoliyatining asosiy tamoyillari ishlab chiqildi. Ular qo‘yidagilardan iborat edi:

- o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- mafkuraviy qarashlardan qat’iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

O‘zbekiston davlatning tashqi siyosiy faoliyatini belgilovchi asosiy tamoyillar O‘zbekiston Respublikasining bosh qonuni – Konstitutsiyada ham o‘z aksini topdi. Jumladan, unda: “O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tinchligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish,

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси: Мустақил давлатнинг бунёд бўлиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 8.

boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va me'yorlariga asoslandi. Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin<sup>1</sup>”, – deb qayd etilgan.

Tashqi aloqalarning qonuniy asosini yaratish jarayoni bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish izchil rivojlantirib borish mexanizmlarini zudlik bilan shakllantirishga kirishildi.

Shu tariqa O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi, chet ellardagi elchixonalari va konsullik xizmatlari tashkil etildi. Davlat uchun yangi bo'lgan xalqaro munosabatalar sohasini milliy kadrlar bilan muntazam ta'minlab borish maqsadida 1992 yil 23 sentyabrda mamlakat tarixida va Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib, Toshkentda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti ochildi<sup>2</sup>.

Qisqa davrda, O'zbekistonga, xorijiy mamlakat rahbarlari tashrifi amalga oshirildi. Fransiya tashqi ishlar vaziri Per Jeksonning 1991 yil 16 sentyabrdagi respublikaga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi aloqalar o'rnatilishining boshlanishi bo'ldi. Tashrifning O'zbekistonni ilk mustaqillikka erishgan kunlarida bo'lganligi Fransiyaning yosh mustaqil davlatga bo'lgan qiziqishi va u bilan hamkorlik o'rnatishga tayyor ekanligidan dalolat berar edi<sup>3</sup>. Aloqalarning davomini Yevropa Hamjamiyati elchisi M. Emersonning<sup>4</sup> O'zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatni o'rganish maqsadida kelganligida ham ko'rish mumkin.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – Б. 6.

<sup>2</sup> Нуриддинов Э.З. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан // Монография / - Тошкент: “Инноватсия-Зиё”, 2021, - С. 20.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Миллий давлат архиви (ЎЗР МДА). фонд – м-2, рўйхат – 1, жилд – 48. varaq – 30.

<sup>4</sup> Тюриков В., Шағулямов Р. Независимая Республика Узбекистан: памятные события и даты (1991–1996). – Ташкент: Ўзбекистан. – С. 6.

O‘zbekiston Respublikasi MDH mamlakatlari bilan ham siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi hamkorlikni saqlab qolish maqsadida 1991 yilning oxirigacha Ozarbayjon Respublikasi (19 oktyabr), Rossiya Federatsiyasi (26 oktyabr), Qirg‘iziston Respublikasi (31 oktyabr), Moldova Respublikasi (14 noyabr), Qozog‘iston Respublikasi (7 dekabr), Ukraina (28 oktyabr), Belarus Respublikasi (6 noyabr)<sup>1</sup> hamkorlik bitimlarini imzolagan. Qisqa davrda, O‘zbekiston Respublikasi bilan MDH davlatlari o‘rtasida ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikning huquqiy asoslari yaratildi<sup>2</sup>.

Respublika mustaqilligi e‘lon qilinganidan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov birinchi horij safarini Turkiyaga 1991 yil 16–19 dekabr kunlari amalga oshirdi<sup>3</sup>. Ikki davlat o‘rtasida “Savdo va iqtisodiy hamkorlik” to‘g‘risidagi Bitim, “Madaniyat, fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sport va turizm” sohalarida davlatlararo Bitimlar imzolandi<sup>4</sup>.

Keyinchalik, tarixan qisqa davrda mamlakat birinchi Prezidenti I. Karimov ko‘plab xorijiy davlatlarda bo‘lib, uning samarasi o‘laroq teng huquqli va o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi (1992 yil mart); Saudiya Arabistoni (1992 yil aprel); Koreya Respublikasi, Malayziya, Indoneziya (1992 yil iyun); Finlandiya (1992 yil iyul); Pokiston Islom Respublikasi (1992 yil avgust); Avstriya Respublikasi (1992 yil sentyabr); Eron Islom Respublikasi (1992 yil noyabr); Misr Arab Respublikasi (1992 yil dekabr); Germaniya Federativ Respublikasi (1993 yil may); Niderlandiya qirolligi (1993 yil iyun); Fransiya Respublikasi (1993 yil oktyabr); Shveysariya (1993 yil oktyabr); Buyuk Britaniya birlashgan qirolligi (1993 yil noyabr)<sup>5</sup> va boshqa mamlakatlarga qilingan rasmiy safarlar chog‘ida ikki tomonlama manfaatli hamkorlik aloqalariga asos solindi.

---

<sup>1</sup> МИД РУз // Страны, с которыми узбекистан установил дипломатические отношения. <http://www.mfa.uz>

<sup>2</sup> МИД РУз // Участие республики узбекистан в содружестве независимых государств. <http://www.mfa.uz>

<sup>3</sup> МИД РУз // Страны, с которыми узбекистан установил дипломатические отношения. <http://www.mfa.uz>

<sup>4</sup> МИД РУз // Управление стран азии и африки. папка о сотрудничестве республики Узбекистан с Турцией// [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz)

<sup>5</sup> Нуриддинов Э. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. – Ташкент: Чулпон, 2004. – С. 49.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi uchun asosiy shart-sharoitlardan biri bu – uning jug'rofiy-siyosiy jihatdan qulay mintaqada ekanligidir. Ma'lumki, O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining transport, boy hamda mustaqil energetika omillari markazida joylashgan. Bundan tashqari, O'zbekiston aholi soni, ilmiy-texnikaviy salohiyati, qulay tabiiy iqlimi, boy tarixiy o'tmishi, qadimiy dehqonchilik madaniyati va boy mineral xomashyo resurslari, paxta tolasi yetishtirish va eksport qilishga imkoniyati kattaligi, jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatga bardoshli meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishga hamda ularni qayta ishlashga qodirligi, neft va gaz mahsulotlarining eksport imkoniyati va yana boshqa jihatlari bilan mintaqada o'z mavqeyiga ega<sup>1</sup>. Qayd etish lozimki, hozirda O'zbekiston Respublikasi jahondagi 100 ga yaqin mamlakatga o'z tovar va mahsulotlarini eksport qilmoqda Shu bilan birga sanoatning eng zamonaviy tarmoqlari, masalan, mikroradioelektronika kabi murakkab sohani rivojlantirish imkoniyatiga ega.

XXI asr bo'sag'asida dunyo ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tubdan o'zgardi, inson va insoniyat, odam va olam taqdiriga daxldorlik hissi tobora kuchaydi. O'zbekiston yosh mustaqil davlat sifatida o'z mavqeyi va nufuzini mustahkamlash bilan birga dunyo ahlini jahon siyosatini isloh qilishga da'vat etgan davlatlardan biri bo'lib maydonga chiqdi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirib, ularning ishida faol qatnashayotganligini alohida ta'kidlash joizdir.

1991-2022 yillar oralig'ida O'zbekistonni dunyoni 180 ortiq davlati tan oldi<sup>2</sup>, shundan 138 ta<sup>3</sup> davlat bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> МИД РУз // политика узбекистана по развитию международного торгово-экономического сотрудничества. <http://www.mfa.uz>

<sup>2</sup> Сколько государств признали узбекистан как независимого государство? // <https://www.google.com/search?> мурожат этилган сана:26.08.22.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Панама билан дипломатик муносабатлар ўрнатди // Халқ сўзи. – 2021. – 21 март.

O'zbekiston Respublikasi hozirda 100 dan ortiq xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosi hisoblanadi<sup>2</sup>. Shu jumladan, BMT<sup>3</sup>, Jahon pochta ittifoqi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Xalqaro elektr aloqalari Ittifoqi, Xalqaro Rekonstruksiya va rivojlanish banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o'rnatib, a'zolikka qabul qilindi<sup>4</sup>.

BMTning Xavfsizlik Kengashi 1992 yil 29 yanvarda Bosh Assambleyaga O'zbekiston Respublikasini BMTga a'zo qilib olishni tavsiya qildi. O'zbekiston Respublikasi 1992 yil 2 martda xalqaro tinchlik, xavfsizlikni saqlash va hamkorlik tashkiloti bo'lmish BMTga a'zo bo'ldi<sup>5</sup>. O'zbekistonning davlat bayrog'i Nyu-Yorkdagi BMT bosh qarorgohi oldidagi dunyo mamlakatlari bayroqlari qatorida hilpiray boshlagani – xalqimiz, ajdodlarimizning azaliy orzusi – milliy istiqloimizning xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinganini ramziy ifodasi edi. Bu tarixiy voqea O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatdan munosib o'rin olishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi BMTning xalqaro va mintaqa masalalaridagi faoliyatida o'z nuqtai nazari hamda takliflari bilan faol ishtirok etib kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi respublikada BMTning taraqqiyot Dasturi, Sanoat taraqqiyoti Dasturi, qochoqlar ishi bo'yicha vakillari Oliy komissari, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, Aholi joylashish jamg'armasi, narkotiklarni nazorat qilish bo'yicha Dastur, Bolalar jamg'armasi<sup>6</sup>, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YuNESKO), Gender tengligi hamda ayollar huquq va

---

<sup>1</sup> 2021 йилда ўзбекистон республикаси Панама республикаси билан дипломатик муносабатлар ўрнатган 138 – мамлакат бўлди.

<sup>2</sup> МИД РУз // сотрудиничество республики узбекистан с международными организациями. <http://www.mfa.uz>

<sup>3</sup> Бирлашган миллатлар ташкилоти. асосий омиллар. – тошкент: бмтнинг ўзбекистондаги ваколатхонаси, 2001. – Б. 6;

<sup>4</sup> НГА РУз. Республика Узбекистан: членство в международных организациях. ф. м-2. оп, 1. д, 169. л, 38.

<sup>5</sup> НГА РУз. Республика Узбекистан: членство в международных организациях. ф. м-2. оп, 1. д, 169. л, 38.

<sup>6</sup> Халқ сўзи. – 1993. – 26 октябрь.

imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bo‘yicha tuzilmasi singari ixtisoslashgan muassasalarni o‘z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi<sup>1</sup>.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning xalqaro miqyosda tinchliksevar siyosat o‘tkazishi uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. 1993, 1995, 2000, 2010 yillarda bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining sessiyalarida O‘zbekiston birinchi Prezidenti I. Karimovning ishtiroki va undagi ma‘ruzasi O‘zbekistonni jahonga ko‘hna va navqiron davlat sifatida tanitdi. O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2017, 2020, 2021 yillardagi BMT minbaridan so‘zlagan nutqlari Yangi O‘zbekistonning ochiq, pragmatik tashqi siyosati, Orol muammosi, Afg‘onistonda tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi chiqishlari bilan ahamiyatli bo‘ldi. O‘z navbatida o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlanishida BMT Bosh kotiblari<sup>2</sup> 2002 yilda Kofi Annan<sup>3</sup>, 2010, 2015 yillarda Pan Gi Mun, 2017 yilda esa amaldagi bosh kotibi Antonio Guterrishni O‘zbekistonga tashrifi muxim rol o‘ynadi<sup>4</sup>.

Xususan, o‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan mintaqaviy va global muammolar yechimi bo‘yicha xalqaro tashabbuslar asosida BMT Bosh Assambleyasining 4 ta maxsus rezolyusiyasi qabul qilindi:

- “Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va barqaror taraqqiyotni ta‘minlash uchun mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash”;
- “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik”;
- “Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish”;

---

<sup>1</sup> Сойибназаров А. Тараққиёт йўлидан муштарак мақсадлар // Халқ сўзи. - 2021. - 2 март.

<sup>2</sup> Ўзбекистонга биринчи ташриф буюрган БМТ Бош Котиби Курт Вальдхайм 1972 йил 19-20 июль кунлари амалга оширилган. Манба: ЎЗР МДА. ф-2037, р- 7, ж-392, в-1.

<sup>3</sup> Абдимуминов О. Ўзбекистон Республикасининг бирлашган миллатлар ташкилоти билан муносабатлар тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. Тошкент. 2018. – Б. 16.

<sup>4</sup> О визите в Узбекистан генерального секретаря ООН // <https://www.un.int/uzbekistan/fr/news/>. Мурожат этилган сана: 28.08.22.

–“Orolbo‘yi mintaqasining ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e‘lon qilinishi”.

BMT Bosh Assambleyasining yuqoridagi qarorlarni qabul qilingani O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi sa‘y-harakatlari xalqaro miqyosda e‘tirofidir<sup>2</sup>.

O‘zbekiston o‘tgan davr mobaynida 200 dan ortiq universal xalqaro shartnomalar va konvensiyalarga<sup>3</sup>, shu jumladan, inson huquqlari bo‘yicha 70 ga yaqin konvensiyaga qo‘shildi<sup>4</sup>. Ular orasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar, iqtisodiy bitimlar, Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi, Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyalar bor.

Demak, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatining ajralmas qismi sifatida xalqaro integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. U tomonidan olg‘a surilgan tashabbuslar yirik tashkilotlar doirasida e‘tirof etilib, xalqaro xujjat darjasiga ko‘tarilmoqda. Bularning barjasi O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirib, xalqaro investor va xalqaro moliyaviy tashkilotlarning kirib kelishida ham muhim omil bo‘lmoqda.

## **TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA O‘ZBEKISTON VA TURKMANISTON O‘RTASIDA ILMIIY – MADANIY HAMKORLIK**

**D. B. Tojiyev**  
**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi**  
**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti**  
**tayanch doktoranti.**

XX asrning so‘nggi o‘n yilligi jahon tarixida ulkan o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bu davrda “sovuq urush”ning bosh aktorlari – SSSR va

---

<sup>1</sup> Парпиев М. Халқаро ҳамжамият ўзбекистон ташаббусларини қўллаб-қувватламоқда // Халқ сўзи. – 2021. – 21 май.

<sup>2</sup> Жаҳон ҳамжамияти ўзбекистоннинг конструктив ташқи сиёсатини қўллаб-қувватламоқда // Халқ сўзи. – 2020. – 31 март.

<sup>3</sup> Нуриддинов Э. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. – Ташкент: Чулпон, 2004. – С. 39.

<sup>4</sup> МИД РУЗ // сотрудничество Республики Узбекистан с международными организациями. <http://www.mfa.uz>

AQSh o'rtasidagi munosabatlar normallashtirishni boshlashi<sup>1</sup> barobarida Sovet Ittifoqining inqirozi ham kuchaydi. 1991 yilga kelib dunyo ahlini lol qilgan voqea – Sovet Ittifoqining rasman parchalanishi va yangi, mustaqil respublikalarning tashkil topishi sodir bo'ldi. O'zbekiston va Qirg'iziston 1991 yil 31 avgust kuni o'z mustaqilliklarini e'lon qilishdi hamda jahon xaritasida yangi davlat sifatida qayd etildi. 9 sentabr kuni yuqoridagi ikki davlat bilan chegaradosh bo'lgan Tojikiston ham o'zini bundan keyin mustaqil subyekt ekanligini dunyoga e'lon qildi. 27 sentabrga kelib Turkmaniston ham o'z nomidagi “ittifoqdosh, sotsialistik” jummlarini tarixda qoldirib, mustaqil respublikaga aylandi. Markaziy Osiyoda nufusi kam bo'lsada lekin eng katta hududga ega bo'lgan Qozog'iston biroz kechroq – 16 dekabrda kelib, Almatida bo'lib o'tishi lozim bo'lgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining birinchi sammiti<sup>2</sup> arafasida mustaqilligini e'lon qildi. Shu tariqa Markaziy Osiyoning yangi va mustaqil davlatlari butkul “ittifoqdosh respublikalar” atamasini tarix qa'riga jo'natdilar<sup>3</sup>.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston o'z qo'shnilari bilan keng miqyosda yaxshi qo'shnichilik, do'stona hamkorlik aloqalarini rivojlantirib kelyapti. Shu qatorda keng doiradagi xorijiy sheriklar bilan do'stona, o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishda muhim yutuqlarga erishib, bu yo'ldan og'ishmay harakat qilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev<sup>4</sup> mamlakat boshqaruviga kelganidan buyon olib borilgan ochiq, konstruktiv va amaliy tashqi siyosat dunyoning deyarli barcha mintaqalaridagi davlatlar, shuningdek, yetakchi xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar bilan samarali aloqalarni sezilarli darajada mustahkamlashga imkon berdi. O'zbekiston ichki siyosatida

<sup>1</sup> Батюк В.И. Холодная война между США и СССР (1945-1991). Очерки и истории. –Москва. Весь мир. 2018. С. 204.

<sup>2</sup> Косов Ю.В., Торопыгин А.В. Содружества Независимых Государств: Институты, интеграционные процессы, конфликты и парламентская дипломатия. –Москва. Аспект Пресс. 2009. С. 94.

<sup>3</sup> Стрижова И.М., Терехова Н.М. Россия и ее колонии. Как Грузия, Украина, Молдавия, Прибалтика и Средняя Азия вошли в состав России. –Москва. Даръ. 2007. С. 424.

<sup>4</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Мирзиёев,\\_Шавкат\\_Миромонович](https://ru.wikipedia.org/wiki/Мирзиёев,_Шавкат_Миромонович)

kuzatilayotgan keng qamrovli islohotlar, ochiqlik va yangilanishlar bugungi kunda mamlakatning tashqi siyosatida ham yaqqol namoyon bo‘lib ulgurdi. Xususan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)<sup>1</sup>, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT)<sup>2</sup>, Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT)<sup>3</sup> kabi mintaqaviy institutlar doirasida O‘zbekistonning Markaziy Osiyo Respublikalari bilan hamkorligi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

O‘zbekiston 2019 yilda a‘zo bo‘lib kirgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi (TDHK)<sup>4</sup> faoliyatida ishtirok etishi Toshkentning ko‘p tomonlama diplomatiyasining yangi yo‘nalishiga aylandi va bu tashkilotning yangi davrga qadam qo‘yishida bosh tashkilotchilardan biri bo‘ldi. Bunga 2022 yilda Samarqandda o‘tgan Turkiy Davlatlar Tashkilotining ilk sammitida jahon hamjamiyati ham guvoh bo‘ldi. Bugungi kunda Turkmaniston Turkiy Davlatlar Tashkilotining rasmiy kuzatuvchi maqomidagi a‘zosi hisoblanadi hamda bu statusni olishini O‘zbekiston yuqori darajada qo‘llab-quvvatlagan edi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari orasida Turkmaniston bilan mustahkam do‘stlik aloqalarini alohida ta’kidlash lozim. Zero, o‘zaro aloqalar doimo bir tekisda ketgan bo‘lmasada, lekin rivojlanishdan ham to‘xtamagan.

O‘zbekiston va Turkmanistonni asrlar davomida yaqin ma’naviy qadriyatlari, tili, dini, tarixi, urf-odatlari va an’analariga asoslangan mustahkam do‘stlik rishtalari hamda yaxshi qo‘shnichilik bog‘lab turgan. Qardosh o‘zbek va turkman xalqlari bir-birlarining adabiyot, madaniyat va san’atini yaqindan bilishadi va hurmat qilishadi. Ajdodlarning boy merosi o‘zbek va turkman xalqlarining umumiy boyligi hisoblanadi. Bu omillar turli sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni jadal rivojlantirishdan O‘zbekiston ham, Turkmaniston ham birdek manfaatdor ekanligini yana bir bora tasdiqlaydi. Mamlakatlar mustaqillikka erishgach, ikki davlat

---

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mustaqil\\_davlatlar\\_hamdo%CA%BBstligi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mustaqil_davlatlar_hamdo%CA%BBstligi)

<sup>2</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Shanxay\\_hamkorlik\\_tashkiloti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Shanxay_hamkorlik_tashkiloti)

<sup>3</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiy\\_davlatlar\\_tashkiloti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiy_davlatlar_tashkiloti)

<sup>4</sup> <https://qalampir.uz/uz/news/uzbekiston-rasman-turkiy-tilli-davlatlar-kengashiga-a-zo-buldi-bu-nima-degani-8448>

o'rtasidagi an'anaviy ishonch va do'stlikka asoslangan aloqalar yangi zamon ruhida rivojlanyapti. Siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada kengaytirishni ikki mamlakat ham o'zlari uchun ustuvor vazifa sifatida belgilab olgan. O'zbekiston va Turkmanistonning diplomatik aloqalari mustaqillikdan so'ng yangi bir sharoitda, yangi bir ruhiyatda 1993 yil 7 fevralda o'rnatildi<sup>1</sup>. O'zbekiston Ashxobodda elchixonaga ega. Turkmaniston ham Toshkentda o'z elchixonasiga ega. O'zaro aloqalar o'tgan o'ttiz yilda doimiy davom etib, ikki mamlakat rahbarlari xalqaro tashkilotlar sammitlaridan tashqari rasmiy tashriflar bilan poytaxtlarga tashrif buyurganlar.

Bugungi kunda Turkiston tarixini alohida davlatlar holatida yozish va tahlil qilish biroz qiyinchilik tug'diradi. Chunki bu davlatlar o'tmishda ham, yaqin zamonlarda ham o'zaro bir umumiylikda edilar. Shu jihatdan olganda barcha Markaziy Osiyo davlatlari bir-birlaridan tarixan va zamon sharoitida ayro emaslar. Turkmaniston va O'zbekiston aloqalari ham aslida qardosh turkiy davlatlarning yangi davrdagi yangi aloqalari sifatida o'rganilishi lozim.

Unutmaslik kerakki, o'zbek va turkman xalqlari azal-azaldan iqtisodiy, madaniy hamda adabiy aloqada bo'lib kelganlar. Alisher Navoiyni<sup>2</sup> turkman xalqi Mir Ali nomi bilan tanib, uning asarlarini shoir hayot chog'idayoq turkmanlar orasida mashhur bo'lganini ko'rish mumkin. Navoiy g'azallarini turkman baxshilari hozirgi kungacha ham kuylab kelishlari esa buning yana bir dalilidir. Xiva madrasalarida tahsil olgan turkman mumtoz shoirlari Ozodiy<sup>3</sup>, Mahtumquli<sup>4</sup>, Andalib<sup>5</sup> Navoiyni o'zlariga ustoz deb bilganlar. Andalib o'zining "Layli va Majnun"<sup>6</sup>, "Yusuf

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_%E2%80%94\\_Turkmaniston\\_munosabatlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Turkmaniston_munosabatlari)

<sup>2</sup> <https://arboblar.uz/uz/people/alisher-navoi>

<sup>3</sup> <https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/turkman-sheriyati/davlatmamed-ozodiy-1700-1760/>

<sup>4</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahtumquli>

<sup>5</sup> <https://milliycha.uz/kr/andalib/>

<sup>6</sup> Андалиб (Нурмухаммад Ғариб). Лайли ва Мажнун. Ўзбек адабиёти, 4-жилд, 2-китоб. Тошкент – 1960.

va Zulayho” dostonlarini Navoiy va Durbek<sup>1</sup> asarlaridan ta’sirlanib yozgan edi<sup>2</sup>.

Ayni paytda Mahtumqulining she’rlarini o’qimagan, bilmagan va kuylamagan o’zbek xofizi yo’q desa ham bo’ladi. Turkmaniston adabiyotida Mahtumquli yuqori o’rin egallaydi. Mahtumqulining asarlari Markaziy Osiyo mamlakatlarning deyarli barchasida milliy tilda nashr etilgan hamda adabiyotlaridan muqim o’rin egallagan. O’zbekistonda ham Mahtumqulining “Saylanma”si<sup>3</sup> turkmanchadan Muhammad Pirriyev tarjimasida nashr etilgan edi.

Xalq donishmandligi, xalq og’zaki ijodi, ma’naviy-madaniy ildizlari qadimdan turkiylarda rivojlangan, insonlar uchun odat tusiga kirgan hamda bir-biriga monanddir. Turkman va o’zbek xalqlarining madaniyati, san’ati, xalq og’zaki ijodi asrlar davomida barqaror rivojlanib, bir-birini to’ldirib, o’zaro chambarchas bog’lanib ketgani holda ajralmas bir bo’lakka ham aylanib ulgurgan. Birgina “Go’ro’g’li”<sup>4</sup>, “Avazxon”<sup>5</sup>, “Oshiq G’arib va Shohsanam”<sup>6</sup>, “Xondalli”<sup>7</sup> kabi dostonlar har bir o’zbek va turkman uchun birday qadrlidir. Ayniqsa, baxshilar ijrosida ularning ohanrabosi bo’lak, jozibasi boshqacha. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti “Folklor” bo’limi tomonidan “O’zbek xalq ijodi yodgorliklari” nomli 100 jilddan iborat majmuaning nashr etilishi ulkan voqea bo’ldi<sup>8</sup>. Shu bilan birga maqol-matal, ibratli fikrlar har bir davrda dildan tilga, og’izdan qo’buzga qadar yetib borgan, avloddan avlodga ko’chib kelgan. Xalq tafakkuri tarixi juda qadimyligiga shubha yo’qdir. Markaziy Osiyo xalqlarining ushbu nomoddiy meroslari bugun

---

<sup>1</sup> <https://tatarica.org/ru/razdely/kultura/literatura/personalii/durbek>

<sup>2</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи, 1-китоб. Тошкент – 1963. Б. 193.

<sup>3</sup> Махтумқули. Сайланма. Туркман. тарж. М. Пирриев. Тошкент: Ўқитувчи НМИУ, 2019.

<sup>4</sup> Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 8-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2016.

<sup>5</sup> Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 11-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2017.

<sup>6</sup> Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 6-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2015.

<sup>7</sup> Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 14-жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2020.

<sup>8</sup> “O’zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildlik kitobi nashr qilinmoqda. 2018. <https://xs.uz/uz/9181>

ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. 2018 yilda nashr etilgan “Turkman xalq donishmandligi”<sup>1</sup> kitobi ham buning isboti hisoblanadi.

Ilmiy sohalardagi hamkorliklar bilan bir qatorda madaniy sohalarda ham aloqalar ancha mustahkamlanib ulgurgan. Oddiygina misol, 2018 yilda Toshkentning Mahtumquli ko‘chasida “Ashxobod” sayilgohi ochilgan edi va bu ochilish tadbirlarida Turkmaniston Millat yetakchisi Gurbanguli Berdimuhammedov shaxsan ishtirok etgandi va “o‘zini Ashxobodda yurganday his qilganini”<sup>2</sup> ta’kidlagan edi. O‘zbekiston tashabbusiga parallel tarzda 2022 yili Ashxobodning Mahtumquli shoh ko‘chasida “Toshkent” bog‘i (sobiq Gunesh bog‘i o‘rnida) ochildi hamda ushbu tantanali tadbirda ikki mamlakat davlat rahbarlari shaxsan ishtirok etdilar<sup>3</sup>. Ushbu bog‘dan 20 dan ortiq O‘zbekistonning diqqatga sazovor inshootlari maketlari ham joy olgan bo‘lib, mahalliy aholining ko‘z o‘ngida “kichik Toshkent” gavdalanishiga kelajakda esa ularning asl Toshkentni ko‘rishga bo‘lgan qiziqishlarining yanada oshishiga turtki bo‘lish ehtimoli yuqori.

O‘zbekiston Respublikasi Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash Ulug‘bek jamg‘armasi homiyligida 2019 yilda nashr etilgan “Do‘stlik xamsasi”<sup>4</sup> kitobi ham qadri va qiymati baland hisoblanadi. Kitobdan Markaziy Osiyoning besh davlatida tarixan muhim o‘rin egallagan, xalq donishmandligining otalari hisoblangan insonlar – O‘zbekiston: Alisher Navoiy, Qozog‘iston: Abay Qo‘nonboyev, Qirg‘iziston: Chingiz Aytmatov, Tojikiston: Abdurahmon Jomiy va Turkmaniston: Mahtumqulilarning hikmatlar besh xil tilda o‘rin olgan.

Turkmaniston sobiq prezidenti Gurbanguli Berdimuhammedovning 2019 yil oxirida Toshkentga rasmiy tashrifi davomida Turkmaniston

---

<sup>1</sup> Turkman xalq donishmandligi. Turkman. tarj. Ж. Курбоний. Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018.

<sup>2</sup> <https://xs.uz/uz/post/toshkentda-ashkhobod-sajilgohi-ochildi>

<sup>3</sup> <https://xabardor.uz/uz/post/ashxobodda-toshkent-bogi-ochildi>

<sup>4</sup> Дўстлик хамсаси. Тузувчилар: О.Салимов, Қ.Қуранбоев, А.Кадиров, М.Бекмуродов, Н.Мамадалиева, Н.Халилов, Л.Тангриев. Тошкент: Тасвир, 2019.

rahbarining kitoblari – ilmiy asarlari ko‘rgazmasi tashkil etilgan edi<sup>1</sup>. Turkmaniston sobiq prezidentining tashrifi arafasida uning qator kitoblari – “Baxtli hayot sog‘liqdan boshlanar”<sup>2</sup>, “Madaniyat – xalqning bebaho xazinasini”<sup>3</sup>, “Barhayot afsona”<sup>4</sup>, “Choy – shifo va ruhiy quvvat manbai”<sup>5</sup> nomli asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, chop etilgan edi. Mazkur tashrif davomida Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston sobiq prezidentiga O‘zbekistonda chop etilgan Gurbanguli Berdimuhamedov kitoblarining ilk nusxalarini sovg‘a qilgan edi<sup>6</sup>.

2023 yilning fevralida Toshkentda O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar ham bo‘lib o‘tdi<sup>7</sup>. Ushbu tantanali tadbirlar ikki mamlakat xalqlarini birlashtirib kelayotgan ko‘p asrlik yaxshi qo‘shnichilik rishtalari daxlsizligining yana bir dalili bo‘ldi. Shu bilan birga tadbir davomida O‘zbekiston – Turkmaniston do‘stligiga bag‘ishlangan kitoblar, xalq amaliy san’ati namunalari ko‘rgazmasi ham o‘tkazilishi voyaga yetib kelayotgan yoshlarni ikki xalqning noyob meroslari bilan yaqindan, kengroq tanishishlariga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Markaziy Osiyoda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”<sup>8</sup>.

Qayd etish o‘rinliki, Markaziy Osiyo davlatlarining barqarorligi va hamjihatligi, avvalo, xalq farovonligini, so‘ngra, mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirib, xorijiy sherik davlatlar va investorlar bilan

<sup>1</sup> Президентлар китоблар кўргазмаси билан танишди. 2019. <https://president.uz/uz/lists/view/3098>

<sup>2</sup> Бердимухаммедов Г. Бaxтли ҳаёт соғлиқдан бошланар. Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

<sup>3</sup> Бердимухаммедов Г. Маданият – халқнинг бебаҳо хазинаси. Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

<sup>4</sup> Бердимухаммедов Г. Барҳаёт афсона. Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

<sup>5</sup> Бердимухаммедов Г. Чой– шифо ва руҳий қувват манбаи. Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

<sup>6</sup> Turkmaniston va O‘zbekiston prezidentlari kitoblar ko‘rgazmasi bilan tanishdi. 2019. <https://xabardor.uz/uz/x/617064>

<sup>7</sup> <https://yuz.uz/uz/news/firogiyning-iki-kozi-bor-biri-turkman-bolsa-biri-ozbegim>

<sup>8</sup> Дўстлик хамаси. Тузувчилар: О.Салимов, Қ.Қуранбоев, А.Кадиров, М.Бекмуродов, Н.Мамадалиева, Н.Халилов, Л.Тангриев. –Тошкент: Тасвир, 2019. Б. 3.

hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. O'zbekiston va mintaqa davlatlari o'rtasida shakllangan va yana ham mustahkamlanib borayotgan yangi muhit mazkur maqsadlarga erishishga hamda o'zaroro siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kuchaytirishga jiddiy xizmat qiladi. Zero, Markaziy Osiyo xalqlarining azaliy va abadiy do'stligi, ma'naviy-ruhiy yaqinligi va mushtarakligining ramzi sifatida mintaqa mamlakatlari o'rtasida ahillik hamda hamkorlikning yanada rivojlanishi bugungi globallashuv sharoitida faqatgina foydadan iborat jarayondir.

### **XALQARO MEHNAT MIGRATSIYASIDA XOTIN-QIZLAR MASALASI VA UNING IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI.**

**Sh. Yu. Salimov**  
**Alfraganus University tarix fani o'qituvchisi (PhD)**

Hozirgi vaqtda xalqaro migratsiya ichki migratsiyaga nisbatan kuchli oqimlarni hosil qilib, bir tomondan norasmiy mehnat migratsiyasi ulushi oshib borsa, ikkinchi tomondan, majburiy tashqi migratsiya saldosini o'smoqda. Natijada, qabul qiluvchi mamlakatlar, migrantlarning nisbatan oqiz qatlamlari sanalgan ayollar va bolalarni joylashtirish va ular uchun zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratib berishda moliyaviy muammolarga duch kelmoqda.

Xususan, xotin-qizlarning mehnat migratsiyasiga tortilgan qismi orasida ijtimoiy muammolar ko'lami kengayib bormoqda. Bunday muammolar xotin-qizlarning nafaqat mehnat faoliyati balki oilaviy hayotida chuqur iz qoldirmoqda. Ayniqsa, an'anaviy oilaviy-nikoh munosabatlariga asoslangan jamiyatlarda bunday muammolardan aziyat chekayotgan xotin-qizlar miqdori oshib bormoqda. Alohida olingan oilalarda migratsiya moliyaviy ahvolni yaxshilasa-da, oilaning katta yoshli

a'zolari, ayniqsa ayollarning doimiy ish bilan bandligi tufayli bolalar tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanilmaydi<sup>1</sup>.

Natijada, migrantlar farzandlari orasida deviantlikka moyillik xatari oshadi. Davlat miqyosida ommaviy, tartibsiz migratsiyalar bois, uning siyosiy, demografik va iqtisodiy oqibatlarini qatorida sanitar-epidemiologik vaziyat yomonlashadi. Bunday holatdan aziyat chekuvchi asosiy qatlam esa ayollar va bolalar bo'lib qolmoqda. Xalqaro darajada migrantlarni qabul qiluvchi davlatlar AQSh, Yevropa davlatlari, Lotin Amerikasi, Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari, JAR, Isroil kabi davlatlar bo'lib, ushbu davlatlarda ishchi kuchiga bo'lan

ehtiyojning deyarli 70%i migrantlar hisobidan to'ldiriladi<sup>2</sup>. Jahon mehnat bozorida ishchi kuchini yetkazib beruvchi davlatlar ro'yxatida esa Hindiston, Pokiston, Jazoir, Meksika, Irlandiya, Turkiya va MDH davlatlarining ulushi katta<sup>3</sup>. E'tiborlisi, migrantlar yalpi ulushining 48% ini ayollar tashkil etsa, 38 mln. bolalar ushbu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lmoqda<sup>4</sup>.

Migratsion jarayonlar ko'lamining oshib borishi, migrantlar va ularning oila a'zolari manfaatlarini muhofazasini yanada kuchaytirish talabini ilgari surmoqda. BMT Bosh Assambleyasi 1990 yil 18 dekabrda 45/158-sonli rezolyusiya bilan «Ishchi-migrantlar va ularning oila a'zolarining haq-huquqlarini muhofazalash to'g'risida»<sup>5</sup> gi Xalqaro Konvensiyani qabul qildi.

Xususan, mamlakatimizda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan o'zbekistonlik migrantlarning ish joyi, maoshi, haq-huquqlari va yashash tarziga bo'lgan qiziqish barobarida ular o'rtasida

---

<sup>1</sup> Илимбетова А.А. Глобальный процесс феминизации миграции. // Век глобализации. Журнал. – 2013. - №1. –С. 79-91.

<sup>2</sup> Д.О.Ахмедова. Хотин-қизлар меҳнат миграциясининг ижтимоий хусусиятлари. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020. 178 бет

<sup>3</sup> Migration data portal. The total number of international migrants at mid-year 2019. Source: UN DESA, 2019.

<sup>4</sup> Migration data portal. The total number of international migrants at mid-year 2019. Gender and migration. Source: UN DESA, 2019. <http://www.migrationdataportal.org>.

<sup>5</sup> «Ишчи-мигрантлар ва уларнинг оила аъзоларининг ҳақ-ҳуқуқларини муҳофазалаш тўғрисида»ги Халқаро Конвенция. БМТ Бosh Ассамблеяси 1990 йил 18 декабрда 45/158-сонли резолюцияси.

chuqurlashtirilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilib borilmoqda<sup>1</sup>. Sotsiologik so'rov natijalarining ko'rsatishicha, respublikamiz fuqarolarining asosiy qismi boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib ketishni emas, balki o'z uylarida yashab, vaqtinchalik mavsumiy ishlashga respublikadan tashqariga chiqishni ma'qul ko'rashadi. Mavsumiy borib kelishining yana bir sababi amaldagi konstitutsiyamizga ko'ra ikki fuqarolikning ta'qiqlangani<sup>2</sup>. Har bir oltinchi tadbirkor o'z vaqtida mehnat migranti bo'lgan va O'zbekistonga qaytganidan keyin o'z ishini ochgan<sup>3</sup>. Respondentlarning 33%i xorij mamlakatlariga borib daromad topishdan maqsadi shaxsiy uy-joy va avtomobilga ega bo'lish ekanligini ma'lum qilganlar<sup>4</sup>.

Shuningdek, o'tgan yillar davomida mehnat migratsiyasida feminizatsiyalashuv jarayoni kuzatilib, migrantlarning 47,5 foizini – ayollar tashkil qilmoqda<sup>5</sup>. Ayollar soni oshishi – migrant bolalar sonining oshishini anglatadi. Bunda ayollar kuzatib boruvchi shaxs sifatida emas, tirikchilik vositalarining asosiy topuvchisi sifatida migratsiya qiladilar. Aksariyat holatlarda bu jarayon odam savdosi, majburiy mehnat, shahvoniy ekspluatatsiya, surrogat onalik kabi g'ayriqonuniy faoliyat bilan shug'ullanishlariga olib kelmoqda.

YuNICEF tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ota-onalarning migratsiyasi, xususan, bolaning ta'lim olishiga, sog'lig'iga, ovqatlanishiga va ijtimoiy holatigi salbiy ta'sir ko'rsatib, tushkunlik (depressiya) holatini keltirib chiqarishi aniqlangan. Uning zimmasiga uy yumushlarining

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2007 йил 15 майдаги “Меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун чет элларга кетаётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳисобга олишни такомиллаштириш тўғрисида”ги 97-сонли қарори.

<sup>2</sup> Максакова Л.П. Демографический и миграционный потенциал Узбекистана//Народонаселение. – 2016.- №1. – С.83-89.

<sup>3</sup> Максакова Л. Миграция и предпринимательство // Экономическое обозрение. Т., 2006. 2. С. 17.

<sup>4</sup> Кодирова З.А. Глобализация шароитида Ўзбекистоннинг халқаро меҳнат бозорига интеграциялашуви. Икт. фан. фалс. докт. (PhD) автореф. дисс. ....–Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2018. -21-бет.

<sup>5</sup> Муртазаева Р. Ўзбекистон – жаҳон миграция жараёнларининг ажралмас қисми. Жамият ва инновациялар журналі. Special Issue - 2, №01 (2020). 28 бет

yuklatilishi bolaning erta ulgʻayishiga sabab boʻladi<sup>1</sup>. Koʻpincha onalar 6 yoshga toʻlmagan bolalarini tashlab, migratsiya qilishmoqda. Bu yillar bolalarning rivojlanishida muhim davr sanaladi. Chunki bu yosh ota-onalar bilan bolalar oʻrtasida munosabatlar oʻrnatish davri hisoblanadi.

Ota-onasi ketgan bolalarning ruhiyatida oʻzgarishlar kuzatilgan. Vasiylar qoʻlida qolgan farzandlar tarbiyasida tajovuzkorlikning har xil turlari: qoidalarga amal qilmaslik, mushtlashish, kattalarga va tengdoshlarga nisbatan qoʻpollik, uydan ketib qolish, odamovi boʻlib qolishlari kuzatilgan.

Bolalarning qariyb 37 foizi qarindoshlari qaramogʻida yashaydi. Vasiylar bolalarni tarbiya va nazorat qilishda turli usullardan foydalanishadi: bolalarning 12 foizi imtiyozlardan mahrum qilingan, 3 foizi telba, dangasa va shu kabi soʻzlar bilan kamsitilgan, bolalarning 8 foiziga nisbatan qoʻpol munosabatda boʻlgani sotsiologik tadqiqotlarda aniqlangan<sup>2</sup>.

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda tashqi mehnat migratsiyasi tizimini tartibga solish borasidagi islohotlar Oʻzbekiston yangi hukumatning asosiy vazifasiga aylandi. Mamlakatimiz rahbari qoʻshni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish jarayonida mehnat migratsiyasiga ham katta eʼtibor qaratmoqda. Davlat rahbari bu borada quyidagi fikrlarni bildirib oʻtadi: “... davlat tashrifi chogʻida mehnat migratsiyasi boʻyicha muhim kelishuvga erishdik. Bizning bu boradagi pozitsiyamiz aniq: odam qaerda boʻlsa ham ishlashi, oilasi, bola-chaqasini boqishi kerak”<sup>3</sup>.

Jumladan, bugungi kungacha qabul qilingan migratsiya borasidagi asosiy hujjatlar – Xalqaro Mehnat Tashkilotining 97 va 143-sonli

---

<sup>1</sup> ЮНИСЕФ томонидан ўтказилган «Ўзбекистон шароитидаги мигрaтсиянинг болаларга таъсири» тадқиқотининг тўлиқ ҳисоботи (2019) <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/reports/study-report-effects-migration-children-uzbekistan>

<sup>2</sup> ЮНИСЕФ томонидан ўтказилган «Ўзбекистон шароитидаги мигрaтсиянинг болаларга таъсири» тадқиқотининг тўлиқ ҳисоботи (2019) <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/reports/study-report-effects-migration-children-uzbekistan>

<sup>3</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжихатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг ҳаётбахш манбаи//Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Тошкент: НМИУ, 2018. – Б.474.

konvensiyalari va 1990 yil 18 dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 45/158 rezolyusiyasi bilan qabul qilingan “Mehnat migrantlari va ularning oila a’zolarining haq-huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi xalqaro konvensiyasi <sup>1</sup> mohiyatan noqonuniy yo’llar bilan migratsiya kirib borishning oldini olishga qaratilgan <sup>2</sup>. O’zbekiston Respublikasi XMT ning teng huquqli a’zosi sifatida 14 ta konvensiyasi ratifikatsiya qilingan<sup>3</sup>. Keyingi yillarda yurtimizda tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish bo’yicha dastlabki qadamlar tashlandi <sup>4</sup>.

2000 yil ayni sanada esa BMTning 55/93-sonli qaroriga muvofiq 18 dekabr sanasi «Xalqaro migrantlar kuni» deb e’lon qilindi. Xalqaro tashkilotlarning sa’yi-harakatlari bois, zamonaviy migratsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarishda «adolatli migratsiya» tamoyili qo’llanilmoqda. Ushbu tamoyil 2014 yilda Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilib, unga ko’ra, zamonaviy migratsiya oqimida bosh masala migrantlarga nisbatan munosabatda adolat tamoyillariga qat’iy rioya etish masalasi bo’ldi<sup>5</sup>.

Mazkur tamoyil asosida ishlangan dasturga muvofiq ishchi-migrantlarning insoniy xaq-huquqlarini hurmat qilish va ijtimoiy muhofazalash, ularga ishlash va yashash uchun munosib shart-sharoitlarni yaratib berish ustuvor vazifa qilib o’rnatildi. Shunday bo’lsa-da, ayni damda 141 mln. migrantlar Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida o’troqlashdilar.

---

<sup>1</sup> Қодирова З.А. Ишчи кучини экспорт қилувчи мамлакатларда меҳнат мигрaтсиясининг халқаро миқёсда тартибга солиниши. // «Иқтисодиёт ва инновaтсион технологиялар» илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2015. –Б. 2.

<sup>2</sup> Муйдинов Д.Н. Ҳозирги замон мигрaтсион жараёнларнинг жамият барқарорлигига таъсири (Германия Федератив Республикаси мисолида). Сис. фан. фалс. докт. (PhD) автореф. дисс. ....–Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 2019. -14-бет.

<sup>3</sup> Қодирова З.А. Ишчи кучини экспорт қилувчи мамлакатларда меҳнат мигрaтсиясининг халқаро миқёсда тартибга солиниши. // «Иқтисодиёт ва инновaтсион технологиялар» илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2015. –Б. 8.

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикасининг тaшқи меҳнат мигрaтсия тизимини янада тақомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, №ПҚ-3839, Қабул қилинган сана 05.07.2018

<sup>5</sup> Трудовая мигрaтсия (Восточная Европа и Центральная Азия). <https://www.ilo.org>.

Ularning 50 mln.dan ortig'i esa birgina AQSh ulushiga to'g'ri keladi. Respublikamizda mehnat migrantlari ijtimoiy manfaatlarining muhofazasi yo'lida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning mantiqiy davomi sifatida 2018 yil 12 dekabrda Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasi ratifikatsiya qilindi. Shu asnoda, 2019 yil O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro migratsiya tashkiloti o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Ushbu qadam respublikamizni Xalqaro migratsiya tashkilotining 173 ta a'zosi va 8 ta kuzatuvchi davlatlari safiga kiritdi va migrantlar ijtimoiy haq-huquqlari muhofazasiga yo'naltirilgan quyidagi faoliyatda ishtirokini ta'minladi.

Mehnat migratsiyasi ishtirokchilarining ijtimoiy manfaatlarini himoyasi borasida ishlar yanada takomillashib, 2019 yil 20 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida»<sup>1</sup> gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjatda vaqtinchalik ishlash uchun chet elga ketayotgan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash bilan birga, mehnat migrantlari va ular oila a'zolarining yashashi, mehnat faoliyati uchun munosib sharoitlar yaratish borasida ham qator vazifalar belgilab berildi. Shuningdek, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari uchun uy-joy, maishiy sharoitlarni yaxshilash, moliyaviy yordam, hayoti va sog'lig'ini himoya qilish masalalarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda asosiy e'tibor quyidagi yo'nalishlarga qaratildi:

- xotin-qizlar orasida migratsion oqimlarning globallasuvi. Bunda deyarli barcha mamlakatlar qamrab olingan bo'lib, immigratsiya yoki

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Хорижда вақтинчалик меҳнат фаолиятини амалга ошираётган

Ўзбекистон Республикаси фуқарolari va ularнинг oila аъзоларини химоя қилиш кафолатларини янада кучайтириш чоралари тўғрисида»ги Фармони. 2019 йил 20 август.

emigratsiya ustuvorligi kuzatilayotgan davlatlarda xotin-qizlar mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlari tafovutlanadi;

- xotin-qizlar mehnat migratsiyasi oqimida sifatiy o'zgarishlarning kuzatilayotganligi, kvalifikatsiya va kasbiy kompetentlik darajasi yuqori ayol migrantlar ulushining o'sib borayotganligi;

- xotin-qizlar mehnat migratsiyasining nafaqat moddiy manfaatdorlik uchun emas shaxsiy tanlov darajasiga ko'tarilishi;

- xotin-qizlarning mehnat migratsiyasi ijtimoiy oqibatlarining dolzablashuvi natijasida migratsion siyosatning kuchaytirilishi va tartiblanishi.

Xorijdagi mehnat migrantlari jumladan, xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy turmush tarzini tizimli kompleks tahlil qilish asosida zaruriy tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Deyarli barcha migrant xotin-qizlar tashqi mehnat migratsiyasida noqulay sharoitlarga duch keladi, bu holat migrantlarning qadr qimmatini poymol qilinishiga olib keluvchi nomaqbul muomalaga va kamsituvchi mehnat sharoitlarida mehnat qilishiga sabab bo'ldi. Shu sabab xalqaro hamkorlik asosida migrantlarni tartibli tashkiliy asosda jo'natish va qabul qilish mexanizmlarining yaratilishi mehnat migratsiyasi sohasida samarali yechim bo'la oladi.

Rivojlangan mamlakatlar bilan tashqi mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi, kelgusida yurtimiz fuqarolari uchun qonuniy asosda xorijda mehnat qilish imkoniyatlarini yaratib berishning kafolatidir. Migratsiyani butunlay to'xtatish, uning oldini olish imkoniyati bo'lmasada, uni qonuniy nazorat qilish va tartibga solish mumkin, deb o'ylaymiz. Chunki migratsiyaga qaram bo'lib qolish, jamiyatlarning boshqa davlat va jamiyatlarga qaram bo'lib qolishiga olib keladi. Shu bois, chiqib ketuvchi va kirib keluvchi migrantlar har doim rejali va nazoratli bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

## **O‘ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING INSTITUTIONAL TIZIMI**

**Sh.U. Saydalieva.**  
**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti**  
**“Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası”**  
**katta o‘qituvchisi.**

O‘zbekistonda istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab samarali soliq tizimini yaratishga katta e‘tibor berildi va bu masalaga ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatini ta‘minlashning eng muhim omili sifatida qaraldi.

O‘tish davrida eski soliq tizimini birdan yo‘qotib bo‘lmas edi. Chunki shunday bo‘lganda davlat daromadsiz qolib, o‘z vazifalarini bajara olmay butun jamiyat aziyat chekkan bo‘lard.

Soliq siyosatining samarali yurgizilishi ko‘p jihatdan uni huquqiy bazasining mustahkamligiga bog‘liq. Bunda soliq siyosatiga oid soliq qonunchiligi muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi<sup>1</sup>, soliqqa oid qonunlar, farmonlari, kodekslari, qarorlari va boshqa qonun osti xujjatlari bilan mustahkamlangan.

Soliq qonunchiligi Davlat mustaqilligi uchun eng ahamiyatli yo‘nalishlardan biri bo‘lganligi sababli, O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonunga alohida modda sifatida kiritilgan. Jumladan, 12 moddasida “Respublika hududida olinadigan soliqlar va yig‘imlar O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga va mahalliy byudjetlarga tushadi deb belgilangan.

Bu esa davlatni mustaqil soliq siyosatini olib borishini yig‘imlarni byudjetga tushishini belgilab berdi.

---

<sup>1</sup> Фуқаролар қонун билан белгиланган солиқлар ва маҳаллий йиғимларни тўлашга мажбурдирлар. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент, Ўзбекистон. 2018. 51-модда. – Б 17. Солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни жорий қилишга фақат Олий Мажлис ҳақлидир Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент, Ўзбекистон. 2018. 78-модда. –Б. 28.

Fuqarolarning qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majbur ekanligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida berilgan bo'lib, Respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolatlari ham ko'rsatilgan. Unda O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqlidir<sup>1</sup> - deb yozib qo'yilgan.

Bozor munosabatlariga o'tilishida soliqlar to'g'risidagi qonunchilikni yaratish tajribasi mavjud emasligi, juda qisqa muddatda demokratik tizimning mulkchilik shakli turlicha bo'lgan korxonalar va tashkilotlar uchun soliqlarni ishlab chiqishni taqoza etganligi soliqlar to'g'risidagi huquqiy me'yorlar asosan ularning fiksal (xazina uchun tegishli) ahamiyatda bo'lganligi qonunlarning ba'zi bandlari umuman bajarilmagan yoki ochiq oydin qoniqarsiz bajarilishi soliq to'g'risida alohida kodeksning qabul qilish zaruriyatini tug'dirdi.

1997 yil 24 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 396-I-son "O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksini tasdiqlash" to'g'risida qonuni bilan Soliq kodeksi qabul qilindi<sup>2</sup>.

1997 yilda tayyorlangan Soliq kodeksi loyihasi respublika soliq idoralarining shu paytgacha to'plagan tajribasini, jahon amaliyotining tahlilini o'zida aks ettirdi. U respublikaning soliq qonunlarini va binobarin, soliqqa tortish tizimini rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashtirdi. Shu bilan birga, unda O'zbekiston rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari ham hisobga olindi.

Tayyorlangan Soliq kodeksi loyihasida quyidagi prinsip va yangiliklarni ko'rish mumkin.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент. Ўзбекистон. 2018. 78-модда. 17-б, 28-б

<sup>2</sup> “Ўзбекистон Республикасининг солиқ кодексини тасдиқлаш” тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Тошкент ш.,1997 йил 24 апрель, 396-I-сон. [https://lex.uz/pages/forpda.aspx?lact\\_id=90454](https://lex.uz/pages/forpda.aspx?lact_id=90454)

*Birinchidan*, bu soliqqa tortish sohasidagi barcha asosiy me'yorlarning yagona bir hujjat holiga keltirildi.

*Ikkinchidan*, soliqlar sohasidagi imtiyozlarning bir tizimga solindi.

*Uchinchidan*, daromadlar, mol-mulk qo'shilgan qiymatni hisobga olish va soliqqa tortishning xalqaro tizimini joriy kilish, kichik va xususiy tadbirkorlik sohasini hisobga olish, hisobot va hisob-kitoblarni soddalashtirish nazarda tutilgan.

*To'rtinchidan*, soliq idoralari xuquqni muhofaza qilish organlari, kredit muasasalari bilan o'zaro munosabatlari aniq belgilangan, soliq to'lovchilar va soliq idoralarining huquqlari, vazifalari va javobgarligi aniqlashtirilgan<sup>1</sup>.

Soliq kodeksi 12 bob, 122 moddadan iborat tarzda qabul qilinib, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish, soliq turlari, undirish tartibi, soliq imtiyozlari tatbiq qilinadigan shaxslar doirasini belgilab bergan bo'lib, u shuningdek, soliq organlarining huquq va majburiyatlarini ham nazarda tutgan. Ushbu kodeks 2008 yilgacha 10 yil davomida soliq munosabatlarini tartibga solib kelgan bo'lsa-da, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini, davlat soliq idoralari va xodimlarining vakolatlari, ularning bevosita majburiyatlarini, soliqqa tortiladigan ob'ektlarning imtiyozlari kabi asosiy masalalarga e'tibor qaratilmadi.

Shu sababli hukumat amaldagi soliq qonunchligini o'rganish va uni jahondagi eng yaxshi standartlarga yaqinlashtirish uchun ishchi guruh tashkil etdi.

Mahalliy, horijiy ekspertlar va mutahassislarning takliflari inobatga olinib, 2007 yil 25 dekabrda 2 ta (umumiy va maxsus) qism, 21 bo'lim, 64 bob va 392 ta moddadan iborat bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilindi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Гатаулин Ш. Ўзбекистоннинг солиқ тизими: шаклланиши ва тараққиёт йўллари. //Солиқ тўловчининг журнали, 1996 йил, 11 сон, 2 бет.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 52(292) сон, 533 модда.

Yangi Soliq kodeksining avvalgisidan eng asosiy farqi shundan iborat ediki, yangi Soliq kodeksi to'g'ridan-to'g'ri tasir kuchiga ega hujjat hisoblanardi. Unga ko'ra har bir soliq turini hisoblash tartibi turli xil huquqiy meyoriy hujjatlar, yo'riqnomalar asosida amalga oshirilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri Soliq kodeksida aks ettirildi. Eng muhim jihati shundaki unda ilgari hujjatlar asosida tartibga solinuvchi soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi va maqsadli jamg'armalarga majburiy ajratmalarning hisoblanishi va undirish tartiblari aks ettirildi.

Shu bilan birga Kodeksda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq to'lovchilar, shuningdek, ushbu soliq va majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar belgilab qo'yilgan taqdirdagina soliq va majburiy to'lov belgilangan, deb hisoblanishi nazarda tutildi. Soliq kodeksida barcha soliqlar va majburiy to'lovlar faqatgina qonunchilik hujjatlari bilan joriy qilinishi ko'zda tutildi. Bunda, soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar ham qonunchilik hujjatlari va Prezident qarorlari bilan o'rnatilishi belgilandi.

Ushbu qabul qilingan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga 2018 yilga qadar 800 dan ortiq o'zgartirishlar kiritilganligining guvohi bo'lamiz<sup>1</sup>.

2008 yilgi Soliq kodeksini pishiq-puxta ishlab chiqish uchun roppa-rosa 3 yil ketganiga, yana 2 yil mobaynida uni takomillashtirishni ko'zda tutuvchi o'zgartirishlar kiritishga ruxsat berilganiga qaramasdan hanuzgacha bu jarayon oxiriga yetmayotganligi, aksincha, soliq qonunchiligini o'zgartirishning surunkali tus olganligini ko'rishimiz mumkin. Oqibatda, o'zining 30 yillik soliq tizimi tarixida O'zbekiston uchinchi marta Soliq kodeksini yangilashga majbur bo'ldi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi uchinchi Soliq kodeksi 2019 yilda ishlab chiqildi va 2020 yil 1 yanvardan boshlab yangi Soliq kodeksi kuchga kirdi.

---

<sup>1</sup> Soliq kodeksiga ўzgarтиш ва қўшимчалар киритишга асос бўлган қонунлар асосида ишлаб чиқилган.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga hamda ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda mustaqillikning dastlabki yillaridan e'tiboran mustaqil soliq tizimi qonunchiligini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi va ushbu islohotlarning samarasi o'laroq hozirgi paytga kelib respublikamizda bir qadar o'ziga hos bo'lgan soliq tizimi qonunchiligi shakllantirildi.

## **O'RTA OSIYO HUDUDLARIDA TARIXIY TADBIRKORLIKNING SHAKLLARI VA EVOLYUSIYASI**

**B.M. Raxmanov**  
**Toshkent Amaliy fanlar universiteti**  
**katta o'qituvchisi. f.f.b.f.d(PhD)**

O'tmishda ilk tadbirkorlik ildizlarining shakllanishiga e'tibor qaratilsa, o'sha davrlardayoq xususiy mulk va uning ta'siri katta bo'lganligini o'troqlik turmush tarzi ustun bo'lgan dehqonchilik va hunarmandchilikda ko'proq kuzatish mumkin. O'lkada qadimgi va ilk o'rta asrlarga oid ilk xususiy mulkchilik asoslarining shakllanish tarixi tahlili shuni ko'rsatdiki, qadimgi dehqonchilik miloddan avvalgi I-ming yillik boshlaridagi Amirobod yodgorligi, Chust madaniyati, Sopollitepa yodgorligi kabilar qadimgi tadbirkor va ishbilarmon ziroatchi oilalarning manzilgohi hisoblanib, bu davrda xususiy mulkdorlar o'rtasidagi tovar ayriboshlash, savdo- sotiq va boshqa etnik jarayonlar kengayib borgan<sup>1</sup>.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi qadimgi xo'jalik hayotining ayrim izlari Qadimgi So'g'diyona va Baqtriya tarixiy-madaniy mintaqalari doirasida yuz berdi. Ya'ni, so'nggi bronza va ilk temir davrida yana bir

---

<sup>1</sup> Кузмина Е.Е. Металлические изделия энеолита и бронзового века в Средней Азии.-М: Наука. 1966.; Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан. 1977. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. – Москва-Ленинград, 1962.МИА №118.

madaniy xo'jalik markazi, So'g'diyona viloyati tarkib topib, keyinchalik o'lkada yuz bergan urbanizatsiya jarayonlari natijasida qadimgi Choch zaminida yerli o'troqlashayotgan aholining qadimgi xususiy dehqonchilik xo'jaligi tarkib topadi. Bu maskanlarda qadimgi shaharsozlik madaniyatiga xos belgilar miloddan avvalgi III-II asrlarda rivojlangan hunarmandchilik markazlari tashkil topib, xususiy ustaxonalar ilk tadbirkorlik markazlari bo'lganligini ko'rsatdi<sup>1</sup>.

Bu jamiyat taraqqiyotida yuz bergan tub ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar, jumladan tadbirkorlikka, xususiy mulkka va uni taqsimlashga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga olib kelib, natijada boy tabaqa vakillari o'zlarining yirik xususiy mulklariga ega bo'lganligini tasdiqladi. Shu tadbirkorlikning ilk ko'rinishlari tufayli o'z navbatida mintaqada mulkiy tabaqalanish shakllana boshladi.

Akademik A. Asqarov tarixning ilk yer egaligi davridagi xususiy mulkka asoslangan tadbirkorlikning dastlabki aossllari xususida, "Turonzamin hududlarida ilk o'rta asrlarda ilk yer egaligining shakllanishi jamiyatda turli toifadagi fuqarolarning yer va mulkka bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishiga olib keldi. Natijada ilk o'rta asrlar davrida erkin dehqon jamoa a'zolaridan mahalliy xususiy mulk egalari – "qishloq dehqonzodalari" shakllana boshalaydi, keyinchalik ular negizida qishloq hokimlari vujudga kela boshlagan. Yerga, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish uzil-kesil xususiylashadi, mulkchilikda xususiy mulk va erkin jamoa mulki tarkib topadi», deya qayd etadi<sup>2</sup>.

Shahar aholisi asosan xususiy tadbirkorlikning hunarmandchilik va savdo-sotiq turlari bilan mashg'ul bo'lganlar. Shuning uchun bu vaqtda tadbirkorlikning ilk shakllari metallsozlik, zargarlik, kulolchilik,

---

<sup>1</sup> Ртвеладзе Э. В Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент. 2005, – С 135-246.. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. - Ташкент-1982. – С. 108-115.

<sup>2</sup> Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон.. 2015. – В 82.

duradgorlik, qurolsozlik, to‘qimachilik, shishasozlik, konchilik keng rivoj topa boshlagan. O‘rta asrlarda shartli xususiy yer va mulkka egalik «iqta» tizimi keng yoyiladi. Yer va mulk muayyan muddatga tuhfa qilinib «iqta» egalari maxsus Farmon bilan belgilangan tartibda dehqonlardan soliq undirganlar. Nafaqat yer, balki xususiy tegirmon, hammom, bozordagi do‘kon va boshqa ko‘chmas mulklar ham iqta tarzida berilib, daromad va unga belgilangan soliq ham «iqta» miqdoridan kelib chiqib belgilangan<sup>1</sup>.

Xususan, XII - XIII asrlarda va undan so‘ng faqat hukmron sulola vakillari, yirik harbiy arboblarning iqta egalari (iqtdor) hisoblanganlar. Bunday yer va mulklar o‘sha zamindorlarga hukmdorlar tomonidan xususiy qilib berilib, iqta sohibi, garchand asosiy soliqlardan ozod bo‘lsada, xiroj va ayrim soliqlarni yig‘ish huquqiga ega bo‘lgan. Somoniylar, Qoraxonilar, G‘aznaviylar va Mo‘g‘ullar davrida iqta miqdori in‘om etilayotgan shaxsning jamiyatda tutgan ijtimoiy-siyosiy mavqei bilan bog‘liq bo‘lgan. Iqta xirojning ma‘lum qismini markaziy davlatning xazinasiga topshirib turish va harbiy xizmat ko‘rsatish sharti bilan ham berilgan<sup>2</sup>. Amir Temur va temuriylar davrida xususiy mulk egalari qo‘lab-quvvatlanganligi va ularga e‘tibor berilganligi e‘tiborga molikdir. Zero, hukmdor u orqali har bir inson rohat va farog‘atga erishish mumkinligini chuqur idrok etgan va uning tamoyillari mashhur “Temur tuzuklari” da ma‘lum tizimga solinganligini ko‘rish mumkin. Tuzuklarga ko‘ra, “Azmi qat‘iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir”. Sohibqiron Amir Temurning ushbu gapi zamirida tadbirkor va ishbilarmon kishilar mamlakatning tayanchi, jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligini ta‘minlashda asosiy kuchlardan biri bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Yoki tuzuklarda “Amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili ulardan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa qonun-qoidaga muvofiq xiroj

---

<sup>1</sup> Обломуродов Н, Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2009. – В 34.

<sup>2</sup> Ўша асар 34-бет.

yig'sinlar"<sup>1</sup>, - degan fikrni ilgari surganligi o'z davrida mol- mulk egalariga ma'lum imtiyozlar berganligidan dalolatdir.

XVI – XVIII asrlarda shayboniylar, ashtarxoniyalar hukumronligi davriga kelib, tadbirkorlikning ilk shakllari yanada rivoj topgan. Xususan, bu davrda Marg'ilon va Samarqandda zamonaviy ko'rinishdagi tadbirkorlik korxonalarining ilk ko'rinishlari shakllana boshlagan. Qo'qon va Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish, Namanganda metalsozlik, Buxoroda cho'yan buyumlar tayyorlash tobora o'sib bordi. Masalan, Qo'qonda Mallaxon davrida (1858-1862 yy) ilk zambarak tayyorlovchi xususiy korxonaga asos solinganligi fikrimiz dalilidir<sup>2</sup>. Tadqiqotlarga asosan so'nggi o'rta asrlarda bugungi kundagi kasanachilikning dastlabki ko'rinishlari sifatida uy hunarmandchiligida ilk sex uyushmalarining dastlabki shakllari paydo bo'la boshlagan. Bu birinchi navbatda, hunarmandlarning ma'lum sohaga ixtisoslashuvini anglatgan. Sex tizimiga ko'ra uning nizomi-“Risola”lar mavjud bo'lgan. “Risola”larda o'sha uyushmani yuritishning tartib-taomillari, qoidalari va uning huquqiy rasmiylashtirish normalari aks etgan<sup>3</sup>.

Shaharlarda tadbirkorlikning ushbu shakli, ya'ni uy hunarmandchiligi rivoj topganligi bois, aholi shahar mahallalarida o'z kasb-koriga qarab joylashganlar. Ya'ni, har bir yirik shaharlardagi mahallalar tadbirkorlar ishlab chiqarayotgan maxsulotlar turi, ya'ni aholining kasb-koriga qarab nomlangan. Masalan, so'nggi o'rta asrlarda Buxoro, Toshkent, Termiz, Xo'jand, Nurota, Qo'qon shaharlarida Taqachi, Degrezlar, So'zangaron, Kosagaron, Sovungaron, Bo'yrafofon, Po'stindo'zon, Murdasho'yon, Pistashikanon, G'assollar mahallalari bo'lgan<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Amir Temur. Temur tuzuqlari. -Toshkent: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2020. -B. 141.

<sup>2</sup> Раззоков А. Иқтисодий тафаккур сарчашмалари. -Тошкент: O'zbekiston. 2011. – Б. 181.

<sup>3</sup> O'rta asrlarda hunarmandlarning sex uyushmalari faoliyatining huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy asosi bo'lgan, “Risola”lar mavjud bo'lgan.

<sup>4</sup> Толипов Ф. Общинные традиции в семейной жизни населения Нуратинского оазиса (Конец XIX первая половина XX вв ). Автореферат дисс. канд. ист. наук.-Ташкент. 2006. – С. 14.

Turkistonda zamonaviy tadbirkorlik asoslari XIX asr oxiri - XX asr boshlarida shakllana boshlagan. Bunga Rossiyadan rus kapitali va sarmoyalarining kirib kelishi, dastlabki kichik korxonalar va fabrikalarning vujudga kelishi, ilk moliya muassasalari va banklarning faoliyati, o'lkada milliy burjuaziyaning shakllanishi, asosiy ishlab chiqarish manbalarining sarmoyadorlar qo'liga o'tishi kabi omillar sabab bo'lgan. Zero, bunday korxonalar asosan yirik tadbirkorlar qo'lida to'planib, ular asosan paxta, jun, ipak va terini qayta ishlash bilan shug'illanib, maxsulotning asosiy qismi Rossiyaga jo'natilganligi tarixdan ayon. Masalan, o'lkada dastlabki xususiy korxonalar, jumladan chorvachilikda jun ishlab chiqarish, ayniqsa ipak junlari asosida undan tayyor maxsulotlar tayyorlash texnologiyasi ta'sisshilaridan biri bo'lgan Knyaz O'rusov 1868-1870 yillarda Zarafshon okrugida xususiy kichik korxonalar tashkil qilish tashabbusi bilan chiqib, uni yanada kengaytirganligini qayd etish mumkin<sup>1</sup>. Albatta bunday dastlabki xususiy tadbirkorlik ishlab chiqarish korxonalarining doimiy ishlashini ta'minlash maqsadida ularga sarmoya va kreditlar juda zarur edi. Buning uchun Turkistonda ilk banklar ham tashkil etilib, ular Turkiston xom ashyo bazasida savdo-sanoat yuritish, zavod-fabrikalar qurish istagida bo'lgan tadbirkorlarga turli pul mablag'lari yoki qarzlarni berib turganlar. Bunday banklar qatorida "Rus-Osiyo banki", "Moskva savdogar banki", "Rossiya davlat banki" kabi banklarni keltirib o'tish mumkin. Bu esa turli sohalarga ixtisoslashgan bir qator xususiy tadbirkorlik markazlari, zavodlar, savdo shoxobchalari, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil topishiga turki bo'lgan. Birgina 1900 yilda Turkistonda 195 ta xususiy sanoat korxonalarini bo'lib, ularda 10 mingdan ortiq odam ishlaganligi fikrimiz dalilidir.

Umuman, uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va rivojlangan tadbirkorlikning dastlabki ildizlari O'zbekiston hududlarida tarixining anchagina qadimgi davrlariga borib taqalishini tasdiqladi.

Ularning shakli va mazmuni har bir tarixiy davrda o'zgarganligi va rivojlanganligi bilan izohlandi. O'rta asrlarda va undan so'ng mintaqada iqta', suyurg'ol yer egaligi tizimi, shaharlarda hunamandchilik sohalari, ustaxonalarining vujudga kelishi zamonaviy tadbirkorlik uchun asos bo'lganligini tasdiqladi.

## **O'ZBEKISTONNING GERMANIYA BILAN HAMKORLIGI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI**

**Z.Sh. Ismatullayeva**  
**Toshkent Amaliy fanlar universiteti**  
**o'qituvchisi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatda oshkoralik prinsipini amalga oshirishga va barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng qamrovli aloqalarni o'rnatishga intiladi<sup>1</sup>. O'tgan o'ttiz yil davomida O'zbekiston Respublikasini 180 dan ortiq mamlakat e'tirof etdi. Shulardan 130 dan ortig'i bilan diplomatik aloqalar rivojlantirib kelinmoqda. So'ngi yillarda horijiy mamlakatlardan keladigan investorlar uchun juda qulay sharoitlar yaratilib, ularning faoliyati huquqiy jihatdan kafolatlandi. Bu esa iqtisodiy faoliyat olib borish uchun ulkan qulaylikdir.

O'zbekiston Respublikasida 2017 yildan tashqi siyosat borasida yangicha siyosat boshlandi. Ya'ni O'zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik, qo'shni davlatlar bilan yaqin hamkorlikni kuchaytirish kabi jihatlarga alohida e'tibor berila boshlandi. Agar 2016 yilgacha bo'lgan davrni O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, uning huquqiy asoslarini yaratish, dunyo hamjamiyati bilan aloqalarni o'rnatish, mamlakat xavfsizligi va barqarorligiga erishish davri deb baholasak, 2017 yildan keyingi ikkinchi

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент. Ўзбекистон. 2009. 17-модда.

davrni yangi O‘zbekiston jahonadgi rivojlangan davlatlar safiga kirish, 2035 yilga qadar jahondagi rivojlangan 50 talik davlatlari safida bo‘lish rejalari qo‘yildi. Bu albatta O‘zbekistonning Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olg‘a surilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi<sup>1</sup> hamda 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida o‘z aksini topgan<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Yevropa mintaqasi muhim o‘rin egallaydi. Binobirin, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Yevropaning imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan muhimdir. Yevropa va butun g‘arb yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbai hisoblanadi.

Shunday ekan, Yevropaning rivojlanayotgan mamlakatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya Respublikalari bilan hamkorlik qilish zamonaviy texnologiyalarni yurtimizga jalb etish, yirik investitsiya kompaniyalari ishtirokida klasterlar tuzish, katta miqdorda investitsiyalarni olib kirish hamda eksport talabalari darajasidagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda ko‘zga tashlanmoqda. Yetuk mutaxassislar, ayniqsa bank va boshqaruv sohasida mutaxassislar tayyorlashda, axborot tarmoqlarini yo‘lga qo‘yishda, jahonning yetakchi birjalari bilan aloqalar o‘rnatishda, xorijiy qonunchilik tajribasini o‘rganishda ko‘maklashish muhimdir.

Prezident Sh. Mirziyoyev xorijiy davlatlar bilan hamkorlik haqida fikr bildirib, jumladan Fransiya va Germaniya kabi Yevropa Ittifoqi davlatlari O‘zbekistonning ishonchli va istiqbolli sheriklaridan ekanligini alohida

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. ПФ-4947-сон 07.02.2017. (lex.uz)

<sup>2</sup> Ўзбекистон Президенти Фармони. 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. ПФ-60-сон 28.01.2022. (lex.uz)

ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar hajmini yanada oshirish iqtisodiyot sohasida dolzarb yo'nalish hisoblanib, ayni paytda Koreya Respublikasi, Yaponiya, Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Bolgariya, Vengriya, Chexiya va boshqa texnologik jihatdan rivojlangan mamlakatlardan investitsiyalar jalb qilishga alohida e'tibor qaratish lozimligini alohida ta'kidlaydi<sup>2</sup>.

Ikki tomonlama aloqalarning rivojida 1991 yilning 31 dekabr kuni Germaniya O'zbekistonning davlat mustaqilligini rasman tan olinishi va 1992 yilning 6-martiga kelib esa, ikki mamlakat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganligi muhim voqealik bo'ldi<sup>3</sup>. O'tgan qisqa davrda shunga hamkorlikning salmoqli shartnoma-huquqiy bazasi yaratildi.

Oliy darajadagi muntazam siyosiy muloqot O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi munosabatlar keng ko'lamda rivojlanishining muhim huquqiy asoslarini shakllantirdi. Ikki tomonlama aloqalar va hamkorlik tomonlarning teng huquqliligi asosida qaror topdi. O'tgan yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1993, 1995 va 2001 yillardagi, 2019 yilda Prezident Sh.M.Mirziyoevning Germaniyaga, Germaniya Prezidenti R.Gertsogning 1995 yilda, Kansler G.Shryoderning 2002 yilda, Frank-Valter Shtaynmayerning 2016 yil 30 martida Germaniya federal tashqi ishlar vaziri, 2019 yilda esa Prezident sifatidagi O'zbekistonga qilgan oliy darajadagi tashriflari ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni izchil rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Ayniqsa, so'nggi o'n yilliklarda birinchi marta rasmiy tashrif bo'lgan 2019 yil 20 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevni Germaniyaga tashrifi ikki va ko'p tomonlama aloqalarni mutlaq yangi sifat

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Хорижий давлатлар билан ҳамкорликка оид “ йўл хариталари” ижроси кўриб чиқилди. // Халқ сўзи. – 2019. 5 февраль.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Асосий вазирамиз-ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш. – Тошкент. Ўзбекистон. 2010. – Б. 18

<sup>3</sup> Туракулов Б., Якубова М. Узбекско-германские отношения // История международных отношений Республики Узбекистан: коллективная монография. – Ташкент: УМЭД, 2017. – С. 108.

bosqichiga ko'tardi<sup>1</sup>. Albatta, Germaniya Federal kantsleri Angela Merkel va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan muloqotlar turli shakllar, jumladan, onlayn videoanjuman formatida 2020, 2021 yillar ya'ni pandemiya davrida ham muntazamlik asosida davom etib, uni bartaraf etish masalalarida fikr almashib turildi.

So'nggi vaqtlarda xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishga qiziqsh ortibbormoqda. Bunda o'zaro davlatlararo munosabatlarni tadqiq etish alohida yo'nalish sifatida shakllanib ulgurdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumldan O'zbekiston va Germaniya munosabatlari tarixiga oid o'tgan o'ttiz yil davomida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Olimlar tomonidan monografiya va qo'llanmalar yaratildiki, bu o'zaro hamkorlik aloqlarini keng qamrovli o'rgnaish imkoniyatini ham bermoqda.

Agarda O'zbekiston – Germaniya munosabatlarini tarixshunoslik nuqtai nazaridan taxlil etadigan bo'lsak, mavjud materiallarni ikki guruxga bo'lib tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda birinchi guruxga mustaqillik davrida yaratilgan monografik adabiyot va ilmiy maqolalarni; Ikkinchi guruxga esa bevosita xorij olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlarni kiritish mumkin.

Birinchi guruxga kiruvchi adabiyotlar, avvalo, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy strategiyasi va omillari, xalqaro maydonga chiqishi, xalqaro munosabatlarning zamonaviy shaklini yaratishdagi o'rni hamda jahon hamjamiyati mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama olib borgan hamkorlik aloqalari masalalarini qamrab olgan. Ular orasida, eng avvalo, S. Sharapova<sup>2</sup>, E.Z. Nuriddinov<sup>3</sup>, A. Qirg'izboyev<sup>4</sup>,

---

<sup>1</sup> Оксаройда қабул // Халқ сўзи. – 2016. – 31 март

<sup>2</sup> Шарапова С. Ш. Внешняя политика Республики Узбекистан: культурно-исторический и социальный факторы. – Ташкент: Адолат, 2000;

<sup>3</sup> Нуриддинов Э. З. Нуриддинов Э. З. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан. Ташкент: Innovatsiya - Ziё, 2021. – 398 с.

Унинг ўзи: Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. – Ташкент: Чулпан, 2002. – 216 с.;

<sup>4</sup> Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент: Фан, 2004. – 280 б.;

L. Babaxodjaeva<sup>1</sup>, Sh. Ergashov<sup>2</sup>, A. Xolliyev<sup>3</sup>, S.A. Jo'raevlar<sup>4</sup> monografiyalarini tilga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, mamlakatning boshqa xorijiy davlatlar va tashkilotlar bilan olib borayotgan hamkorlik aloqalarini yoritishga bag'ishlab, M. Rahimov<sup>5</sup>, L. Hudoyqulova<sup>6</sup>, S.O'sarov, G'.Mirzayev<sup>7</sup> va boshqalarning ham tadqiqotlari mavjud. Mustaqillikning dastlabki yillarida yaratilgan ushbu mualliflarning ishlarida respublikamizning jahon hamjamiyatiga kirib borishi milliy mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Suningdek, ularda mamlakat tashqi siyosatining shakllanishi va rivojlanishi masalalari ko'rib chiqilgan va mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va ustuvor yo'nalishlari yoritib berilgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan bir qator monografik ishlarni ham tilga olish mumkin<sup>8</sup>.

Bevosita, O'zbekiston – Germaniya munosabatlari<sup>9</sup> va Xalqaro hamkorlik masalalarini yoritish bo'yicha E.Z. Nuriddinovning tadqiqotlari alohida o'rin egallaydi<sup>10</sup>. Xususan, uning “O'zbekiston Respublikasining

<sup>1</sup> Бабаходжаева Л. Международное культурно-гуманитарное сотрудничество Республики Узбекистан. – Ташкент: Фан, 2007. – 199 с.

<sup>2</sup> Эргашов Ш. Жаҳон тарихи. – Ташкент: Ўзбекистон, 2019. – 672 б.

<sup>3</sup> Гуломов Х. Г., Холлиев А. Г. Международные связи Республики Узбекистан с Великобританией и США (1991–2001гг). – Ташкент: Университет, 2002. – 118 с.;

<sup>4</sup> Жўраев С. А., Касымова Н. А. Актуальные вопросы современных международных отношений. – Ташкент: Академия, 2008. – 320 с.

<sup>5</sup> Рахимов М. Сотрудничество Республики Узбекистан со специализированными учреждениями ООН 1991-1999 гг. (на примере ЮНЕСКО): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2000. – 28 с.;

<sup>6</sup> Худайкулова Л. С. Интеграция Узбекистана в мировое сообщество на примере сотрудничества с Европейским Союзом. 1991–1999 гг. (Программа Тасис Темпус): Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент: НУУз, 2002. – 29 с.;

<sup>7</sup> Мирзаев Ф. Ўзбекистон – Туркменистон ҳамкорлиги.- Тошкент: “Инноватсия -Зиё”, 2021, - 178 б.

<sup>8</sup> Гуломов Х. Г., Холлиев А. Г. Международные связи Республики Узбекистан с Великобританией и США (1991–2001гг). – Ташкент: Университет, 2002. – 118 с.; Кирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент: Фан, 2004. – 280 б.; Далимов Р. Т., Махамбетова З., Худякова Н. К. Международная экономическая интеграция. – Ташкент: Университет, 2004. – 160 с.; ва бошқалар.

<sup>9</sup> Нуриддинов Э. З. Ўзбекистон ва Германия // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1998. – № 2. – Б. 17

<sup>10</sup> Нуриддинов Э. З. Становление нового типа экономических отношений Узбекистана с ведущими государствами Западной Европы // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1998. – №1. – С. 22–27; Унинг ўзи.; Унинг ўзи. Узбекистан – Чехия: плодотворное сотрудничество // Экономика и статистика. – Ташкент, 1998. – № 8. – С. 32; Унинг ўзи. Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолияти: асослари ва устувор йўналишлари // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2000. – № 4. – Б. 27–37; Унинг ўзи.

Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi” nomli monografiyasida ko‘plab daliliy materiallar asosida respublikaning Yevropa mamlakatlari bilan ko‘p tomonlama hamkorligi keng ko‘lamda yoritib berilgan. Shuningdek, uning yana bir tashqi siyosatga bag‘ishlangan monografiyasida O‘zbekiston Respublikasining Yevropa davlatlari, jumladan, Germaniya bilan hamkorlik aloqalariga oid ma’lumotlar ham berilgan<sup>1</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining Germaniya bilan hamkorligining ayrim qirralari hamda xalqaro hamkorlik masalalarining ayrim tomonlari ilmiy jurnal va to‘plamlarda chop etilgan maqolalarda ham o‘z aksini topgan<sup>2</sup>. Ikkinchi guruhga O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan o‘zaro aloqalari hamda Germaniya bilan munosabatlarning yuzaga kelish tarixi, taraqqiy etish yo‘li va bugungi kunda amalga oshirilayotgan integratsion jarayonlar masalalariga qaratilgan xorijlik mualliflarning ishlari kiritilgan.

Masalan, mustaqil O‘zbekistonning xalqaro maydondagi erishgan muvaffaqiyatlari hamda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi rivojlanishi haqida B. Roberson, N. Lyubin, D. Diker o‘z asarlarida fikr-mulohazalar yuritganlar<sup>3</sup>. Shu bilan birga ushbu mualliflar O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy va geostrategik ahamiyatiga alohida urg‘u berib o‘tganlar.

Evropa Ittifoqining shakllanishda Germaniya Federativ respublikasini o‘rni masalalari ham bir qator xorijlik olimlarning asarlarida o‘z aksini

---

Становление и приоритетное направление внешней политики Республики Узбекистан // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2002. – № 4. – С. 3–11. ва х.

<sup>1</sup> Нуриддинов Э. З. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан. Ташкент: Innovatsiya - Zie, 2021. – 398 с.

<sup>2</sup> Худойкулова Л. С. Формирование единого экономического пространства на примере ЕС // Экономический вестник Узбекистана. – Ташкент, 2001. – № 1,2. – С. 28–29; Муминова Г. Партнёрство Узбекистана и Европейского Союза отвечает обоюдным интересам // Халқаро муносабатлар. – Тошкент, 2001. – № 3. – Б. 54–58; Европа демократияси // Ҳаёт ва қонун. – Тошкент, 2002. – № 3,4. – С. 37; Алимов А. Ўзбекистонда ташқи савдо // Иқтисод ва Ҳисобот. – Тошкент, 1997. – № 7. – Б. 42–44; Таджихонов Б. Вхождение в мировое сообщество // Экономика и статистика. – Ташкент, 1997. – № 7. – С. 18–19; Мухамеджанов Г. Иностранные инвестиции // Экономика и статистика. – Ташкент, 1997. – № 10. – С. 21–23; Турсунов Қ. Европа Иттифоқининг Марказий Осиёдаги ташқи сиёсатидаги устувор йўналишлар // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2010. – № 1. – Б. 52–54.

<sup>3</sup> Қаранг: Lubin N. Central Asia: Issues and challenges for United States policy. The new geopolitics of Central Asia and its borderlands. Ed. By Ali Banuazizi and Myran Weiner. J. 8. Touris and Co. Ltd. – I. W. Y., 1994; Dyker D. A. Investment direction in prospects of Uzbekistan // Central Asia Newsiife. Chapter 4, 8. August-September, 1996; Roberson B. A. The Middle East and Europe. The Power deficur. Routledge. – London, 1998.

topgan<sup>1</sup>. Masalan, S. Pistoun va E. Uinstrich o‘zlarining kitoblarida Yevropa mamlakatlari XX asrning so‘nggi choragida Yevropa Ittifoqi doirasida siyosiy va iqtisodiy jihatdan integratsiyani jadal amalga oshirish yo‘llarini izlash va hayotga tadbiq etish jarayonlari ilmiy nuqtai nazardan ochib berilgan. Yaxshi bilamizki, so‘ngi yillarda Yevropa Ittifoqi, xususan Germaniyada turli inqirozlar ro‘y bermoqda. Ayniqsa, Germaniya uchun “Migratsiya inqirozi” uning Yevropadagi mavqeyiga ta’sir o‘tkazmay qolmadi<sup>2</sup>. Pandemiya esa butun insoniyat uchun ulkan sinov bo‘ldi.

Yevropada yuzaga kelayotgan yangi chaqiriqlar va ularning xavfi masalasida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning “Revolyutsiya” asarida ma’lumotlar va taxlillar berilgan. Ayniqsa, unda Yevropaning kelajagi bo‘yicha bergan fikrlari juda qimmatlidir<sup>3</sup>.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston-Germaniya munosabatlari oxirgi o‘ttiz yilda juda muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Yaratilgan huquqiy asoslar, iqtisodiy, madaniy va ilmiy sohalarda hamkorlik uchun muxim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ikki tomonlama munosabatlarga oid ilmiy tadqiqotlar ham yildan - yiga qo‘payib, o‘zaro munosabatlar darajasini ko‘rsatib bermoqda. Bu esa yangi avlod tadqiqotchilari uchun yangi tadqiqot yo‘nalishlarni ochilishiga xizmat qiladi.

## **ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПОДГОТОВКИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

**Н. А. Бердиева**  
**Исследователь Alfraganus University.**

<sup>1</sup> Ch.P.Kindleberger. European integration and international Cooperation, 1966; J.Pinder.Problems of European integration: Economic integration in Europe. – London, 1979; Pistone S. Altiero Spinelti and the strategy for the United States of Europe || The European Union: readings on the theory and practice of European integration | Ed. By V.Nelsen fnd A.Stubb. Bouldtr: Reinner, 1994: Wistrich E. The United States of Europe. – London: Routledge, 1994.

<sup>2</sup> Эргашов Ш. Жахон тарихи. – Ташкент: Ўзбекистон, 2019. – 672 б. Эргашов Ш. Жахон тарихи. – Ташкент: Ўзбекистон, 2019. – Б 4-5.

<sup>3</sup> Қаранг: Эммануэл Макрон. Революция. Ташкент: Ўзбекистон, 2019. – 208 б.

В Узбекистане проводится последовательная работа по реформированию системы образования путем подготовки высококвалифицированных кадров, соответствующих требованиям рынка труда. В целях совершенствования системы профессионального образования на основе передового зарубежного опыта, подготовки квалифицированных и конкурентоспособных кадров для рынка труда путем внедрения уровней начального, среднего и среднего специального профессионального образования, создаются в Республике Узбекистан, начиная с 2020–2021 учебного года<sup>1</sup>. В эпоху бывшего Советского Союза инженера-педагога для средних специальных техникумов и профессионально-технических училищ подготавливались с 1926 года в Московской сельскохозяйственной Академии имени Тимирязева. В 1934 году таких же специалистов начали подготавливать в Московском институте инженеров сельскохозяйственного производства имени В.П. Горячкина.

Образовательный процесс организован учебными планами, составленными каждым из этих институтов независимо друг от друга<sup>2</sup>. В связи с выбором наиболее целесообразной формы подготовки преподавателей для техникумов и средних специальных профессиональных училищ в отраслевых вузах, в конце 1930-х годов наметилась тенденция “педагогизации” отраслевых вузов, в частности включением в учебные планы факультативных психолого-педагогических дисциплин. В соответствии с новыми профилями специалистов народного хозяйства в 1933 году были приняты новые учебные планы для сельскохозяйственных и технических вузов. В

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан УФ-5812 от 6 сентября 2019 г. «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы профессионального образования». URL: <https://www.gov.uz/ru/news/view/24033> pic.twitter.com/R09X3UVNrO. Текст: электронный.

<sup>2</sup> Соколов, Б. А. Основные этапы развития инженерно-педагогического образования. Текст: непосредственный // История инженерно-педагогического образования: межвузовский сборник научных трудов. Москва, 1990. С. 3–10.

перечень учебных дисциплин был включен курс “Методика сельскохозяйственного образования”.

Основной его целью являлось знакомство студентов с “методикой преподавания сельскохозяйственных дисциплин и ведения технической пропаганды”. Так, в Московском институте инженеров сельскохозяйственного производства им. В.П. Горячкина изучали курс “Методика сельскохозяйственных знаний”. В учебном плане подготовки преподавателей на агропедагогическом отделении сельскохозяйственного вуза по специальности “Организация сельскохозяйственного производства” (1935–1936 гг.) в перечень дисциплин педагогического цикла входили “Методика преподавания и организация сельского хозяйства” и “Методика преподаваний в сельскохозяйственных техникумах экономических дисциплин и технического нормирования”<sup>1</sup>. Анализ системы подготовки инженеров-педагогов для техникумов и профессиональных училищ в период с 1930 по 1950 годы показывает, что она представляла следующий вид: – в специальных курсах и отделениях со сроком обучения с 3-х до 12 месяцев, функционировавших при высших учебных заведениях, учились в основном специалисты высшего и среднего специального образования, имеющие стаж педагогической работы; – в институтах специальной педагогической подготовки (срок обучения 3 года) принимались и учились специалисты со средним специальным образованием; – в разных институтах подготовки инженеров-педагогов (срок обучения 5 лет) осуществлялась факультетами и отделениями, принимавших выпускников со средним и со средним специальным образованием.

---

<sup>1</sup> Тенчурина, Л. З. Подготовка и повышение квалификации профессионально-педагогических кадров в России (1920–1990 г.г): учебное пособие. Москва: Высшая школа, 2000. 228 с. Текст: непосредственный.

Годами развития системы подготовки инженеров-педагогов в Республике Узбекистан считается конец 1950-х и начало 1960-х годов. В этот период начали функционировать при педагогических институтах инженерно-педагогические, в сельскохозяйственные институты агропедагогических факультетов<sup>1</sup>. В течении 1960–70-х годов по всему бывшему Союзу наблюдается заметный рост в организации институтов и факультетов, направленных на подготовку инженеров-педагогов, что отражается в увеличении количества индустриально-педагогических и инженерно-педагогических институтов и факультетов. В Республике Узбекистан подготовка инженеров-педагогов для средних специальных учебных заведений и профессионально-технических училищ начата в 1972 году в Бухарском институте легкой промышленности и пищевой технологии. С 1975 года в Ташкентском институте инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства начата подготовка инженеров-педагогов по специальности 1516 – «Сельское хозяйство» со сроком обучения 5 лет.

Окончившим институт по этой специальности присваивалась квалификация «инженер-педагог». На основе требований времени, под влиянием различных факторов введены разные изменения в учебные планы данной специальности, в число преподаваемых дисциплин, в их названия и в количество учебных часов, отводимых для их изучения. В период бывшего Союза до 1991 года подготовка инженерно-педагогических кадров во всех высших учебных заведениях руководствовалась учебно-нормативными документами единого образца, учебный процесс организовался на основе единого учебного плана. В 1992 году в Узбекистане началась подготовка инженеров-педагогов во многих вузах на основе единого учебного плана, утвержденного Министерством высшего и среднего

---

<sup>1</sup> Заплаткин, И. В. Подготовка инженерно-педагогических кадров в Узбекистане / И. В. Заплаткин, Х. С. Мадрахимов. Текст: непосредственный // История инженернопедагогического образования: межвузовский сборник научных трудов. Москва, 1990. С. 10–14.

специального образования Республики Узбекистан. Название специальности по учебному плану 03.02.00 – Профессиональное образование и технические дисциплины, специализация (по отраслям), квалификация бакалавр педагогических дисциплин. В 1999 году внедрены новые Государственные образовательные стандарты и учебные планы по подготовке бакалавров.

Согласно этому Государственному образовательному стандарту специальность обозначена в следующем виде: область знаний – 100000 «Образование», область образования – 160000 «Профессиональная педагогическая подготовка» (по отраслям). Внесены изменения в названия ряда психологопедагогических дисциплин и в часы, отводимые для их изучения. Начиная с 2000–2001 учебного года, для профессиональных колледжей подготавливались бакалавры направления образования 5140900 – Профессиональное образование (по отраслям), а с 2014 года по всем отраслям народного хозяйства подготавливаются преподаватели профессионального образования направления 5111000 – Профессиональное образование (по отраслям). В настоящее время в Республике Узбекистан преподавателей для системы профессионального образования готовят в разных институтах, университетах и ряде других педагогических институтов.

Содержание обучения психолого-педагогических дисциплин в вышеуказанных и других вузах организуется учебными планами, разработанными опорными вузами. По этой причине количество и содержание психолого-педагогических дисциплин, количество и сроки проведения педагогических практик в разных направлениях профессионального образования предусмотрено в учебных планах по разному и этот факт по нашему существенно влияет на качество профессионально-педагогической подготовки будущего

преподавателя профессионального образования. Поэтому назрела необходимость, рассмотреть вопрос об универсализации общей профессионально-педагогической подготовки преподавателей по направлению «Профессиональное образование» (по отраслям).

## **YANGI O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARNING YARATILISHI**

**Sh. F. Axmedov**  
**O‘zbekiston FA Tarix instituti**  
**tayanch doktoranti**

O‘zbekistonda uzoq yillar chorvachilik va veterinariya sohasi hukumat tomonidan e‘tibor berilmayotgan va o‘z navbatida orqada qolayotgan sohalardan biri bo‘lib keldi. Chorvachilik va veterinariya sohasini boshqarishda “vertikal boshqaruv” tizimi, shuningdek ushbu sohalarni rivojlantirish borasida yetarli darajada normativ-huquqiy hujjatlar mavjud emas edi. Bu borada 1991 yildan keyingi 25 yil davomida aynan chorvachilik yo‘nalishlarini va veterinariya sohasini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash borasida faqatgina 2 ta muhim qaror qabul qilinganligini aytish mumkin<sup>1</sup>. Bular 2006-yil 23-martdagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarni ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-308 son qaror<sup>2</sup> va 2008 yil 21-apreldagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollar ko‘paytirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-842-son qaror<sup>3</sup> lar edi.

---

<sup>1</sup> ЧОРВАЧИЛИК: ҚОЛОҚ ТАРМОҚДАН ИҚТИСОДИЁТНИНГ ДРАЙВЕРИГА АЙЛАНАЁТГАН СОҲА <https://www.youtube.com/watch?v=rEz23w-1-Pc>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-973793>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-1343149>

Yangi O'zbekistonda dastlab veterinariya sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, hayvonlarning sog'ligini saqlash bo'yicha samarali ishlarni tashkil etish, davlat veterinariya nazoratini kuchaytirish va veterinariya servis sifatini oshirish, epizootik osoyishtalikni va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan va raqobatdosh kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulot va xomashyo ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, veterinariya xizmati tizimini yanada rivojlantirish maqsadida 2017-yil 3-iyunda "Davlat veterinariya xizmati boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5067-sonli Prezident farmoni<sup>1</sup> qabul qilinib, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Davlat veterinariya bosh boshqarmasi negizida Davlat veterinariya qo'mitasi tashkil etildi. 2019-yilning 28-mart kuni esa "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5696-son farmoni<sup>2</sup> va "O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-4254-son qarori<sup>3</sup> qabul qilindi. Shu vaqtga qadar faoliyat yuritib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil etildi va uning asosiy vazifalari belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi va O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tizimiga kiruvchi tashkilotlar ro'yxati tasdiqlandi. 2022 yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-3225338?ONDATE=12.02.2022>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-4259331>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-4258732>

amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-269-son farmoni<sup>1</sup> ga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi shaklida qayta tashkil etilib, Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuriga o‘tkazildi.

Shuningdek, veterinariya va chorvachilik sohasida yuqori malakali, chuqur nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash borasida bir qator tizimli islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 maydagi PQ–3703 son qaroriga<sup>2</sup> asosan Samarqand veterinariya meditsinasi instituti tashkil etildi. Institutda rivojlangan xorijiy davlatlarning veterinariya va chorvachilik sohasi bo‘yicha ilg‘or tajribasini o‘rganish asosida davlat ta‘lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqildi. Keyinchalik esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yildagi 13 noyabrdagi 926-son qarori<sup>3</sup> bilan institutning Nukus va 2019 yil 3 oktyabrdagi 840-son qarori<sup>4</sup> Toshkent filiallari tashkil etildi. Institut faoliyati ko‘lamini kengaytirish, xalqaro nufuzini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni tizimli olib borish, innovatsion ta‘lim va texnologiyalar transferini qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish, ta‘lim va ishlab chiqarishni uzviy bog‘lash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 martdagi PQ-187-son qarori<sup>5</sup> bilan Samarqand veterinariya meditsinasi instituti negizida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti tashkil etildi.

2017 yildan keyingi islohotlar natijasida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va oziq-ovqat xavfsizligini taminlash borasidagi mavjud muammolar o‘z yechimini topib, chorvachilik respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘iga aylanib bormoqda. Bu borada dastlab, qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish,

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6324756>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/3725039>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-4058518>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/-4536805>

<sup>5</sup> <https://lex.uz/docs/-5933935>

chorvachilikda xususiy mulkning ustuvor ahamiyati va o'rnini ta'minlash, yaylovlardan samarali foydalanish, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish va raqobatdoshligini oshirish maqsadida 2017 yilning 16-mart kuni "Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori<sup>1</sup> qabul qilindi. Bu davrga kelib chorvachilik, baliqchilik fermer xo'jaliklari hamda tashkilotlarini yuqori sifatli ozuqa bilan ta'minlash borasidagi uzilishlar tufayli chorvachilik va baliqchilik mahsulotlari yetishtirish hajmlarining o'sish sur'atlari pastligicha qolayotgani va bu borada tarmoqlarning ozuqa bazasini tizimli asosda mustahkamlash, chorvachilik, baliqchilik xo'jaliklari va tashkilotlarini yuqori sifatli ozuqa bilan barqaror ta'minlash maqsadida 2017-yil 18-oktabrda "Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkasining 845-son qarori<sup>2</sup> qabul qilindi. Shuningdek, davlat resurslaridan bug'doyni chorvachilik va baliqchilik yo'nalishidagi tadbirkorlik subyektlariga ozuqa maqsadlari uchun sotish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. 2019 yilning 18 mart kuni "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4243-son qarori<sup>3</sup> qabul qilindi va Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi barcha xo'jalik subyektlariga va omixta yem ishlab chiqaruvchi korxonalariga ajratiladigan lalmi va yaylov yer uchastkalarida tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish uchun ozuqabop ekinlar yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tartibi joriy etildi. 2020 yil 29-yanvarida esa "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-3143826>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-3383854>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-4245443?ONDATE=19.03.2019>

Respublikasi Prezidentining PQ-4576-son qarori<sup>1</sup> qabul qilinib, Chorvachilik va uning tarmoqlarini rivojlantirish Respublika kengashi tashkil etildi. O‘zbekistonning alohida hududlarida chorvachilikni rivojlantirish bo‘yicha ham bir qator Prezident va hukumat qarorlari qabul qilindi<sup>2</sup>.

Chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish, chorvachilik xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, chorva ozuqa bazasini yanada ko‘paytirish, shuningdek, aholining yirik chorvachilik xo‘jaliklari va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchilar bilan hamkorlikdagi faoliyati asosida — kooperatsiya usulida o‘z xonadonlarida chorva mollarini boqishini tashkil etish va chorva ozuqa bazasiga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida 2022 yil 8-fevralda “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-121-son qarori<sup>3</sup> qabul qilindi. Shu bilan birgalikda aynan shu sanada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-120-son qarori<sup>4</sup> bilan O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturi tasdiqlandi.

2017 yildan keyin davrda chorvachilikda nafaqat qoramolchilik, balki qo‘ychilik-echkichilik, parrandachilik, baliqchilik, qorako‘lchilik, pillachilik, asalarichilik kabi boshqa muhim tarmoqlarning rivojlanishi kuzatilmoqda. Bunda ushbu yo‘nalishlarni rivojlantirish va davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash borasida o‘z vaqtida alohida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Birgina baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish, davlat tomonidan

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4717189>

<sup>2</sup> Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxtako‘pir, Qo‘ng‘irot va Qonliko‘l tumanlarida chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni keskin oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.03.2018 yildagi 188-son. <https://lex.uz/docs/-4870057> Toshkent viloyati Ohangaron tumanida chorvachilikni rivojlantirish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.10.2019 yildagi 890-son <https://lex.uz/docs/-4566016> // Qoraqalpog‘iston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 03.07.2020 yildagi PQ-4776-son <https://lex.uz/docs/-4881210> // 2022-2023-yillarda Buxoro viloyatida chorvachilik sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.03.2022 yildagi 98-son. <https://lex.uz/docs/-5896398>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5851475>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/-5858728>

qo'llab quvvatlash, boshqarish tizimini takomillashtirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar mahkamasining 10 ga yaqin muhim qarorlari<sup>1</sup> qabul qilindi. Parrandachilik sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab quvvatlash borasida esa 4 ta muhim Prezident qarori<sup>2</sup> qabul qilindi. Asalarichilik tarmog'ini rivojlantirish borasida ham alohida Prezident qarori qabul qilindi<sup>3</sup>. Chorvachilikning muhim yo'nalishlaridan hisoblangan Qorako'lchilik tarmog'ini rivojlantirish, qorako'lchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish bo'yicha ham muhim qarorlar qabul qilindi<sup>4</sup>. Yana bir tarmoq pillachilik tarmog'ini rivojlantirish, pilla yetishtirish va uni qayta ishlash jarayoniga zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni joriy etish borasida ham birin ketin muhim

---

<sup>1</sup> Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 01.05.2017 yildagi PQ-2939-son <https://lex.uz/docs/-3188263> // Baliqchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.09.2017 yildagi 719-son <https://lex.uz/docs/-3343140> // Chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.10.2017 yildagi 845-son <https://lex.uz/docs/-3383854> // Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 06.04.2018 yildagi PQ-3657-son <https://lex.uz/docs/-3642735> // Baliqchilik sohasidagi ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.07.2018 yildagi 606-son

<https://lex.uz/docs/-3844512> // Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 06.11.2018 yildagi PQ-4005-son <https://lex.uz/docs/-4046069> // Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 29.08.2020 yildagi PQ-4816-son <https://lex.uz/docs/-4975254> // Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida 13.01.2022 yildagi PQ-83-son <https://lex.uz/docs/-5821946>

<sup>2</sup> Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 13.11.2018 yildagi PQ-4015-son <https://lex.uz/docs/-4058735> // Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 14.06.2021 yildagi PQ-5146-son <https://lex.uz/docs/-5457613> // Parrandachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 24.01.2022 yildagi PQ-100-son <https://lex.uz/docs/-5836423> // Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 15.06.2022 yildagi PQ-281-son <https://lex.uz/docs/-6066678>

<sup>3</sup> Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 16.10.2017 yildagi PQ-3327-son. <https://lex.uz/docs/-3380814>

<sup>4</sup> Qorako'lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 14.03.2018 yildagi PQ-3603-son. <https://lex.uz/docs/-3587484> // Qorako'lchilik bilan shug'ullanadigan subyektlar tomonidan yetishtirilgan qo'y terisi, qorako'l terisi va junni xarid qilish, saqlash hamda qayta ishlash tashkilotlariga yetkazib berish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.08.2018 yildagi 649-son <https://lex.uz/docs/-3863876> // Qorako'lchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 16.08.2019 yildagi PQ-4420-son. <https://lex.uz/docs/-4476585> // O'zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako'lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida 02.09.2020 yildagi PF-6059-son <https://lex.uz/docs/-4980311> // Qorako'lchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 09.02.2021 yildagi PQ-4984-son <https://lex.uz/docs/-5275644>

qarorlar qabul qilindi<sup>1</sup>. Hattoki alohida O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi tashkil etildi <sup>2</sup>.

Chorvachilikdagi islohotlar natijasida 2022 yilning o‘zida chorvachilikda 1 ming 400 ta loyiha amalga oshirilib, qoramollar soni 14 million, qo‘y-echkilar soni 24 million boshga yetdi. Parrandachilik xo‘jaliklari soni 1 ming 300 tani tashkil etib, tuxum yetishtirish 4 foiz, go‘shtda 28 foiz oshgan. Baliqchilik yo‘nalishida 290 ta loyiha amalga oshirilib, 502 ming tonna tansiq go‘sh t yetishtirilgan. 27 ming tonna asal yetishtirildi <sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Pillachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 20.03.2018 yildagi PQ-3616-son. <https://lex.uz/docs/-4884803> // Respublikada pillachilik tarmog‘idagi mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 20.08.2018 yildagi PQ-3910-son <https://lex.uz/docs/-3874488> // Respublikada pillachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 04.12.2018 yildagi PQ-4047-son <https://lex.uz/docs/-4091989> // Pillachilik tarmog‘ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida 31.07.2019 yildagi PQ-4411-son <https://lex.uz/docs/-4456800> // Pillachilik tarmog‘ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 17.01.2020 yildagi PQ-4567-son <https://lex.uz/docs/-4704432> // O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 02.09.2020 yildagi PF-6059-son <https://lex.uz/docs/-4980311>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.11.2020 yildagi 705-son. <https://lex.uz/docs/-5090474>

<sup>3</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/6165>

O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari.

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2023 yil  
24 may. –Toshkent. 2023. – 209 b.